

HO 30485
2

ARQULOV, UJO'RAYEV

UZBEKISTON TARIXI 8



N.NORQULOV, U.JO'RAYEV

O'ZBEKISTON TARIXI

(XVI–XIX asrning birinchi yarmi)

Umumiy o'rta ta'lim maktablarining
8-sinfi uchun darslik

*O'zbekiston Respublikasi Xalq ta'limi
vazirligi tavsiya etgan*

**«SHARQ» NASHRIYOT-MATBAA
AKSIYADORLIK KOMPANIYASI
BOSH TAHRIRIYATI
TOSHKENT — 2004**

63.3 (59) 972

N-25

Tuzatilgan ikkinchi nashri


Uslubiy maslahatchi: tarix fanlari doktori,
professor **QAMARIDDIN USMONOV**

Taqrizchilar:

tarix fanlari nomzodlari **B.Mannonov, S.Mahkamov, S.Mirzaxo'jayev**,
Toshkent shahar Hamza tumanidagi 255-maktabning oliy toifali tarix
o'qituvchisi **Nigora Qurbonova**

Norqulov N., Jo'rayev U.

O'zbekiston tarixi (XVI—XIX asrning birinchi yarmi).
Umumiy o'rta ta'lim maktablarining 8-sinfi uchun dars-
lik. — T.: «Sharq», 2004. — 256 bet.



30485
VO 29,

63.3 (50')

«Sharq» hashriyot-mathaa aksiyadorlik kompaniyasi
Bosh tahririyati, 2004

S O' Z B O S H I

Aziz o'quvchi!

8-sinfda Siz Vatanimiz tarixining XVI asrdan XIX asrning o'rtalarigacha bo'lgan davrini qisqacha o'rganasiz. Unda Siz Shayboniylar davlatining tashkil topishi, shayboniylar bilan temuriylar o'rtasidagi kurashlar, Shayboniyxon va Bobur mirzo o'rtasidagi kurash voqealari bilan tanishasiz.

Ayni paytda O'rta Osiyoda ashtarxoniylar sulolasi hukmronligining qaror topishi, shayboniylar va ashtarxoniylar hukmronligi davrida ijtimoiy-siyosiy va davlat boshqaruvi, o'lkadagi iqtisodiy va madaniy taraqqiyotning ahvolini o'rganasiz.

Bundan tashqari, mamlakatning xonliklarga bo'linib ketishi, ularning ijtimoiy-siyosiy ahvoli va davlat boshqaruvi, aholisining etnik tarkibi, iqtisodiy va madaniy rivojlanish jarayonlari, xonliklar o'rtasidagi o'zaro munosabatlar tarixini, xonliklarning jahon hamjamiyati taraqqiyotidan orqada qolishi va uning sabablarini ham bilib olasiz. Shuningdek, Rossiya va O'rta Osiyo xonliklari o'rtasidagi munosabatlar jarayoni qanday kechganligi bilan tanishasiz. Bu munosabatlar rivoji jarayonida u yoki bu tomonning an'anaviy xalqaro munosabatlar qoidalariga rioya qilishi, o'z niyatlarini amalga oshirishda O'rta Osiyo xonliklari o'rtasida birlik, ahillik va hamkorlikning yo'qligi, aksincha, ular o'rtasida tinimsiz olib borilgan urushlar istilochilar uchun qulay imkoniyatlar yaratganligini bilib olasiz.

Vatanimiz tarixi faqat u yoki bu nom bilan ataladigan saltanat yoki davlatning vujudga kelishi hamda uning yemirilishi tarixidagina iborat emas. Vatanimiz tarixi ayni paytda ajdodlarimizning buyuk bunyodkorlik tarixi

hamdir. To'g'ri, XVI—XIX asrning birinchi yarmigacha bo'lgan davrda xalqimizning buyuk bunyodkorlik ishlari Amir Temur va temuriylar davridagiga qaraganda birmuncha bo'shashdi. Buning asosiy sababi siyosiy tarqoqlik bo'ldi. Temuriyzodalarning Amir Temurdan so'ng toju taxt uchun o'zaro kurashlari oqibatida ulkan davlat parchalanib ketdi. Shundan so'nggi butun tariximiz davomida hech kim (Abdullaxon II dan boshqa) qudratli markazlashgan yagona davlat tuzishning uddasidan chiqa olmadi. Buning asosiy sabablari bor, albatta. Bu qabilaviy mahdudlik, jahon hamjamiyatidan uzilib qolish oqibatida bo'ldi. Lekin, bundan Amir Temurdan keyin bunyodkorlik ishlari to'xtab qolgan ekan, degan xulosa chiqarilmasligi lozim. Bunyodkorlik ishlari XVI—XIX asrning birinchi yarmida ham davom etdi. Qo'lingizdagi kitob sizni ana shu kabi masolalardan ham voqif etadi.

Mamlakatimiz hududida Buxoro va Xiva xonliklaridan qariyb ikki yuz yil keyin tariximizda o'ziga xos iz qoldirgan Qo'qon xonligi vujudga kelgan edi. Bu hol biz so'z yuritayotgan davr tarixi konsepsiyasini va darslik tuzilishini belgilashda muhim o'rin tutdi. Undan foydalanayotganda shu jihatga e'tibor bering.

Birinchi bob

SHAYBONIYLAR HUKMRONLIGI DAVRIDA MOVAROUNNAHR

1-§. TEMURIYLAR DAVLATINING INQIROZI

Xurosondagi siyosiy ahval

Sizga ma'lumki, Amir Temur vafotidan so'ng toju taxt uchun olib borilgan ayovsiz kurashlarda Amir Temurning kenja o'g'li Shohrux g'olib chiqdi.

Shohrux hukmronligi davrida Temuriylar saltanati amalda ikki mustaqil davlatga bo'lib boshqarilgan. Ularning biri Xuroson davlati (poytaxti Hirot), ikkinchisi esa Movarounnahr davlati (poytaxti Samarqand) edi.

Xurosonda Shohrux hukmronlik qilgan. O'g'li Mirzo Ulug'bek esa Movarounnahrda. Shohrux uzoq vaqt hukmronlik qilsa-da, saltanatidagi o'zaro toju taxt uchun kurashlariga chek qo'ya olmagan.

Shohrux 1447-yili vafot etgach, bu kurash yanada avjiga chiqdi. Natijada, Xuroson davlati o'n bir qismga bo'linib ketgan. Ularning har biri o'zini mustaqil davlat deb hisoblar edi. Va nihoyat, 1458-yilda Amir Temurning uchinchi o'g'li Mironshohning nabirasi Sulton Abu Sa'id Temuriylar davlatini bir qadar birlashtirishga muvaffaq bo'ldi. Biroq, bu uzoqqa cho'zilmadi. 1469-yili Abu Sa'id g'arbda turkmanlar bilan urushda halok bo'lgach, Amir Temurning ikkinchi o'g'li Umarshayxning nabirasi Sulton Husayn Boyqaro Xuroson taxtini egallab oldi. Natijada, Temuriylar davlati yana ikki mustaqil davlatga bo'lindi.

Salkam 40 yil hukmronlik qilgan Sulton Husayn Boyqaro davri (1469—1506-yillarda hukmdor)da ham mamlakatda to'la osoyishtalik o'rnatilmadi. Shunday bo'lsa-da, Sulton Husayn hukmronligi davrida Xuroson

davlatining xo'jalik va madaniy hayoti ancha yuksak darajada rivojlangan. Mamlakat obodonchiligi yo'lida katta ishlar amalga oshirildi. Movarounnahrda nisbatan siyosiy barqarorlik ta'minlandi. Bunda Husayn Boyqaroning hukmdorlik salohiyati muhim o'rin tutdi. Vazir Alisher Navoiyning xizmatlari ham benihoya katta bo'ldi.

1506-yilda Sulton Husayn Boyqaro vafot etdi. Shundan keyin mamlakatda qo'shhokimiyatchilik vujudga keldi. Marhum sultonning ikki o'g'li (Badiuzzamon va Muzaffar Husayn mirzo)ni bir vaqtda hukmdor deb e'lon qilingan. Bu hol shuningsiz ham og'ir kunlarni kechirayotgan Xuroson davlatini to'la parokandalikka olib kelgan. Natijada, shayboniylar hujumi arafasida davlat inqirozga yuz tutgan.

Movarounnahrda siyosiy ahvol

Movarounnahr hukmdori Mirzo Ulug'bek 1449-yili otasi Shohruxdan ikki yil keyin fojijona halok bo'ldi. Taxtga o'g'li Abdullatif o'tiradi. Biroq, bu padarkushning hukmronligi atigi 6 yarim oy davom etgan, xolos.

1450-yili bir vaqtning o'zida ikki temuriyzoda: Shohruxning nabirasi Abdullo mirzo va Mironshohning nabirasi Sulton Abu Sa'idlar hukmdor deb e'lon qilindilar.

Natijada, toju taxt uchun ayovsiz kurash boshlanib ketdi. Bu kurashda Sulton Abu Sa'id (1451—1469) g'alaba qozondi. U 1469-yilda urushda halok bo'lgach, hokimiyatni uning ikki o'g'li: Sulton Ahmad (1469—1494), Sulton Mahmud (1494—1496) hamda nabiralari Boysung'ur mirzo (1496—1497) va Sultonali (1497—1500)lar boshqargan. Xullas, temuriylar hukmronligi davri oxirida o'zaro urush-talash oqibatida mamlakat to'la tanazzulga yuz tutgan.

XVI asr bo'sag'asida Temuriylar davlati taxti uchun kurash maydoniga Bobur mirzo ham chiqdi. Bu hol shuningsiz ham holdan toygan Temuriylar davlatini yanada zaiflashtirdi. Natijada, ko'pdan buyon Movarounnahrni egallashni o'z oldiga maqsad qilib qo'ygan



Sulton Husayn Boyqaro.

Dashti qipchoq qabilalari hukmdori Shayboniyxonning bosqinchilik yurishlarini boshlashi uchun qulay sharoit vujudga keldi.

Savol va topshiriqlar

1. Temuriylarning Xuroson va Movarounnahr davlatlari qay tariqa vujudga kelgan edi?
2. Shohrux Mirzo haqida bilganlaringizni so'zlab bering.
3. Shohrux Mirzoning Temuriylar davlatini ikkiga bo'lib boshqarishiga Siz qanday bahobergan bo'lur edingiz?
4. Xuroson taxti uchun olib borilgan kurash qanday kechganligi haqida so'zlab bering.
5. Movarounnahr va Xuroson davlatlarida vujudga kelgan siyosiy ahvolning o'xshash va farq qiladigan tomonlarini toping.
6. Siz mavzu matnidan qanday asosiy xulosa chiqargan bo'lur edingiz?

Balarni takrorlab boring:

- Amir Temurdan so'ng Temuriylar davlati amalda ikki mustaqil davlatga bo'lib boshqarildi;
- Shohrux vafotidan so'ng Xuroson davlati mayda bo'laklarga bo'linib ketdi;
- 1469-yilda Xuroson taxtini Husayn Boyqaro egalladi va davlatni birlashtirishga erishdi;
- Husayn Boyqaro hukmronligi davrida Xurosonning xo'jalik va madaniy hayoti yuksaldi;
- Husayn Boyqaro vafotidan so'ng boshlangan toju taxt kurashi oqibatida davlat parokandalikka yuz tutdi;
- Mirzo Ulug'bek vafotidan so'ng boshlangan temuriyzo-dalarning toju taxt uchun o'zaro kurashlari oqibatida Movarounnahr davlati tanazzulga yuz tuta bordi;
- Movarounnahrning tanazzulga yuz tuta borishi Dashti qipchoq qabilalari hukmdori Shayboniyxonning bu o'lkani egallashiga yo'l ochdi.

Hujjatlar tilga kirganda...

Shohrux haqidagi ayrim ma'lumotlar

- Amir Temurning to'rtinchi kenja o'g'li;
- 1397—1447-yillarda Movarounnahr va Xuroson hukmdori bo'lgan;
- 9 o'g'il va 6 qizning otasi edi. Uchinchi o'g'li Ulug'bek dunyoga buyuk olim bo'lib tanildi;
- Shohrux zamonida o'g'li Boysung'ur mirzo asos solgan nafis san'at nigorxonasi (badiiy akademiya) faoliyat ko'rsatgan. Mazkur nigoristonda ko'chirilgan «Qutadg'u bilik» (Yusuf Xos

Hojib), «Shohnoma» (Abulqosim Firdavsiy) nusxalari madaniyatimizning noyob yodgorliklari sanaladi.

Husayn Boyqaro haqida ayrim ma'lumotlar

- 1438-yilda tug'ilib 1506-yil vafot etgan;
- 14 yoshigacha maktabda o'qigan;
- 1452-yilda Xuroson hukmdori Abulqosim Bobur mirzo saroyiga xizmatga kirgan;
- 1457-yildan boshlab mamlakat siyosiy hayotida qatnasha boshlagan;
- 14 nafar o'g'il va 11 nafar qizning otasi bo'lgan;
- Husayn Boyqaro temuriy shahzodalar ichida jasoratli, mard, odil va tadbirkor saltanat sohibi bo'lgan. Uning davrida mamlakatda adolat barqaror bo'lib, Xuroson fuqarosi birmuncha osoyishta va farovon hayot kechirgan. Ilm-ma'rifat gullab-yashnagan. Zotan, bu davrga kelib Samarqandning avvalgi shon-shuhrati deyarli qolmagan edi.

*T. Fayziyevning «Husayn Boyqaroning sirli o'limi»
kitobidan (T., 1995).*

2-§. DASHTI QIPCHOQDA ABULXAYRXON DAVLATI

Dashti qipchoq

Dashti qipchoq umumiy nom bilan «qipchoqlar» deb atalgan ko'chmanchi turkiy tilli qabilalarning yurti bo'lgan. Yozma manbalarda bu nom XI asrdan boshlab tilga olinadi. Dashti qipchoq — bu, Sirdaryoning quyi oqimi, Balxash ko'lidan to Dnepr daryosining quyi oqimigacha bo'lgan geografik hududdir. Ayni paytda Dashti qipchoq chegaralari tarixiy voqealar jarayonida o'zgarib turgan. Bu chegaralar Kavkaz tog'lari, Qora va Kaspiy dengizlarigacha yetib borgan.

Dashti qipchoq ikki qismga — Sharqiy va G'arbiy qismlarga bo'lingan. Uning Sharqiy qismi O'rol daryosi va Sirdaryoning quyi oqimidan to Balxash ko'ligacha; G'arbiy qismi esa O'rol va Volga daryolaridan to Dneprgacha bo'lgan hududlarni o'z ichiga olgan. Qipchoqlar rus solnomalarida polovetslar, Vizantiya manbalarida kumonlar deb atalgan.

XIII asr oxiri va XIV—XVI asrlar tarixiy manbalari-da Dashti qipchoqning Sharqiy qismida yashagan qabilalar umumiy bir nom bilan o'zbeklar, yurt esa O'zbek ulusi deb tilga olinadi. Dashti qipchoq qabilalarining ko'pchilik qismi Oltin O'rda hukmdori O'zbekxon (1312—1341) davrida islom dinini qabul qilganlar.

Dashti qipchoq aholisi asosan chorvachilik bilan shug'ullangan. Vohalarda esa qisman dehqonchilik qilganlar. Hayvon terisidan turli buyumlar: palos, xurjun, namat tayyorlaganlar.

Dashti qipchoq iqtisodiy-siyosiy va ijtimoiy jihatdan qulay hudud bo'lgan. Chunki, bu yerlar orqali O'rta Osiyoni Sharqiy Yevropa bilan, birinchi navbatda Rus, Volgabo'yi bulg'orlari, Qozon, Astraxan va Qrim xonligi bilan bog'laydigan savdo yo'llari, shuningdek, Xitoy bilan O'rta Yer dengizini bog'lovchi Buyuk Ipak yo'li ham o'tar edi. Ayni paytda bu hudud aholisi qo'shni xalqlar bilan bevosita savdo-sotiq qilish imkoniyatiga ega edi.

Abulxayrxonning davlat tuzilish uchun kurashi

1236-yilda Chingizxonning nabirasi Botuxon Dashti qipchoqda tarixda Jo'chi ulusi nomi bilan mashhur bo'lgan Oltin O'rda davlatini barpo etdi. Oltin O'rda atamasi Botuxon hukmdorligi davridan boshlab butun Jo'chi ulusiga, XIV asrdan e'tiboran esa Oq O'rdaga nisbatan qo'llanilgan. Chunki, XIV asrning boshlarida Jo'chi ulusi ikki qismga bo'linib ketgach, uning Sharqiy qismida Oq O'rda davlati tashkil topgan edi. Bu davrda Oq O'rda — Botuxonning ulusi (Volgabo'yi) hamda ukalari — Berkaxon (Shimoli-sharqiy Kavkaz), Shaybon (G'arbiy Qozog'iston va G'arbiy Sibir) hamda Noval (Qora dengiz bo'yidagi yerlar) uluslaridan iborat bo'lgan.

Shayboniylar ulusi O'rol tog'ining janubiy etaklaridan to Tobol daryosi, Sirdaryoning quyi oqimi, Orol dengizining shimoliy sohili, shimolda esa Tumongacha bo'lgan hududlarni egallagan edi.

XV asrning 20-yillaridan boshlab Shayboniylar ulusi nihoyatda kuchaygan. Shu davrdan boshlab Jo'chining

beshinchi o'g'li Shaybon naslidan bo'lgan Abulxayrxon ibn Davlatshayx (1412—1468) Sharqiy Dashti qipchoqni egallab o'z davlatiga asos soldi.

1446-yilda Abulxayrxon Sirdaryoning o'rta oqimida joylashgan shaharlar — Sig'noq, Oqqo'rg'on, Arko'k, O'zgan va So'zoqni bosib oladi. O'z davlatining poytaxtini Turadan Sig'noqqa ko'chirdi.

1447-yilda Shohrux vafotidan xabar topgan Abulxayrxon Ulug'bekning Movarounnahrda yo'qligidan foydalanib, Samarqand atrofini talab ketadi.

Movarounnahr hukmdori Ulug'bek mirzo 1449-yilda fitna qurboni bo'lgach temuriylar o'rtasida Samarqand taxti uchun kurash yanada kuchaydi. Abulxayrxon fursatni boy bermay vaziyatdan foydalanishga harakat qiladi. U 1451-yilda Samarqandga yurish qilib o'ziga xayrxoh bo'lgan temuriyzoda Abu Sa'id sultonga (1451—1469) Samarqand taxtini egallashda yordam beradi. Abulxayrxon katta o'ljalar bilan o'z yurtiga qaytadi. Minnatdorchilik tariqasida Abu Sa'id sulton Ulug'bekning qizi Robiya Sultonbegimni Abulxayrxonga xotinlikka beradi.

Ammo, bu eng muhim hodisa emas edi. Eng muhim hodisa — bu, Abulxayrxonning 1451-yilgi yurishi natijasida Movarounnahr siyosiy hayotiga shayboniylar omilining olib kirilganligi bo'ldi. Shu davrdan boshlab ular bu yurtda o'z siyosiy mavqelariga ega bo'lib oldilar. Abulxayrxon keyin ham bir necha bor Movarounnahr ishlariga aralashdi. Shu orqali u Movarounnahrda borgan sayin o'z nufuzining ortishiga erisha olgan.

Abulxayrxon tomonidan tuzilgan davlat atigi 30 yil yashadi. 1468-yilda Abulxayrxon 57 yoshida vafot etishi bilan oq bu davlat inqirozga yuz tutdi. Buning asosiy sababi qabila boshliqlarining mustaqillikka intilishlari, o'zaro urushlarning avjiga chiqqanligi edi. Natijada, Abulxayrxon asos solgan davlat parchalanib ketdi.

Muhammad Shayboniy Muhammad Shayboniy Abulxayrxonning farzandi Budoq sultonning o'g'li edi. Budoq sultondan ikki o'g'il qolgan: Muhammad Shayboniy va Mahmud sulton. Shayboniy 1451-yilda tug'ilgan.

Shayboniyning bobosi Abulxayrxon saroyida ham turkiylar odatiga ko'ra tug'ilgan go'dakka ikki ism qo'yish urf bo'lgan. Ismlarning birinchisi islomiy (arab), ikkinchisi esa turkiy bo'lgan. Tug'ilganda Muhammad deb nom olgan Shayboniy ham o'zining ikkinchi nomi bilan mashhur bo'lgan. «Boburnoma» asarida Shayboniyning ismi Shayboqxon deb berilgan. Bu nom «kuchqudrat egasi» degan ma'noni anglatadi. Umuman olganda, Muhammad Shayboniyxon faqat xon bo'lmasdan, ayni paytda ilm-ma'rifat homiysi va o'zi ham didli ijodkor, shoir bo'lgan. Shu bois Shayboniyxon Shohbaxt, Shoyboq, Shoybek, Sheboni, Shohibek, Shayboniy taxalluslarda she'rlar yozgan.

Budoq sulton vafot etgandan so'ng Dashti qipchoqda kuchayib ketgan o'zaro ichki to'qnashuvlar oqibatida shahzodalar turli davlatlarga qochib ketganlar.

Otasi Budoq sulton va onasi Qo'zibegimdan yoshligida yetim qolgan Shayboniy esa otasining sodiq xizmatkori Qorachabek oilasida tarbiyalangan. Qorachabek bu shahzodaga otalarcha mehribonlik ko'rsatgan. Keyinchalik Shayboniyga nufuzli temuriy amirlardan bo'lmish Muhammad Mazid tarxon homiylik qildi. U Turkiston va O'tror hukmdori edi. Shayboniy ukasi bilan Turkistonda uzoq vaqt yashadi. Keyinchalik aka-uka Buxoroda yashab ilm o'rgandilar, she'riyat va ilmu fanga oshno bo'ldilar. Balog'atga yetgani sari Shayboniyxon ko'nglida bobosi Abulxayrxon davlatini, shayboniylarning qo'ldan ketgan shavkatini tiklash orzusi jo'sh urib bora boshladi. U Dashti qipchoqqa qaytib borib lashkar to'plashga muvaffaq bo'ladi. Ayni paytda, u buyuk davlatni tiklash yo'lidagi xatti-harakatini dastlab o'z qo'shini bilan temuriylarga yollanma qo'shin lashkarboshisi sifatida xizmat qilishdan boshlagan.

Dastlab Shayboniy parchalangan Amir Temur davlatining shimoliy chegarasida noyiblik qilayotgan homiysi Mazid tarxondan uni o'z xizmatiga olishni so'raydi. Avvaliga bu taklifga rozi bo'lgan Mazid tarxon tezda Shayboniyning o'z hokimiyatiga xavf solishi mumkinli-

gini anglab yetadi. Natijada, u Shayboniyni Buxoro hokimi Darvish Muhammad tarxon ixtiyoriga jo'natib yuborish orqali undan qutuladi. Chunki, Darvish Muhammad bunday yordam kuchiga muhtoj edi. Uning xizmatidan boshqa hukmdorlar ham foydalanganlar. Bir so'z bilan aytganda, Shayboniy o'z qo'shini bilan ham Mo'g'uliston, ham Movarounnahr, ham Xuroson hukmdorlariga xizmat qildi. Bu hukmdorlar Shayboniy xizmatidan o'zlarining qo'shnilariga ham ichki isyonchi raqiblariga qarshi kurashda foydalanganlar. Bu kurashlarda Shayboniy o'zining mohir lashkarboshilik qobiliyatini namoyon qiladi. Turli hukmdorlarga xizmat qilish Shayboniyga Temuriylar davlatidagi vaziyatni yaxshi bilib olishiga imkon berdi. Shayboniyning xizmatidan eng ko'p manfaat ko'rganlar Movarounnahr hukmdorlari va zodagonlari edilar. Shuning uchun ham Shayboniy Movarounnahr zodagonlari orasida mashhur bo'lib ketgan edi.

Shayboniy yollanma qo'shin boshlig'idan xon darajasiga ko'tarilgan tarixiy shaxsdir. Shayboniy bobosi Abulxayrxon vafotidan keyin parokanda bo'lib ketgan qabilalarni birlashtirdi va beayov qonli urushlar natijasida 1480-yilda o'zbeklar davlatini qayta tiklashga muvaffaq bo'ladi. Vaqt o'tib u XV asrning 90-yillarida Sayram, O'tror va Turkiston shaharlarini egallagan va shu tariqa Movarounnahr biqinida mustahkamlanib olgan. Sirdaryo bo'ylaridagi qo'rg'onlarni ham egallaydi. Bu qo'rg'onlar kelgusida unga Movarounnahrni istilo qilish uchun tayanch vazifasini o'tagan.

Savol va topshiriqlar

1. Dashti qipchoq deganda qaysi geografik hudud tushuniladi?
2. Abulxayrxon davlati qachon vujudga keldi?
3. Abulxayrxonning temuriy hukmdorlar bilan munosabati haqida nima bilasiz?
4. Shayboniy qanday qilib tarix sahnasiga chiqdi?
5. Shayboniy qanday sabablarga ko'ra Movarounnahrni egallamasdan turib ham bu yerda mashhur bo'lib ketgan edi?

Bularni takrorlab boring:

- Qipchoqlar rus solnomalarida polovetslar deb, Vizantiya manbalarida esa kumonlar deb atalgan;
- Dashti qipchoqning Sharqiy qismida yashagan turkiy qabilalar umumiy nom bilan o'zbeklar deb atalgan;
- XV asrning yigirmanchi yillarida Abulxayrxon Sharqiy Dashti qipchoqda o'z davlatiga asos solgan;
- XV asrning 40-yillaridan boshlab Abulxayrxon Movarounnahr ichki ishlariga aralasha boshlagan va shu tariqa bu yerda o'z siyosiy nufuzining ortishiga erishgan;
- Abulxayrxon vafot etgach toju taxt uchun boshlangan kurash natijasida uning davlati parchalangan;
- 1480-yilda Muhammad Shayboniynon qattiq janglardan so'ng bobosi Abulxayrxon asos solgan davlatni tiklashga erishgan.

3—4-§§. BOBURNING HOKIMIYAT TEPASIGA KELISHI

Boburning taxtga chiqishi

Bobur Amir Temurning uchinchi o'g'li Mironshoh mirzoning chevarasi edi. U

1483-yilning 14-fevralida Andijonda tug'ilgan. Otasi Umarshayx mirzo 1456-yilda Samarqandda tug'ilgan. Onasi Qutluq Nigorxonim Toshkent xoni Yunusxonning ikkinchi qizi edi. Otasi vafotidan so'ng, 1494-yilning 10-iyun kuni 12 yoshli Bobur mirzo Farg'ona hukmdori sifatida taxtga o'tiradi. Biroq, yosh Bobur dastlab ishlarini asosan ishonchli bekлар hamda buvisi Eson Davlatbegim (Qutlug' Nigorxonimning onasi) yordamida boshqardi.

XV asrning 90-yillarida mamlakatda harbiy-siyosiy vaziyat og'ir edi. 1494-yilda Movarounnahr hukmdori (Sulton Abu Sa'idning katta o'g'li) Bobur mirzoning amakisi Sulton Ahmad mirzo (1451—1494) Farg'ona ustiga yurish boshladi. Samarqand qo'shini Quvasoy ko'prigidan o'tayotganda falokat yuz beradi. Ko'prikinib, natijada ko'p kishi suvga g'arq bo'ladi. Buning ustiga otlarga o'lat tegadi. Dushman qo'shini orasida vahima va sarosimalik ham boshlandi. Ayni paytda mahalliy xalq bosqinchilarga qaqshatqich zarba bera boshladi. Chorasiz qolgan Sulton Ahmad mirzo sulh tuzishga rozi bo'lib Samarqandga qaytib ketadi.

Amakisining orqaga qaytganini eshitib, Bobur mirzo xursand bo'ldi. Lekin, uning quvonchi uzoqqa cho'zil-madi. Oradan ko'p vaqt o'tmay Toshkent hukmdori — tog'asi Sulton Mahmudxon Farg'ona ustiga yurish boshlagani va Aysi qo'rg'onini qamal qilgani haqida xabar keladi. Biroq, Sulton Mahmudga ham omad kulib boq-madi. U qanchalik urinmasin, Axsini olishga qurbi yet-madi. Aysi himoyachilarining mardonavor kurashayot-ganini ko'rgan Sulton Mahmudxon ham Toshkentga qaytishga majbur bo'ldi.

Bobur mirzoning Samarqand Sulton Ahmad mirzo
tartini egallashi Samarqandga yetmasidan
yo'lda to'satdan vafot etadi.

1494-yil iyul oyida taxtini ukasi Sulton Mahmud mirzo egallaydi. 1495-yilning yanvarida esa Samarqand taxtiga temuriyzoda Sulton Mahmud mirzoning ikkinchi o'g'li Boysung'ur mirzo (1479—1499) o'tqazildi. Shunday qilib, Bobur mirzo Samarqand taxtini egallashi arafasida Andijonda Bobur mirzo, Samarqandda Boysung'ur mirzo, Toshkentda Sulton Mahmudxon, Hirotida esa temuriy hukmdorlarning eng qudratlisi Sulton Husayn Boyqaro hukmron edilar.

Bobur mirzo ham barcha taxt da'vogarlariga xos xususiyatlardan xoli emasdi. U ham saltanat tuzish, bu-ning uchun, avvalo, ulug' bobosi Amir Temur saltana-ting markazi — Samarqand taxtini egallash ishtiyoqi bilan yonar edi.

Tez orada Boysung'ur mirzo bilan ukasi Sultonali mirzo o'rtasida toju taxt uchun kurash boshlandi. Bundan xabar topgan Bobur mirzo 1496-yilning 17-iyu-nida qo'shini bilan Samarqand qamaliga tutinadi. Qamalda Boysung'urga qarshi akasi Buxoro hukmdori Sulton Mas'ud mirzo (1475—1506) va inisi Qarshi hukmdori Sultonali mirzo (1483—1500)lar ham qo'l ko'tardilar. Ayni paytda, Bobur mirzo tog'asi — Toshkent hukmdori Sulton Mahmudxondan yordam oladi. Biroq, qish yaqinlashib qolganligi tufayli ittifoqchi shahzodalar Samarqand qamalini to'xtatib, yurtlariga qaytishga majbur bo'ldilar.

1497-yilning may oyida Bobur mirzo ikkinchi marta Samarqandga yurish boshlaydi va Boysung'urni qal'aga yashirinishga majbur etadi. Shunday qilib, ikkinchi marta Samarqand qamali boshlanadi. Bu vaqtda shahar ichida oziq-ovqat tanqisligi vujudga kelgani tufayli Boysung'ur mirzo askarlari orasida parokandalik ro'y beradi. Qamalga bardosh berishga ko'zi yetmagan Boysung'ur mirzo Turkistonda (Yassida) turgan Shayboniyxondan yordam so'raydi. Shayboniyxon qulay fursatdan foydalanib, tez orada Samarqandga kelib, Bobur mirzo qarorgohining ro'parasiga joylashadi. Bu hol Bobur mirzo va uning ittifoqchilarini sarosimaga solib qo'ydi. Buning ustiga Bobur mirzoning askarlari sovuqdan qochib tevarak-atrofdagi qishloqlarga tarqalib ketgan edi. Oz sonli lashkar bilan Shayboniyga yuzmayuz kelish xatarli edi. Lekin, bundan boshqa yo'l ham yo'q edi. Shuning uchun ham Bobur mirzo bor askari bilan dushmanga qarshi chiqishga majbur bo'ldi. Kutilmaganda Shayboniyxon shahar ichkarisiga qarab yurdi, biroq, Boysung'ur uni shaharga kiritmadi. Boysung'ur uni shahar tashqarisida bo'ladigan jangda ittifoqchi bo'lishga taklif qilgan edi. Bundan ranjigan Shayboniyxon qo'shini bilan Turkistonga qaytib ketdi. Shunday bo'lsa-da, Shayboniyning Samarqandga kelishi behuda ketmadi. U bu yerga yana qaytishni, qaytganda ham qanday kuch bilan qaytishi zarurligini bilib qaytdi. Ikkinchidan, u temuriyzodalarning ahvoli o'zaro urushlar oqibatida, nochor holatga tushib qolganligini ko'rib qaytdi.

Samarqand qamali 7 oydan ziyod davom etdi. Shayboniyxondan yordam ololmagan Boysung'ur mirzo kam sonli qo'shini va yaqinlari bilan Qunduz hukmdori Xusravshoh huzuriga qochdi.

Boysung'ur mirzoning qochib ketganligini eshitgan Bobur mirzo 1497-yilning noyabr oyi oxirida Samarqand taxtini egallashga muvaffaq bo'ldi. U Temur taxtining haqiqiy sohibi deb e'lon qilindi. Biroq, bu hol uzoqqa bormadi.

Bu paytda Boburning Andijonga yuborgan ishonchli

begi Uzun Hasan Boburning dushmani Ahmad Tanbal bilan til biriktirib, uning inisi Jahongir mirzoni Andijon taxtiga o'tqazish harakatiga tushgan edilar. Ular o'z maqsadlariga erishdilar ham. Vujudga kelgan harbiy-siyosiy tanglikni tushungan Bobur mirzo qanday bo'lmasin Andijonni saqlab qolishga qaror qildi va Samarqandga o'z beklaridan birini qo'yib Andijonga yurish boshlashga majbur bo'ldi. Bu orada Samarqand taxtini Boysung'urning ukasi Sultonali mirzo egalladi.

Ayni paytda Bobur mirzoning kichik ukasi Nosir mirzo Andijonga hujum qiladi va Uzun Hasan hokimiyatiga barham beradi hamda hokimiyatni akasi Bobur mirzoga topshiradi. Biroq, vaziyat yaxshi emas edi. Jahongir mirzo taxt da'vosidan voz kechmagan, Ahmad Tanbal esa uni hamon qo'llab-quvvatlayotgan edi. Nihoyat, 1500-yil fevral oyida Bobur mirzo bilan Jahongir mirzo o'rtasida sulh tuzildi. Unga ko'ra Sirdaryoning shimoliy tarafi, Asxi shahri bilan qo'shib Jahongir mirzoga va daryoning janubiy tomoni, Andijon shahri bilan qo'shib Bobur mirzoga berildi.

Bobur va Shayboniynon munosabatlari

Shayboniynonning asosiy maqsadi Temuriylar saltanatiga butunlay barham berish

edi. Bobur mirzo bilan uning o'rtasidagi munosabat Shayboniynonning ana shu niyatini yaqqol ko'rsatib beradi. Shayboniynon 1500-yilda Samarqandni urushsiz egalladi. Bundan xabar topgan Bobur mirzo qayg'uga botdi. Bu safar ham orada xiyonat borligi uni chuqur iztirobga soldi.

Shayboniynon Samarqandni egallagach, Sultonali mirzoni qatl ettirdi. Bobur mirzo esa voqealarning borishini ziyraklik bilan kuzatib turdi.

Ko'chmanchilarning mahalliy xalqqa o'tkazgan zulmi samarqandliklar va tevarak atrofdagi tumanlarda yashovchi aholi o'rtasida norozilik harakatlarining kuchayishiga sabab bo'ldi. Samarqand xalqi shayxulislom Abulmakorim boshchiligida ko'chmanchilar asoratidan qutulish chorasini izladilar va Bobur mirzoni Samarqand taxtini egallashga da'vat etdilar. Sulolasi manfaatiga



sadoqatli bo'lgan Bobur mirzo 1500-yilning kuzida Samarqandga yurish boshladi. Bu paytda Shayboniyxon Samarqanddan tashqarida — Konigilda (shahardan tashqaridagi hukmdorlar hordiq chiqaradigan joy) turar edi. Oxiri Samarqandning darvozasi Bobur mirzoga ochib berildi va uning qo'shini shiddat bilan hujum qilib Shayboniyxonning bu yerda qoldirib ketgan 600 kishilik askarini qirib tashladi. Shunday qilib, Bobur mirzo Samarqand taxtini ikkinchi marta egalladi.

Shayboniyxon bu voqeani eshitgach, bo'lajak hal qiluvchi jangga tayyorgarlik ko'ra boshladi. Bobur mirzo ham qish bo'yi urushga jiddiy tayyorgarlik ko'rdi. Bu galgi urush hal qiluvchi urushligini bilib Andijon, Toshkent, Hisor, Hirot va boshqa yerlarga yordam yuborishlarini so'rab elchilar yubordi. Biroq, Hirot hukmdori Sulton Husayn Boyqaro va uning o'g'li Badiuzzamonlardan yordam kelmadi. 1501-yilda yuz bergan bu og'ir urushda Bobur mirzo yengildi. U tajribasizlik qildi. Bundan tashqari, Xuzor (G'uzor) va Toshkentdan kelayotgan yordamni kutmay jangga kirgan edi. Toshkent qo'shini jang maydoniga yaqinlashay deb qolgan kuni mag'lubiyatga uchradi. Shayboniyxon Bobur mirzoga sulh taklif qildi. Bobur mirzo hech qayerdan yordam ololmagach, noiloj, sulhga rozi bo'ldi. Sulh shartlari Bobur mirzo uchun juda haqoratli bo'lsa-da, unga rozi bo'lmaslikdan boshqa chorasi yo'q edi.

Og'ir va nochor ahvolga tushib qolgan Bobur Samarqandni tark etib ko'p mashaqqatlarni boshdan kechirib o'zga yurtlarga ketishga majbur bo'ldi. Bobur mirzoning qizi Gulbadanbegim (1523—1603-yillarda yashagan) o'zining «Humoyunnoma» asarida bu haqda quyidagilarni yozgan edi: «To'liq o'n bir yil davomida Movarounnahr o'lkasida, chig'atoy, temuriy va o'zbek sultonlari bilan shunday janglar bo'ldiki, ularning sanog'ini batafsil bayon qilishga qalam tili ojiz va nuqsonlidir. Oxiri xayrxohlari va qarindoshlari — jami 250 ga yaqin kishi, piyoda, yelkalarida chopon, oyoqlarida choriq, qo'llarida tayoq bo'lgani holda beyarog', xudoga tavakkal qilib Badaxshon va Kobulga qarab yo'l oldilar».

Bobur mirzo Kobulga o'tib, bu yerda 1504-yilning sentabr oyida hokimiyatni qo'lga kiritdi.

1510-yili Shayboniyxon Marv yonida bo'lgan jangda Eron hukmdori Ismoil Safaviy tomonidan o'ldirildi. Endi, Bobur mirzo qalbida shoh Ismoil yordamida Movarounnahrni qaytarib olish umidi paydo bo'ldi. Ana shu niyatda u shoh Ismoil elchisini Kobulda juda ochiq chehra bilan kutib oldi. Elchilar shoh Ismoil Bobur mirzoga birgalikda Samarqandga qo'shin tortishni taklif qilganligini aytadilar. Bobur mirzo bu taklifni qabul qildi.

Bobur 1512-yili shoh Ismoil yordamida Samarqandni uchinchi marta qo'lga kiritdi. Ammo, bu safar Samarqand xalqi uni qo'llab-quvvatlamadi. Uni shoh Ismoilning qo'g'irchoq gumashtasi sifatida qabul qildi. Bunga Bobur mirzoning yo'l qo'yan xatolari va xatti-harakatlari asosiy sabab bo'ldi. Bobur oilasiga aqida-parastlik begona edi.

Albatta, bu hol sunniylar mazhabidagi Movarounnahr aholisining g'azabini qo'zg'atdi. Bunday qulay fursatdan foydalangan va xalq ommasining kayfiyatini to'g'ri hisobga olgan Shayboniyxon avlodi Ubaydulla sulton bilan Muhammad Temur sultonlar boshqa mahalliy sultonlarning yordamiga tayanib, 1512-yilning boshlarida katta qo'shin bilan Movarounnahrqa bostirib kirdilar. Samarqandda sakkiz oy hukmronlik qilgan Bobur mirzo Hisorga qochdi. Shayboniyxon avlodlari Samarqandni uzil-kesil egalladilar. Shoh Ismoil Boburga yordam berish maqsadida o'zining nomdor sarkardalaridan amir Ahmad (laqabi «Najmi soniy», ya'ni ikkinchi yulduz) boshchiligida qo'shin yubordi. Biroq, kutilmaganda u o'zbek sultonlarining hujumiga duch keldi va tez orada yakson qilindi. Bu jangda Najmi soniyning o'zi o'ldirildi. Eron armiyasidan ozgina qismi qochib ulgurdi. Bobur endi Movarounnahrda tamoman umidini uzib yana Kobulga qaytdi va 1526-yilga qadar Kobulni idora qildi. So'ngra Kobulni ikkinchi o'g'li Komron mirzoga qoldirib, o'zi Hindiston sari yurish boshladi va buyuk boburiylar sulolasi saltanatiga asos soldi.

Qudratli va shavkatli saltanat egasi bo'lganidayam Vatan xayoli, ayriliq alami Boburni aslo tark etmagan.

Ana shunday alamli kunlarning birida u quyidagi hasratli satrlarni bitgan edi:

*Tole' yo'qi jonimga balolig' bo'ldi,
Har ishniki ayladim, xatolig' bo'ldi.
O'z yerni qo'yib, Hind sori yuzlandim,
Yo rab, netayin, ne yuzqarolig' bo'ldi.*

Savol va topshiriqlar

1. Zahiriddin Muhammad Boburning hayoti haqida so'zlang.
2. Qanday omillar Shayboniyxonga Samarqandni egallash imkonini berdi?
3. Bobur 1512-yilda Samarqandni yana egallaganida nega Movarounnahr aholisi uni qo'llab-quvvatlamadi?
4. «Dunyo dinlari tarixi» qo'llanmasidan islomdagi sunniy va shia mazhablari haqidagi ma'lumotlarni o'rganing.
5. Boburning vatanni qo'rsab yozgan she'rini yod oling va «Vatan sajdagoh kabi muqaddasdir» mavzuida axborot tayyorlang.

Bularni takrorlab boring:

- 12 yoshli Bobur mirzo 1494-yilda Farg'ona hukmdori taxtiga o'tirdi;
- 1497-yilda Bobur mirzo Samarqand taxtini birinchi bor egalladi;
- Muhammad Shayboniyxon 1500-yilda Samarqandni egalladi;
- 1500-yil kuzida Bobur mirzo Samarqandni ikkinchi bor egalladi;
- 1512-yilda Bobur mirzo Samarqandni shoh Ismoil qo'shini yordamida uchinchi bor egalladi; biroq, bu safar Movarounnahr aholisi Boburni qo'llab-quvvatlamadi;
- Shayboniylar qo'shinidan yengilgan Bobur mirzo 1513-yilda Movarounnahrnı butunlay tark etadi.

5-§. ZAHIRIDDIN MUHAMMAD BOBUR

Bobur — davlat arbobi Bobur 1526-yilning 21-aprelda Dehli hukmdori Ibrohim

Lo'diy qo'shinlarini tor-mor keltirdi. Bu g'alaba natijasi-da Bobur Shimoliy Hindistonni egalladi. 1526-yilning 27-aprelida Dehli shahrida Bobur podshoh nomiga xutba o'qildi. Shu tariqa, yangi saltanat — Boburiylar saltanatiga asos solinadi.

Bobur podshoh Hindistonda bir-biri bilan dushmanlik kayfiyatida bo'lgan mayda mustaqil rojalarni (hukmdorlarni) ham qilich, ham siyosat yo'li bilan birlashtiradi va 1530-yilgacha markazlashgan yirik saltanatini barpo etadi. Bu saltanat 332 yil (1526—1858-yillar), ya'ni Hindistonni Buyuk Britaniya to'liq bosib olgunga qadar hukm surdi.

Chet ellarda, shu jumladan, Hindistonning o'zida ham Bobur podshohni va uning avlodlarini «Buyuk mo'g'ullar» deb atashgan. Bu mutlaqo xato. Aslida, «Buyuk mo'g'ullar» degan ibora Chingizxon va undan keyingi mo'g'ul hukmdorlariga taalluqlidir.

Boburiylar yurtdoshimiz, temuriyzoda Boburning avlodlaridir. Ular tarixiy hujjatlarda o'zlarini «Boburiy mirzolar» deb yuritishgan. Boburiylarning mo'g'ullar deb xato atalishiga yevropaliklarning Amir Temurni va temuriylarni mo'g'ullardan tarqalgan deb noto'g'ri hisoblashlari sabab bo'lgan.

So'nggi yillarda «Buyuk mo'g'ullar» deb atalgan ibora o'rnida «Boburiylar» iborasi qo'llanilishi bilan tarixiy haqiqat tiklandi.

Bobur podshoh 1530-yilning 26-dekabrda 47 yoshida vafot etadi. Uni Agra shahrida Jamna daryosi yonidagi Bog'i Oromga dafn etadilar. Uning vasiyatiga ko'ra, bir necha yildan so'ng Bobur podshoh jasadi Kobuldagi Bog'i Kalonga ko'chiriladi. Bu bog'ni Bobur podshohning o'zi katta mehr bilan obod qilgan edi. Keyinchalik bu bog' Bog'i Bobur deb atala boshlagan.

Yosh Bobur mirzoning ota taxtiga o'tirish davri Movarounnahrda siyosiy tarqoqlik kuchaygan, o'zaro qonli urushlar avjiga chiqqan davrga to'g'ri keldi. Zero, o'sha davrdagi tarixiy sharoit Bobur mirzoni ham bu qonli kurashlar girdobiga tortdi.

Zahiriddin Muhammad Bobur kurashdi, mag'lubiyatga uchradi, katta g'alabalarga erishdi. Og'ir qismat o'rmini katta baxt, shon-shavkat egalladi. Bularning bari-ga Bobur podshoh sabr-qanoat, aql-zakovat, jasorat, halollik, odillik salohiyati bilan erishdi. **U Hindistonda buyuk saltanatga asos soldi.** Bobur podshohning buyuk-ligi ham ana shundadir.

Bobur Sharq mamlakatlari taxtiga munosib hukm-dorlarning yorqin namoyondalaridan biridir.

Uning shaxsi olijanob inson va ulug' hukmdorga xos fazilatlardan tarkib topgan edi. Ko'ngli ochiq va beg'araz, ayni paytda yoshlik g'ayrati va shijoati hech qachon tark etmagan, bag'ri keng, qarindoshlari va do'stlari haqida doim g'amxo'r edi. Shuningdek, fuqaro-larning tashvishlariga hamdardlik ko'rsata olgan saxovat-pesha hukmdor ham edi.

Bobur podshohning buyuk saltanat yaratish yo'lida olib borgan jangu jadallari uni tinchlikni ta'minlash va qadrlash hissidan mahrum etmagan. Bobur bobokaloni Amir Temurdek bunyodkorlik ishlariga katta e'tibor bilan qaragan davlat arbobi edi.

Bobur podshoh bilimga chanqoq buyuk davlat ar-bobi bo'lganligi uchun ham bilim olishga intilganlarga hamisha otalarcha g'amxo'rlik qilgan. Uning o'zi ham ajoyib olim, turkiy nazmda asarlar bitgan Alisher Navoiydan keyin turadigan tengi yo'q shoir, yirik bas-takor edi. Bobur podshoh o'zining «Boburnoma» ham-da «Mubayyin», «Turkiy devon» kabi asarlari bilan mashhur ijodkor hamdir. **«Boburnoma» asari O'rta Osiyo tarixini, Hindiston tarixini to'g'ri aks ettirgan asardir.**

Bobur podshoh davlat ishlarini yuritishda masalaning



Zahiriddin Muhammad Bobur.

iloji boricha tinch vositalar va adolat yo'li bilan hal qilinishiga intilgan. Kimki unga bosh egib kelgan bo'lsa uning gunohidan o'tgan. Kimki Bobur podshoh hokimiyatini tan olgan bo'lsa unga o'zi egalik qilib turgan hudud in'om etilgan, o'zi o'sha hudud hukmdorligida qoldirilgan. Hindiston hukmronligi yillarida turli dinga mansub xalqlarning diniy e'tiqodini, urf-odatlarini kamsitmagan, aksincha, hurmat bilan qaragan.

Bobur podshoh har bir davlat arbobiga, amirlarga, lashkarlarga xizmatiga va mavqeiga yarasha muruvvat ko'rsatgan.

Shuningdek, Bobur podshoh unga hamroh, safdosh bo'lgan arboblardan kimki o'z vataniga qaytishini istagan bo'lsa, ularning ra'yini qaytarmay, ularga ruxsat bergan, ayni paytda xizmatlariga yarasha muruvvat ham ko'rsatgan.

Bobur podshoh ayni paytda fitnaga, munofiqlikka, xoinlikka toqat qila olmas, bunday ishga qo'l urganlarni beayov jazolar edi. O'limi oldidan Bobur podshohning o'z vorisi, o'g'li Humoyunga eng avvalo o'zi hukmron bo'lgan yerda qunt va halollik bilan siyosat olib borishni, aybdorlarni jazolashda aybidan pushaymon bo'lganlarga nisbatan shafqatli va saxovatli bo'lishni, kambag'al va bechoralarni o'z himoyasiga olishni vasiyat etganligi ham Bobur podshoh buyukligining bir belgisidir.

Bobur podshoh **buyuk davlat arbobi** bo'lishi bilan birga, **atoqli sarkarda** ham edi. Mana shu ikki xislat uni buyuk saltanat egasiga aylantirgan.

**Bobur — mohir
sarkarda**

Bobur podshoh yashagan o'sha ziddiyatli, beomon, besaranjom zamonda davlatni

boshqarish uchun jasur sarkarda bo'lish juda muhim edi. Tabiat Bobur podshohga ana shunday xislatni in'om etgan edi. Bobur ismining lug'aviy ma'nosi «yo'lbars»dir. Bu nom unga bejiz berilmagan edi. U ajoyib suvoriy, suzuvchi, qilichboz, kamonboz edi. Uning vujudida sarkardalarga xos dovyuraklik, serg'ayratlik, epchillik

mujassam edi. Epchillikda unga teng keladigan odam kamdan-kam topilgan. Manbalarda qayd etilishicha, u jismoniy shunday baquvvat ham bo'lganki, **ikki qo'ltig'iga ikki odamni olib qal'a devori ustida mashq qilgan.** Bundan tashqari, Bobur o'limga tik qarash, o'ziga va o'z taqdiriga ishonish kabi fazilatlariga ega bo'lgan. Bu fazilatlar esa Boburga kishilarni doimo o'z orqasidan ergashtirish imkonini bergan.

Bobur kimlar bilan janglarda to'qnash kelgan bo'lsa ularning tajribalarini o'rgangan.

Chunonchi, shayboniylardan urushning «to'lg'ama» usulini, mo'g'ullardan pistirma qo'yish, afg'onlardan poroxli multiq ishlatishni, turklardan esa otliq qo'shinni unumli ishlatishni o'rgangan.

Bundan tashqari, Bobur kuchli to'pchilar qo'shinini tuza olgan.

Bobur Hindiston yurishidan oldin intizomli va tajribali sarbozlardan iborat qo'shin tuza olgan. Boburning mohir sarkardaligini hatto chet el olimlari ham tan olganlar.

Boburning 12 ming kishilik lashkari bilan 100 ming kishilik lashkarga ega bo'lgan Dehli sultonini tor-mor etgani ham uning mohir sarkardaligini isbotlaydi.

Bobur mirzo — mashhur tarixchi olim

Bobur nafaqat buyuk davlat arbobi, mohir sarkarda, shoir, bastakor, ayni paytda mashhur tarixchi olim hamdir. Bu borada uning nomini abadiylikka muhrlagan asar — «Boburnoma»dir.

Bu asar — Movarounnahr, Afg'oniston, Hindiston va Eron xalqlari tarixi, geografiyasi haqida juda qimmatli ma'lumotlar beradi.

Bu xotira asarlar sirasiga kiradi. Asar 1493—1529-yillar oralig'ida bo'lib o'tgan tarixiy voqealar, asarda tilga olingan joylar tabiati haqida yilma-yil hikoya qiladi.

Xususan, «Boburnoma»da Shayboniyxonning Samarqandni egallashi tafsiloti quyidagicha: «Samarqand hukmdori Sultonali mirzoning onasi Zuhrabegi og'a bil-

maslig'idin va beaqlig'idin maxfiy Shayboniylarning kishi yiborur, bu mazmun bilakim, Shayboniylar ani olur bo'lsa, o'g'li Shayboniylarning Samarqandni bergay. Otasining viloyatini olg'ondin so'ng Sultonali mirzog'a bergay...

Shayboniylar ushbu xotunning va'dasi bila kelib Bog'i Maydong'a tushti. Tush vaqtida Sultonali mirzo bek-bekotig'a, yigit-yalangiga, hech kimga xabar qilmay, hech kim bila kengashmay, bir necha yovug'idagi kichik-kirim bila chorraha darvozasidan Bog'i Maydong'a, Shayboniylar qoshig'a bordi... Bu bedavlat xotin chun noqisi aql edi, erga tegar havosi bila o'g'lining xonu monin barbod berdi... Samarqandni o'zbek olg'och, Keshdin Hisor sori mutavajjih bo'lduk. Muhammad Mazid tarxon boshliq Samarqand beklari ko'ch va ahlu ayollari bila bizning bila tebradilar» («Boburnoma»).

Bu tarixiy haqiqatlardan kelib chiqadigan asosiy xulosa nima?

Asosiy xulosa shuki, ba'zi temuriylar hukmdorlar birgalashib umumiy dushmanga qarshi kurashish o'rniga o'z dushmanlari bilan o'z manfaatlari yo'lida (Vatan manfaati yo'lida emas) kelishishga harakat qilganlar.

Bobur o'z kitobida Hindiston haqida jumladan quyidagilarni yozib qoldirgan: «Hindiston... bizning viloyatlardan o'zgacha olamdirdi. Tog' va daryosi, jangal va sahrosi, hayvonot va nabototi, eli va tili, yomg'iri va eli — barchasi o'zgachadir...

Hindistonning aksari viloyati tuz yerdan bo'libtur... Hindistonning bir ulug' aybi budurkim, oqar suvi yo'qtur...»

O'zbekiston Respublikasi hukumati qarori bilan Bobur tavalludining 510 yilligi juda keng miqyosda nishonlandi.

Boburning buyuk xotirasini ulug'lash yo'lida katta ishlar amalga oshirildi. Chunonchi, Andijonda Bobur haykali o'rnatildi, ramziy maqbarasi qurildi.

«Bobur Milliy bog'i» va shu bog' qoshida «Bobur va jahon adabiyoti» nomli muzey tashkil etildi.

Savol va topshiriqlar

1. Boburiylar saltanatiga qachon asos solindi?
2. Boburiylar saltanati uzoq yashaganligi sabablarini qanday izohlaysiz?
3. Bobur podshohning shaxsiga xos xususiyatlarni qayd eting.
4. Qanday faktlar bilan Boburning mohir sarkarda bo'lganligini asoslab bera olasiz?
5. «Boburnoma» asari haqida so'zlab bering.
6. Buyuk bobomiz Bobur xotirasini ulug'lash niyatida yurtimizda qanday ishlar olib borildi?

Bularni takrorlab boring:

- Bobur mirzo 1526-yilning 27-aprelida Hindistonda Boburiylar saltanatiga asos soldi;
- Bu saltanat 332 yil (1526—1858) davom etdi;
- Bobur mirzo 1530-yilda vafot etgan;
- Uning shaxsi olijanob va ulug' hukmdorga xos fazilatlaridan tarkib topgan edi;
- Bobur mirzo fuqarolarning tashvishlariga hamdardlik ko'rsata olgan saxovatpesha hukmdor ham edi;
- Bobur mirzo bobokalonni Amir Temurdek bunyodkorlik ishlariga katta e'tibor bilan qaragan davlat arbobidir;
- Mashhur «Boburnoma» asari O'rta Osiyo va Hindiston tarixi bo'yicha qimmatli manba hisoblanadi;
- Bobur mirzo o'z davrining buyuk davlat arbobi, mohir sarkardasi, shoiri, bastakori, ayni paytda mashhur tarixchi olimi ham edi.

Manbalar tilga kirganda...

Hindistondagi «Mo'g'ullar oilasi» jamiyatining Bosh kotibi janob Ziyovuddin Tusiya

Qardosh Hindiston diyorida bobokalonimiz Zahiriddin Muhammad Bobur sulolasining vakillari ulug' ajdodlari xotirasini asrlar osha asrab-avaylab kelayotganliklari biz uchun behad quvonarlidir.

Bobur o'zbek xalqining buyuk farzandi, milliy g'ururidir.

Ul zoti sharifning yurtimizda nishonlanayotgan 510 yilligi to'yi shu yuksak ehtiromdan yana bir dalolatdir.

Islom Karimov.

Toshkent, 1993-yil 23-sentabr.

Bobur mamlakatda tartib, osoyishtalik, fuqarolar turmushida yengillik o'rnatishga uringanligini uning kitobida yozib qoldirgan ayrim farmonlaridan olingan quyidagi parchalar ham tasdiqlaydi:

Tinch saqlangan mamlakatda mutlaqo hech bir kishi ichkilik ichishga urinmasin, uni hosil qilishga tirishmasin, ichkilik yasamasin, sotmasin va olmasin, o'zida saqlamasin, eltmasin va keltirmasin.

Butun mamlakat bo'ylab, o'tgan sultonlardan qolib kelgan va daromadi haddan ortiq ko'p bo'lgan tamg'ani, o'zi ham shariat qoidalaridan tashqari bo'lgani uchun musulmonlar ustidan olib tashlansin.

Podshohning mehribonchiligiga sig'ingan turk, tojik, arab, ajam, hindi, forsiy fuqaro va sipoh — butun millatlar, hamma inson toifalari bu hukmlar ijrosidan tashqariga chiqmasinlar va burilmasinlar.

«Boburnoma» dan.

Bobur dilbar shaxs; Uyg'onish davrining bir hukmdori, mard va tadbirkor shaxs bo'lgan. U san'atni, adabiyotni sevgan, hayot nafosatidan lazzatlana bilgan. Uning nabirasi Akbar yana ham dilbarroq va ko'p yaxshi fazilatlarga ega bo'lgan... Boburning Hindistonga kelishi tufayli Hindistonda buyuk o'zgarishlar sodir bo'ldi; san'atda, hayotda, me'morchilikda va madaniyatning boshqa sohalarida yangicha serilhom taraqqiyot yuz berdi.

Javoharlal Neru.

Bobur podshoh va boburiylar haqida qo'shimcha ma'lumotlar

Bobur podshoh 9 o'g'il va 9 qizning otasi edi. Ularning 11 nafari yoshligidayoq vafot etganlar. Bobur podshohdan qolgan farzandlar:

O'g'illari:

1. Humoyun (1508—1556);
2. Komron (1509—1557);
3. Askariy (1512—1558);
4. Hindol (1518—1551).

Qizlari:

1. Gulrangbegim;
2. Gulchehrabegim;
3. Gulbadanbegim (1523—1603).

O'g'illaridan Humoyun podshoh bo'la olgan. Qizlaridan tarixda o'chmas iz qoldirgani — Gulbadanbegimdir. U o'z zamonasi-ning eng o'qimishli, oqila va donishmand ayollaridan bo'lgan. U o'zining «Humoyunnoma» asari bilan tariximizda o'chmas iz qoldirgan. Bu asar Bobur podshoh bilan Humoyun podshohning hayot tarzi va sarguzashtlarining tarixi sifatida «Boburnoma» ning davomidir. Bu asar yana shuning uchun ham qimmatliki, unda «Boburnoma» da ayrim sababi keltirilmagan voqealarning sabablari to'liqigicha keltirilgan. Bu asar tarix, geografiya, etnografiya, til va adabiyot fanlari uchun muhim manba bo'lib xizmat qilgan va qilmoqda. Gulbadanbegim 80 yil umr ko'rgan.

6-§. MUHAMMAD SHAYBONIYXON — MOVAROUNNAHR HUKMDORI

Dashti qipchoqda Shayboniyxon hokimiyatining kuchayishi

Dashti qipchoqda Shayboniyxon nufuzi oshib, hokimiyati ham kuchayib bordi. Bunga quyidagi omillar sabab bo'lgan edi:

— Abulxayrxon (1428—1468) davrida uning davlati tarkibiga kirgan, uning o'limidan so'ng turli hududlarga tarqalib ketgan turli qabilalarning Shayboniyxon atrofida birlashishga intilganliklari;

— Ko'chmanchi qabilalarning jangovar an'analari— istilochilik urushlari natijasida yangi-yangi yerlar bosib olinishidan manfaatdor bo'lgan ko'chmanchi qabilalar yetakchilari va ayrim ruhoniylarning kuchli yollangan lashkarga ega bo'lgan Shayboniyxonni qo'llab-quvvatlaganliklari;

— Dehqonchilik, hunarmandchilik bilan shug'ullanuvchi aholisi bo'lgan yerlar bosib olinishi, o'troq hayot tarziga o'tib dehqonchilik, hunarmandchilik bilan shug'ullanishga imkon beradi, deb hisoblagan ko'chmanchilar oddiy qatlamlarining ham Shayboniyxonni qo'llab-quvvatlaganliklari;

— Shayboniyxonning Movarounnahrda ichki siyosiy vaziyatni yaxshi bilganligi va u yerda vujudga kelgan beqaror ijtimoiy-siyosiy vaziyatdan ustalik bilan foydalana olganligi;

— Movarounnahr zodagonlari, ruhoniylari va umuman aholining yuqori qatlamlari ma'lum toifasining ham o'z maqsadlari yo'lida Shayboniyxonni qo'llab-quvvatlaganligi.

Xullas, **1499-yilda** Shayboniyxon Movarounnahrni zabt etishga kirishdi.

Shayboniyxon urushda temuriylarni sarosimaga solib qo'yadigan jang usuli — **to'lg'amani** (ya'ni dushman qo'shinlarining qanotini aylanib o'tib, orqadan hujum qilish) ustalik bilan qo'llaydi.

1501-yili Shayboniyxon Samarqandda uzil-kesil

o'rnashib oldi. U endi katta qo'shin to'plab butun Movarounnahr hududlarini egallash uchun tayyorgarlik ko'ra boshladi.

1503-yilda Shayboniyxon shiddatli janglarda o'z dushmanlarini tor-mor keltirib, Toshkent va Shohruxiya shaharlarini egalladi. Bu shaharlar hokimligiga amakilari Ko'chkunchi sulton bilan Suyunchxo'jani tayinladi (bu ikki hukmdor Ulug'bek mirzoning Abulxayrxonga turmushga chiqqan qizi Robiya Sultonbegimdan tug'ilgan farzandlar edilar). 1504-yilda Farg'ona bosib olindi. Samarqand shahri yangi davlat — Shayboniyxon davlatining poytaxti etib belgilandi, Buxoroni esa ukasi Mahmud sultonga topshirdi.

Xorazm va Xuroson uchun olib borilgan urushlar Shayboniyxon Movarounnahrda mustahkamlanib olgach, 1504-yilda Xusravshoh hukmdorlik qilib turgan Qunduzni ishg'ol etdi. Shundan so'ng u Xurosonni egallash payiga tushdi. Chunki, temuriylar hukmronlik qilayotgan yirik Xuroson davlatining yashab turishi kelgusida Shayboniyxonga qimmatga tushishi mumkin edi. Shayboniyxon Xurosonni ishg'ol qilish uchun avval Xorazmni zabt etishni maqsadga muvofiq deb topdi va 1505-yili Urganchni zabt etdi. 1506-yili Balxga va, nihoyat, 1507-yilda Xurosonga yurish boshladi. So'nggi yillarda o'zaro ichki urushlar oqibatida, inqirozga yuz tutgan temuriy Sulton Husayn Boyqaro davlatini egallash qiyin bo'lmadi. Avval Hirot qo'shinlari tor-mor keltirildi. Shahar beqaror talandi. **Shundan so'ng Hirot o'zining iqtisodiy, siyosiy va madaniy markaz sifatidagi nufuzini yo'qotdi.**

Xurosonning ham bo'ysundirilishi bilan amalda Muhammad Shayboniyxon butun mintaqani yagona bir markaz — Samarqand qo'l ostida birlashtira oldi. Shu tariqa, u XV asrning ikkinchi yarmidan boshlab temuriy-zodalar amalga oshira olmagan vazifani bajara oldi. Shunday qilib, Shayboniyxonning temuriylarga qarshi 1500—1509-yillardagi olib borgan shiddatli va beayov urushlari oqibatida Movarounnahr, Xorazm va Xurosonni o'z ichiga olgan **Shayboniylar davlati** vujudga

keldi va davlatchiligimiz tarixida shayboniylar sulolasi hukmronligi davri boshlandi.

**Eron shohi Ismoil
Safaviy bilan qonli
to'qnashuv**

Shayboniyyxon boshqa mam-
lakatlarni qo'lga kiritishni
orzu qilardi. Ana shu orzu-

lar og'ushida u endi Eron tomon ko'z tikdi. Bu vaqt-
da Eronda shoh Ismoil Safaviy hukmdorlik qilayotgan
edi. Shayboniyyxonning g'imillab qolishi shoh
Ismoilning ham g'ashini qo'zg'atdi. U o'z davri uchun
kattagina va qudratli qo'shin tuza olgan edi. Ismoil
Safaviy tuzgan saltanat tarixda **Safaviylar davlati** nomi
bilan mashhur.

Shoh Ismoil davlati kattagina hududlarni o'z ichiga
olardi. Bu davlatning bir sarhadi Husayn Boyqaro davlati
bilan, ikkinchi sarhadi esa Usmonli turklar davlati bilan
tutashgan edi. Shayboniyyxon Movarounnahr va
Xurosonni qo'lga kiritgach, navbatdagi urush Safaviylar
davlati bilan bo'lishiga shoh Ismoilda shubha yo'q edi.

Shoh Ismoil islomning shia mazhabiga e'tiqod etuv-
chi, bu mazhabni Eronda hukmron mazhabga aylantir-
gan hukmdor edi. Uning ko'rsatmasi bilan har bir
masjidda shialar 12 imomi nomi xutbaga qo'shilib o'qiti-
ladigan bo'lgan.

Shayboniyyxon islomdagi sunniy mazhab tarafdori
sifatida shoh Ismoilning ishini shakkoklik deb bahola-
di va undan bunday shakkoklikka tezda barham berish-
ni talab qildi. Ayni paytda, u shoh Ismoildan Makkaga
borib tavba-tazarru qilishni, Shayboniyyxon nomini xut-
baga qo'shib o'qitishni ham talab etdi. Bu talablarni
shoh Ismoil haqorat deb bildi. Endi ikki hukmdor
o'rtasida urush bo'lishi muqarrar bo'lib qoldi.

Shoh Ismoil qulay fursat kelishini kutar edi. Uning
xufiyalari shunday qulay fursat haqida xabar yetkazdilar.
Bu xabar Shayboniyyxon qo'shinlarining asosiy qismi
Dashti qipchoqdagi ichki urushlar bilan bandligi, xon-
ning o'zi boshchilik qilayotgan qo'shinning esa
Shayboniyyxonga itoat etishni istamagan qabilalarning
isyonini bostirish bilan band bo'lib qolganligi haqida edi.

1510-yilda Mashhaddan qaytgan Shayboniynon 17 ming kishilik qo'shin bilan Marv qal'asiga kirib olib Movarounnahrda keladigan yordamni kutardi. Bundan voqif bo'lgan shoh Ismoil 70 ming kishilik qo'shin bilan Marv qo'rg'onini qurshovga oldi. Biroq, Shayboniynon tomonidan qattiq mudofaa qilingan shaharni ishg'ol etolmagan shoh Ismoil hiyla ishlatadi va orqaga chekinayotganda Shayboniynonga: «Agar mard bo'lsang, tashqariga chiqib, men bilan ochiq maydonda olish», deydi. Erkaklik va mardlik g'ururi tutgan Shayboniynon oz sonli qo'shin bilan shoh Ismoilning ortidan quvlashga tutindi. Safaviylar Marv yaqinidagi Murg'ob daryosi qirg'og'ida, Tahrirobod deb atalgan joyda daryo ustidagi ko'priklarni buzib, shayboniylarni tuzoqqa tushiradilar. Mag'lubiyatga uchrab yaralangan Shayboniynon yaqin bir qishloqqa chekinadi. Eronliklar Shayboniynonni qo'lga olib, 1510-yil 12-dekabrda uni qatl etadilar.

Shu tariqa, shoh Ismoil Amudaryoning so'l sohilini bosib olib, butun Xurosonni egalladi va deyarli 1000 yil davomida O'rta Osiyoning tarkibiy qismi bo'lib kelgan bu o'lkani undan ajratib tashladi. Hirot shahri Safaviylar davlatining ikkinchi markaziga aylantirildi. Shoh Ismoil katta o'g'li Tohmasbni markazi Hirot bo'lgan Xurosonning hukmdori etib tayinladi.

Savol va topshiriqlar

1. Shayboniynon hokimiyatining kuchayishiga sabab bo'lgan omillar nimalardan iborat?
2. Shayboniynonning Movarounnahr va Xurosonni osongina egallab olishiga nimalar asosiy sabab bo'ldi?
3. Movarounnahr va Xuroson istilosining oqibatlari nimalardan iborat bo'ldi?
4. Shayboniynon qo'shinlarining shoh Ismoilidan yengilishi sabablarini matndan aniqlang.
5. Shoh Ismoilning g'alabasi oqibatlari haqida so'zlab bering.

Bularni takrorlab boring:

- Muhammad Shayboniyxon 1499-yildan boshlab Movaroun-nahrni egallashga kirishdi;
- 1501-yilda Shayboniyxon Samarqandda uzil-kesil o'r mashib oldi;
- 1505-yilda Xorazm egallandi;
- 1507—1509-yillarda Xuroson to'la egallandi;
- Shayboniyxon Movarounnahr, Xorazm va Xurosonni yagona davlatga birlashtira olgan hukmdordir;
- 1510-yilda Shayboniyxon Eron hukmdori shoh Ismoil qo'shini bilan bo'lgan jangda halok bo'ldi;
- Shoh Ismoil Xurosonni egalladi va shu tariqa deyarli ming yil davomida O'rta Osiyoning tarkibiy qismi bo'lib kelgan bu o'lkani undan ajratib tashladi.

7-§. SHAYBONIYLAR DAVLATI

Ko'chkunchixon va Ubaydullaxon hukmronligi

Shayboniyxon halok bo'lgach, uning o'rniga amakisi **Ko'chkunchixon** taxtga o'ltir-

di. 1512-yil 28-apreldagi jangda shayboniylar Bobur bilan uning ittifoqchisi safaviylar qo'shinini tor-mor qilib, Samarqand taxtini qo'lga kiritdilar va Ko'chkunchixon hukmronligi qayta tiklandi.

Ko'chkunchixonidan so'ng taxtga o'g'li **Abu Sa'id** (1530—1533) o'ltirdi. Undan keyin esa hukmdorlik Shayboniyxonning ukasi Mahmud sultonning o'g'li **Ubaydullaxon** (1533—1539) qo'lga o'tdi. U 1533-yilda xonlik poytaxtini Samarqanddan Buxoroga ko'chirtirdi. Ubaydullaxon Buxoroga ota meros mulk deb qarar edi. Chunki, Shayboniyxon hayotligidayoq Buxoro hokimligini ukasi — Ubaydullaxonning otasi — Mahmud sultonga bergan edi. Shu tariqa, shayboniylarning Movarounnahrda tashkil etgan davlatlari endilikda **Buxoro xonligi** deb ataladigan bo'ldi.

Ubaydullaxonning tariximizdagi xizmatlari katta. Avvalo, u Ismoil Safaviy va qizilboshlarning hujumla-

rini bartaraf etib, Movarounnahrni ularning harbiy-siyosiy tazyiqlaridan saqlab qoldi. Ma'lumki, Shayboniyxonning fojiali o'limi tufayli shayboniylar orasida ma'lum darajada ma'naviy parokandalik yuz beradi. Bundan Eron shohi foydalanib qolmoqchi bo'ldi. Ubaydullaxonning harbiy mahorati va jasorati, qattiqqo'lligi tufayli Najmi soniy boshchiligidagi o'n ming kishilik safaviylar qo'shini chekinishga majbur bo'ldi. Ularning Qashqadaryo shahar va qishloqlarini xarob qilib, yurtni talon-toroj, qirg'in qilishi to'xtatildi. G'ijduvon yaqinida Ubaydullaxon boshliq shayboniy shahzodalarning birlashgan kuchlari Najmi soniy qo'shinarini qurshab olib, tor-mor keltirdi; ular talagan mol va naqd pullar o'ljaga tushdi. Ubaydullaxon bu o'ljani xazinaga topshirmay, Buxoro shayxulislomi Mir Arab ixtiyoriga topshirdi. Shayxulislom bu pullarni ulkan madrasa qurilishiga sarfladi. Bu madrasa Buxoroda **Mir Arab** madrasasi nomi bilan mashhur. Tarixchi Hofiz Tanish Buxoriy «Uning davlati va xalofati zamonida Movarounnahr, ayniqsa, Buxoro viloyati gullab-yashnadi», deb bekorga aytmagan.

Ubaydullaxon hukmronligi davrida Buxoroning markaz sifatidagi nufuzi har tomonlama o'sdi.

Ubaydullaxon o'z davlatining chegarasini Shayboniyxon davridagi sarhadlarda qayta tiklashga harakat qildi. Uzoq vaqt qo'lda saqlashga erisha olmagan bo'lsa-da, Hirotni ishg'ol etgan, qizilboshlarni bir necha marta mag'lubiyatga uchratgan edi. Ayni paytda u mamlakat ichkarisidagi o'zaro kurash va tarqoqlikka barham berdi.

Ubaydullaxon vafot etgach ichki ziddiyatlar yana kuchaydi. Hokimiyat uchun qattiq kurashlar boshlandi. Shayboniyxon avlodlarining har birida 10—12 nafardan o'g'il bo'lib, ularning har biri toju taxtga da'vogar edilar. Ularning har biri o'z ota merosi bo'lgan hududlarda o'z qo'shiniga bosh bo'lib mustaqillikka intilar, o'zini oliy hukmdor deb his etar hamda imkon bo'lsa xonlik taxtini egallash ishtiyoqida edilar.

**Buxoro Abdullaxon
hukmronligi davrida**

Mamlakatda boshlangan pa-
rokandalikka chek qo'yish

uchun markaziy hokimiyatni yana tiklash va kuchaytirish zarur edi. Bu zaruriyatni qonli urushlarsiz amalga oshirib bo'lmas edi. Ana shunday sharoitda 1556-yilda kurash maydoniga Karmana va Miyonkol hukmdori Shayboniy Iskandar sultonning o'g'li **Abdullaxon** (1534—1598) chiqdi.

Iskandarxon nomiga bo'lsa-da, 1583-yilgacha Buxoro xonligi taxtida o'tirgan. 1556-yildan boshlab aslida hokimiyat o'g'li **Abdulla** qo'lida bo'lgan. 1583-yilda Iskandarxon vafot etgach, o'g'li **Abdullaxon II** nomi bilan xon deb e'lon qilingan.

Iskandarxon xonadoniga Buxoro yaqinidagi Jo'ybor qishlog'ida istiqomat qiluvchi g'oyatda katta nufuzga ega bo'lgan shayx **Muhammad Islom** (1493—1563)ning ixlosi baland bo'lganligi Abdullaxonga bu kurashda juda katta madad bo'ldi. Muhammad Islom va uning avlodlari o'zlarining kelib chiqishini ota tomondan Muhammad payg'ambar avlodlariga, ona tomondan esa Chingizxon va Jo'chiga ular edilar. Aslzodalik va tasavvuf tariqatidagi mavqeiga ko'ra Jo'ybor shayxlari **somoniylar** davridan boshlaboq davlat ishlarida muhim **mansablarni** egallab kelar edilar. XVI asrning ikkinchi yarmida Shayx Muhammad Islom, keyinchalik uning o'g'li Shayx Abubakr Sa'd Buxoroda shayxulislom lavozimini egallagan edilar.

Jo'ybor shayxlari bitmas-tuganmas boyliklarga ham ega bo'lganlar. Masalan, Muhammad Islomning ombor va sandiqlarida saqlangan behisob boyliklaridan tashqari 2500 gektar yer maydoni, 10 ming qo'yi, 700 oti, 500 tuyasi, 104 hunarmandchilik va savdo do'konlari, 7 ta tegirmoni va boshqa mulklari bo'lgan. Uning o'g'li Abubakr Sa'dning esa 17 ming gektar yeri, 25 ming bosh qo'yi, mingta tuyasi, mingta oti, 12 ta hammomi, 10 ta sardobasi, 2 ta karvonsaroyi, shuningdek, 1000 nafar quli bo'lgan.

1556-yili o'sha Muhammad Islomning ko'magida Abdullaxon amalda Buxoro taxtini egallaydi. Muham-



Shayboniy Abdullaxon II.

mad Islom Olloh nomidan Abdullaxonning faoliyatiga oq fotiha bergan edi.

Abdullaxonning butun hukmronlik davri tinimsiz urushlarda kechdi. Abdullaxon 1573-yili Balxni, 1578-yili Samarqandni, 1582-yili Toshkentni, 1583-yili Farg'onani, 1584-yili Badaxshonni, 1585-yili Ko'lobni, 1588-yili esa Hirotni, 1595-yili Xorazmni zabt etdi va o'z davlati tarkibiga qo'shib oldi. Shundan keyin uning davlati sarhadlari janubda Hirot dan Mashhadgacha, shimolda Orol dengizigacha, Kaspiy dengizidan Issiqko'lgacha yetdi. Butun Movarounnahr yana yagona hukmdor qo'li ostida birlashtirildi. Shunday qilib, XVI asr oxirlariga kelib Buxoro xonligi nisbatan markazlashgan ulkan davlatga aylandi.

Shunday qilib, XVI asrda davlatchilik tarixida yetakchi sulola shayboniylar sulolasi bo'ldi. Bu sulola o'zbek davlatchiligi rivojiga ma'lum darajada hissa qo'shdi.



Buxoro. Fayzobod xonaqosi.

Sulolaning eng qudratli vakili Abdullaxon II davrida esa o'zbek davlatchiligi o'z tarixida yana bir bor yuksak darajaga ko'tarila oldi.

Shayboniylar sulolasi hukmronligining barham topishi

Butun o'tmish tarix jamiyat va davlat taqdiri hukmdor-ning qanday shaxs ekanligiga

eng ko'p darajada bog'liq ekanligini isbotlab kelmoqda.

Shayboniylar davri ham bu haqiqatni inkor etmaydi. Ubaydullaxonning o'limi (1539) dan keyingi davr bu haqiqatning to'g'riligini yana bir bor isbotlaydi.

Ubaydullaxonidan so'ng shayboniylar sulolasi vakillari o'rtasida o'zaro nizolar avjiga chiqdi. Buning oqibatida **Abdullaxon I** ning qisqa hukmronligi (1539—1540)dan so'ng mamlakatda qo'shhokimiyatchilik vujudga keldi. Ya'ni, bir davlatda ikki hukmdor paydo bo'ldi.

Biri — Ubaydullaxonning o'g'li Abdulazizxon Buxoroda (1540—1550), ikkinchisi — Ko'chkunchixonning o'g'li Abdulaziz Samarqandda (1540—1551) hukmdorlik qila boshladilar.

Biroq, qachondir, kimdir bu holatga chek qo'yishi kerak edi. Bu vazifani Abdullaxon II uddalay oldi.

Abdullaxon II mamlakatni birlashtirish yo'lida shayboniy sultonlarning markaziy hokimiyatni kuchsizlantirishga urinishlariga qarshi tinimsiz va shafqatsiz kurash olib bordi. Bu maqsad yo'lida qarindoshlariga shafqat qilmadi.

Abdullaxon II garchand davlatni markazlashtira olgan bo'lsa-da, davlatdagi ichki nizolarga to'la barham bera olmagan.

Hatto, Abdullaxon II dek eng qudratli hukmdorning ham o'g'li Abdulmo'minning otasi hayotligidayoq toju taxt talashganiga tarix guvoh.

Bir so'z bilan aytganda, Abdullaxon II kuch bilan birlashtirgan yirik markazlashgan davlat mustahkam emas edi. Mahalliy hukmdorlar markaziy hokimiyatga bo'ysunishni istamas edilar.

Abdullaxon II 1598-yilda vafot etgach, so'nggi shayboniy hukmdorlar **Abdulmo'min** (1598—1599) va

Pirmuhammadxon (1599—1601) taqdiri fojiali yakun topdi.

Shunday qilib, Abdullaxon II vafotidan atigi 3 yil o'tgach, bir asr davom etgan shayboniylar sulolasi hukmronligi barham topdi.

Savol va topshiriqlar

1. Buxoro xonligi qay tariqa vujudga keldi?
2. Ubaydullaxon faoliyati haqida nimalarni bilib oldingiz?
3. Abdullaxon II ning Shayboniylar davlati tarixida tutgan o'rniga bahobering.
4. Shayboniylar sulolasi hukmronligi barham topmasligi mumkin edimi?

Bularni takrorlab boring:

- Bobur mirzo va safaviylar qo'shinini tor-mor keltirishda Ubaydulla sulton alohida **jonbozlik** ko'rsatgan;
- 1533-yilda shayboniylar sulolasi taxtiga Ubaydulla sulton o'tirdi;
- Ubaydullaxon davlat poytaxtini Samarqanddan Buxoroga ko'chirtirdi;
- 1533-yildan boshlab shayboniylar tuzgan davlat Buxoro xonligi deb atala boshlandi;
- Abdullaxon II davlatchiligimiz tarixida Amir Temurdan keyin yirik markazlashgan davlat barpo eta oldi;
- Abdullaxon II davrida o'zbek davlatchiligi yuksak darajaga ko'tarila oldi;
- Shayboniylar sulolasi hukmronligi bir asr davom etdi;
- Bu sulola hukmronligi o'zaro ichki nizolar oqibatida barham topdi.

8—9-§§. IJTIMOIIY-IQTISODIIY HAYOT

Shayboniylar o'tkazgan islohotlar

Shayboniyyxon davlatni iqtisodiy va siyosiy jihatdan mustahkamlash yo'lida qator islo-

hotlar o'tkazdi. Birinchidan, u davlat boshqaruvida **suyurg'ol tizimini** joriy etdi. Ya'ni zabt etilgan hududlarni boshqarish ishini o'z farzandlariga, qarindoshurug'lariga, birodarlariga, qabila boshliqlari bo'lgan sultonlarga topshirdi. chunonchi, Hirot — Jonvafobiyga, Hisor — Mahdi va Hamza sultonlarga, Marv — Qo'biz naymanga, Balx — Sultonshohga, Qunduz — Ahmad

sultonga, Toshkent — Suyunchxojaxonga, Andijon — Mahmud sultonga, Xorazm — Kepakbiy qushchiga, Turkiston — Ko'chkunchixonga, Buxoro va Qorako'l — ukasi Mahmud sultonga, Samarqand va Kesh esa Muhammad Temurga taqdim etilgan edi.

Samarqand poytaxt sifatida xon taxtiga o'tqaziladigan joy hisoblangan. U yerda xon sharafiga xutba o'qitilgan va pul zarb etilgan.

Lekin, suyurg'ol mulklar markaziy hokimiyatdan mustaqil bo'lishga intilar edilar.

Ikkinchidan, mamlakatda yer-suv qaytadan taqsim qilindi. Ko'chmanchi qabila zodagonlari yengilgan mahalliy mulkdorlar mol-mulkini musodara qilish, sotish, egasiz qolgan yerlarni o'zlariniki qilib olish yo'li bilan mulklarini ko'paytirib oldilar.

Uchinchidan, mamlakat ichida ijtimoiy hayotni tartibga solishga imkon beruvchi islohot ham o'tkazildi. Keyingi 10 yil ichida soliqlar og'irligidan va mulkdorlar jabr-zulmidan yer-suvlarini tashlab ketgan xo'jaliklar yerlarini ishga tushirish masalasi ko'rib chiqildi.

To'rtinchidan, 1507-yilda pul islohoti o'tkazildi. Bunga ko'ra mamlakatning hamma katta shaharlarida vazni bir xil — 5,2 gramm bo'lgan yangi kumush tangalar hamda mis chaqa pullar zarb qilinib muomalaga chiqarildi. Bu islohot iqtisodiyotni tartibga solish va savdo-sotiqni jonlantirish maqsadida o'tkazilgan edi. Ayni paytda bu islohot markaziy hokimiyatning siyosiy va iqtisodiy mavqeini kuchaytirishga, mahalliy hokimlar mavqeini esa kuchsizlantirishga, dehqonlarning soliq to'lash imkoniyatini oshirishga, davlat va xon mulkini ko'paytirishga imkon berdi.

Beshinchidan, ta'lim sohasida ham islohot o'tkazildi. Bu islohotning o'tkazilishiga amaldorlar guruhini vujudga keltirish va ularni jamiyatning asosiy tayanchiga aylantirish zarurati sabab bo'ldi. Xonlarga va sultonlarga barcha sohalar bo'yicha ilmiy, diplomat qobiliyatiga ega bo'lgan amaldorlar zarur edi. Islohotga ko'ra, ko'p bosqichli o'qitish tizimi joriy etildi. Ta'limning quyi bosqichi maktab hisoblandi va bolaga 6 yoshidan ta'lim

beriladigan bo'ldi. Maktabda ikki yil o'qigach o'quvchilar madrasaga o'tkazilardi. Madrasada uch bosqichli ta'lim joriy etilgan bo'lib, uning har bir bosqichida 8 yildan o'qilardi. Shunday qilib, o'qish 26 yil davom etardi. O'quvchilar ilohiyot ilmidan, hisob-kitobdan, matematikadan, she'r yozish san'atidan ilm olardilar. Albatta, 26 yillik ta'lim olishga hammaning ham imkoni bo'lmas edi.

Savodxonlikning Movarounnahrda XVI asrdagi ana shunday rivojlanishi o'zbek tili rivojlanib, keng tarqalishiga, adabiy aloqalar rivoj topishiga ancha ijobiy ta'sir ko'rsata oldi.

Shayboniyxon tomonidan amalga oshirilgan bu kabi va boshqa tadbirlar o'z mohiyatiga ko'ra markaziy hokimiyatni mustahkamlashga, shayboniy xonlari va beklari hukmronligi kuchayishiga xizmat qilishi zarur edi.

Muhammad Shayboniyxon vafotidan so'ng boshlangan o'zaro toju taxt kurashlari hamda Eron bosqinchilariga qarshi kurash mamlakat iqtisodiy hayotiga salbiy ta'sir ko'rsatdi. Bu hol o'z navbatida pulning qadrsizlanishiga olib kelgan.

Natijada, oliy hukmdor Ko'chkhunchixon 1515-yilda navbatdagi pul islohotini o'tkazishga majbur bo'lgan. 1527-yilga kelgandagina ahvolning bir maromga tushishiga erishilgan.

Shayboniy Abdullaxon II o'tkazgan pul islohoti Buxoro xonligi tarixida muhim ahamiyatga ega voqea bo'lgan. U oltin pul zarb etishni yo'lga qo'ygan va uning tarkibiga qiymati past bo'lgan boshqa ma'danlar aralashtirilmasligini qattiq nazorat ostiga olgan. Bu pullar xonlikning butun hududida muomalaga kirdi. Bu hol o'z navbatida hokimiyatning yanada markazlashuviga, xazinaga katta daromad tushishiga olib keldi; savdosotiq yanada jonlandi.

Iqtisodiy hayot

Shayboniylar davrida ham iqtisodiy hayotda sun'iy sug'orish bilan bog'liq muammolarni hal etish ishiga jiddiy e'tibor bilan qaratilgan. Bu sulola vakillari Zarafshon, Chirchiq, Sirdaryo, Amudaryo, Vaxsh va Murg'ob

daryolari imkoniyatlaridan unumli foydalanish choralari ko'rganlar.

Chunonchi, 1502-yilda Shayboniyxon Zarafshon daryosining Oqdaryo va Qoradaryoga ayriladigan joyida suv ayirg'ichi qurdirgan.

Shayboniyxon avlodlari keyinchalik Qashqadaryoning irmoqlaridan Kesh viloyati yerlarini sug'orish uchun 10 dan ortiq kanallar qazitganlar.

Sun'iy sug'orish ishlari ayniqsa Abdullaxon II davrida keng rivojlangan. Masalan, 1556—1585-yillar oralig'ida Zarafshon daryosida Karmana, Mehtar Qosim, Chahorminor, Jondor suv ayirg'ichlari; Nurota tog'ida Oqchob, Murg'ob vohasida esa Hovuzixon suv omborlari qurilgan. Bundan tashqari, Zarafshon daryosidan Jizzax vohasiga Tuyatortar kanali, Somonjuq dashtini obodonlashtirishga xizmat qilgan Xoja Ka'ab kanali, Afshona kanali, Amudaryodan Chorjo'yga, Murg'obdan Marvga, Vaxshdan uning atrof vohalariga suv chiqarishga imkon beruvchi kanallar qazilgan.

Bundan tashqari, Abdullaxon II karvon yo'llarini qayta jonlantirish, sardobalar, karvonsaroilar qurish va ta'mirlashga ahamiyat berdi. Nurota tumanidagi Oqchob yaqinida Beklarsoy darasida joylashgan qadimgi to'g'on qoldiqlari o'rinda ulkan band qurirdi. Uning ravoqlarini to'g'on tepasidan turib ochish yoki bekitish mumkin edi. Maqsad esa o'sha atrofdagi bo'z yerlarni sug'orib dehqonchilikni rivojlantirish va yurtni obod qilish edi.

Ayni paytda ko'plab mahalliy ahamiyatga ega suv inshootlari ham qurilgan.

Bu tadbirlar o'z navbatida qishloq xo'jaligi tarmoqlarining rivojlanishini ta'minlagan.

Shayboniylar davrida ishlab chiqarish tarmoqlari bo'lgan tikuvchilik, kulolchilik, temirchilik, qurolsozlik, zargarlik, qog'oz va qurilish ashyolarini ishlab chiqarish rivojlangan.

**Shayboniylar davrida
davlat boshqaruvi**

Shayboniylar hukmronligi yillarida oliy davlat idorasi **dar-**

goh deb atalgan. Uning tepasida **xon** turgan.

Shayboniylarda dastlabki yillarda xonlik taxti bevosita otadan bolaga meros bo'lib o'tmagan. Aksincha, ularda taxt sulolaning yoshi katta vakiliga o'tgan. Bora-bora esa bu an'anaga har doim amal qilinavermagan.

Xonlikda ikkinchi muhim davlat mansabi **naqib** hisoblangan. U xonning eng yaqin va ishonchli kishisi bo'lgan. Xonning farmon va yorliqlarida naqibning nomi birinchi bo'lib yozilgan. Ayni paytda u davlat ichki va tashqi siyosati masalalarida xonning birinchi maslahatchisi hisoblangan. Bundan tashqari, naqib harbiy yurishlarni uyushtirgan. Zarur bo'lganda elchilik vazifasini ham bajargan. Bu lavozimga tayinlanadigan shaxs albatta payg'ambar avlodi hisoblanmish sayidlar xonadoniga mansub bo'lishi shart bo'lgan. Shuning o'ziyiq naqiblik lavozimining qanchalik yuksak davlat lavozimi ekanligini isbotlab turadi.

Eng yuqori davlat lavozimlaridan yana biri **devonbegi** (bosh vazir) lavozimi edi. U muhim davlat ishlari, mol-mulk, soliq, yer-suv masalalari, viloyatlar bo'ylab amaldorlarga ish taqsimlash, mansablarga tayinlash kabi ishlar haqida har kuni xonga hisob berib turgan.

Yana bir katta davlat mansabi — bu, **otaliq** edi. Xon siyosatining viloyatlardagi ta'siri otaliq mansabiga tayinlanganlarning nufuzi bilan belgilangan. Xon viloyatlarni shahzodalarga taqsimlab berar ekan, ularga rahnamo etib o'z nazoratchisini, ishongan kishisini tayinlagan. Bunday nazoratchi, ishonchli shaxs otaliq deb atalgan. Balo-g'atga yetmagan shahzodalar ulg'ayib mustaqil faoliyat yuritgunlariga qadar davlat ishlarini ularning nomidan otaliqlar bajargan. U yoki bu viloyatning markaziy hokimiyat bilan munosabati amalda qanday bo'lishi otaliq tutadigan yo'lga bog'liq bo'lgan.

Yana bir davlat mansabi — **parvonachi** deb atalgan. Uning vazifasi xon farmonlarini, rasmiy hujjatlarni mas'ul shaxslarga — ijrochilarga yetkazishdan iborat bo'lgan.

Dodxoh mansabida ishlagan amaldor dargohga tush-

gan arizalarni qabul qilgan va ularga javob qaytargan. Shuningdek, mamlakatda adolat mezonlariga amal qilinishini nazorat qilgan. Zaruriyatga qarab boshqa davlatlar elchilarini qabul qilish, ularni joylashtirish ham uning zimmasida bo'lgan. Vaziyat taqozo etganida dodxoh chet ellarga elchi sifatida ham jo'natilgan.

Muhim davlat mansablaridan yana biri — **ko'kaldosh** mansabi edi. Bu mansabga xon sulolasiga eng yaqin shaxslardangina tayinlangan. Ko'kaldosh xon siyosatiga fuqarolarning munosabatini o'rgangan va bu siyosatning daxlsizligini ta'minlagan.

Xon va shahzodalar o'rtasidagi ichki munosabatlar masalasi bilan **xon yasovuli** mansabida ishlagan amaldor shug'ullangan.

Shayboniylar davlatida **eshikog'aboshi** lavozimi ham bo'lgan. U dargoh xavfsizligi, undagi tartib hamda kelgan ketganlardan xabardor bo'lib turish masalalari bilan shug'ullangan.

Yuqori davlat lavozimlari ichida katta mavqega ega bo'lgan lavozimlardan yana biri **shayxulislom** hisoblangan. Shayxulislom shariat qonunlari bajarilishi ustidan nazoratni amalga oshirgan. Bu hol uning nechog'lik katta nufuzga ega bo'lishini belgilab bergan.

Qozikalon lavozimida ishlagan amaldor sud ishlariga yetakchilik qilgan.

Yana bir muhim davlat lavozimi **muhtasib** (rais) deb atalgan. Bu lavozimni egallagan amaldor mamlakat fuqarolarining axloq qoidalariga rioya qilishlari ishi bilan shug'ullangan. Ayni paytda muhtasib amaldorlar va hatto din peshvolari orasida axloqiy qoidalarga qanchalik munosabatda bo'linayotganligi masalasi bilan ham shug'ullangan.

Davlatda shuningdek **miroxo'r** (xonga tegishli yilqi, ot-ulov va ularning ta'minoti bilan shug'ullanuvchi), **shig'ovul** (chet davlatlar elchilarini qabul qilish xizmatining boshlig'i), **qushchi** (xonning ovini tashkil etuvchi), **bakovulboshi**, **dasturxonchi**, **qo'rchiboshi** (qurol-aslaha

xizmati boshlig'i), **jarchi, tavochi, tug'begi, kitobdor, mirzaboshi, munshi, muhrdor, xazinachi, mehtar** kabi mansablar ham mavjud bo'lgan.

**Shayboniylar
davlatidagi ichki
ziddiyatlar**

Shayboniylar davlatidagi ichki ziddiyatlar ikki yo'nalishda namoyon bo'ldi.

Birinchisi — markaziy hokimiyat bilan mahalliy hokimiyat o'rtasidagi ziddiyatlar;

Ikkinchisi — hukmron tabaqalar bilan mehnatkash omma o'rtasidagi ziddiyatlar.

Shayboniylar davrida yer egaligining **iqto', suyurg'ol, tanho** va **jogir** turlari bo'lgan.

Shayboniyyon ulkan davlatni kichik-kichik mulklarga (suyurg'olga) bo'lib yuborib katta xatoga yo'l qo'yan edi. Chunki, har bir mahalliy hukmdor markaziy hokimiyatdan mustaqil bo'lishga intilardi. Mulk tizimining hukmronligi har bir mulkning alohida ajralib chiqishiga sharoit yaratar edi. Shayboniyyon bu xatoni tuzatishga urinib, bo'ysunishni istamagan mahalliy hukmdorlar mustaqilligini tugatishga, ayrim hukmdorlarni almashtirishga harakat qildi. Bu esa mahalliy hukmdor va zamindorlarning keskin noroziliklariga sabab bo'ldi.

Shayboniyyon, ayni paytda, davlat xazinasiga tushadigan daromadning muttasilligini ta'minlash maqsadida egalari tashlab ketgan yerlarni davlat ixtiyoriga olish, egalari qaytib kelib yerlarini talab qilganda uni qaytarib berish, hatto davlat bu yerlardan foydalangani uchun yer egasiga davlat xazinasidan haq to'lash tartibini ham joriy etgan. Aholiga soliq solishda amaldorlarning haddan oshishlariga ham chek qo'yildi. Shunday bo'lsa-da, shayboniylar davrida mehnatkashning iqtisodiy ahvoli baribir nochor edi. Ko'pchilik omma yersiz bo'lib, ijaraga yer olib ishlashga majbur edi. Aholidan 20 turdan ortiq soliq va to'lovlar olinardi. Asosiy soliq sug'oriladigan yerdan olinadigan xiroj bo'lib, daromadning 30% dan 40% gachasini tashkil qilardi. Davlat

muassasalari, qo'shin va xon xonadoni xarajatlarini qoplash uchun to'lanadigan soliq **ixrojot** deb atalardi. Davlat pulga **muhtoj** bo'lganida favqulodda soliqlar ham joriy etilgan.

Aholi soliq va jarimalar to'lashdan tashqari, majburiy mehnat majburiyatini **ham** o'tashi kerak edi. Eng og'ir majburiyat **«yasoq»** degan majburiyat edi. Bu majburiyat aholini kanallar, zovurlar qazishga, yo'l va ko'priklar qurishga, yem-xashak yig'ishga jalb etishni nazarda tutardi. Buning ustiga, majburiyatni o'tashga jalb etilganlar o'z mehnat qurollari bilan ishga kelardilar, o'zlari hisobidan ovqatlanardilar.

Ayni paytda, shayboniylar o'z suyanchiqlariga katta marhamat ko'rsatganlar. Xususan, shayboniylarni ma'naviy jihatdan qo'llab-quvvatlagan Mulla Abdurahim, Mir Arab, Xoja Muhammad Islom singari ruhoniylarga katta-katta mulklar in'om etilgan.

Savol va topshiriqlar

1. O'ylab ko'ring-chi: Matndan suyurg'ol tizimi davlat yaxlitligiga katta **xavf** solganligini bilib oldingiz. Shayboniyxon davlat boshqaruvida suyurg'ol tizimini joriyetishda shu xavfni hisobga olmagan desa bo'ladimi?
2. Shayboniyxon qanday islohotlar o'tkazgan va ulardan qanday maqsadlarni ko'zlagan?
3. Shayboniyxonning ta'lim sohasida o'tkazgan islohoti bilan O'zbekistonda bugun ta'lim sohasida o'tkazilayotgan islohot o'rtasida qanday mushtaraklik jihatlari bor deb hisoblaysiz?
4. Shayboniylar davlati iqtisodiy hayotini rivojlantirish yo'lida qanday tadbirlarni amalga oshirgan edi?
5. Shayboniylar davlatidagi yuqori davlat mansablari xususida so'zlab bering.
6. Shayboniylar davlatida qanday asosiy soliq va majburiyatlar joriy etilgan edi?
7. Shayboniylar davlatidagi ichki ziddiyatlar haqida nimalarni bilib oldingiz?

Bularni takrorlab boring:

- Shayboniyxon davlat boshqaruvida suyurg'ol tizimini joriy etdi;
- Shayboniyxon yer-suv masalasidapul va ta'lim sohasida islohotlar o'tkazdi;
- Shayboniyxon davrida bolalarga 6 yoshidan ta'lim beriladigan bo'ldi;
- Shayboniy hukmdorlardan Ko'chkunchixon, Ubaydullaxon va Abdullaxon II lar ham pul islohoti o'tkazganlar;
- Shayboniydar davrida sun'iy sug'orish ishlari keng rivojlandi;
- Shayboniydar davlatida devonbegi, naqib, otaliq, parvonachi, dodxoh, ko'kaldosh, eshikog'aboshi, shayxulislom, qozikalon, muhtasib kabi yuqori davlat mansablari bo'lgan.

10-§. XVI ASRDA MADANIY HAYOT

XVI asrda ilm-fan

Shayboniylarning ba'zilari tomonidan xo'jalik va savdo-

sotiq rivojiga sharoit yaratilishi mamlakat iqtisodining izga tushib ketishiga, shahar hayoti — savdo-sotiq, hunarmandchilik va madaniy hayotining rivojiga ijobiy ta'sir ko'rsatgan. Ayni paytda fan va madaniyat sezilarli darajada rivojlangan. Bunga — ushbu sulola hukmdorlari orasidan o'z davrining yetuk ilm-fan arboblari yetishib chiqqanligi ham ta'sir ko'rsatgan.

Chunonchi, Muhammad Shayboniyxon, Ko'chkunchixon va Ubaydullaxonlar o'z davrining nihoyatda o'qimishli kishilari bo'lganlar.

Shuningdek, Muhammad Shayboniyxon, Abdulazizxon va Abdullaxonlar kutubxonalari o'z zamonasi-ning ajoyib kitob xazinalari bo'lgan. Bundan tashqari, Movarounnahrda Mirzo Ulug'bek akademiyasi an'alarini davom ettiruvchi fidokor olimlar yetishdi. Masalan, Samarqand va Buxoro madrasalarida mudarrislik qilgan mavlono **Kamoliddin Ibrohim**, Abdullaxonning muallimi **Xoja Muhammad**, yulduzshunos **Qiyomiddin Shaydo**, iftixor ul-atibbo (tabiblar iftixori) unvonini olishga sazovor bo'lgan **Muhammad Mazid**, **Hakim Shahrisabziy**, jarroh mavlono **Baqo**, mavlono

Rafe', 1541-yilda ilmi tibb va dori-darmonlar haqida asar yozgan **Muhammad Husayn ibn Shiroq Samarqandiy**, ko'z kasalliklarini davolashda nom chiqargan **Shohali ibn Sulaymon**, **Xoja Hakim** (vafoti 1585), natijatul-atibbo unvonini olgan **Abdulkhakim ibni Sulton Mahmud** kabilar shular jumlasidandir. **Xoja Hasan Nisoriy** «Muzakkiri ahbob» asarida matematika va astronomiya ilmidagi shuhrat topgan mavlono **Kavkabiyni** alohida qayd etadi.

Matematika va astronomiya sohasida yozilgan kitoblardan **Muhammad Amin ibn Ubaydulla Mo'minobodiy**ning «Hisobi amali shabaka, (Shabaka jadvali amali hisobi; 1550), **Bobokalon muftiy Samarqandiy**ning «Risola dar ilmi hisob», «Vasiyat bar chahor qism», **Tursun Zominiy**ning «Tuhfayi amir», **Muhammad Husayn munajjim Buxoriy**ning «Ma'rifati samti qibla» (Qibla tomonini topish ma'rifati), **Mahmud ibn Ahmad Forisiy**ning «Risola dar muaddili qamar» (Oy fazolarining tengligi haqida risola; 1517), **Tojus-Sa'idiy**ning «Hoshiya li sharhi ashkoli ta'sis» (Asoslash shakllari sharhiga izohlar; 1568), **Sa'id Muhammad Tohir ibni Abulqosim**ning «Ajoyib ut-tabaqot» (1545—1550) asarlari va boshqalarni ko'rsatish mumkin.

Tibbiyot sohasida **Sultonali Samarqandiy** 1526-yili «Dastur al-iloj», «Muqaddimoti dastur aliloj» (Davolash bo'yicha dastur) asarlarini yozgan.

Ubaydulloh Kahlol ibn Muhammad Yusuf ham o'z davrining yetuk tabibi, tibb olimi. Baroqxonning o'rtancha o'g'li Toshkent hokimi Darvishxonning buyrug'iga binoan 1598-yilda «Shifo ul-ilal» (Kasalliklar shifosi) asarini yozadi. Asar 500 varaqdan ko'p bo'lib, uzoq vaqtgacha tibb ilmidan asosiy qo'llanma tarzida undan foydalanilgan. Bir necha bitik nusxasi bizgacha yetib kelgan. Uning yana «Umdat ul-kuhliya fil-amrozul-basariya» (Ko'z kasalligiga doir asosiy kitob) asari ham bo'lgan.

Shohali ibn Sulaymon Kahlol Toshkent hokimi Baroqxonning farmoniga ko'ra 1544-yilda tibbga oid «Zubdayi manzuma» (Nazmlar sarasi) asarini yozgan. So'ng X asr olimi Ali ibn Isoning «Tazkirat ul-kahholin» (Ko'z tabiblariga esdalik kitob) asarini arab tilidan fors tiliga tarjima qiladi. Har ikkala asarning qo'lyozma nus-

xalari O'zbekiston Fanlar akademiyasi Abu Rayhon Beruniy nomidagi Sharqshunoslik institutida saqlanadi (tartib raqamlari: 4935, 9723).

Shayboniylar davrida tarix fani ham rivojlandi. Shayboniylar davrida ko'plab tarixiy asarlar yozilgan. **Kamoliddin Binoiy, Mulla Shodi, Muhammad Solih, Fazlulloh ibn Ro'zbehon Isfahoniylar** Shayboniylar topshirig'i bilan har qaysisi Shayboniylarga atab alohida tarixiy asar yozganlar. Bundan tashqari, **Abdulloh ibn Muhammad ibn Ali Nasrullohiyning** «Zubdat ul-osor», **Hofiz Tanish Buxoriyning** «Abdullanoma» («Sharafnoma» shohiy), noma'lum muallifning «Tavorixi guzidayi nusratnoma» asarlari shayboniylar davri ijtimoiy, siyosiy tarixiga doir. **Zayniddin Vosifiyning** «Badoe' ul-vaqoe'», **Zahiriddin Muhammad Boburning** «Boburnoma» asarlari ham shu davr ijtimoiy va madaniy hayotidan bahs yuritadi.

Ko'chkunchixon topshirig'i bilan Sharafiddin Ali Yazdiy «Zafarnoma»si o'zbek tiliga o'girildi. Yetuk tarixchi olim **Mirza Muhammad Haydar** (1500—1556) 1541—1546-yillarda Yunusxonning nabirasi, tog'avachchasi Abdurashidxonga bag'ishlab «Tarixi Rashidiy» asarini yozadi. Mirza Haydar Toshkentda dunyoga kelgan; uning onasi Toshkent hokimi Yunusxonning qizi Xo'bnigorxonim bo'lib, Zahiriddin Muhammad Boburning xolavachchasi bo'lgan.

Hofiz Ko'hakiy (Sulton Muhammad) Ulug'bek mirzoning shogirdi Ali Qushchining avlodidan bo'lib, shayboniylar davrining yetuk tarixchi, mantiq, fiqh, kalom ilmlari olimi bo'lgan. Davr taqozosi bilan o'z vatani Toshkentda turg'un yashay olmaydi. 1528-yili Zahiriddin Muhammad Bobur huzuriga, Hindistonga boradi. Hajga borib, Usmonlilar Turkiyasi sultoni bilan uchrashadi. Vazirlikka qilingan taklifni rad etib, 1563-yili Toshkentga qaytadi va shu yerda 1584-yili vafot etadi. U «Tarixi Toshkand», «Tarixi oli Chingiz» (Chingiz sulolasi tarixi), «Risola fi fannit-tafsir val-usul val-furu' val-mantiq val-kalom» (Tafsir, fiqh asoslari va tarmoqlari, mantiq va kalom ilmi haqida risola), Abdurahmon Jomiyning «Favoyidi Ziyoiya» nomli arab tili grammatikasiga oid

sharhiga hoshiya, «Sharh ash-sharhi odob ul-munozara» («Munozara qoidasi» sharhiga sharh) kabi asarlar muallifidir.

Adabiyot

Shayboniixonning o'zi ham umri jangu jadallarda o'tishga qaramay she'riyat va tarix fani bilan shug'ullanishga vaqt topgan. Uning she'riy devon tuzgani ma'lum. U hatto xattotlik bilan ham shug'ullangan. O'zbekiston Fanlar akademiyasi Abu Rayhon Beruniy nomidagi Sharqshunoslik instituti kutubxonasida (tartib raqami 844) Kamoliddin Binoiy qalamiga mansub «Shayboniynoma» asarining Shayboniixon ko'chirgan nusxasi saqlanadi.

Ubaydullaxon (1533—1539-yillarda hukmronlik qilgan) ham ilmi va ma'rifatli hukmdor edi. U fors va turk she'riyatini yaxshi bilardi. Ayni paytda o'zi «Ubaydiy» taxallusi bilan o'zbek, fors, arab tillarida ijod qilgan, she'rlar bitgan. Uning uch tilda bitgan she'rlaridan iborat uch devoni bir kitobga jamlangan. Ubaydiyning o'zbek tilidagi devoni 306 g'azal, 435 ruboiy, 25 qit'a, 13 tuyuqdan iborat.


Me'morchilik

Shayboniy hukmdorlar poytaxt Buxoro va uning atroflarini obod qilishga harakat qildilar. 1535—1536-yillarda qurilgan Mir Arab madrasasi, 1540—1541-yillarda bino qilingan Masjidi Kalon, 1549-yili Abdulazizxon qurdirgan koshinli xonaqoh, Mag'oki Attori masjidi (qayta ta'mirlangan), 1559-yili qurilgan Toqi Zargaron, Toqi Sarrofon, Toqi Kitobfurushon, Karmanadagi hazrati Qosimshayx xonaqohi, 1582-yili qurilgan uch darvozali Timi Kalon, 1581-yili bino qilingan Modari xon madrasasi, Oyposhsha oyim madrasasi, 1580-yili bino qilingan Govkushon madrasasi, 1586-yili qurilgan Fathulla qo'shbegi madrasasi, 1585-yili qurilgan Fayzobod xonaqohi, Do'stum madrasasi, 1577—1578-yillarda qurilgan Abdullaxon madrasasi, Tim, chorsu fikrimizning dalilidir.

Samarqandda ham shayboniylar nomi bilan bog'liq binoyi xayrlar anchagina. chunonchi, Shayboniixon tomonidan qurila boshlab, 1515—1516-yillarda bitkazilgan Shayboniixon madrasasi va Abdurahim Sadr

madrasasi, Toshkentda bino qilingan Baroqxon madrasasi, Karmana yaqinida Zarafshon daryosi ustiga qurilgan ko'prik (1582) mashhurdir.

Buxoroga kelgan ingliz elchisi Antoniy Jenkinson: «Buxoro juda katta shahar, unda g'ishtlik imoratlar, serhasham binolar ko'p. Hammomlar shunday mohirlik bilan qurilganki, ularning misli dunyoda yo'qdir», deb yozadi.



Buxoro. Masjidi Kalon.

Ayniqsa, Abdullaxonning yurt obodonchiligi yo'lidagi sa'y-harakatlari tarixchilar tomonidan yuksak baholangan. Uning davrida markaziy hokimiyat kuchayishi tufayli katta qurilish ishlari amalga oshirilgan. Chunonchi, Abdullaxon 1000 dan ortiq rabot va sardoba, ko'plab madrasa, masjid, ko'priklar, suv omborlari qurdirgan. Buxoroda juda katta savdo markazi bunyod etilgan.



Buxoro. Toqi Zargaron.

Savol va topshiriqlar

1. Shayboniylar davridagi ilm-fan namoyondalarining ismi-shariflarini daftaringizga ko'chirib yozing.
2. Aytib o'tilgan davrda qanday tarixiy asarlar yozilgan edi?
3. Shayboniixonning ma'rifatparvar hukmdor bo'lganligiga misollar keltiring.
4. Shayboniylar davrida qurilgan me'morchilik obidalari haqida so'zlab bering.
5. Ubaydullaxon va Abdullaxonning mamlakat obodonchiligi, adabiyot, ilm-fan rivojiga homiylik qilganliklari haqida so'zlab bering.

Bularni takrorlab boring:

- Shayboniylar davrida ilm-fan sezilarli darajada rivojlandi;
- Hukmdorlardan Muhammad Shayboniixon, Ubaydullaxon va Abdullaxon II lar ilm, fan, ma'rifat homiylari edi;
- Shayboniylar davrida ayniqsa ilm-fanning tarix, tibbiyot sohalari, shuningdek, me'morchilik boshqa sohalarga qaraganda ilgarilab ketdi;
- Ubaydullaxon va Abdullaxon II mamlakat obodonchiligi masalasiga katta e'tibor berganlar;
- Abdullaxon II mingdan ortiq rabot va sardoba, ko'plab madrasa, masjid, ko'prik, savdo markazlari va suv omborlari qurdirgan.

11-§. MOVAROUNNAHR AHOLISINING ETNIK TARKIBI

O'zbek xalqining shakllanishi tarixidan

Manbalar, xususan, «Avesto» va arxeologik topilmalarning guvohlik berishicha, o'zbeklarning kelib chiqishi soq, massaget, to'xar (yuechji) nomi bilan mashhur bo'lgan va qadim-qadim zamonlardan O'rta Osiyo hududida yashab kelgan So'g'd, Xorazm, Baqtriya, Parkana va Shosh (Qang')ning qadimiy xalqlariga borib taqaladi.

Qadimgi yunon tarixchisi Efor (miloddan avvalgi 405—330-yillar) o'zining o'ttiz jildlik «Umumiy tarix» asarida «Ko'ngli ochiq soqlar g'alla ekiladigan Osiyoda istiqomat qiladilar», deb yozadi.

Rim tarixchisi Pompey Trog (miloddan avvalgi I asr — milodiy I asr) o'zining 44 jildlik «Filip tarixi» asarida yozadi: «Massagetlar va soqlar (o'zlarini) qadimiy xalq deb hisoblab kelganlar. Qadimiylikda ular misrliklardan qolishmaydilar».

Keyinchalik eftallar, g'arbiy turk xoqonligi qavmlarining o'zbek xalqi shakllanishidagi o'rni katta bo'lgan.

VIII—X asrlar mobaynida bu hududda istiqomat qilib turgan turkiy guruhga mansub elat va urug'larning birlashishga intilish jarayoni kuchaygan. Natijada, yirik turkiy birlashmalar tashkil topgan. Bularning ichida qorluq va o'g'uz birlashmasi alohida nufuzga ega bo'lib, ular yirik davlat tuzishga muvaffaq bo'lgan edilar (VIII—XI asrlar).

Zamonlar o'tishi bilan o'zbeklarning etnik tarkibi yanada boyib borgan. Xususan X asr oxiri — XI asr boshlarida ikki azim daryo oralig'iga qoraxoniylar bilan birga Oltoy, Yettisuv, Sharqiy Turkistondan ko'chib kelgan qator turkiy qabilalar mahalliy turkiy tilli aholi tarkibini yanada boyitgan.

Qoraxoniylar davrida (X—XII asrlar) o'zbeklar xalq sifatida to'la shakllanib bo'lgan edi. Lekin, ular hali o'zbek deb atalmas edilar.

IX—XII asrlarda O'rta Osiyo hududida vujudga kelgan mustaqil davlatlar (Somoniyalar, G'aznaviylar, Qoraxoniylar, Xorazmshohlar) sharoitida o'zbek xalqi tashkil topdi. Mazkur elatlar tarkibida turgash, to'xsi, qorluq, o'g'uz, chigil, qang', uyshun, arg'in kabi 20 ga yaqin qabila vujudga keldi.

O'rta Osiyoga mo'g'ullar xurujidan keyin chig'atoy ulusi (1224—1370), Temuriylar davlati (1370—1506) ijtimoiy-siyosiy hayoti sharoitida 92 bo'li o'zbek qabilasidan iborat qavm shakllandi. Zero, chig'atoy ulusi va Temuriylar davlatida tarqoq urug' va qabilalarning etnik uyushuvi uchun sharoit yaratildi.

Mahmud Koshg'ariy Vizantiya (Rum)dan Xitoygacha bo'lgan kenglikda bijanak, qipchoq, o'g'uz, yamay, boshqort, basmil, koy, yaboqu, totor, qirg'iz qabilalari,

shimoldan janubgacha chigil, tuxsi, yag'mo, ig'roq, jaruq, jumul, uyg'ur, tangqut, xitoy qabilalari yashaganligini qayd etgan. Sharafiddin Ali Yazdiyning «Zafarnoma»sida O'rta Osiyoda yashagan 44 qabila qayd etiladi.

XVIII asrda Termiz atroflarida nayman va qo'ng'iro't qabilalari, ulardan shimolda va shimoli-sharqda yuz, qatag'on, mang'it, kenagas, olchin, keroit, qurama, jobut, mesit, uyrot, xitoy-qipchoq (Miyonkolda), qirq, marki, shodi, yobu qabilalari istiqomat qilgan.

Miyonkolda xitoy-qipchoqlardan tashqari bahrin, jaloyir, yetti urug' qabilasi, Nurota hududida burqut, Qubodiyonda do'rmon, Shahrisabzda kenagas, Qarshi hududida mang'itlar, Xuzorda saroy, Hisorda va Urgutda yuz, o'tarchi, Jizzaxda qirq, Boysunda qo'n-g'iro't qabilalari yashagan.

Temuriylar yashagan davrga kelib turkiy xalqlar deganda Movarounnahrda, Amudaryoning janubiy sohili atrofida, Dashti qipchoqning janubida yashovchi aholi-ning asosiy qismi anglangan. «O'zbek» atamasi Dashti qipchoqda yashovchi Shaybon ulusida istiqomat qilgan qabilalarga nisbatan ishlatilgan. Shayboniixon Movarounnahrda egalik qilgan paytda bu yerga kelib o'rman-shgan ko'chmanchi o'zbek qabilalari mahalliy turkiy tilda so'zlashuvchi qavmlar va xalqlar tarkibiga singib ketganlar va hukmron qabila sifatida ularga o'zlarining «o'zbek» degan etnik nomini berganlar, xolos. Shu tariqa, XVI asr boshidan boshlab Movarounnahrda yashovchi xalqlar umumiy nom bilan «o'zbek» deb atala boshlagan.

Bundan, o'zbeklar XVI asrda paydo bo'lgan ekan, degan xulosa kelib chiqmasligi lozim. Tarixda shunday jarayonlar ham bo'lganki, biron xalqning tarixi o'sha xalqning nomidan ancha ilgari paydo bo'lgan. Buni isbotlovchi tarixiy faktlar serob. Dashti qipchoq qabilalarining ajdodlari tarixda juda chuqur iz qoldirganlar. Ular Somoniylar (819—1005), chig'atoy ulusi, Temur va Temuriylar davlatining hayotida katta o'rin tutganlar. O'zbeklarning ajdodlari Saljuqiylar (1038—1194) va G'aznaviylar (977—1186) davlatining harbiy-siyosiy

tayanchi bo'ldilar. O'zbeklar XVI asrning boshida Buxoro xonligiga, Xiva xonligiga asos soldilar.

O'zbeklar o'zlarining butun tarixi davomida o'z qo'shnilari bilan yaqindan iqtisodiy, savdo va madaniy aloqada bo'lganlar.

«O'zbek» atamasi

Ba'zi olimlar «o'zbek» atamasini qadimiy ajdodimiz O'g'izxon (miloddan avvalgi II mingyillik o'rtalari) nomi bilan bog'liq, «O'g'uzbek» so'zi «o'zbek» bo'lib ketgan, deb hisoblaydilar. Bunda ular miloddan avvalgi XII asrda yozilgan Ossuriya davlati bitiklari ma'lumotiga asoslanadilar. Mazkur bitiklarda qayd etilishicha, O'rta Osiyodan borgan ko'chmanchi qabilalarning nomi «ishgauz», boshliqlarining ismi esa Ispak bo'lgan. Bundan xulosa chiqargan olimlarimiz turkiy tilda «ishgauz» nomi aslida «o'g'uz» nomi bilan bog'liqdir, 24 urug'dan iborat bo'lgan bu turkiy qabila ikki yirik guruhdan — «icho'g'uz» va tasho'g'uz» (ichki va tashqi o'g'iz)dan iborat bo'lib «icho'g'uz» Ossuriya bitiklaridagi «ishgauz» so'zining, Ispak esa «O'zbek» so'zining o'zidir, degan fikrni ilgari suradilar.

Hozircha anig'i shuki, Shayboniyxon boshchiligida Dashti qipchoqdan ko'chgan ko'chmanchi o'zbek qabilalari ikki daryo oralig'idagi yerlarga ko'chib kelgach, o'zbek xalqi xalq sifatida shakllandi, deyish tarixiy haqiqatga mutlaqo ziddir. Shayboniyxon Movarounnahrni egallagach, Movarounnahrning qadimiy xalqi o'zbek nomini oldi, xolos.

Savol va topshiriqlar

1. O'zbek xalqining o'tmish ajdodlari ro'yxatini tuzing.
2. «O'zbek» qabilalari qaysi hududlarda yashagan edilar?
3. «O'zbek» atamasining ma'no jihatidan kelib chiqishi haqida qanday fikrlar mavjud?

Balarni takrorlab boring:

- O'zbek xalqining ajdodlari azaldan o'troq xalq bo'lgan;
- O'zbek davlatchiligi tarixi Misr, Hindiston, Yunoniston va Eron kabi eng qadimiy davlatlar tarixi bilan bir qatorda turadi;

- Asrlar davomida o'zbek xalqining etnik tarkibi boyib borgan;
- Ba'zi olimlar «o'zbek» atamasini qadimiy ajdodimiz O'g'izxon nomi bilan bog'liq deb hisoblaydilar.

BIRINCHI BOB YUZASIDAN TEST TOPSHIRIQLARI

1. Dashti qipchoq qabilalari kimning hukmdorligi davrida islom dinini qabul qildi?

- A. Abulxayrxon
- B. Shayboniyxon
- D. O'zbekxon
- E. O'g'izxon
- F. To'xtamishxon

2. Abulxayrxon barpo etgan davlatning inqirozga uchrashi sababi nimada?

- A. Birlashtirishning mustahkam negizi yaratilmaganligi
- B. Qabilalar o'rtasida mustahkam iqtisodiy aloqaning ta'minlanmaganligi
- D. Qabila boshliqlarining doimo mustaqillikka intilganliklari oqibatida
- E. Abulxayrxonning Oltin O'rda bilan mustahkam qo'shnichilik aloqalarini o'rnatmaganligi
- F. Javoblarning A, B, D bandlari to'g'ri

3. Qanday sabablarga ko'ra Shayboniyxon hukmdor bo'lmasidan avval ham Movarounnahrda homiylarga ega bo'la olgan edi?

- A. O'z davrining atoqli shoiri bo'lganligi uchun
- B. Harbiy musobaqalarda o'zining barcha raqiblarini mag'lub eta olganligi uchun
- D. Temuriylarning ichki kurashlarida goh u hukmdorga, goh bu hukmdorga o'z qo'shini bilan xizmat qilgani uchun
- E. Samarqandning temuriy hukmdorlariga sadoqat bilan xizmat qilgani uchun
- F. Eron bosqinchilariga qarshi kurashda temuriylarga sadoqat ko'rsatganligi uchun

4. Nima uchun Shayboniyxon Movarounnahrni qisqa muddatda bosib olishga erishgan edi?

- A. Zamonaviy kuchli armiyaga ega bo'lganligi uchun
- B. Temuriylarning o'zaro ichki urushlaridan qattiq azob chekkan xalq ommasi Shayboniyxonni qo'llab-quvvatlagani uchun
- D. Movarounnahrda siyosiy parchalanish nihoyatda kuchli bo'lganligi uchun
- E. Mahalliy hukmdorlar bir qismi Shayboniyxon bilan keli-shuvchilik yo'lini tutganligi uchun
- F. Shayboniyxonga qarshi ozodlik kurashini uyushtirishga qodir bo'lgan biror temuriy hukmdor bo'lmagani uchun

5. Dashti qipchoqda yashagan aholi etnik jihatdan kimlar edi?

- A. Mo'g'ullar
- B. Tatarlar
- D. Turkiy tilli qabilalar
- E. Polovetslar
- F. Kushonlar

6. Shayboniylar ulusi hududini aniqlang:

- A. Volgabo'yi
- B. Shimoliy Kavkaz
- D. Qora dengiz bo'ylari
- E. G'arbiy Qozog'iston va G'arbiy Sibir
- F. Sibir va Oltoy o'lkasi

7. Dashti qipchoqda ko'chmanchi o'zbeklar davlatiga kim asos solgan?

- A. Abulxayrxon
- B. Shaybon
- D. Botuxon
- E. Jo'chi
- F. Berkaxon

8. Abulxayrxon temuriyzodalardan kimning qizini xotinlikka oldi?

- A. Shohrux mirzoning
- B. Husayn mirzoning
- D. Mironshoh mirzoning

- E. Ulug'bek mirzoning
- F. Sulton Abu Sa'idning

9. Shayboniyxon temuriyzodalardan kimning homiyligida Buxoroda yashadi va ilm o'rgandi?

- A. Abu Sa'id Sulton
- B. Sultonali mirzo
- D. Umarshayx mirzo
- E. Husayn Boyqaro
- F. Sulton Ahmad

10. Bobur mirzo necha yoshida, qachon hokimiyatga o'tqazildi?

- A. 12 yoshda, 1494-yilda
- B. 10 yoshda, 1492-yilda
- D. 9 yoshda, 1491-yilda
- E. 13 yoshda, 1495-yilda
- F. 15 yoshda, 1497-yilda

11. Bobur mirzo qachon va kimdan Samarqand taxtini birinchi marta tortib oldi?

- A. 1495-yilda, Sultonali mirzodan
- B. 1496-yilda, Sulton Mahmuddan
- D. 1497-yilda, Yunusxondan
- E. 1498-yilda, Boysung'ur mirzodan
- F. 1499-yilda, Xusravshohdan

12. Shayboniyxon Samarqandni qachon uzil-kesil egalladi?

- A. 1498-yilda
- B. 1499-yilda
- D. 1500-yilda
- E. 1501-yilda
- F. 1502-yilda

13. Shayboniyxon davlati qaysi hududlarni birlashtirgan edi?

- A. Movarounnahr va Xorazm
- B. Movarounnahr va Xuroson
- D. Movarounnahr, Toshkent va Farg'ona
- E. Movarounnahr, Xorazm va Farg'ona
- F. Movarounnahr, Xorazm va Xuroson

14. Ko'chkunchixon qaysi yillarda Samarqand taxtida o'tirdi, uning onasi kim edi?

- A. 1510—1523-yillarda, Nigor Sultonbegim
- B. 1510—1525-yillarda, Gulbadanbegim
- D. 1510—1530-yillarda, Robiya Sultonbegim
- E. 1510—1531-yillarda, Gulchehrabegim
- F. 1510—1532-yillarda, Gulrangbegim

15. Nima sababdan Movarounnahrda Buxoroning markaz sifatida mavqei oshib bordi?

- A. Ubaydullaxon Movarounnahrni Buxoroda turib boshqargani uchun
- B. Samarqand urushda vayron etilgani uchun
- D. Buxoroda Mir Arab madrasasi qurilgani uchun
- E. Samarqandda temuriy shahzodalar qolmagani uchun
- F. Shayboniyxon qatl etilganligi uchun

16. Shayboniylardan qaysi xon Movarounnahr, Xuroson va Xorazmni qayta birlashtirdi?

- A. Ko'chkunchixon
- B. Suyunchxon
- D. Ubaydullaxon
- E. Abdullaxon I
- F. Abdullaxon II

17. Buxoro xonligi qaysi xon davrida rasman tashkil topdi?

- A. Shayboniyxon davrida
- B. Ubaydullaxon davrida
- D. Abdullaxon II davrida
- E. Abdulmo'min davrida
- F. Pirmuhammadxon davrida

18. 5,2 grammlı kumush tangani shayboniylardan kim va qachon muomalaga kiritgan?

- A. Ubaydullaxon, 1535-yilda
- B. Abdullaxon I, 1541-yilda
- D. Ko'chkunchixon, 1523-yilda
- E. Mahmud sulton, 1511-yilda
- F. Shayboniyxon, 1507-yilda

19. «Abdullanoma» asarining muallifi kim?

- A. Kamoliddin Binoiy
- B. Muhammad Solih
- D. Sultonali Samarqandiy
- E. Hofiz Tanish al-Buxoriy
- F. Mirza Muhammad Haydar

20. Mir Arab madrasasi qachon va qayerda qurilgan?

- A. 1496—1497-yillarda, Toshkentda
- B. 1533—1535-yillarda, Samarqandda
- D. 1535—1536-yillarda, Buxoroda
- E. 1557—1560-yillarda, G'ijduvonda
- F. 1577—1578-yillarda, Buxoroda

21. 1512-yilda Bobur mirzo Samarqand taxtini egallaganida aholi nega uni qo'llab-quvvatlamagan?

A. Samarqand taxtini Eron qo'shini yordamida egallagani uchun

B. Musulmonlarning shia mazhabidagi hukmdori shoh Ismoil yordamida taxtni egallagani uchun

D. Shoh Ismoilni oliy hukmdor deb e'lon qilgani uchun

E. B, D javoblar to'g'ri

22. Boburshohning buyukligi nimada?

A. Odil, shafqatli, saxovatli podsho bo'lganligida

B. Ulug' sarkarda bo'lganida

D. Vatan ozodligi yo'lida hatto o'limga ham tayyor bo'lganida

E. Hindistonda buyuk Boburiylar saltanatiga asos solganida

F. Shayboniylar qarshi ayovsiz kurashganida

Ikkinchi bob

ASHTARXONIYLAR HUKMRONLIGI DAVRIDA BUXORO XONLIGI

12-§. ASHTARXONIYLAR HOKIMIYAT TEPASIDA

**Ashtarxonlyarning
kelib chiqishi**

Abdullaxon II markaziy hokimiyatni susaytirishga uringan har qanday xatti-harakat ta-

shabbuskori hamda ishtirokchilarini shafqatsizlik bilan bostirdi. Shunga qaramay, u baribir siyosiy parokandalikka barham berolmadi. Taxtga o'g'li Abdulmo'min o'tqazildi. Biroq, uning hukmdorligi uzoqqa cho'zilmasdi. Oradan ko'p o'tmay Abdulmo'min ham o'ldirildi. Abdulmo'mindan qolgan 2 yashar o'g'ilning xonlik huquqini hech kim tan olmadi. Ana shunday bir sharoitda mamlakatning turli burchaklaridan taxt da'vogarlari chiqa boshladi. Ulardan biri Abdulmo'minning amakisi Balx hokimi Pirmuhammad edi. Buxoro xonligi taxtiga o'sha Pirmuhammad o'tqazildi. Biroq, uning zodagonlar orasida obro'si yo'q edi. Pirmuhammad davlatni 1601-yilgacha idora qildi, xolos. Markaziy hokimiyat nihoyatda zaiflashdi.

Buxoro xonligida vujudga kelgan og'ir vaziyatdan birinchi navbatda qo'shni davlatlar foydalanib qolishga urindilar, mamlakatda esa ichki nizolar yanada avj oldi. Har bir viloyat hukmdori ajralib chiqib mustaqil bo'lib olishga intildi. Xususan, Eron hukmdori shoh Abbos Hirotni va Xurosonning talaygina qismini bosib oldi. Qozoq sultonlarining *lashkari* Toshkent bilan Samarqandni egalladilar. Buxoroning o'zi bo'lsa ikki oy davomida qamal qilindi. Xorazm esa mustaqil davlat bo'lib oldi. Ana shunday og'ir sharoitda Buxoroning oliy tabaqalari kelib chiqishi Ashtarxon (Hojitarxon)lik bo'lgan Jonibek **sultonni** taxtga o'tkazishga qaror qildilar. Yangi sulola **ashtarxoniylar** nomini oldi.

Xo'sh, Jonibek sulton avlodi qanday qilib Buxoroga kelib qolgan? Ashtarxoniylar chingizxonning o'g'li Jo'chixon naslidan edilar. Ular XIV asrning 80-yillaridan boshlab Ashtarxon (Astraxan) va uning atrofidagi yerlarga hukmronlik qila boshlaganlar. 1556-yili Rossiya Astraxanni bosib olgach, ashtarxoniylar Yormuhammadxon oila a'zolari va qarindosh-urug'i bilan Buxoro xoni Iskandarxon (Abdullaxonning otasi)ning huzuriga — Buxoroga keladilar. Xon uni izzat-ikrom bilan kutib oladi hamda qizi Zuhraxonimni Yormuhammadxonning o'g'li Jonibek sultonga beradi. Jonibek sulton Zuhraxonimdan uch o'g'il (Dinmuhammad, Boqimuhammad va Valimuhammad) ko'rgan. O'g'illarining kattasi Dinmuhammad Abdullaxon davrida Seistonni idora qilgan.

1601-yili Jonimuhammadxon nomiga xutba o'qitiladi va Buxoro xoni deb e'lon qilinadi. Ayni paytda Jonimuhammadxon o'g'li Dinmuhammad foydasiga taxtdan voz kechadi. Lekin, Dinmuhammadga Buxoro taxtiga o'tirish nasib etmaydi. U Eron qo'shinlariga qarshi urushda halok bo'ladi. Endi, Buxoro taxtiga Boqimuhammad o'tiradi. Boqimuhammad bu davrda Samarqand hokimi edi. Valimuhammad esa voris deb e'lon qilinadi.

Shunday qilib, Buxoro taxtini ashtarxoniylar egallaydilar va Buxoro xonligi tarixida o'zbek sulolasi — **ashtarxoniylar sulolasi hukmronligi davri** (1601—1756) boshlanadi. Bu sulola Buxoro taxtida 1756-yilgacha, mang'itlar sulolasi vakillari qo'lga o'tguncha hukmronlik qildi.

Ashtarxoniylar xonlar

O'zbek davlatchiligi boshqaruviga yangi sulolaning kelishi amalda biror-bir jiddiy tarixiy o'zgarishga olib keltirgan yo'q.

Boqimuhammad (1601—1605) davlatni boshqarish tizimini mustahkamlashga ko'p urindi.

Buning sababi, birinchidan, shayboniylar Pirmuhammad davrida markaziy hokimiyatning nihoyatda kuchsizlanib qolganligi bo'lsa, ikkinchidan, sulola al-

mashuvi jarayonida bu holatning yanada kuchayganligi edi.

Xususan **Marv**, **Xorazm** va **Balx** ajralib chiqish yo'lini tutdilar.

Shayboniy Abdullaxon II Xorazmni juda katta qiyinchilik bilan **Buxoro** ixtiyoriga kiritgan edi. Uning o'limidan so'ng **Xorazm** turkmanlar yordamida **Buxoroga** bo'ysunmaslik yo'lini tutdi.

Boqimuhammad Xorazm masalasini tinch yo'l bilan hal etdi.

1602-yilda esa **Balxni** kuch bilan bo'ysundirdi va unga ukasi **Valimuhammadni** hokim etib tayinladi.

Boqimuhammadxon yana qator hududlarni **Buxoroga** bo'ysundirishga muvaffaq bo'ldi.

1603-yilda **Eron** safaviylari qo'shini **Balxga** hujum qilganida bu qo'shinlarni mag'lubiyatga uchratdi.

Boqimuhammadxon endi **Xurosonda** ham **Buxoro** hokimiyatini tiklash maqsadi yo'lida harakat qila boshladi. **Xuroson** yurishi 1604-yilga mo'ljallangan edi. Ammo, 1604-yilda qozoq xoni **Keldimuhammadning** qo'shinini mamlakat hududidan haydab chiqara oldi. Buning uchun esa ancha vaqt zarur bo'ldi. Buning ustiga **Boqimuhammadxon** 1605-yilda vafot etdi.

Boqimuhammad vafotidan keyin uning inisi, **Balx** hokimi **Valimuhammadxon** (1605—1611) taxtga o'tqazildi. Biroq, uning yirik amaldorlar bilan munosabatida dushmanlik paydo bo'ldi. Bunga **Valimuhammadxonning** **Xuroson** masalasi xususida **Eronga** nisbatan tutgan kelishuvchilik siyosati sabab bo'lgan. Chunki, bu kelishuv oqibatida **Buxoroning** **Xurosondagi** mavqei amalda qo'ldan chiqarilgan edi. Endi, buxorolik amirlar unga qarshi isyon uyushtirmoqchi bo'lganda ikki o'g'lini olib **Eronga** qochib ketdi. Amirlar **Boqimuhammadning** o'g'li **Imomqulixonni** taxtga o'tqazganlar (1611—1642). Bu vaqtgacha **Imomqulixon Samarqand** hokimi edi. U **Valimuhammad** boshlab kelgan **Eron** qo'shinlarini tor-mor keltirib mamlakat mustaqilligini saqlab qoldi.

Imomqulixon davlatiga katta xavf solayotgan kuch-

lardan biri Jung'orlar (qalmoqlar) davlati edi. Jung'orlar (ular oyrat deb ham atalganlar) avvallari Sibir va Koshg'ar oralig'ida hamda Oltoydan to Ila daryosigacha bo'lgan hududlarda istiqomat qildilar. Keyinchalik ular g'arb sari tobora siljib, Jung'orlar davlati deb atalgan davlatga asos solgan edilar. Ular qozoqlarning ayrim guruhlarini egallab turgan hududlaridan siqib chiqara boshlaganlar. Bu hududlardan siqib chiqarilgan qozoqlarning ba'zi guruhlari Movarounnahr sarhadlariga kirib kela boshlaganlar. Jung'orlarning qo'shinlari bilan bo'lgan urushda Imomqulixon qo'shinlari g'alaba qozondi.

Imomqulixon Toshkent yerlaridan qozoqlarni siqib chiqarish maqsadida 1613-yilda shaharga hujum boshladi. U Toshkentni egallagach, o'g'li Iskandar sultonni Toshkent hukmdori etib tayinladi. Iskandar sulton Toshkent aholisiga nisbatan qattiq zulm o'tkazdi. Xususan, boj, xiroj va soliqlarni ko'paytirdi. Bunga qarshi Toshkentda qo'zg'olon boshlandi. Qo'zg'olon natijasida Iskandar sulton o'ldirildi. Bu voqeadan xabar topgan Imomqulixon Toshkent ustiga qo'shin tortib borib qo'zg'olonchilarni ayovsiz jazolagan. O'shanda Toshkentda katta qirg'in uyushtirilgan. Imomqulixon o'g'lining xuni uchun toshkentliklardan ayovsiz o'ch oldi.

Buxoroda Imomqulixon hukmronligining oqibati shu bo'ldiki, uning davrida xon hokimiyati nisbatan mustahkamlandi. Nufuzli amirlar va zodagonlar ham xon hokimiyatiga nisbatan dushmanlik munosabatlarini to'xtatib turishga majbur bo'ldilar. Biroq, shunga qaramay, Imomqulixon mamlakatdagi siyosiy tarqoqlikning oldini ololmadi.

Imomqulixon qattiqqo'l va berahm odam bo'lishiga qaramay, o'z davrining ilm-ma'rifatli hamda bunyodkor kishilaridan biri edi. U ayni paytda darvishlarni qo'llab-quvvatlagan, o'z atrofiga olimlar, shoirlarni ham to'plagan, hatto o'zi ham she'rlar yozgan.

Imomqulixon hukmronligi davrida sug'orish inshootlari kengaydi, eskilari ta'mirlandi. Natijada, qishloq xo'jalik ishlab chiqarishi birmuncha jonlandi.

Manbalarda **Imomqulixon** haqida quyidagilar ham qayd etilgan: «**Imomqulixon** nochorlar ishini yengillashtirdi. Arz bilan kelganlarni qaytarmadi. Uning zamonida kambag'al ham, bechora ham qolmagandi. chiqargan farmonlari ijrosi borasida amaldorlarga qattiq turdi. Qorong'i tushishi bilan oddiy kiyim kiyib vaziri va qo'rchilari bilan bozoru mahallalarni aylanardi. Oddiy xalqning haqiqiy turmushidan boxabar bo'lib turardi».

Qudratli mahalliy hukmdorlardan Samarqand hukmdori amir Yalangto'shbiy hamda Badaxshon hukmdori Mahmudbiy qatag'onlar katta bunyodkorlik ishlari olib bordilar. Jumladan, amir Yalangto'shbiy davrida Samarqandda ulkan ikkita madrasa — Sherdor va Tillakori madrasalari bunyod etildi. Samarqandning bosh maydoni bo'lmish Registon ham o'sha davrda bugungi qiyofaga keltirildi. Bu maydon Samarqand shahrining eng go'zal maydonlaridan biri bo'lib qoldi.

O'zaro siyosiy urushlar va ularning oqibatlari

Imomqulixon dan keyin Buxoro taxtini uning inisi **Nadrmuhammadxon** egalladi.

Biroq, uning hukmronligi atigi uch yil (1642—1645) davom etdi, xolos. U o'zining 12 nafar o'g'li, bir nabirasi va ikki nafar jiyaniga mamlakatning asosiy viloyatlarini mulk qilib bo'lib berdi va mamlakatdagi ijtimoiy-siyosiy tarqoqlikni kuchaytirdi. Aynan Nadrmuhammad davridan boshlab davlatchilik asoslari zaiflasha bordi. Oxir-oqibatda, Nadrmuhammad poytaxtda yo'qligida bir guruh fitnachi amirlar uni taxtdan tushirib o'g'li **Abdulazizni** xonlik taxtiga o'tqazadilar (1645—1680). Nadrmuhammadxon Balxga qochib bordi, toju taxtni qaytarib olish va viloyat hokimlari o'zboshimchaligiga barham berish maqsadida Hindiston podshohi temuriy-zoda Shohjahon (1628—1658)ga yordam so'rab murojaat etadi. U ikki o'g'li boshchiligida Balxga qo'shin jo'natdi. Shahzodalar Balx viloyatini egalladilar. Uni Abdulazizxon ikki yildan keyingina qaytarib olishga muvaffaq bo'ldi.

Abdulazizxon davrida Xiva xonlarining talonchilik yurishlari kuchaydi. 1655-yili Xiva xoni Abulg'azi katta

qo'shin bilan kelib, ikki bor Buxoro atroflarini talon-toroj qilib ketdi. Qorako'l aholisidan bir qismini asir olib, Karmanani vayron qildi.

1658-yili xorazmliklar Vardonzeni taladilar. 1662-yilgi boshqinda esa Buxorogacha yetib bordilar.

Xorazm bilan uzoq davom etgan urushlar Buxoro xonligining siyosiy va iqtisodiy ahvoliga yomon ta'sir ko'rsatdi va ijtimoiy-siyosiy ahvolni murakkablashtirib yubordi. Noiloj qolgan Abdulazizxon toju taxtni inisi Subhonquliga topshirib, o'zi haj safariga jo'nadi.

Subhonqulixon hukmronligi (1680–1702)

Subhonqulixon taxtga o'tirgan davrda Buxoro xonligining ichki va tashqi ahvoli nihoyatda og'ir edi. Ichki ahvolning og'irligi shunda ediki, birinchidan, Subhonqulixon Balx viloyatlarida hukmronlik qilayotgan o'g'illariga qarshi uzluksiz urush olib borishga majbur bo'ldi. Ikkinchidan, Movarounnahr viloyatlari hukmdorlari ham mustaqillik talab qila boshladilar. Ular markazga bo'ysunmasdan, xon xazinasiga soliq to'lamaslik yo'lini tutdilar. Mustaqillikka intilgan amirlardan ba'zilari o'z niyatlariga erishish yo'lida hatto davlatga xiyonat yo'lga kirganlar ham. Masalan, Samarqand viloyati hokimi Xojaqulibiy o'tarchi Xiva xoni Anushaxon bilan xonga qarshi urush boshlashini ochiq-oshkora e'lon qildi.

Tashqi ahvolning og'irligi shunda ediki, Xiva xonligi bilan munosabatlar borgan sayin yomonlashib bormoqda edi. Xiva qo'shinlarining katta-katta vayronalıklar keltiruvchi hujumlari avj olgan edi. Xiva qo'shinlari Buxoro, Karmana va Vardonzegacha yetib kelgan va hatto Samarqandni ham vaqtincha ishg'ol qilishga muvaffaq bo'lgan edilar. Samarqand ishg'ol etilgach, 1681-yilda Xiva xoni Anushaxon nomiga xutba o'qitilgan hamda uning nomidan pul zarb etilgandi. Bu hodisa samarqandliklarning Anushaxonni o'z hukmdorlari deb tan olganligini bildirardi. Bundan g'azablangan Subhonqulixon Badaxshon hokimi Mahmudbiy otaliq yordamida Samarqandga qo'shin tortib bordi, shahar va viloyatdan xivaliklarni quvib chiqarishga erishdi. Samarqandliklarni

esa qattiq jazoladi, ulardan katta miqdorda o'lpon undirdi.

Subhonqulixon endi e'tiborni Mahmudbiy yordamida isyonkor o'g'illarini biryozlik qilishga qaratdi va Balxga qo'shin tortdi. Uning amri bilan o'g'li Siddiq Muhammad hibsga olindi va u o'sha yerda o'ldirildi. Balx hokimligi yuz qabilasining sardori Muhammad hoji otaliqqa topshirildi. Subhonqulixon Xiva qo'shinlarining ketma-ket hujumiga chek qo'yish maqsadida Anushaxonga qarshi 1686-yili fitna uyushtirdi. Oxir-oqibatda, Anushaxonning ko'ziga mil tortiladi va taxtdan tushiriladi. O'rni o'g'li Erengxon (Ernakxon) taxtga o'tqaziladi. Biroq, Erengxon ham Buxoro ustiga bosqin uyushtiradi. Shunda Subhonqulixon yana Mahmudbiy qatag'onni yordamga chaqirishga majbur bo'ladi. Yordamga yetib kelgan Mahmudbiy qo'shinlari bilan birlikda Subhonqulixon Xiva qo'shinlarini chekinishga majbur etadi. Endi Subhonqulixon Erengxondan ham qutulish yo'lini izlaydi va bunga muvaffaq bo'ladi. Chunki, Xivada Buxoro xonini qo'llab-quvvatlovchi kuchli ta'sirga ega bo'lgan guruh vujudga keltirilgan edi. Erengxon Xivaga qaytganidan so'ng zikr etilgan guruh uni zaharlab o'ldiradi. Xivada Subhonqulixonning nomi xutbaga qo'shib o'qitiladi va uning ismi-sharifi yozilgan tanga muomalaga kiritiladi. Shunday qilib, 1688-yilda Xiva Buxoro xonligi tarkibiga qo'shib olinadi. Subhonqulixon oliy hukmdor deb tan olinadi. Subhonqulixon amir Shohniyozni Xiva hukmdori etib tayinlaydi.

Ham ichki, ham tashqi dushmanlariga qarshi kurashda Subhonqulixonga yordam bergan Mahmudbiy otaliq Balx noyibi etib tayinlanadi.

Subhonqulixonning hukmronligi yillari xalqning iqtisodiy ahvoli g'oyatda og'irlashdi. chunki, mehnatkash ommaga og'ir soliqlar solindi. Hatto shunday hollar ham bo'lgan ediki, Subhonqulixon xalqdan 7 yillik soliqni bir yo'la to'lashni talab etadi. Mamlakat og'ir iqtisodiy tanazzul va parokandalikka uchragan bir paytda Subhonqulixon vafot etdi.

Ashtarxoniylar davrida davlat boshqaruvi

Ashtarxoniylar hukmronligi
davrida ham shayboniylar
davrida amalda bo'lgan dav-

lat lavozimlari saqlanib qolgan. Shunday bo'lsa-da, ashtarxoniylar davrida ba'zi davlat lavozimlari mavqaida o'zgarishlar sodir bo'lgan.

Masalan, XVI asrda otaliq lavozimida ishlagan amaldorning vazifasi joylardagi boshqaruv ishi bilan bog'liq bo'lgan. Ashtarxoniylar davrida esa otaliqning markaziy hokimiyatdagi mavqei kuchaygan. Xususan, Abdulazizxon (1645—1680) poytaxtdagi otaliq vazifasiga Yalangto'shbiyni tayinlagan.

Subhonqulixon davrida eng muhim harbiy maqsadlarni ro'yobga chiqarish vazifasi otaliqqa yuklatilgan. Bora-bora otaliq amirlarning amiriga aylangan.

Ashtarxoniylar davrida saroy kutvoli davlat lavozimi joriy etilgan. U mamlakatda davlat mablag'i hisobiga amalga oshiriladigan qurilish va obodonchilik ishlariga javobgar bo'lgan.

Savol va topshiriqlar

1. Ashtarxoniylar sulolasi qanday qilib hokimiyat tepasiga keldi?
2. Imomqulixonning siyosiy parokandalikka barham berish yo'lidagi urinishlari nimalarda namoyon bo'ladi?
3. Subhonqulixonning ichki va tashqi siyosatiga baho bering.
4. Nega Subhonqulixon davrida xalqning iqtisodiy ahvoli og'irlashdi?

Bularni takrorlab boring:

- 1601-yilda Buxoro xonligida shayboniylar sulolasining hukmronligi barham topdi;
- Oliy hokimiyat ashtarxoniylar sulolasi qo'lga o'tdi;
- Astraxanni (Hojitarxon, Ashtarxon) 1556-yilda Rossiya bosib olgach, Astraxan hukmdorlari sulolasi vakili Yormuhammadxon oila a'zolari bilan Buxoroga ko'chib kelgan;
- Astraxan «Ashtarxon» so'zining ruscha talaffuzidir;
- 1601-yilda Buxoro xonligida hokimiyatni egallagan yangi sulola vakillari ashtarxonlik bo'lganligi uchun u «ashtarxoniylar» deb ataladigan bo'lgan;
- Ashtarxoniylar hukmdor Boqimuhammadxon davlatni va mintaqani birlashtirish yo'lida jiddiy muvaffaqiyatlarga erishgan;
- Imomqulixon davrida (1611—1642) mamlakatda nisbatan siyosiy iqtisodiy va ijtimoiy barqarorlik hukm surdi.

13-§. IJTIMOIIY-IQTISODIY VA MADANIY HAYOT

Ijtimoiy-iqtisodiy hayot

Ashtarxoniylar hukmronligi
davrida markaziy hokimiyat-
ning kuchsiz va iqtidorsiz

bo'lgani kuzatiladi. Ularning ikki rasmiy poytaxti bor edi: Buxoro bilan Balx. Balxni taxt vorisi (valiahd) boshqarar edi. Otaliq va o'zbek qabilalari yo'l boshchilari-ning nufuzi shayboniylar davridagiga qaraganda oshib ketdi. Boshqaruv ishlari o'shalar qo'lida edi. Siyosiy parokandalik, tinimsiz davom etgan ichki kurashlar, shahar hayotining so'nishi, oshirib yuborilgan boju xirojlar natijasida aholining xonavayron bo'lishi, tashqi hujumlar, talon-torojlar natijasida vohalarning xarob holga kelib qolishi, savdo karvonlarining g'orat qilinishi ashtarxoniylar hukmronligi davrining o'ziga xos xususiyatlaridandir. To'g'ri, Imomqulixon bu holatning oldini olishga harakat qilgan. Chunonchi, u 1614—1615-yillarda Qashqadaryodan Qarshi cho'liga kanal qazitirgan. 1633—1634-yillarda esa Qo'shqo'rg'onda kanal qazitirgan. Lekin, sun'iy sug'orish qurilishlari ko'lami XVI asrdagidek bo'lmagan. Natijada, XVII asr ikkinchi yarmiga kelib mamlakat iqtisodiyoti tanazzulga yuz tuta boshladi. Qishloq xo'jaligi inqirozga uchradi, sug'orish tarmoqlari izdan chiqdi.

Buxoro xonligida g'alla ekish kamayib ketdi. Chunki, yer egasi oldin dehqondan hosilning uchdan bir qismini oladigan bo'lsa, endi uchdan ikki, to'rt dan uch qismini oladigan bo'lib qoldilar. Dehqon ziroatkorlikdan hech naf ko'rmadi. Muhammad Badi' Samarqandiy istehzo bilan «sudxo'r bir kishiga bir tanga bersa, uni yetti tanga qilib qaytarib olardi», deb yoza-di. Yer egalarining, amaldorlarning o'zboshimchaligi chegara bilmay qoldi. Jamoa yerlari — yaylovlar dushman otlari tuyog'i ostida qoldi; jamoaga tegishli ekin yerlar talon-toroj qilindi.

Hunarmandlar ham o'z mahsulotlarini sotishda bojdan tashqari turli oliq-soliqlar to'lashga majbur etildi.

Amaldorlardan saroyga peshkash yoki hadyalar keltirish ham barham topdi.

Natijada, yuqori mansab egalari qo'lida katta-katta yer-mulklar jam bo'la boshladi. Masalan, Samarqand viloyati hokimi Yalangto'shbiy, Ollohberdibiy kabilar qo'lida ulkan va bepoyon ekin yerlari to'plandi. Xon ulardan xiroj ham olmay qo'ygandi. Xazinasi bo'shab qolgan xon o'z yerlarini sotuvga qo'yishga majbur bo'ldi.

Ruhoniy katta yer egalarining mavqei ham o'sdi. Farg'ona va Toshkentda ular hatto hokimiyatni ham o'z qo'llariga oldilar.

Ana shu ijtimoiy va iqtisodiy qiyinchiliklarga qaramay, ba'zi viloyatlarda hunarmandchilik, savdo-sotiq va pul munosabatlari rivojlanishda davom etdi. Sayido Nasafiyning e'tirofiga ko'ra, Buxoro xalqi 200 xil turli kasbu hunar sohibi bo'lgan. Bunday holni mamlakat chekkalaridagi shaharlardagina kuzatish mumkin edi. 1670—1680-yillardagi jung'orlar hujumi va talon-torajlari oqibatida Zarafshon vodiysi, xususan Buxoro va Samarqand xarobazorga aylandi.

Fan va madaniyat

Mamlakatdagi siyosiy vaziyat qanday bo'lishidan qat'i

nazar, ashtarxoniylar ilm, madaniyat, san'at va me'morchilikka homiylik qilganlar. Shuning uchun ham shayboniylar davrida rivoj topgan fan va madaniyat o'z an'analari bo'yicha ashtarxoniylar davrida ham davom etdi. Chunonchi, XVII asrda ijod qilgan ilm ahli, shoir-lar va tarixchilar soni ilgari-dan kam bo'lmadi. 1692-yilda Muhammad Badi' Samarqandiy tomonidan bitilgan tazkirada shu asrda yashagan 165 nafar ijodkorning nomi tilga olinganligi bu fikrning isbotidir. Bundan tashqari, xonlikda bir yuz ellikdan ortiq madrasa bo'lgan. Biroq, ashtarxoniylar zamonasida diniy mutaassiblik avj ola boshlagan. Oqibatda **dunyoviy fanlarni o'qitish ikkinchi o'ringa tushib qoldi**. Lekin, ilm-fan taraqqiyoti butunlay to'xtab qolmadi. Masalan, Boboxoja ibn Xoja Orif Samarqandiy 1678-yilda falakiyot, ilmi hay'at haqida maxsus bir risola yozgan. Mullo Tursun Faroyiziy

Samarqandiyning falakiyot, kimyo haqidagi risolalari bizgacha yetib kelgan. Subhonqulixonning o'zi «Lubb ul-lavoyih ul-qamar fil-ixtiyot» (Baxtli soatni aniqlashda oy manzillarining mohiyati) degan asar, tibbga doir «Ihyo at-tabibi Subhoni» (Subhoni tabobati bo'yicha davolash) degan risola yozgan. Buxoroda madrasa qurdirib, u o'zi tibbdan dars bergan. Sa'id Muhammad Tohir ibn Abulqosim 1645—1650-yillarda «Ajoyib ut-tabaqot» asarini yozgan. Bu kitob yetti iqlim ajoyibotlari haqida hikoya qiladi.

Soqimuhammad Soni chahoryakiy 1681—1704-yillarda hisob bo'yicha risolalar yozgan. Qomusiy bilim sohibi Mahmud ibn Vali o'zining 1636-yilda yozilgan «Bahr ul-asror» (Sirlar dengizi) asarida Samarqand va Buxoro shaharlarda yashagan 20 nafar olim haqida ma'lumot beradi.

Saroyda emas, o'z viloyat va shaharlarida yashab ijod qilgan olimu shoirlardan Sayido Nasafiy (1637—1710), G'afur Samarqandiy (attor), Maseho (temirchi), Manzur Samarqandiy (etikdo'z), Dog'iy Kufiniy (rangrez), Vohibi Buxoriy (sakkok — pul zarb qiluvchi), Adoiy (dehqon), Mulla Sarafroz, Fitrat Samarqandiy, Azmiy Buxoriy, Unvon Samarqandiylar shular jumlasidandir. Mirzo Sodiq munshi ashtarxoniylar sulolasi xonlarining kirdikorlarini fosh qiluvchi «Daxmayi shohon» manzumasini yozgan. Muhammad Balxiy «Subhonqulinoma» masnaviysini bitgan. XVII—XVIII asr boshlari tarixini bayon etuvchi Muhammad Amin Buxoriyning «Ubaydullanoma», Muhammad ibn Muhammad Zamon Buxoriyning «Muhit ut-tavorix» (Tarixlar dengizi), Abdurahmon Tole'ning «Abulfayzxon tarixi», Muhammad Yusuf munshining «Muqimxon tarixi», Xojamqulixon Balxiyning «Qipchoqxon tarixi» asarlari shu davrning mahsulidir.

Subhonqulixonning zamondoshi shoir Turdi (1702-yil vafot etgan)ning ijodi o'ziga xosligi bilan ajralib turadi. U Subhonqulixon va uning zolim amaldorlariga qarshi ko'tarilgan xalq qo'zg'aloni qatnashchisi, she'rlari-

da xalqni zulmga qarshi birdamlikka, birlashishga da'vat etgan jasur shoir.

Ashtarxoniylar zamonida Boborahim Mashrab (1640—1711), So'fi Ollohyor (1644—1723) va boshqa tasavvuf namoyondalari ijodi xalq mehrini qozondi. Tariqat namoyondalari insonni ulug'lab, uning Haqqa yetishuvini tashviq qildilar: mo'minlar tomonidan tasavvufning to'rt qoidasiga — shariat, tariqat, ma'rifat va haqiqatga amal qilinishini targ'ib qildilar.

Xoja Samandar Termiziyning «Dastur ul-muluk» (Podshohlar uchun dastur) asari Subhonqulixon davri davlatchiligi tarixi va tuzumi haqidagi asardir. Mutribiyning «Tazkirat ush-shuaro», Maleho Samarqandiyning «Muzakkir ul-ashob» (1602), mulla Sodik Samarqandiyning «Riyozi ush-shuaro» kabi tazkiralarda davr ilmiy muhiti haqida keng tasavvur beriladi.

Me'morchilik

XVII asrda me'morchilik sohasida ham katta yutuqlarga erishildi: Samarqand Registoni shakllandi. Yalangto'shbiy mablag'iga 1626-yil Sherdor madrasasi, Tillakori madrasasi qurildi. Imomqulixon Madina shahrida chorbog', Makkadagi Ka'baga kiraverish darvozalaridan biri ostonasi uchun oltin va kumush tutqichli yog'och zina qurdirganligiga tarix guvoh.

Buxoroda Imomqulixon amaldori Nodir devonbegi masjid, hovuz, madrasadan iborat me'moriy majmua bunyod etdi; Samarqandda Xoja Ahror maqbarasi yonida madrasa va namozgoh bino qildi.

Abdulazizxon qurdirgan Buxorodagi madrasa muhtashamligi, nafis naqshli koshinlarga boyligi bilan ajralib turadi.

Xon saroyida kitoblar ko'chirilib, naqsh va tasvirlar bilan bezatilgan. Xattot hoji Yodgor ko'chirgan bitiklar nafisligi bilan ajralib turadi. 1624-yili Samarqandda ko'chirilib, naqshlar bilan bezatilgan Sharafiddin Ali Yazdiyning «Zafarnoma» nusxasi o'sha davr kitobat san'atini o'rganishda muhim o'rin tutadi.



Buxoro. Abdulazizxon madrasasi.

Savol va topshiriqlar

1. XVII asrda idora ishlari kimning qo'lida edi?
2. Xo'jalikning tushkunlikka uchrashi sabablari nima?
3. Shayboniylar va ashtarxoniylar davrida markaziy hokimiyatning mavqeini taqqoslang. O'xshash va farqli tomonlarini aniqlang.
4. Fan va madaniyat rivojiga homiylikning ahvoli haqida so'zlang.
5. XVII asrda Buxoro xonligida qanday me'morchilik inshootlari qurildi?

Bularni takrorlab boring:

- Ashtarxoniylar hukmronligi davrida markaziy hokimiyat kuchsiz va iqtidorsiz bo'ldi;
- O'taliqlar va qabila boshliqlarining nufuzi oshib ketdi;
- Ruhoniy katta yer egalariining mavqei ham o'sdi;
- Ashtarxoniylar davrida shayboniylar davridagi asosiy davlat mansablari saqlab qolindi;
- Mamlakatdagi siyosiy vaziyatga qaramay, ashtarxoniylar ilm-fan va madaniyatga homiylik qilganlar;
- XVII asrda mamlakatda 165 nafar ijodkor bo'lgan;
- Ashtarxoniylar davridan boshlab ilm mazmun-mundarijasi-da mutaassiblik kuchaya bordi;
- Dunyoviy fanlarni o'qitish ikkinchi o'ringa tushib qoldi. Shunday bo'lsa-da, ilm-fan taraqqiyoti butunlay to'xtab qolgan emas;
- Imomqulixonning Madina shahtida chorbog', Makkadagi Ka'baga kiraverish darvozalaridan biri ostonasi uchun oltin va kumush tutqichli yog'och zina qurdirganligiga tarix guvoh.

14-§. XVIII ASRNING BIRINCHI YARMIDA BUXORO XONLIGIDA IJTIMOY-SIYOSIY HAYOT

Buxoro xonligi 1702-yili Subhonqulixonning
Ubaydullaxon II davrida to'ju taxtini uning o'g'li Ubaydullaxon II (1702—1711) egalladi. Shayboniylardan Ubaydullaxon I hisoblanadi.

Ubaydullaxon II ning hukmronlik yillari asosan urushlar bilan o'tdi. U goh isyonkor qabilalarga qarshi, goh bo'ysunmas mahalliy hukmdorlarga, goh davlat sarhadlariga bostirib kirgan ko'chmanchilarga qarshi urush olib borishga majbur bo'ldi. Ubaydullaxonning asosiy maqsadi qabila boshliqlarini markaziy hokimiyatga bo'ysundirish hamda siyosiy tarqoqlikni tugatishdan iborat edi. Bu maqsad amalga oshsa farovonlik va davlat ravnaqi ta'minlanadi, deb umid qilgan edi. U garchand bu vazifaning uddasidan chiqa olmagan bo'lsa-da, ana shu maqsad yo'lida harakat qildi.

Dastlab u Balxni bo'ysundirish yo'lini izladi. Ma'lumki, Ubaydullaxon II ning otasi Subhonqulixon Balxni Mahmudbiyga alohida xizmatlari uchun tortiq qilgan edi. Ubaydullaxon davrida Mahmudbiy Balxda to'la hukmron bo'lib olgan edi. Oxir-oqibatda, uzoq qamaldan so'ng Ubaydullaxon Balxni egallashga muvaffaq bo'ldi. Ayni paytda, tashqi dushman — jung'orlar Samarqandga xavf sola boshlagan.

Ichki va tashqi dushmanlarga qarshi tinimsiz urushlar olib borish katta mablag' talab etardi, albatta. Ubaydullaxon aholidan yig'iladigan soliqlarni 4 barobar-ga ko'paytirdi. Natijada, xalq xonavayron bo'ldi. Ana shunday bir sharoitda xon pul islohoti o'tkazdi. Ubaydullaxon davrida tarkibining 35 foizini kumush tashkil etuvchi tanga ishlatilardi. 1708-yilda esa bu tangalarning bittasidan 4 ta yangi tanga zarb etila boshlandi. Bu hol yangi pulning tarkibidagi kumush miqdorini 9 foizga tushirib qo'ydi. Shunday bo'lsa-da, yangi tanga avvalgi eski tangaga qiymat jihatdan teng deb belgilandi. Amalda esa pulning qadri 4 marta kamaygan edi. Ubaydullaxonning pul islohotidan ko'zlangan maqsadi xazinani to'ldirish orqali markaziy hokimiyatning viloyatlardan keladigan soliq tushumlariga qaramligini pasaytirish edi. Biroq, ko'zlangan maqsad ro'yobga chiqmadi. Tanga tarkibida kumush foizining kamayishi do'kondor va hunarmandlarning keskin noroziligiga sabab bo'ldi. Endi ular o'z mahsulotlarini sotmay qo'ydi-lar. Savdo ishlari susaydi. Oqibatda, mamlakat iqtisodiy hayoti inqirozga yuz tutdi.

Mirmuhammad Amin Buxoriyning «Ubaydullanoma» asarida «oddiy xalq va kambag'allar mushkul ahvolda qoldilar, kundalik yeyish-ichishdan mahrum bo'ldilar, hatto kafan uchun mato topolmay, jonlarini xudoga topshirdilar», deb yozilgan edi. Bunday ahvolga chiday olmagan xalq qo'zg'olon ko'tardi. Qo'zg'olon shafqatsizlarcha bostirildi.

Ubaydullaxon markaziy hokimiyatni kuchaytirish

maqsadida hatto o'sha davrning eng ta'sirchan kuchi—yirik yer egalari hamda Jo'ybor shayxlarining ta'sirini kamaytirishga ham uringan edi. Ubaydullaxon ularni soliq to'lamaslik imtiyozidan mahrum etdi. Natijada, ular Ubaydullaxonning eng xatarli dushmaniga aylandilar.

Ayni paytda, Ubaydullaxon tanhodorlarni o'z mulkidan keladigan daromadlaridan mahrum etdi; soliq va majburiyatlar miqdorini ko'paytirdi.

Ubaydullaxon davrida ijtimoiy-siyosiy parokandalik kuchaydi. Har bir viloyat hokimi mustaqil bo'lishga intildi. Natijada, Ubaydullaxonga qarshi fitna uyushtirildi va 1711-yilning 16-martida u o'ldirildi. Fitna ishtirokchisi — Ubaydullaxonning inisi Abulfayzxon bo'lib, fitnaning hamma ishtirokchi va ijrochilarini saxiylik bilan mukofotlagan. Ular katta-katta lavozim egalari bo'ldilar. Ubaydullaxon va yaqinlari, amaldorlarining mol-mulk-lari talangan, o'zlari esa qatl etildi. Shunday qilib, parokandalikka qarshi, oliy hokimiyatni kuchaytirish va mamlakat birligini ta'minlash uchun qat'iyatlik bilan kurashgan Ubaydullaxonning hukmronligi fojiali yakunlandi.

**Xonlikda
parokandalikning
kuchayishi**

Abulfayzxon hech qanday real hokimiyatga ega emas edi. U kundan-kunga mam-

lakat hayotida nufuzi kuchayib borayotgan amirlar va zodagonlar qo'lida bir qo'g'irchoq hukmdor edi, xolos. Bu davrga kelib xonning ahvoli shu darajaga borib yetdiki, uning farmonlari saroy ostonasidan nariga o'tmaydigan bo'lib qoldi. Zamondosh tarixchilarning ma'lumotlariga qaraganda, Abulfayzxon «Saroyning oldi atrofi (ya'ni Registon) tinch bo'lsa bo'lgani», degan gapni doimo takrorlab turgan.

Abulfayzxon davrida o'zbeklarning mang'it qabilasidan kelib chiqqan Muhammad Hakimbiy katta nufuzga ega bo'lib oldi. U barcha shahzodalar otaliqlarining boshlig'i deb tan olingan edi. Bu boshqa o'zbek

qabilalari aslzodalarining qat'iy noroziligiga sabab bo'ldi. Natijada, ular Abulfayzxonni **taxtdan** ag'darish va uning o'rniga Xiva xoni Sherg'ozixonni o'tqazishni rejalashtirdilar. Biroq, fitna fosh etildi; ishtirokchilari jazolandi. Abulfayzxon siyosatidan norozi bo'lgan Samarqand hokimi Farhod otaliq ahli oilasi bilan qatl etildi.

Mang'it Muhammad Hakimbiy bilan bir qatorda Shahrisabz hokimi, kenagas qabilasidan chiqqan Ibrohimbiyning ham mamlakatdagi nufuzi juda katta edi. Fitna muvaffaqiyatsiz tugagach Ibrohimbiy, Urgut va Miyonkol hokimlari bilan til biriktirib Buxoro xonligidan mustaqil, poytaxti Samarqand bo'lgan davlat tuzishga qaror qildi va bu maqsadini amalga oshirishga kirishdi. Samarqandni egallab kuyovi Rajab sultonni xon deb e'lon qildi. O'ziga esa «**amirulumaro**» (ulug' amir) unvonini oldi. Navbatdagi «ulug'» maqsad Buxoro taxtini egallash, Rajab sultonni Buxoro taxtiga o'tqazish hamda shu yo'l bilan xonlikning eng nufuzli kishisi bo'lish edi. Niyatini amalga oshirish yo'lida u hech narsadan qaytmadi. Abulfayzxon siyosatidan norozi bo'lgan beklar Ibrohimbiyga qo'shildilar. Ibrohimbiy katta qo'shin to'plab Buxoroga yurish boshladi. Ibrohimbiy va Rajab sultonlar kimki ularga qo'shilsa, g'alabadan so'ng juda katta boylik va amal ulashishni va'da qildilar. Jangda Muhammad Hakimbiy boshchiligidagi Buxoro qo'shinlari mag'lubiyatga uchradi. Hakimbiyni esa o'zbeklardan hech kim himoya qilmagan. Lekin, Rajab sulton Buxoro shahrini egallay olmadi. Qanday bo'lmasin Buxoro taxtini egallash ishtiyoqida yonayotgan Ibrohimbiy va Rajab sulton oqibatini chuqur o'ylab ko'rmasdan turib ko'chmanchi qozoqlardan yordam so'radilar. Ularga katta o'ljalar va'da qilishdi. Jung'or (qalmoq) ko'chmanchilarining bosqinidan katta talafot ko'rgan, talangan hamda ocharchilikka duchor etilgan qozoqlar bu taklifga rozi bo'ldilar. Mamlakatni bosib olgan jung'orlar yetti yil mobaynida hammayoqni

talab xonavayron qildilar. Bunday sharoitda ichki nizolar yanada avj oldi. Aholining Abulfayzxondan noroziligi kuchayib ketdi. Nihoyat, Abulfayzxon yaqinlarining talabi bilan Muhammad Hakimbiyni Buxorodan chiqarib yuborishga qaror qildi va shunday ham qildi. Hakimbiy Qarshiga jo'nab ketdi, biroq, u qulay fursat tug'ilishi bilanoq Buxoroda hokimiyatni yana o'z qo'liga olish niyatidan qaytmagan edi.

Abulfayzxon esa vaqtini ko'ngilxushlik ishlariga sarflab, mayxo'rlikka berilib ketdi. Uning yetti farzandi bor edi. Mast chog'ida ularni o'limga mahkum etdi. Hali go'dak bo'lgan Abdulmo'mingina taxt ostiga yashirib, omon qolgan. Xon davlat ishlarini deyarli nazorat qilmay qo'ydi. Shu tariqa, Buxoroda xon hokimiyati barham topdi. Oliy hokimiyat amalda oliy qo'shbegi bo'lib olgan Jovshon qalmoq qo'liga o'tdi. Markaziy hokimiyatning zaiflashuvi feodal tarqoqlikni yanada kuchaytirdi. Samarqand, Qarshi, Balx, Farg'ona, Xiva, Badaxshon amalda mustaqil bo'lib oldilar. Bu ahvol tashqi dushmanlarning Movarounnahrga bostirib kirishiga qulay imkoniyat yaratdi.

**Buxoro xonligining
davlat mustaqilligini
yo'qotishi**

Ma'lumki, 1736-yilda Eron-da Nodirshoh hukmronligi o'rnatildi. U zamonasiga

yarasha armiya tuza oldi. Kavkaz, Hindiston, Usmonli turklar saltanati va Afg'onistonga qarshi zafarli yurishlardan so'ng, 1739-yili Buxoro xonligiga bostirib kirdi.

Bunday og'ir sharoitda Buxoro xoni Xiva xonidan yordam so'rashga majbur bo'ldi. Bu ikki davlatning birgalashib umumiy dushmanga qarshi qilgan harakati tufayli Eron qo'shini chekinishga majbur bo'ldi.

1740-yilda Eron qo'shinlari Buxoroga qarshi ikkinchi marta hujum boshladi. Bu safar qo'shinni Nodirshohning o'zi boshqardi. Buxoro va Xiva xonlari bu safar mushtarak dushmanga qarshi kurashish uchun birlasha olmadilar.

Bu ham yetmaganidek, Buxoroning o'zida xoinlik yuz berdi. Xonlikda yetakchi mavqega ega bo'lib olish niyatidan qaytmagan Qarshi hukmdori Muhammad Hakimbiy Nodirshoh tomoniga o'tib ketdi. Abulfayzxon Eron bosqiniga qarshi kurashni uyushtira olmadi va taslim bo'ldi.

Nodirshoh Buxoro xonligining taslim bo'lish shartlarini Muhammad Hakimbiy orqali Abulfayzxonga jo'natdi.

Taslim bo'lish haqidagi shartnomani imzolash uchun Abulfayzxon Zarafshon daryosining bo'yidagi chorbakr qo'rig'iga — Nodirshoh huzuriga borishga majbur bo'ldi.

Shartnomaga ko'ra, Nodirshoh qo'shinlari uchun 8 yilga yetadigan 200 ming xarvor bug'doy va arpa to'plab beradi. Bundan tashqari, Buxoro xonligi aholisidan 10 ming nafarli qo'shin to'planib Nodirshoh ixtiyoriga jo'natiladi. Bu qo'shinga Muhammad Hakimbiyning o'g'li Muhammad Rahim qo'mondon etib tayinlandi.

Shunday qilib, Buxoro Nodirshohga taslim bo'ldi. Buxoro Eronga qaram davlatga aylandi.

Abulfayzxon toju taxtini saqlab qolish uchun har qanday pastkashlikdan qaytmagan. Shu tariqa, u qo'g'irchoq hukmdorga aylanib qoldi. Muhammad Hakimbiy esa qo'shbegi (bosh vazir) lavozimini egalladi. Butun hokimiyat amalda uning qo'lida to'plandi.

Shundan keyin Ashtarxoniylar hukmronligining barham topishi muqarrar bo'lib qolgan.

Savol va topshiriqlar

1. Ubaydullaxon qandaysiyosat olib bordi?
2. Abulfayzxonning qo'g'irchoq hukmdorga aylanib qolishining sabablari nimalardan iborat?
3. Muhammad Hakimbiyva Ibrohimbiylarning xonlikda egallagan mavqeini misollar bilan asoslab bering.
4. Nega Nodirshoh Buxoroxonligini osongina taslim qila oldi?

5. Nodirshoh bosqinchilik yurishlari qanday oqibatlariga olib keldi?

6. «Bo'linganni bo'ri yer» maqolining mazmunini tushuntirib bering.

Bularni takrorlab boring:

— Ashtarxoniylar Ubaydullaxon II davri (1702—1711)da mamlakatdagi ichki ziddiyatlar yanada keskinlashdi;

— Yirik amirlar va mahalliy hokimlarning mavqei tobora kuchayib bordi;

— Mamlakatdagi eng asosiy viloyatlar va shaharlarda sulola vakillari emas, tobora kuchayib ketayotgan amirlar hokimlik qilardi;

— Ubaydullaxon II xazinani to'ldirish orqali markaziy hokimiyatning viloyatlar to'laydigan soliq tushumlariga qaramligini kamaytirish niyatida pul islohoti o'tkazdi. Biroq, u maqsadga erisha olmadi;

— Ubaydullaxon II hatto Jo'ybor shayxlarining davlat hayotidagi ta'sirini kamaytirishga urindi. Ularni soliq to'lamaslik imtiyozidan mahrum etgan edi;

— Abulfayzxon (1711—1747) davrida markaziy hokimiyat nihoyatda zaiflashdi;

— Ana shunday sharoitda davlat hayotida mang'it qabilasi va uning yo'lbo'shchisi Muhammad Hakimbiy ta'siri nihoyatda kuchaydi;

— Muhammad Hakimbiy barcha shahzodalar otaliqlarining boshlig'i deb tan olindi;

— 1740-yilda Buxoro xonligi Eronga qaram davlatga aylandi.

IKKINCHI BOB YUZASIDAN TEST TOPSHIRIQLARI

1. Ashtarxoniylar qay tariqa hokimiyat tepasiga kelganlar?

A. Shayboniylardan Buxoro taxtini egallashga qodir bo'lgan biror-bir voris omon qolmaganligi uchun

B. Shayboniylarga qarshi olib borilgan ayovsiz urushlar natijasida

D. Shayboniylarning davlat hayotida mavqelari kuchayib ketgan ashtarxoniylar foydasiga taxtdan voz kechganliklari oqibatida

E. Shayboniylar va ashtarxoniylarning o'zaro kelishuvi oqibatida

F. Davlati arkoni bilan shayboniylar o'rtasida ziddiyat kuchayishi natijasida shayboniylarning taxtdan voz kechganliklari oqibatida

2. Nima uchun katta yer egalari va Jo'ybor shayxlari Buxoro xoni Ubaydullaxonning (1702–1711) eng xatarli dushmaniga aylanganlar?

A. Ubaydullaxon davlat ichki va tashqi siyosatini belgilashda ular bilan maslahatlashmay qo'yganligi uchun

B. Xiva xonligiga qarshi kurashda qat'iyatlik ko'rsatmaganligi uchun

D. Ularni soliq to'lamaslik imtiyozidan mahrum etganligi uchun

E. Hukmron tabaqalarning xalq ommasiga o'tkazayotgan jabr-zulmlarini cheklashga qaratilgan tadbirlar ko'rganligi uchun

F. Tabiiy fanlar rivojiga yo'l ochganligi uchun

3. Sherdor va Tillakori madrasalarini kim qurdirgan?

A. Ubaydullaxon

B. Boqimuhammadxon

D. Valimuhammadxon

E. Amir Mahmudbiy

F. Amir Yalangto'shbiy

4. Muhammad Yusuf munshi qanday kitob yozgan?

A. «Abulfayzxon tarixi»

B. «Muqimxon tarixi»

D. «Subhonqulinoma»

E. «Ubaydullanoma»

F. «Muhit ut-tavorix»

5. «Buxoro xalqi 200 xil kasbu hunar sohibi bo'lgan» degan ma'lumotni kim yozib qoldirgan?

A. Mulla Tursun Samarqandiy

B. Sayido Nasafiy

D. Vohibi Buxoriy

E. Muhammad Amin Buxoriy

F. Boborahim Mashrab

6. Buxoro xonligi Eron hukmdori Nodirshoh davrida nima uchun unga qaram bo'lib qolgan?

A. Eron qo'shinlari harbiy tayyorgarlik jihatidan Buxoro qo'shinlaridan ustun bo'lganligi uchun

B. Toju taxt va davlat talashib olib borilgan o'zaro urushlar oqibatida xonlik zaiflashib qolganligi uchun

D. Mang'it hukmdorlari Nodirshoh tomoniga o'tib ketganligi uchun

E. Ashtarxoniylarning muntazam qo'shini bo'lmaganligi uchun

F. Xiva va Buxoro xonliklari o'zaro birga harakat qilmaganliklari uchun

Uchinchibob

BUXORO AMIRLIGI

15-§. MANG'ITLAR SULOLASINING TARIX SAHNASIGA CHIQISHI

Ashtarxoniylarning Inqirozi

Mamlakatda ashtarxoniylar sulolasi vakillari hukmronligi davridagi umumiy tarixiy

vaziyatdan qanday xulosa chiqarish mumkin?

Ashtarxoniylar davri Buxoro xonligi uchun mamlakat siyosiy tarqoqligi va parokandaligi har qachongidan kuchaygan bir davr bo'ldi. Bu tarqoqlik va parokandalikning asosiy sababi esa xonlar, amirlar, sultonlar va boshqa hukmdor tabaqa vakillari o'rtasida birlik va ahillikning yo'qligi, mol-dunyo va davlat talashib o'zaro olib borilgan qirg'inbarot urushlar edi. Bu urushlar mamlakat va xalqni xarob va xonavayron qilib, iqtisodiy hayotni nochor ahvolga soldi va izdan chiqardi. Bu hol mamlakat xalqlarining iqtisodiy, siyosiy va madaniy taraqqiyotiga salbiy ta'sir qildi, ularning jahon hamjamiyati rivojidan orqada qolishiga sabab bo'ldi. Ijtimoiy-siyosiy tarqoqlik shu darajada kuchli tus oldiki, natijada mahalliy hukmdorlar markaziy hokimiyatni nazar-pisand qilmay qo'ydilar.

Xonlar mahalliy hukmdorlarning o'ziga dushman bo'lib qolish mumkinligidan xavfsirab ularga yangi yerlar, daromadli lavozimlar ulashdilar. Masalan, mang'itlar sulolasi vakillariga eng yuqori lavozim — otaliq, do'rmonlarga parvonachi, qatag'onlarga Buxoroning oliy yasovuli lavozimlari berilgan edi. Oqibati shunday bo'ldiki, taxt taqdirini o'shalar hal etadigan bo'lib qoldi.

Ashtarxoniylar davrida vujudga kelgan katta davlat boshqaruv tarmoqlari xarajatlarini qoplash xalqning gardaniga tushgan edi. Shuning uchun ham bu davrda qirqqa yaqin har xil soliqlar joriy etilgan edi.

Ashtarxoniylar davrida ham ruhoniylar deyarli cheklanmagan huquqqa ega bo'lib oldilar. Ruhoniylar o'z ta'sirining hammavaqt yuqori bo'lishini istaganliklari uchun xalq ongiga diniy mutaassiblikni zo'r berib singdirganlar. Ruhoniylar maktab, adabiyot va ilmni o'z ta'sirlariga olganlar. Ular diniy mutaassiblikning pasayishiga, ozgina bo'lsa-da, biron-bir hur fikrning mamlakat hududiga kirib kelishiga yo'l qo'ymaganlar. Yana shuni ham aytish kerakki, bu davrda oliq-soliqlarning ko'pligi, mahalliy hukmdorlar, ayniqsa soliq undiruvchilarning zulmi tobora ortib borayotgani tufayli xalq ahvoli og'irlashib ketgan edi.

Ashtarxoniylarning eng zaif tomoni shunda ediki, ular davrida mamlakat doimiy, ya'ni **muntazam armiyaga ega emas edi**. Xonlar urush paytida zarur bo'lib qolganda qo'shin sifatida o'zlariga qaram bo'lgan amirlarning lashkaridan foydalanar edilar.

Xullas, ashtarxoniylar davrida mamlakat hayoti butunlay izdan chiqqan edi. Mamlakat tom ma'noda inqirozga yuz tutdi.

**Hokimiyatning
Muhammad Rahimbiy
qo'lliga o'tishi**

Buxoroda ashtarxoniylar sulolasi hukmronligi davrida o'zbek qabilalaridan mang'itlar va qo'ng'irotlarning nufuzi

baland edi. Bu ikki qabila haqiqiy hokimiyat ashtarxoniylar qo'lida bo'lib turgan davrlarda ularga sadoqat bilan xizmat qilgan edilar. Biroq, keyinchalik, Buxoroda mang'itlar alohida nufuzga ega bo'lish uchun astoydil kurashdilar. Muhammad Hakimbiy davrida bu maqsadga erishdilar.

1747-yilda Eron hukmdori Nodirshoh o'ldirildi. Uning ishonchli kishisi Muhammad Hakimbiy 1743-yilda vafot etgan edi. Uning o'g'li Muhammad Rahimbiy o'zining muntazam qo'shinga egaligidan foydalanib hokimiyatda otasi kabi alohida mavqei uchun da'vogarlik qila boshladi. So'nggi ashtarxoniy Abulfayzxon unga bosh vazirlik lavozimini berishga majbur bo'ldi va oxir-oqibatda markaziy hokimiyat uning qo'lida to'plandi.

Nodirshoh o'ldirilganidan so'ng Eronda boshlangan ichki kurashlar Muhammad Rahimbiyning Buxoro taxtini egallashiga yo'l ochib berdi. Uning buyrug'i bilan Abulfayzxon ham 1747-yili o'ldirildi. Muhammad Rahimbiy taxtga Abulfayzning o'g'li Abdulmo'minni o'tqazdi va uni o'ziga kuyov qilib oldi. Shu tariqa, amalda hokimiyat mang'itlar qo'liga o'tdi. Ko'p o'tmay Muhammad Rahimbiy kuyovi Abdulmo'minni qatl ettirdi. Tez orada Muhammad Rahimbiy Buxoro aslzodalari va ruhoniylarining qo'llab-quvvatlashi bilan 1756-yilda o'zini xon deb e'lon qildi. Biroq, mang'itlar xon nasliga mansub bo'lmaganligi uchun undan keyingi mang'it hukmdorlari o'zlarini xon deb emas, amir deb ataganlar. Ular Buxoro mintaqasining diniy hukmdori — amirulmo'minin hisoblanganlar.

Shunday qilib, 1756-yili Buxoroda hokimiyat tepasiga rasman yangi sulola **mang'itlar sulolasi** keldi va davlatni 1920-yilgacha idora qildi. Shundan boshlab Buxoro xonligi endilikda Buxoro amirligi deb ataladigan bo'ldi. Mang'itlar 92 o'zbek qabilasining biri edi.

**Buxoro amirligi
Muhammad Rahim va
Doniyolbiy hukmdorligi
davrida**

Mang'it hukmdori Muhammad Rahimxon (1756—1758)
mamlakatda o'zining mutlaq hukmdorligini o'rnatish ham-

da ichki boshboshdoqlikni tugatish siyosatini tutdi. Bunday siyosatdan ko'zlangan maqsad — markazlashgan davlatni tiklash edi. Muhammad Rahimxon bu siyosatni ro'yobga chiqarishga qat'iy kirishdi. U barcha mahalliy hukmdorlarni o'z huzuriga chorlab ularga o'zining asl maqsadini, o'z boshqaruv dasturini ma'lum qildi. Lekin, davom etayotgan ichki nizolar, urushlar mamlakatni xonavayron qilayotganligi, xo'jalik, savdo-sotiq ishlari-ning izdan chiqayotganligi, agar bu jarayonlar bundan buyon ham davom etiladigan bo'lsa davlat halokati muqarrar ekanligini alohida ta'kidladi. Qaysi mahalliy hukmdor markaziy hokimiyatga bo'ysunmasa, undaylarni ayovsiz jazoga tortilishini ogohlantirdi.

Muhammad Rahimxon mustaqillik da'vo etib yurgan Miyonkol, Nurota, Hisor, Qo'bodiyon, Boysun, Shahrisabz hamda Urgut bekliklarini to'rt yil davomida o'ziga bo'ysundirdi. Ayni paytda u bo'ysinishni istamagan, markaziy hokimiyatga bo'ysunmaslikka urinayotgan qabilalarni turgan joyidan ko'chirtirib yuborish siyosatini tutdi. Masalan, burqut, qipchoq, yetti urug', bahrin, yuz, kenagas, saroy va boshqa qabilalarga nisbatan ana shunday siyosat yuritildi.

Muhammad Rahimxon yirik yer egalarining davlatni boshqarish ishlarida shu vaqtgacha davom etib kelgan aralashuvlarini keskin kamaytirishga erisha oldi. Shunday bo'lsa-da, u barcha bekliklarning markaziy hokimiyatni tan olishlariga to'la erisha olmadi.

Muhammad Rahimxon vafotidan (1758-yil) so'ng uning amakisi **Doniyolbiy otaliq** hokimiyatni o'z qo'liga oldi (1758—1785). U o'zini xon atamadi va Abulfayzxonning nabirasi Abulg'ozini taxtga o'tqazdi. O'zini esa amir deb e'lon qildi. U o'z qo'shinlarini mustahkamlashga, unga tayanib ish ko'rishga harakat qildi. Barcha mang'it beklariga katta yer-mulkni **tanho** qilib berdi. Xalqdan olinadigan soliqlarni ko'paytirdi. Uning davrida Balx, Hisor, Ko'lob, O'ratepa bekliklarining mustaqillikka intilishlari kuchaydi. Katta yer egalari, qo'shbegi va qozikalonlarning o'zboshimchaligini esa sindiraolmadi. O'g'illaridan biri Shohmurod darvishona hayot kechirar, shayx maslahati bilan bozorda hammollik qilardi. Keyin esa pichoqqa qin yasab sotib, shu orqali ro'zg'or tebratdi. Xalq orasida obro'si katta bo'lgani uchun Doniyolbiy uni o'ziga valiahd etib tayinlashga majbur bo'ldi.

**Amir Shohmurod
(1785—1800)**

Amir Shohmurod Doniyol otaliqning to'ng'ich o'g'li bo'lib, 1749-yilda tug'ilgan.

Yoshligidan xudojo'y, porso bo'lib o'sgan. Madrasani bitirib, darvishlik suluki soliklaridan biriga aylanadi. Shuning uchun xalq uni hurmat bilan «amiri ma'sum»

(begunoh amir) unvonini bergan. O'n nafar ukalari (Mahmud, Umar, Fazl, Sultonmurod, Rustam, Ganji Ali, Ya'qub, To'xtamish, Darvish, Rajabali)dan birortasi ham Shohmurodni yoqtirmas edi. Amirlik taxtiga chiqqach, ukalarining har biriga bittadan viloyat hokimligini topshiradi. Zolim qo'shbegi va qozikalon Nizomiddinni qatl ettiradi. Harbiy ishlar, qozilik ishlari shariat qonunlari asosida tashkil qiladi. Hokimiyat boshqarish tartiblarini isloh qilib, siyosiy tarqoqlikka barham beradi.

Shohmurod o'z faoliyatida ommaga tayanib ish tutdi. Adolat tamoyillariga qattiq amal qildi. O'zi ham niho-yatda kamtarin hayot kechirgan. Masalan, bir yilda bir olacha chopon, bir bo'z ko'ylak kiygan. Boshiga olti gazli bo'z salla, oyog'iga echki terisidan tikilgan saxtiyon mahsi hamda kavush kiygan.

Marv yaqinida Islomobod shahrini qurdi.

XVIII asrning 20-yillarida boshlangan o'zaro kurashlar natijasida Samarqand shahri talangan, vayrona holga tushib qolgan edi. Gap shundaki, Rajabxon (1722—1728) davrida Samarqand aholisi talon-torojlardan bezib, Xo'jand va Hisor tomonlarga ko'chib ketgan edi. **Shahar yetti yil davomida xaroba holida yotdi.**

Amir Shohmurod ko'plab quruvchi, koshinpaz va naqqosh ustalarni tevarak-atrofdan olib keltirib, shaharni qayta tiklashni buyurdi. Qayta qurilajak shahar tarhini amir Shohmurodning o'zi chizib bergan.

Shahar markazida olti qirrali chorsu qurilib, «Toqi musaddas» deb atalgan. Samarqandning har bir mad-rasasiga imom, muazzin, mudarrislarni o'zi tayinlagan. Talabalar va mudarrislarning maoshi uchun vaqf yerlari va mulklar ajratgan.

Amir Shohmurod, bundan tashqari, G'uzor tumani-da madrasa va masjid qurdirdi. Buxoroning Ja'farxoja mahallasida madrasa qurdirdi. Uning amaldorlaridan O'tkur qo'shbegi va Muhammad Ali to'pchiboshilar ham bittadan madrasa qurdiradilar.

Amir Shohmurod ba'zi islohotlar o'tkazib, davlatni mustahkamlashga erishdi: Boj va xirojdan boshqa barcha soliqlarni kamaytirdi. Rais mansabini va qo'shin tarkibida qoziaskar lavozimini joriy qildi.

Otasi davrida qisqartirilgan vaqf yerlari miqdorini oshirdi. Bu bilan islom ruhoniylari e'tiborini qozondi. Mamlakat iqtisodini yo'lga qo'yishda Shohmurod o'tkazgan pul islohoti muhim ahamiyat kasb etdi: ashtarxoniylar davrida zarb qilingan tangalarda kumush miqdori kamaytirib yuborilgan edi. Bu hukmron tabaqa uchun katta foyda keltirgani bilan, hunarmand va savdo ahli uchun og'ir edi; Shohmurod sof kumushdan tanga zarb qilishni buyurdi. Kirning kumushi (nuqrasi) bo'lsa zarbxonaga topshirib, evaziga yangi tangalar — pul olishi mumkin edi. Ilgari zarb qilingan tangalar bekor qilindi. Yangi pul tijorat ishlari rivojiga yo'l ochdi. Barcha viloyatlarga yangi hokimlar tayin qildi, har shahar va qishloqqa qozi tayinladi. Bu bilan hokimlar o'zboshimchaligiga barham berdi. Masalan, amir Doniyol davrida o'zini mustaqil deb e'lon qilgan Shahrisabz hokimi Niyozali Shohmurodga tobelik bildirdi. Shohmurodning o'zi qozilarga dastur bo'la oladigan fiqh haqida «Ayn ul-hikmat» nomli risola yozdi va unda ilgari surilgan qoidalarni barcha viloyatlarga joriy qildi.

Shohmurod joriy qilgan qonun bo'yicha kim mol-mulkka xiyonat qilsa jamiyatdagi martabasidan qat'i nazar qattiq jazoga tortilishi lozim edi. Bu tadbir xalq manfaatlariga tajovuzning oldini oldi. Shariat qonunlarini amalga tatbiq etish maqsadida raislik (muhtasib) mansabini joriy qildi.

Markaziy hokimiyatning mustahkamlanishi karvon yo'llarining xatarsizligini ta'minladi. Pul islohoti esa tijorat ravnaqiga sabab bo'ldi. Zarafshon vodiysi, Amudaryo havzasi va Qashqadaryo vohasi qadimgidek obod bo'ldi. Davlat mablag'i hisobidan anhorlar chiqarilib, tashlandiq yerlar obod etildi. Natijada, davlat xazinasiga tushum ko'paydi.

Savol va topshiriqlar

1. Ashtarxoniylar davlati qaytariqa inqirozga yuz tuta bordi?
2. Mang'itlar qaytariqa hokimiyat tepasiga keldilar?
3. Muhammad Rahimxonning mamlakatni birlashtirish siyosati haqida so'zlab bering.
4. Amir Doniyol va Shohmurod faoliyatini qiyoslang.

Bularni takrorlab boring:

- Ashtarxoniylar davrida mamlakat hayoti butunlay izdan chiqdi. Mamlakat tom ma'noda inqirozga yuz tutdi;
- 1747-yilda Buxoroda hokimiyat amalda mang'itlar sulolasi qo'lga o'tdi. Rasman esa bu voqea 1756-yilda amalga oshdi;
- 1756-yildan boshlab Buxoro xonligi Buxoro amirligi deb atala boshlandi;
- Mang'itlar sulolasi 1920-yilgacha hukmronlik qildi.

16-§. AMIRLIK DAVLAT TUZUMI VA MA'MURIY BOSHQARILUVI

**Davlat tuzumi.
Mamlakatning ma'muriy
bo'linishi**

Buxoro davlati tepasida dastlab xon, keyinchalik, ya'ni butun davlat hokimiyati qo'li-

da bo'lgan yakka mustabid hukmdor — amir turar edi. Shayboniylar va ashtarxoniylar davrida belgilangan an'anaga ko'ra, sulolaning katta yoshdagi vakili xonlik taxtini egallasa-da, amalda bu qoidaga rasmangina rioya etilardi. Amalda qudratli harbiy kuchga tayangan hukmdorgina haqiqiy hokimiyat egasi bo'la olardi. Hukmdor etib saylangan taxt da'vogari oq kigizga o'tqazilib taxtgacha ko'tarib olib borilardi. Kigizning to'rt uchini hukmdor avlodining eng mo'tabar zotlari, mashhur amirlar, ruhoniylar vakillari tutardilar.

Balog'atga yetmagan shahzodalarni tarbiyalash uchun otaliqlar tayinlanardi. Shahzodalarga viloyatlar ajratilar va shahzoda u yerda o'z otalig'i bilan yashardi. Avvallari, katta hayotiy tajribaga ega bo'lgan hamda o'z xizmati bilan obro' va hurmat qozongan amirlar otaliq mansabi-

ga tayinlanar edilar. Keyinchalik bu an'anaga amal qilinmay qo'yilgan. Endilikda, otaliq unvonini o'zining harbiy va iqtisodiy nufuzi bilan davlatning **tayanchi** bo'lib qolgan, hatto hukmdor ham davlat ishlarini boshqarishda u bilan hisoblashishga majbur bo'lgan qudratli amirlar o'ladigan bo'ldilar. Bunga mang'it hukmdori Muhammad Rahimbiy va uning amakisi Doniyolbiy tarixi yorqin misol bo'la oladi.

Hukmdor rasman cheklanmagan huquqqa ega bo'lib, butun hokimiyat uning qo'lida to'plangandi. U davlatni o'zi ishongan eng oliy toifadagi amaldorlari (arkoni davlat)ga tayanib idora qilgan. Biroq, hukmdor amalda hamisha ham davlatni o'z xohishicha boshqara olmagan. U davlatda eng nufuzli qabilalarning boshliqlari bilan hisoblashib ish tutishga majbur edi.

Buxoro amirligi 40 viloyat va tumanliklarga bo'lingan, yer maydoni taxminan 270 ming km², aholisi esa 2 mln. atrofida edi. Aholisining taxminan 57 foizini o'zbeklar, 32 foizini tojiklar, 10 foizini turkmanlar, qolgan qismini esa qoraqalpoqlar, qozoqlar va boshqa xalqlar tashkil etgan.

Buxoro amirligi ma'muriy jihatdan viloyatlarga va tumanlarga bo'lingan. Amir tayinlaydigan va hokim boshqaradigan hudud viloyat deb atalgan. Biror-bir hududning viloyat etib belgilanishi uchun o'sha joyda yuqori martabali amaldor bo'lishi kerak edi.

Amirlikning poytaxti Buxoro shahri va viloyatini qo'shbegi boshqargan. Amirlikning alohida davlat xazinasi bo'lmagan. Xazina amirning mulki bo'lgan.

Amirlikdagi yuqori davlat lavozimlari

Amirlikning davlat muassasalari ma'muriy, moliya, qozilik, mirshablik va harbiy idoralardan iborat bo'lgan. Ularning har biriga tayinlangan amaldor rahbarlik qilgan.

Saroyda 300 ga yaqin amaldor xizmat qilgan. Mahalliy boshqaruv muassasalarida xizmat qiluvchilarning soni 300 ming atrofida bo'lgan. Bundan tashqari, 40 beklik tepasida mahalliy qabila boshliqlari turardi.

Markaziy hokimiyat tepasida devonbegi, ko'kaldosh, qo'shbegi, mushrif, mirshab, dodxoh, inoq, miroxo'r, dasturxonchi, kitobdor, to'qsoba, parvonachi, sadr, shayxulislom, qozikalon, muftiy, muhtasib kabi yuqori martabali lavozimlar joriy etilgan.

Eng katta davlat lavozimi — **qo'shbegi** (vaziri buzruk), ya'ni bosh vazir lavozimi edi. Davlatning barcha boshqaruv idoralari unga bo'ysunar edi. Bir so'z bilan aytganda, barcha ijroiya hokimiyat qo'shbegining qo'lida edi. Viloyat va tuman hokimlari ham qo'shbegi tavsiyasiga binoan tayinlanar edi. Qo'shbegi oliy hukmdor Arkida yashagan.

Devonbegi — davlatning moliya-xazina ishlarini boshqargan. Soliqlar undirilishi ustidan nazoratni ham devonbegilar olib borgan. Devonbegi Ark etagida yashagan.

Ko'kaldosh — butun amirlik hududida do'stona yoki dushmanlik munosabatida bo'luvchilar haqida ma'lumotni to'plagan.

Mushrif — lavozimida ishlagan amaldorlar xonga in'om etgan buyumlarni hamda harbiy anjomlarni ro'yxatga olgan. Soliq tushumlarini yozib borgan.

Mirshab — tungi shahar soqchilari boshlig'i vazifasini bajargan.

Dodxoh — fuqarolarning arz va shikoyatlarini tinglovchi, hal etuvchi amaldor bo'lgan.

Inoq — bu lavozimda ishlagan amaldorning vazifasi amir farmoyishlarini beklardan boshqa tabaqaga yetkazishdan iborat bo'lgan.

Miroxo'r — amir otxonasining boshlig'i bo'lgan.

Dasturxonchi — amir huzurida uyushtiriladigan ziyo-fatlar uchun mas'ul amaldor.

Kitobdor — amir kutubxonasi va barcha viloyatlar kitobdorlari boshlig'i.

To'qsoba — amir tug'i sohibi, keyinchalik — umuman harbiy mansabdor.

Parvonachi — biror-bir shaxs biror lavozimga tayinlanganida, bu haqdagi yorliqni o'sha shaxsga va boshqalarga yetkazuvchi amaldor.

Sadrlar — vaqf mulklarini boshqaruvchilar. Vaqf muassasasining boshliqlari bo'lgan mutavallilar sadrlarga bo'ysunganlar. Sadrlarning vazifa va huquqlari vaqf yorlig'i shartlarida qayd etib qo'yilgan. Sadrlar vaqf xo'jaligi daromadining ma'lum qismini olardilar.

Shayxulislom — musulmon jamoasi boshlig'i; qozilik ishlarida hamda kundalik hayotda qonunlarga rioya etilishini ta'minlovchi, hukmdorning eng yaqin kishisi. Bu lavozim avloddan-avlodga meros bo'lib ham o'tgan.

Poytaxt qozisi (qozikalon) — davlatning oliy qozisi. Amir aralashmaydigan barcha qozilik ishlariga rahbarlik qiluvchi oliy davlat lavozimi. Qozikalon «shariatpanoh» deb ham atalardi. Qozikalon huzurida a'lam va 12 muftidan iborat devon tuzilgan edi. Uning vazifasi jinoiy ishlarni sinchiklab ko'rishdan iborat bo'lgan.

Muftiy — qozikalon murakkab deb hisoblagan turli diniy-huquqiy masalalar bo'yicha shariatga asoslanib fatvo chiqargan. Bu fatvo uning yoki bir necha muftiyning muhri bilan tasdiqlangach, qoziga berilar edi. Qozi bu fatvoga asoslangan holda hukm chiqargan.

Muhtasib (rais ham deyilgan) — musulmonlar tarafidan shariat qonunlarining bajarilishini kuzatgan, masjidlarga borib namoz o'qishga keluvchilar ro'yxatini, bozorlardagi tosh-tarozining to'g'riligini tekshirgan. Ayni paytda u ichkilikbozlik, sudxo'rlikka ham qarshi kurashishi kerak edi.

Xullas, amirlikdagi yuqori davlat lavozimlari o'sha davrdagi boshqaruv tizimiga to'la mos bo'lib, amirning yakkahukmronligini ta'minlar edi.

Savol va topshiriqlar

1. Buxoro davlat tuzumiga ko'ra qanday davlat edi?
2. Hukmdor qay tartibda taxtga o'tqazilardi?
3. Otaliqlar nega tayinlanganlar?
4. Amirlikdagi eng yuqori davlat lavozimi qaysi edi?
5. Amirlikdagi davlat lavozimlarini daftaringizga ko'chirib yozing.
6. Amirlikning ulkan davlat apparati qanday mablag' hisobiga saqlangan?

Bularni takrorlab boring:

- O'zbek xonliklarida hukmdor etib saylangan taxt da'vogari oq kigizga o'tqazilgan va taxtgacha ko'tarib borilgan;
- Kigizni to'rt uchini hukmdor avlodining eng mo'tabar vakillari, mashhur amirlar va ruhoniylar vakillari tutib borganlar;
- Balog'atga yetmagan **shahzodani** tarbiyalash uchun otaliqlar tayinlangan;
- Buxoro amirligida eng katta davlat lavozimi — qo'shbegi (bosh vazir) bo'lgan;
- Qo'shbegi Buxoro arkida yashagan;
- Amirlikda ashtarxoniylar davridagi ko'kaldosh, mushrif, mirshab, dodxoh, miroxo'r, dasturxonchi, to'qsabo, **kitohdor**, parvonachi, sadr, shayxulislom, muhtasib kabi lavozimlar saqlanib qolgan;
- Amirlikda inoq davlat lavozimi belgilangan. Uning vazifasi amir farmonlarini beklardan boshqa tabaqaga yetkazishdan iborat bo'lgan.

17-§. AMIRLIK XO'JALIGI

Yer mulkchiligi shakllari

Buxoro davlatida mulkchilikning asosini yer-suv tashkil etgan. Minglarcha yillar avval

bo'lganidek, so'z yuritilayotgan asrlarda ham oliy hukmdor (xon yoki amir) mamlakatdagi bor yer-suvning birdan-bir egasi hisoblangan. Ayni paytda Buxoroda yer-suv mulkchiligining uch shakli mavjud edi: 1) davlat yerlari (bu amlok yerlar deb ham atalgan); 2) mulk yerlari (xususiy); 3) vaqf yerlari.

Davlat yerlarining suvsiz dasht, to'qayzor qismi ko'chmanchi jamoalarga bo'lib berilgan bo'lib, ular bu yerlardan foydalanganliklari uchun davlatga xiroj to'lar edilar. Bunday yerlar **sotilmasdi** va **ayirboshlanmasdi**. Davlat yerlarining boshqa bir qismi yirik yer egalariga, hukmron sulola a'zolariga, yirik davlat mansabdorlariga, lashkarboshilariga davlat oldidagi xizmatlari evaziga suyurg'ol shaklida in'om etilgan edi. XV—XVI asrlarda

suyurg'ol berish juda keng tus olgan. Suyurg'ol olganlar u yerni boshqarish huquqini ham olganlar. Suyurg'ol egasi davlat xazinasiga xiroj to'lashi hamda oliy hukmdorning chaqirig'iga ko'ra o'z qo'shini bilan harbiy yurishlarda ishtirok etishi lozim edi.

Siyosiy tarqoqlik tufayli markaziy hokimiyat zaiflashuvi oqibatida yirik yer egalarning davlat hayotidagi mustaqilligi va qudrati shu darajada oshgan ediki, endilikda ular amalda markaziy hokimiyatga qaram bo'lmay qoldilar. Natijada, bunday yer egalari XVII—XVIII asrlarda suyurg'ol yerlarini o'zlarining doimiy mulklariga aylantirib olganlar hamda ularni meros qoldirish huquqini qo'lga kiritganlar. Xiroj ham to'lamay qo'yganlar. Bu hol keyinchalik siyosiy parokandalik yanada kuchayishiga, markaziy hokimiyat zaiflashuviga hamda iqtisodiyotning, birinchi navbatda qishloq xo'jaligining ham orqaga ketishiga olib kelgan. Buning oqibatida davlat yerlari qisqarib borgan.

XVI asrdan boshlab davlat yerlarini «tanho» deb nom olgan shaklda in'om etish qaror topa borgan. Tanho — asosan harbiy xizmatda bo'lgan kishilarga in'om etilgan. Bunday in'omga sazovor bo'lgan kishi yerning o'ziga emas, shu yerdan olinadigan daromadning egasi bo'lgan. XIX asrning birinchi choragida amirlikda tanhodorlarning soni 12 mingdan 36 ming nafarga yetgan. Eng kichik tanho yeri 3—5 gektarni tashkil etgan.

Davlat yerlarining yana bir qismi dehqonlarga ijaraga berilgan. Xazinaga eng ko'p soliq ham ana shu yerlardan tushar edi.

Xususiy yerlar (mulk)ning bir qismi xususiy shaxslarning yerlari bo'lib, ularning bu yerlarga egalik qilishlari davlat xizmati bilan bog'liq bo'lmagan. **Bunday yerlar asosan arablarga qarashli yerlar bo'lgan.** Bu yerlar soliqdan ozod qilingan edi, lekin, daromadning 1/10 qismi miqdorida o'lpon to'lanardi. **Mulk yerlari** (xususiy yer)ning ikkinchi qismi (mulki hur yoki mulki hurri xolis) davlat xizmati bilan bog'liq bo'lib, bunday yerlar

urushlarda jasorat ko'rsatgan yoki hukmdorning alohida topshiriqlarini bajarishda namuna ko'rsatgan shaxslarga berish natijasida vujudga kelgan. Bunday yerga ega bo'lgan shaxslarga maxsus yorliqlar berilgan hamda ular barcha soliqlardan ozod etilganlar.

Vaqf yerlari — bu masjid, mozar, xonaqo, madrasa va maqbaralar uchun ajratilgan yerlar edi. Bunday yerlar musodara etilgan, davlat hamda yirik yer egalari tomonidan hadya etilgan yerlar hisobiga vujudga keltirilardi. Masjid, madrasa, qabristonlarning asosiy sarf-xarajatlari, shuningdek, talaba, mudarris hamda mutavallilarga beriladigan nafaqa va maoshlar hammasi vaqf yerlaridan olinadigan daromad hisobidan qoplanardi. Vaqf mulkini mutavalli tasarruf etishi belgilab qo'yilgan edi.

Amir Shohmurod hukmronligidan boshlab vaqf yerlarining miqdori birmuncha ko'paydi. Bu hol xazinaga tushadigan daromadga ta'sir etmay qolmadi. Shuning uchun amir Nasrullo yarg'u, ya'ni vaqf yerlarini musodara qilish usulini joriy etdi.

Sollq tizimi

Tokzor, yo'ng'ichqa, mevali daraxtzorlardan tanobona olingan. 1807-yili amir Haydarning bir yorlig'ida har tanob yerdan bir tillodan tanobona olinishi zarurligi ko'rsatilgan. Agar ekinzor egasi tanobona to'lashdan bosh tortsa, hosilning uchdan bir qismi mol (xiroj) tariqasida olingan. Ba'zida xiroj hosilning yarmini tashkil etgan.

Shohmurod zamonida har bir ziroatchidan qo'shpuli (har qo'sh (48—50 tanob) yerdan 40 tiyin) olingan.

XV—XVII asrlarda zakot beva-bechoralar, musofirlar foydasiga olingan bo'lsa, XVIII asrdan boshlab xazina foydasiga olinadigan bo'ldi. Zakot to'lashdan bosh tortgan qabilalar ustiga qo'shin jo'natilib, kuch bilan zakot va ustiga omonpuli (moli omoniy) olingan.

Kanallar, inshoot, qal'a, ko'priklar, yo'llar ta'miri hashar yo'li bilan amalga oshirilgan. Boshda hasharchilar oziq-ovqat bilan ta'minlangan. XVIII asrdan boshlab

hasharga keluvchilar oziq-ovqati, ish asboblari, ot-aravasi bilan kelishi lozim bo'lgan.

XVIII asrgacha, manbalarda ta'kidlanishicha, qadim zamonlardan olimlar, qozilar, sipohiyar va navkarlar xiroj va tanobona to'lashdan ozod etilganlar.

O'rta Osiyoda, jumladan, Buxoro davlatida ham qishloq xo'jaligining taqdiri sun'iy sug'orish (ya'ni ekinlarni kanallar, ariqlar qazib daryolardan suv chiqarish hisobiga sug'orish)ning qanchalik to'g'ri hal etilganligiga bog'liq edi. Afsuski, xonlar va amirlar bu muammoni to'la ijobiy hal etolmaganlar. Aksincha, ular bu ham yetmaganidek o'zaro bosqinchilik urushlari, ichki siyosiy nizolarni kuchaytirdilar. Oqibatda, sug'orish inshootlariga juda katta talofatlar yetkazildi.

Qishloq xo'jaligi va sug'orish ishlari

Buxoro davlati iqtisodi asosini ziroatchilik va chorvachilik tashkil etgan. Shuning uchun

ham XVIII asrda sug'orish tarmoqlarining kengaytirilishiga alohida e'tibor berildi. Buxoro xonligi hududida Zarafshon daryosidan Xurmo va Sarazm nahr (kanal)lari chiqarilgan. Ularning biri to'rt chaqirim, ikkinchisi uch chaqirim uzunlikda bo'lgan.

Amir Shohmurod zamonida 40 chaqirim uzunlikdagi Qozonariq (Urgut tumanini sug'organ), 24 chaqirim uzunlikdagi Toyman arig'i, 24 chaqirim uzunlikdagi To'g'uzariq qazilgan. Yana Oqdaryo va Qoradaryodan ham nahrlar chiqarilgan.

Sug'orish inshootlarini yaroqli holda saqlashning og'ir yuki mehnatkashlar gardanida edi. Aynan ularning matonatli mehnati, sabr-toqati, sug'orish inshootlarining muqim ishlashini ta'minlar edi. Dehqonlar suvdan foydalanishda asrlar davomida juda katta tajriba to'plagan edilar. Ular shunday sug'orish inshootlarini bunyod eta oldilarki, unga tan bermaslikning iloji yo'q edi. Xususan, suv ayirg'ich to'g'oni qurishdagi mohirlik buning isbotidir. Masalan, suv oqimi qiya va tez bo'lgan tog' daryolari hamda soylarda suvayirg'ich (sepoya)lar, tinch oqadigan daryolarda shox-shabbadan qurilgan to'g'onlar,

Amudaryodek chuqur va tezoqar daryolarda esa ko'p boshli suv ayirg'ichlar qurganlar. Ayrim joylarda esa yirik to'g'onlar qurilgan. Bunday to'g'onlardan ayrimlarining uzunligi 3 **chaqirim**, tubining kengligi 4 metr, balandligi 1,5 metrni tashkil etgan.

Daryo va kanallarga o'rnatilgan chig'iriq eng ko'p ishlatiladigan suv ayirg'ich edi. Shunday chig'iriqlar ham yaratilganki, ular suvni hatto 4 metr va undan ham balandga ko'tarib bera olar edilar. Suvni chuqur ariqlardan chiqarib olish uchun tortqichli suv ayirg'ichlar ishlatilar, bunda ot, tuya, eshak va ho'kiz kuchidan foydalanilar edi. XIX asrda birgina Amudaryoning quyi oqimida 600 mingdan ko'proq chig'iriq o'rnatilgan edi. Bu kabi inshootlar Buxoro davlati xo'jaligida katta o'rin tutgan. Bu hayot ta'minoti bo'lgan inshootlarning bosh bunyodkori, dalalarni hosildor yerlarga aylantirgan asosiy kuch — dehqon ommasi edi. Bunday sug'orish inshootlarini bunyod etish, ularni doimiy ravishda ishga yaroqli holda tutish dehqonlarni og'ir majburiyatlarni bajarish, ularni shafqatsiz ezish vositasi edi. Har bir dehqon xonadoni yiliga 60 kundan 100 kungacha sug'orish inshootlari qurish, kanal va ariqlarni tozalash, sozlash ishlarida qatnashishga majbur edilar. Bir so'z bilan aytganda, ularning ahvoli qullarnikidan farq qilmas edi.

Dehqonchilik mehnat qurollari nihoyatda sodda edi. Oddiy dehqon so'qasi (omoch) asosiy dehqonchilik quroli edi. Ot, ho'kiz, sigir, tuya, eshak dehqonning suyanchig'i hisoblangan. Yaxshiyamki, O'zbekiston tuprog'i hosildor, iqlimi qulay mamlakatdir. Shu ikki muhim omil ham oddiy ishlab chiqaruvchi kuchlar bilan ancha serhosil va unumdor dehqonchilikni yo'lga qo'yish imkonini berar edi.

Amirlik yerlarida paxta, bug'doy, jo'xori, tariq, arpa, beda yetishtirish dehqonchilikning asosini tashkil etardi. Deyarli har bir dehqon xo'jaligida o'z ehtiyoji va sotish uchun paxta yetishtirilardi. **Ipakchilik** ham rivoj topgan edi. Bog'dorchilik, sabzavotchilik va polizchilik keng rivojlangan. Piyoz, sabzi, bodring, qovoq, qovun, tarvuz,

olma, olxo'ri, o'rik, shaftoli, nok, yong'oq, bodom, anjir, uzum yetishtirililar edi. Buxoro davlati o'zining ayniqsa qovun-tarvuzi va uzumi bilan mashhur edi. O'rta Osiyoda, jumladan, Buxoroda ham bog'dorchilik yaxshi rivojlangan edi. Ko'pgina shaharlarni bog'lar o'rab turardi. Alohida reja asosida bunyod etilgan bog'lar ham bo'lib, ular yirik amaldorlarga qarar va chorbog' deb atalardi. Bunday bog'lar to'rt qismdan iborat bo'lib, ularni bir-biridan ariqlar ajratib turar edi. Buxorodagi Jo'ybor, Toshkentdagi Kaykovus bog'lari eng mashhur bog'lar qatoriga kirardi.

Buxoroda bo'yoq olinadigan o'simlik (mardona) ham o'stirilar, dorivor o'simliklardan esa dorilar tayyorlanar edi.

Amirlikda, garchand uning salmog'i dehqonchilikdan pastroq bo'lsa-da, chorbachilik ham rivojlangan. Ko'chmanchi chorbachilik tumanlarida dumbali va qorako'l qo'ylari, yirik shoxli qoramollar, tuya va ot boqilardi. Jun, teri, go'sht, sut-qatiq, yog' kabi chorbachilik mahsulotlari xalq hayotida muhim o'rin tutgan.

Hunarmandchilik

Hunarmandchilik Buxoro shaharlarining iqtisodiy hayotida muhim ahamiyatga ega edi. Hunarmandchilikning asosiy turlaridan biri to'qimachilik bo'lgan. Buxoro olachasi, bo'zi, bo'zga gul bosish yo'li bilan tayyorlanadigan chiti, shoyisi, Samarqandning to'q qizil rangli baxmali mashhur edi. Yigirilgan ipdan ro'mol, choyshab, salla to'qish ham keng tarqalgan edi.

Hunarmandchilik ishlab chiqarishining asosiy tarmoqlaridan yana biri — temirchilik va misgarlik bo'lib, o'roq, pichoq, shuningdek, qurol-yarog' yasashgan. Temirchilar qilich, xanjar, oybolta, nayza, qalqon, kamon va uning o'qini yasalar edilar. To'plar yasash ham yo'lga qo'yilgan. XVI asr boshlarida qurol yasashda Samarqand yetakchilik qilgan bo'lsa, keyinchalik bu borada Buxoro yetakchilik qila boshlagan.

Zargarlik ham muhim soha hisoblangan. Qimmatbaho toshlardan, shuningdek, oltin va kumushdan turli bezak buyumlari yasalardi.

Hunarmandchilikning yana bir asosiy tarmog'i kulolchilik edi. Kulollar o'zlari yasagan ro'zg'or buyumlari bilan, shuningdek, tayyorlangan silliq g'ishtlari, koshinlari, tandirlari bilan mashhur edilar.

Yog'ochsozlik hunarmandchiligi ham ancha rivojlangan edi. Yog'ochdan eshik, beshik, deraza, arava, sandiq, qayiq va boshqalar yasalardi. Yog'och o'ymakorligi alohida ahamiyatga ega edi. Novdalardan savatlar to'qilardi.

Uy sharoitida namat, gilam to'qish, oshlangan charmdan egar-jabduqlar, ayillar, pichoq qinlari, hamyonlar tikish ham keng rivojlangan. Shuningdek, charmdan oyoq kiyimlari, o'qdonlar, kamon g'iloflari ko'plab tayyorlanardi.

Me'morchilik ham rivojlangan bo'lib, XVI—XVIII asrlarda barpo etilgan binolarning ba'zilari hozirgacha ham saqlanib turibdi.

Xullas, siyosiy tarqoqlikning salbiy oqibatlariga qaramasdan, O'rta Osiyo xalqlari yaratuvchilik mehnati bilan tarixda o'z munosib o'rinlariga ega bo'ldilar.

Savol va topshiriqlar

1. Buxoro davlatida yerga bo'lgan mulkchilikning uch shaklini qayd eting va ularning bir-biridan farqini tushuntirib bering.
2. Suyurg'ol shaklida yer in'om etilishi qanday oqibatlarga olib kelgan?
3. O'rta Osiyo xalqlari hayotida sun'iy sug'orishning o'rnini tushuntirib bering.
4. Ekin yerlariga suv chiqarishda qanday inshootlardan foydalanilgan?
5. Hunarmandchilikning yetakchi tarmoqlari qaysilari edi?

Bularni takrorlab boring:

- Amirlikda yer mulkchiligining quyidagi uch shakli bo'lgan: 1) davlat (amlak); 2) mulk yerlari (xususiy); 3) vaqf yerlari;
- Davlat yerlaridan foydalanganlar to'laydigan soliq xiroj deb atalgan;
- Davlat yerlari sotilmagan va ayirboshlanmagan;

- Davlat yerlarining bir qismini suyurg'ol, tanho shaklida in'om etish rasm bo'lgan;
- Davlat yerlarining bir qismi dehqonlarga ijaraga berilgan. Xazinaga eng ko'p daromad shu yerlardan tushgan;
- Xususiy yerlar xususiy shaxslarning mulki bo'lgan;
- Vaqf yerlari — masjid, mozor, xonaqo, madrasa va maqbaralar uchun ajratilgan yerlar edi.

18—19-§§. ICHKI VA TASHQI SAVDO. SHAHAR HAYOTI

Ichki savdo

O'rta Osiyo davlatlari, jumladan, Buxoro davlatining jahon bozori faol ishtirokchiligidan uzilib qolganligi uning ichki bozoriga ham ta'sir etmasdan qolmas edi. Oqibatda, davlat hayotida (Xiva va Qo'qon xonligida ham) hech vaqt iste'mol ehtiyojlari ishlab chiqarishdan ustun bo'la olmagan. Bu hol, o'z navbatida, yuqori mehnat unumdorligini ta'minlovchi yirik mashinalashgan ishlab chiqarishdan foydalanish ehtiyojini vujudga keltirmagan. Natijada, xonliklarda oddiy hunarmandchilik ishlab chiqarishi dehqonchilik kabi iqtisodiyotning yetakchi tarmoqlaridan biri bo'lib qolgan. Dehqonchilik va hunarmandchilik ishlab chiqarishi nochor maishiy va iste'mol ehtiyojlarini o'zi ta'minlab kelayotgan aholining turmushi va ehtiyojiga moslashgan. Shuning uchun ham ichki bozorda hunarmandchilik va qishloq xo'jaligi mahsulotlari savdosi yetakchi o'rin egallagan.

Bozorlarda xilma-xil gazlamalar — ip gazlama, jun gazlama, shoyi va boshqalar, shuningdek, tayyor kiyimlar, metall buyumlar, qurol-yarog', zargarlik buyumlari, teri va charm mahsulotlari; kulolchilik mahsulotlari, jundan, qamishdan to'qilgan buyumlar, qog'oz va kitob, bo'yoq, yog'och, o'tin, toshko'mir, qishloq xo'jaligi mahsulotlaridan don, sabzavot, meva, non, go'sht va boshqalar bilan savdo qilinardi. Bozorlar turli mahsulotlarni sotishga ixtisoslashtirilgan edi. Sotuvchilar uchun rastalar ajratib berilgan edi.

Buxoroda bozordagi narx-navo, tosh-tarozining to'g'riligi qattiq nazorat qilinardi. Kimki xaridor haqiga xiyonat qilsa, qattiq jazoga duchor etilardi, xususan, bundaylar yarim yalang'och holda aravada bozor ahliga namoyish qilish uchun sazoyi qilinardi, ovozi boricha: «Men shayton yo'liga kirib, xaridorni aldadim», deb jar solishga majbur etilardi. Bozor aylanib chiqilgunicha u darra bilan urib borilardi. Bozorlarda o'g'rilar deyarli bo'lmas edi. Agarda, kimki birinchi marta o'g'irlik qilib qo'lga tushsa, uning chap qo'li, ikkinchisida esa o'ng qo'li kesib tashlanar edi va bunday jazo xalq ko'z o'ngida amalga oshirilardi. Shuning uchun ham xonlik bozor darvozalari, rasta va xonadon eshiklariga qulf solishmasdi.

O'rta Osiyo, xususan, Buxoro bozorlari faqatgina xo'jalik vazifasini o'tab qolmagan. Ular ayni paytda o'ziga xos jamoat va madaniyat markazi vazifasini ham o'tagan. Xususan, bozorlarda hukmdorning farmonlari o'qib eshittirilardi, aybdorlar jazolanardi, bayram kunlari esa turli tomoshalar ko'rsatilardi.

Tashqi savdo

Jahon bozorining davlat iqtisodiy taraqqiyotidagi o'rni juda katta. Bu hol xususan quyidagilarda namoyon bo'ladi:

— bozor yirik sanoat ishlab chiqarishi uchun zarur sharoit hisoblanadi;



Buxoro. Toqi Telpakfurushon.

— mashinalashgan sanoat ishlab chiqarishining vujudga kelishi o'z navbatida mehnat unumdorligining o'sishiga olib keladi. Natijada, tovar-pul munosabatlari rivojlanadi;

— jahon bozoriga bog'liq bo'lish, ichki bozorda iste'mol ehtiyojining ishlab chiqarish hajmidan ustun bo'lishini ta'minlaydi, mehnat taqsimoti tezlashadi.

Buxoro davlati (boshqa ikki xonlik ham) so'z yuritilayotgan asrlarda **jahon bozori faol ishtirokchiligidan ajralib qolgan edi**. Bu hodisa ayni paytda bu davlatning Movarounnahrning XIV—XV asrlardagi taraqqiyot darajasiga nisbatan qoloqlikda qolishiga sabab bo'lgan muhim omil ham edi. XV asr oxirida O'rta Yer dengizi bandargohlariga olib boradigan Buyuk Ipak yo'li Usmonli turklar davlati tomonidan yopib qo'yilganligi va keyinchalik boshlangan buyuk geografik kashfiyotlar tufayli jahon savdosi dengiz yo'llari orqali olib borilishi O'rta Osiyoni, xususan, Buxoro davlatini jahon bozori-dan ajratib qo'ydi.

Shunga qaramay, mamlakatning tashqi savdo aloqalari butunlay to'xtab qolgani yo'q. Buxoro Hindiston, Afg'oniston, Eron, Xitoy, Qozon xonligi, shuningdek, Qozon, Astraxan shaharlari bilan savdo aloqalarini olib borgan. Bu davlatlarga ip gazlamalar, baxmal, qog'oz, egar-jabduqlar, qurollarning ayrim turlari, meva va boshqa mahsulotlar orilgan savdo karvonlari qatnab turardi. Ba'zi savdo karvonlarining tuyalari bir necha yuz boshga yetardi.

Mamlakatning Samarqand va Buxoro kabi shaharlarga ko'plab chet ellik savdogarlar kelib turishardi. Buxoroda hatto hind savdogarlari va sudxo'rlari yashaydigan alohida mahallalar ham bor edi. Ular hind gazlamalari, bo'yoqlari, shifobaxsh va ziravor o'tlar, dori-darmonlar, qand-shakar bilan savdo qilardilar.

Buxoro aholisini chorva mollari va chorvachilik mahsulotlari, tuyalar hamda hunarmandchilik buyumlari bilan ta'minlovchi qozoq cho'llarining aholisi bilan keng savdo olib borilardi. Ular xom teri, shuningdek, qo'y terisini turli ranglarga bo'yab tikkan kamzullari bilan

ham mashhur edilar. Bu mahsulotlar Buxoro bozorlarining eng xaridorgir mahsulotlari edi. Qozoqlar bilan savdo aloqalarida qoraqalpoqlar vositachilik qilar edilar. Turkmanlar Buxoro bozorlariga zotdor otlar olib kelib sotardilar.

Biroq, XVII asr oxiri — XVIII asr boshlarida O'rta Osiyo davlatlarining, xususan, Buxoroning Sharq mamlakatlari bilan savdo aloqalari birmuncha pasaydi. Bunga quyidagilar sabab bo'ldi:

— Eron va Afg'oniston bilan muttasil davom etib kelayotgan dushmanlik, bu yerdagi siyosiy vaziyatning beqarorligi oqibatida karvon yo'llarining nihoyatda xatarli bo'lib qolganligi;

— Buxoro savdo-sotiq olib borayotgan yaqin qo'shni davlatlarning ham qoloq bo'lganligi. Binobarin, ular ham sanoat buyumlarini taklif eta olmasdilar.

Ana shunday sharoitda tashqi savdo butunlay to'xtab qolmasligining birdan-bir yo'li — bu Rossiya bilan savdo-sotiq qilish edi. Buxoro xonligi ana shu yo'lni tutdi. Ayni paytda Rossiya ham O'rta Osiyoga o'z sanoat mollarini sotish uchun qulay bozor hamda xom ashyo manbai bo'lishi mumkin bo'lgan o'lka deb qaray boshladi. Rossiya o'z qoloqligiga qaramay, O'rta Osiyo, xususan, Buxoro bilan savdo-sotiq olib borish uchun imkoniyatlar yarata boshladi. Xususan, XVIII asrda Nijniy Novgorod yarmarkasining ochilishi, unga buxorolik, xivalik, qo'qonlik savdogarlarining qatnab turishlari buning dalilidir.

Ikkinchidan, Pyotr I davridan Rossiya O'rta Osiyoga alohida e'tibor bilan qaray boshlagan. XVIII asr boshlarida Rossiya qozoqlar yashab turgan hududda chegara o'rnatdi. U yerga mamlakatning boshqa hududlaridan kazaklar ko'chirib keltirildi. Maxsus kazak qo'shinlari tuzildi; qal'a va istehkomlar qurildi. Natijada, savdo yo'llari xavfsizligi ta'minlandi.

1558-yili Moskvaga Buxorodan A'zam Aziz o'g'li elchi bo'lib keldi.

1589-yili Abdullaxon II ning elchisi Muhammad Ali Rossiyaga keldi.

1774 va 1779-yili Buxoro amiri Rossiyaga o'z elchisi Ernazar Mas'ud o'g'lini jo'natadi.

1795-yili elchi Eshmuhammad Shohmurod nomidan Rossiyaga keladi. Amir Shohmurod Yekaterina II ga yozgan maktubida undan 600 pud mis sotib olish uchun ruxsat so'raydi. Oradan bir yil o'tgach, amir yana Rossiyaga elchi Mas'ud Doniyol o'g'lini jo'natadi.

1799-yili Peterburgga Buxoro amirining elchilari Ma'sumxon Mirza Abdurasul o'g'li va mulla Mir Alovuddin keladi.

1801-yili amir Haydar Aleksandr I huzuriga elchi Eshmuhammadboy Yaxshiboy o'g'lini jo'natadi. Amir maktubida Aleksandr I ning taxtga chiqishi bilan tabriklab, besh bosh arg'umoqni tortiq etadi.

Amir Haydar nomidan Peterburgga yana Mir Alovuddin Mirmuhammad Amin o'g'li (1803), G'ofurjon Navro'zjon o'g'li va Mirza Muhammad Sharif (1807), Azimjon Mo'minjon o'g'li bilan Yusuf Ruzvonboy o'g'li (1815)ni elchi qilib jo'natgan. So'ng qo'rchiboshi Mirzo Muhammad Yusufni (1816) elchi qilib Peterburgga jo'natgan.

Orenburgdan Buxoroga keladigan karvonning har bir tuya yuki (16 pud)dan 17—25 so'm kumush pul bilan boj olingan.

1787—1796-yillar mobaynida, ya'ni o'n yil ichida Buxorodan 4158363 so'mlik, Orenburgdan Buxoroga 3680866 so'mlik mol olib ketilgan.

Buxorodan keltirilgan mollarning 45 foizi paxta va paxta matolari bo'lgan. Masalan, Orenburgga Buxorodan 1819-yili 12000 pud paxta tolasi keltirilgan.

Orenburgda 1804-yili Buxoro amirligi savdogarlari-ning qarorgohi bo'lib, unda 20 xonadon istiqomat qilgan. Bular Rossiya bilan Buxoro amirligi o'rtasidagi savdoda muhim o'rin tutganlar. Qarorgoh ahli 1812-yilda Napoleon armiyasiga qarshi janglarda faol ishtirok qilgan. 1825-yilga kelib savdogarlar qarorgohi kengayib, xonadonlar soni 30 taga yetdi. Ularning ko'pchiligi hunarmandlar (zargar, novvoy, cho'pon, savdogar) bo'lib, o'z mahsulotlarini shu yerda sotuvga tayyorlaganlar.

Zamonlar o'tishi bilan Buxoro Orol va Orenburg orqali Markaziy Rossiya bilan savdo-sotiq olib borish imkoniga ega bo'ldi. Buxorodan yo'lga chiqqan karvon 2 oyda Orskka yetib borardi. Ba'zida savdo karvoni 5 mingtagacha tuyadan iborat bo'lardi.

Shu tariqa, Buxoro davlati iqtisodiyoti Rossiya bilan savdo qilishga mo'ljallangan o'ziga xos yo'nalishga ega bo'la borgan. Buni quyidagi fakt ham isbotlaydi. Masalan, 1844-yilga kelganda O'rta Osiyo xonlikning Rossiya tashqi savdosidagi ulushi 25 foizni tashkil etgan bo'lsa, 1864-yilga kelib bu ko'rsatkich 42 foizga ko'tarilgan.

Shahar hayoti. Samarqand Shaharlar hamisha mamlakatning siyosiy, iqtisodiy va madaniy hayotida g'oyatda muhim rol o'ynab kelgan. chunki, shaharlar davlat hokimiyati tayanchi, savdo va hunarmandchilik markazi, madaniyat hamda ilm-fan o'chog'i vazifasini o'tagan. O'rta Osiyo, xususan, Buxoro shaharlari ham bundan mustasno bo'lmagan. Bu davlatning eng yirik shaharlari — Samarqand, Buxoro va Toshkent hisoblangan.

XVI asr boshlarida mayda mulklarning birlashuvi va markaziy hokimiyatning birmuncha mustahkamlanishi xo'jalik hayotini sezilarli darajada jonlantirishga, savdo va hunarmandchilikning rivojlanishiga imkon yaratdi. Shayboniylar davlatining yirik shaharlaridan Samarqand hunarmandchilik mahsulotiga bo'lgan talabni oshirdi. 1507-yili Shayboniixon pul muomalasini tartibga solishga harakat qildi. Bu esa o'z navbatida savdo-sotiqni izga soldi. Iqtisodiyot birmuncha jonlana boshladi. Biroq, tez orada boshlanib ketgan o'zaro urushlar, ajnabiy qo'shinlarning mamlakatga bostirib kirishi bu jarayonni izdan chiqardi. Bobur yozadi: «Samarqand shahri ajab orasta shahardur. Bu shaharda bir xususiyat borkim, o'zga kam shaharda andoq bo'lg'ay. Har hirfagarning bir boshqa bozori bor, bir-biriga maxlut emastur, tavrī rasmedur». Masalan, kulolchilik, cho'yan quyish (degrezlik), teri

oshlash, qog'oz, kiyim-kechak, qurol-yarog' ishlab chiqaruvchilar, baxmalboflar, kimxobgarlar, chitgarlar, bo'yoqchilar, po'stindo'zlar, mo'ynado'zlar mahallalari va rastalari bo'lgan. Tarixchi Fazlulloh ibn Ro'zbehonning aytishicha, cho'l tumanlarining aholisi Movarounnahr hunarmandlari ishlab chiqargan kiyim-kechak va boshqa matolarga ehtiyoj sezganlar. Samarqandda ular muhtoj bo'lgan etik, kavush, egar-jabduq, kamar, yugan ishlab chiqarilgan. Boburning guvohlik berishicha, «Olamda yaxshi qog'oz Samarqanddin chiqar». Qog'ozlar turli navda bo'lgan: sultoniyy qog'ozlari yuqori sifatli, yumshoqligi, silliqdigi bilan ajralib turgan. U ipakdan ishlanib, oq halqa tarzida suv belgisi bo'lgan. Usta Miribrohim ishlab chiqqan qog'oz miribrohimiy deb atalgan. Samarqand qog'ozlari o'z vaqtida dunyo bozorida shuhrat topgan. Bundan tashqari, Samarqandda oltin va zangori bo'yoqlar, mato, shoyi, jez va mis buyumlari ishlab chiqarilgan.

XVI asr boshlarida Samarqand qurol-yarog' ishlab chiqarishning markaziga aylanib qoldi. Tarixchi Hofiz Tanish Buxoriy o'zbek qo'shinlari orasida to'fangandozlar — miltiq otuvchilar bo'lgan, deb yozadi.

Samarqand **shahri** ayniqsa uning hukmdori Yalangto'shbiy Bahodir zamonida (1608—1656) yanada ko'rkamlashdi, madaniy hayoti ancha taraqqiy etdi.

XVII asrda Samarqandda yetti madrasa faoliyat ko'rsatgan. Bular Ulug'bek, Sherdor, Tillakori, Safed (Xoja Ahror), Shayboniyxon, Xoja Abdulg'afur, Qozi Soqiy madrasalari edi. Ular orasida eng yirigi Sherdor madrasasi hisoblangan. Uni 1619—1631-yillarda Yalangto'sh Bahodir qurdirgan. Bu betakror tarixiy yodgorlikni me'mor muhandis Abduljabbor Samarqandiy, naqqosh Muhammad Avaz Samarqandiy, xattot va koshinkor Hasan Begisi Samarqandiy, kulol Muhammad Jabbor Samarqandiy bunyod etganlar. Bu madrasa Ulug'bek mirzo qurdirgan xonaqo o'rnida, Ulug'bek

madrasasi ro'baro'sida bino qilindi. Bu ikkala madrasa yonidan Yalangto'shbiy 1646—1660-yillarda Tillakori madrasasini ham qurdirgan.

Samarqand keyinchalik ashtarxoniylar davrida kuchayib ketgan siyosiy kurashlar, chet elliklar hujumi natijasida talangan, vayronaga aylangan.

Jung'orlar hujumi tufayli aholisi cho'l va tog'lik tumanlarga ko'chib ketganlar. Shahar 7 yil davomida hech kim yashamaydigan xarobazorga aylangan.

Faqatgina mang'it amiri Shohmurod (1785—1800) davrida Samarqand deyarli qayta tiklangan.

XIX asr boshlarida Samarqand shahri baland devor bilan o'rab olingan. Devorning uzunligi 13,9 chaqirim, maydoni 10,4 kv. kilometrni tashkil etgan. Shaharda 80 ming aholi istiqomat qilgan.

Buxoro

O'rta Osiyo shaharlarida savdo markaziy xiyobonlardagi usti yopiq chorsularda olib borilgan. Samarqand, Shahrisabz shaharlarida bunday joylar «tim», «chorsu» ham deyilgan. Buxoroda beshta tim bo'lgan. Bu Buxoro tijorati va bozorlarining obodligidan guvohlik berardi. chorsuni Buxoroda «toq» ham deyilgan.

Registon va boshqa maydonlarda bozor, do'konlar joylashgan. XIX asrning 40-yillarida Buxoroda 38 ta karvonsaroy bo'lib, ularda musofir va mahalliy savdogarlar istiqomat qilganlar. Karvonsaroyda ombor, do'kon, ustaxona, sayisxona, mehmonxonalar bo'lgan. Karvonsaroylarning amirga, ayrim shaxslar va vaqfga tegishlilari bo'lgan. Buxoro karvonsaroilariga har yili 12—15 ming tuyada mol kelgan. Savdo ishini karvonboshi boshqargan. Bu amir farmoniga muvofiq tasdiqlangan. Karvonboshi amirlikdagi barcha savdo ishlarining boshqaruvchisi hisoblangan.

Karvonsaroylarning 24 tasi g'ishtdan qurilgan, 14 tasi cho'pkori edi. Buxoroda ichki va shaharlararo savdo to'qqizta tim va chorsuda amalga oshirilgan. Masalan:

1. Timi Abdullaxon. Bunda adras, beqasam, duxoba va movut sotilgan.

2. Toqi Abdullaxon. Atlas, karbos, surp bilan savdo qilingan.

3. Uchta timda shoyi matolar sotilgan.

Qolgan to'rt chorsu (Xossa Biyor, Doroyi, Timi Kallapo'sh)da Hindistondan keltirilgan oyoq kiyimlari, kavush, bosh kiyimlari sotilgan.

Buxoro shahrida 103 ta madrasa, 360 masjid, 83 ta hovuzning mavjudligi uning yirik iqtisodiyot va madaniyat markazi bo'lganligiga dalolatdir.

Savol va topshiriqlar

1. Buxoro davlatida ichki va tashqi savdo nochor ahvolda bo'lganligi sabablari nimalardan iborat edi?

2. Jahon bozori bilan uzviy bog'liqlik davlatlar hayotida qanday ahamiyatga ega?

3. Buxoro davlati savdosida Rossiya qanday rol o'ynagan?

4. Rossiyaning O'rta Osiyo bilan savdo aloqalarini yaxshilashdan ko'zlangan maqsadlari nimalardan iborat edi?

5. Samarqand va Buxoro shaharlari haqida so'zlab bering.

6. Buxoroning 2500 yilligi nishonlanganligiga oid vaqtli matbuot xabarlarini to'plang.

Bularni takrorlah boring:

— Buxoro davlatining jahon bozori faol ishtirokchisi mavqei-ni yo'qotganligi oqibatida ichki iste'mol ehtiyojlari ishlab chiqarishdan ustun bo'la olmadi;

— Bu hol, o'z navbatida, yuqori mehnat unumdorligini ta'minlovchi yirik mashinalashgan ishlab chiqarishdan foydalanish ehtiyojini vujudga keltirmagan;

— O'rta Osiyo davlatlari bozorlari o'ziga xos jamoat va madaniyat markazi vazifasini ham o'tagan;

— Buyuk Ipak yo'lining Usmoniy turklar tomonidan yopib qo'yilishi, keyinchalik buyuk geografik kashfiyotlar tufayli jahon savdosining dengiz yo'llari orqali olib borilishi Buxoro davlatini jahon bozorining faol ishtirokchiligidan surib qo'ydi;

— Buxoroning qo'shni Sharq davlatlari bilan savdo aloqalarining pasayishiga Eron va Afg'oniston bilan dushmanlik munosabati sabab bo'ldi;

— Buxoro davlati tashqi savdo butunlay to'xtab qolmasligi uchun yaqin qo'shnisi Rossiya bilan savdo aloqalarini yo'lga qo'ydi;

— Rossiya ham O'rta Osiyo davlatlari bilan savdo qilishdan manfaatdor edi. Rossiya tashqi savdosidagi ulushi 1844-yilda 25% ni tashkil etgan bo'lsa, bu ko'rsatkich 1864-yilda 42% ga yetdi.

Hujjatlar tilga kirganda:

O'zbekiston Prezidenti I.A.Karimovning Buxoro shahrining 2500 yilligigabag'ishlangan tantanali marosimdagi tabrik so'zidan (1997-yil 19-oktabr)

Bugun O'zbekiston hayotida buyuk bir sana — shonu shavkati yetti olamni tutgan, qadimiy va hamisha navqiron Buxoroi sharifning 2500 yillik qutlug' to'yini nishonlamoqdamiz...

Buxoro o'lkamizning ming yillar davomida jahon tafakkuri, ma'naviy, madaniy va diniy qadriyatlari taraqqiyotiga ulkan hissa qo'shib kelayotgan, sharaflı nomga sazovor bo'lgan muqaddas joylaridan biridir.

Buxoro «qubbatul islom», ya'ni «islom dinining gumbazi» va, buyuk ulamolar so'zi bilan aytganda, «quvvati dini islom» deb tan olinishi ham Buxoroning jahonda, bugungi Sharq mintaqasida musulmon dunyosining mo'tabar markazlaridan biri bo'lishidan e'tirofdir.

Buxoro tarixiga nazar tashlar ekanmiz, millatimizning 25 asrlik yo'lini ko'ramiz.

Buxoroning har bir qarich yeri, har bir tarixiy va madaniy obidasi el-yurtimizning buyuk iqtidori va yaratuvchilik salohiyatidan, yuksak taraqqiyot, ilmu ma'rifat, ma'naviyat va madaniyat, falsafa va din ravnaqi yo'lidan darak beradi...

O'tgan 2,5 ming yil davomida o'zbek davlatchiligini boshqargan xorazmshohlar, kushonlar, eftalitlar, oshinaliklar, somoniylar, qoraxoniylar, anushteginlar, temuriylar, shayboniylar, ashtarxoniylar, mang'itlar sulolalari tariximizda, xususan, Buxoroi azimda o'ziga yarasha nom va iz qoldirdilar.

Buxoro, ayniqsa temuriylar zamonida gullab yashnadi. Jahon maydonida eng mo'tabar shaharlardan biri darajasiga ko'tarilgan Buxoro ham diniy, ham dunyoviy ilmlar markazi sifatida nom chiqardi. Hazrati Bahovuddin Naqshband faoliyati aynan shu yillarda kechdi.

Buxoro nafaqat yurtimiz, balki butun Sharqning ilm markazi bo'lib kelgan. Imom al-Buxoriy, Abu Nasr Forobiy, Abu Ali ibn Sino, Mir Kulol... va boshqa shu kabi buyuk zotlar yetishib chiqqan, tahsil olgan bu makon bundan buyon ham ilmu fan, ma'rifat va ijod beshigi bo'lib qolaberadi.

20-§. XIX ASRNING BIRINCHI YARMIDA BUXORO AMIRLIGI

**Buxoro Amir Haydar
hukmronligi davrida**

Amir ma'sum Shohmurod
vafot etgach, taxtga o'g'li
Amir Haydar o'tirdi (1800—

1826). Har safar ham bo'lgani singari Shohmurod vafotidan keyin mahalliy hukmdorlar — beklar hamda yirik zodagonlar markaziy hokimiyatga qarshi yana kurash boshladilar. Amir Haydar davrida har 3—6 oyda uzluksiz ichki urushlar va qo'zg'olonlar bo'lib turdi. Birinchi bo'lib, markaziy hokimiyatning o'lpon yig'uvchilari o'zboshimchaligidan norozi bo'lgan Marv turkmanlari 1800-yilda qo'zg'olon ko'tardilar. Amir Haydar bu qo'zg'olonni qattiqqo'llik bilan bostirdi. Biroq, marvliklar 1804-yilda yana qo'zg'olon ko'tardilar. Bu safar qo'zg'olonchilarga Marv hokimi, Amir Haydarning inisi Dinno-sirbek boshchilik qildi. Uning maqsadi Xiva xoni Eltuzar yordamida oliy hokimiyatni egallash edi. Amir Haydar qo'zg'olonchilarga qarshi kurashda eng sinalgan usulni tanladi. Bu usul vohani suvsiz qoldirishdan iborat edi. Shunday qilish maqsadida amir Haydar vohani suv bilan ta'minlab turgan Sultonobod to'g'onini buzdirib tashladi. Natijada, Marv turkmanlari jang qilmay shaharni tark etishga majbur bo'ldilar. Turkmanlarning qolgan qismi esa Zarafshon daryosi vodiysiga ko'chirildi. Dinnosirbek esa oilasi va 100 nafar odamini olib Eronga qochib ketdi.

1800-yilda Qarshi viloyatida va Kattaqo'rg'onda ham xalq qo'zg'olonlari bo'ldi. Bu qo'zg'olonlarning ko'lamini shundan ham bilsa bo'ladiki, amir qo'shinlari qo'zg'olonchilardan 500 nafar kishini xalq oldida qatl etganlar.

Doimiy urushlar fuqaro gardaniga har xil soliqlar solinishini va majburiyatlarni yukladi. Bu esa fuqarolarni xonavayron qildi. Oqibatda, 1821-yili Miyonkolda ham qo'zg'olon ko'tarildi. Bu yerda yarim ko'chmanchi qabilalar istiqomat qilardi. Bular orasida yaxshi uyushgani xitoy-qipchoqlar edi. Amirning buyrug'i bilan Marvga jo'natmoq uchun xalqdan lashkar yig'ish va keyingi yil-

lar uchun xiroj yig'ish qo'zg'olonga sabab bo'ldi. Voqea bunday bo'lgan: Soliq devoni boshlig'i Ayoziy Marvga ketayotib o'z yordamchisi Mirzaxonga Miyonkol ahlidan xiroj yig'ishni buyuradi. Xiroj yig'ishda kuch ishlatilib, talon-torojga qo'l cho'ziladi. Natijada, xalq qo'zg'olon ko'tarib, xirojni to'layolmasligini ma'lum qiladi. Qo'zg'olonchilar amirning odamlarini tutib savalashadi va haydab yuborishadi. Kattaqo'rg'on, chelak, Yangiqo'rg'on qo'zg'olonchilar qo'lga o'tadi. Shahar kambag'allari qo'zg'olonchilarga yordam beradilar. Amir yuborgan qo'shinlar Kattaqo'rg'onni qo'lga olib, aholini talaydi. Qolgan qo'rg'onlardagi qo'zg'olonchilar amir askarlariga qattiq qarshilik ko'rsatadilar. Amir qo'shinlari qaytib ketadi.

1822-yili amirning askarlari yana xitoy-qipchoqlar ustiga bostirib keladilar. Bu paytda amir Haydarga Xiva va Qo'qon xonlari hujumlarini ham qaytarishiga to'g'ri keladi. Qo'zg'olonchilar amirning inisi Ishoqbekni o'zlariga amir qilib olib, Samarqandni yana qamal qiladilar va Karmanaga qarshi yurish boshlaydilar. Amir Haydar Xiva qo'shinlarining amirlik yerlaridan olib chiqib ketilishiga erishadi. Shundan keyin u butun kuchini qo'zg'olonchilarga qarshi tashlash imkoniga ega bo'ladi. 1825-yilning bahorida amir Haydar Yangiqo'rg'on va chelakni egallaydi. Lekin, qo'zg'olonchilarning kuchini sindir olmaydi va qo'zg'olonchilarga yon bosishga, ularning mulki daxlsizligi xususida yorliq berishga majbur bo'ladi. Ayni paytda, xitoy-qipchoqlar yig'ilishib o'z qabila boshliqlari Ma'murbek va Odinaqulibiyga davlat qo'shbegisining o'g'li Muhammad Shukurbiy va Ayozbekning yordamchisi Mirzaxonning kirdikorlari ustidan shikoyat qiladilar. Har ikkala qabila boshlig'i qabiladoshlarining fikrini amir arzigga yetkazadilar. Amir Mirzaxonni qatl ettirgan.

**Amir Nasrullo
hukmronligi**

1826-yilda amirlik taxtiga
Nasrullo (1826—1860) o'tir-
di. U amir Haydarning

uchinchi o'g'li edi. Nasrullo qisqa vaqt ichida taxtga da'vo qilishi mumkin bo'lgan avlodlaridan barchasining

bahridan o'tadi. Ularning uy-joylarini talash, oila a'zolarini esa tahqirlashni lashkarlar ixtiyoriga topshiradi.

Amir Nasrullo amirlik tarkibiga rasmangina kirgan bekliklarni yagona davlatga birlashtirish yo'lida qat'iyat bilan kurash olib bordi. U Buxoroda birinchi bor 40 mingga yaqin sarbozdan iborat muntazam piyoda qo'shin tuzdi. Zamonaviy to'pchilar qismini tuzish niyatida chetdan to'p quyuvchi ustalarni, to'p quyish ilmi-ga o'rgatuvchi mutaxassislarni jalb etdi.

Amir Nasrullo qanchalik qattiqqo'l bo'lmasin, uning davrida ham bekliklarning mustaqillik uchun kurashiga to'la chek qo'yishning iloji bo'lmadi. Masalan, Shahrisabz bekligi (bu yerda kenagas qabilasi istiqomat qilar edi) mang'itlarning o'zaro qirg'inlaridan foydalanib, amirlik-dan ajralib chiqqan va o'zini mustaqil deb e'lon qilgan. Bundan darg'azab bo'lgan amir Nasrullo «o'zboshimcha» kenagaslarga qarshi kurash boshladi. Bu kurash 30 yil davom etdi. Shu davr mobaynida u Shahrisabzga 32 mar-ta yurish qilgan. Va nihoyat, 1856-yildagina u Shahrisabz va Kitobni o'ziga bo'ysundirishga muvaffaq bo'ldi.

Amirlikning qurolli kuchlari

XVIII asrda amirlik qo'shin-lari asosan otliq askarlardan iborat edi. Otliq qo'shin navkarlar va qoracherikdan tuzilgandi. Qo'shinlar to'p, jazoyil, qilich, pilta miltiq, nayza va o'q-yoy bilan qurol-langan edi. Qo'shin tepasida to'pchiboshiyi lashkar yoki amir turgan.

1837-yilda amir Nasrullo muntazam qo'shin tuzdi. Sarbozlar uchun maxsus kiyim (qizil kurta, oq shalvor va qalpoq) joriy etildi. XIX asrning o'rtalariga kelib 2500 nafarli sarbozning har biri nayzali miltiq, qilich va to'pponcha bilan qurollangan edi. Xizmatdan bo'sh kun-lari ular oddiy xalat kiyib yurishgan. Buxoro amirlari qo'shinlariga rus zobitlari tarbiya berib, mashq qildirgan-lar. Mashq, urush va kiyinish nizomlari ishlab chiqilgan. 1837-yilda amir Nasrullo to'pchilar qo'shinini ham tuza-di. Sarbozlar oyiga uch so'm kumush tanga moyana

olgan. Har qabila o'z qo'shini bilan xizmatda bo'lgan. Sarboz va to'pchilar umr bo'yi xizmat qilganlar.

Mang'it hukmdorlari ichki siyosatining asosiy yo'nallishlari	Mang'it hukmdorlari siyosatining asosiy maqsadi markaziy hokimiyatni mus-
--	---

tahkamlash, xalq ommasini qattiq itoatda tutishdan iborat bo'lgan.

Ayni paytda mang'it hukmdorlari o'zlarining ichki siyosatlarida yirik zodagonlarning nufuzini kamaytirishga imkon beruvchi **tayanch** kuchlarni vujudga keltirish siyosatini tutdilar. Bunday ijtimoiy **tayanch** davlatga xizmat qiluvchi amaldorlar tabaqasi bo'lishi mumkin edi. **Mang'it** hukmdorlari ana shunday amaldor xizmatkorlar tabaqasini yarata oldilar. Amir saroyida xizmat qiluvchi 300 ga yaqin yuqori amaldorlik lavozimi joriy etildi.

Bundan **tashqari**, mang'it amirlari markazlashgan mutlaq hokimiyatni barpo etishni o'zlarining bosh vazifalaridan biri deb hisoblaganlar. Shu maqsadda ular amir shaxsiga sig'inish siyosatini yuritganlar. Amir shu darajada oliy hokimiyat mavqeiga ko'tarilganki, jazoga tortilishdan qo'rqqan fuqaro uning nomini baland ovoz bilan ayta olmas edi. Hukmron tabaqalar amirga xushomadgo'ylik qilardilar. Amaldorlar amirdan ko'rsatma kutib o'tirmasdan uning xohish-istagini topa bilishga intilardilar. Har bir amaldor amirning, kichik amaldor o'zidan katta amaldorning qahriga uchrab qolishidan qo'rqib yashardi. O'zining bugungi mavqei, mulki, hayoti, oilasi-ning omonligi uchun shunday bir qo'rquv muhiti vujudga keltirilgan ediki, natijada hech kim ishonch bilan ertangi kunidan umidvor bo'la olmay qolgan edi.

Amirlar mang'it qabilasidan bo'lganliklari uchun bu qabilani o'zlarining asosiy siyosiy va ijtimoiy **tayanch**lariga aylantirgan edilar. Davlat muassasalari asosan ulardan tashkil etilgan. Buxoro amirlari o'zbek qabilalari boshliqlarining o'z qabiladoshlariga ta'sirini juda yaxshi bilar edilar. Qabila boshliqlari bilan o'zaro til topa olish — bu mamlakat xavfsizligining asosiy kafo-

latlaridan biri edi. Shuning uchun ham mang'it amirlari boshqa o'zbek qabilalari boshliqlarini o'z xizmatlariga olar edilar.

Mang'it amirlari o'z ichki siyosatlarida milliy kamsitish siyosatini ham qo'llashgan.

Amirlikda ayniqsa Buxoro yahudiylarining ahvoli og'ir va ayanchli edi. Garchand ular o'z diniy e'tiqodlarini saqlab qolgan, amirlikdagi deyarli butun savdosotiqni o'z qo'llariga olib, ma'lum ijtimoiy mavqega ega bo'lib olgan bo'lsalar-da, ularga nisbatan inson qadr-qimmatini tahqirlovchi, xo'rovchi tartiblar joriy etilgan edi. Xususan, yahudiylarga ot minib yurish man etilgan edi. Ular eshak minishlari mumkin edi, xolos. Bellariga kamar emas, chilvir bog'lab yurishlari shart edi.

Savol va topshiriqlar

1. Miyonkol qo'zg'olonining sabablari va uning oqibati haqida so'zlab bering.
2. Amir Nasrullo haqida nimalarni bilib oldingiz?
3. «Buxoroamirligi ichki siyosatining asosiy yo'nalishi» degan jadval tuzing va uni to'lg'azing.
4. Mang'it hukmdorlari davrida siyosiy hayot ashtarxoniylar davridagi siyosiy hayot bilan qaysi jihatlardan bir-biriga o'xshashini hamda bir-biridan farq qilishini tahlil qiling va ularni daftaringizga qayd eting.

Bularni takrorlab boring:

- Mang'it hukmdorlari ichki siyosatining asosiy maqsadi markaziy hokimiyatni mustahkamlash edi;
- Amir Haydar hukmronligi davrida (1800—1826) mamlatda notinchlik hukm surdi;
- Bu holat markaziy hokimiyatni mustahkamlash siyosati bilan bog'liq edi;
- Doimiy urushlar, har xil soliqlar natijasida fuqaro xonavayron bo'ldi. Ular zulmga qarshi bir necha bor qo'zg'olon ko'tardilar;
- Amir Nasrullo (1826—1860) amirlik tarkibiga rasmangina kirgan beklarni markazga birlashtirish yo'lida qat'iyat bilan kurash olib bordi;
- Amir Nasrullo birinchi bo'lib 40 ming kishilik doimiy piyoda qo'shin tuzdi;

- Amir Nasrullo 1837-yilda to'pchilar qo'shinini ham tuzgan;
- Amir qo'shinlariga rus zobitlari ta'lim bergan;
- Mang'itlar amir shaxsiga sig'inish siyosatini yuritganlar;
- Mang'it amirlari mang'it qabilasini o'zlarining asosiy siyosiy va ijtimoiy tayanchiga aylantirganlar.

UCHINCHI BOB YUZASIDAN TEST TOPSHIRIQLARI

1. Ashtarxoniylar sulolasi hukmronligi davriga xos bo'lgan asosiy xususiyat:

- A. O'zaro ichki urushlarning nihoyatda avj olganligi
- B. Chet el bosqinchilarining uzluksiz hujumi
- D. Ko'chmanchi qabilalarning O'rta Osiyoda hukmronligining to'la qaror topganligi
- E. Diniy mutaassiblikning nihoyatda kuchayganligi
- F. **Markazlashgan** davlatning barbod bo'lib, uning uchta mustaqil davlatga bo'linib ketganligi

2. Mang'itlar hokimiyatni qay tariqa egallaganlar?

- A. Ashtarxoniylar davrida siyosiy tarqoqlik nihoyatda kuchayganligi oqibatida
- B. Ashtarxoniylarning mang'itlar tomonidan tor-mor etilishi oqibatida
- D. Eron shohi Nodirshohning mang'itlarni qo'llab-quvvatlashi oqibatida
- E. Ashtarxoniylardan davlatni boshqarishga qodir voris qolmaganligi oqibatida
- F. Javoblarning A va V bandlari to'g'ri

3. O'rta Osiyo davlatlari taraqqiyotining asriy turg'unlikka yuz tutishiga sabab bo'lgan asosiy omil nima edi?

- A. O'zaro ichki urushlar
- B. Chet el bosqini
- D. O'rta Osiyo davlatlarining o'zaro hamkorlikda bo'lmaganligi
- E. Jahon bozoridan ajralib qolganlik
- F. Bu davlatlar tabiiy-geografik sharoitining nihoyatda murakkab bo'lganligi

4. Buxoro xonligi Eron hukmdori Nodirshohga qaramlikdan qachon qutuldi?

- A. 1744-yilda
- B. 1747-yilda

- D. 1749-yilda
- E. 1751-yilda
- F. 1753-yilda

5. Buxoro xonligi qaysi voqeadan keyin Buxoro amirligi deb ataladigan bo'ldi?

- A. Eron hukmdori Nodirshoh o'ldirilganidan keyin
- B. Abulfayzxon o'ldirilganidan keyin
- D. Muhammad Rahimbiy hokimiyatni egallaganidan keyin
- E. Buxoroda hokimiyat mang'itlar qo'liga o'tgandan keyin
- F. Muhammad Rahimbiy vafotidan keyin

6. Qaysi yillarda Buxoro amirligida mang'itlar sulolasi hukmdorlik qilgan?

- A. 1743—1917-yillarda
- B. 1747—1917-yillarda
- D. 1751—1920-yillarda
- E. 1756—1920-yillarda
- F. 1756—1924-yillarda

7. Samarqand shahrini kim qayta tiklattirdi?

- A. Amir Doniyolbiy
- B. Abulg'ozixon
- D. Amir Shohmurod
- E. Amir Haydar
- F. Amir Nasrullo

8. Qozilar uchun «Ayn ul-bikmat» nomli risolani kim yozgan?

- A. Buxoro elchisi A'zam Aziz
- B. Elchi Ernazar Maqsud o'g'li
- D. Mir Alovuddin
- E. Amir Shohmurod
- F. Amir Haydar

9. Buxoro amirligida davlatning moliya-xazina ishlarini kim boshqargan?

- A. Qo'shbegi
- B. Devonbegi
- D. Otaliq
- E. Ko'kaldosh
- F. Dodxoh

10. Buxoro amirligida fuqarolarning arz va shikoyatlarini tinglash va amirga yetkazish qanday amaldorga topshirilgan?

- A. Ko'kaldoshga

- B. Otaliqqa
- D. Mirshabga
- E. Dodxohga
- F. Parvonachiga

11. Buxoro amirligida bozorlardagi tosh-tarozining to'g'riligini tekshirish, ichkilikbozlik va sudxo'rlikka qarshi kurashish qanday amaldorga yuklatilgan?

- A. Shayxulislomga
- B. Muhtasibga
- D. Qozikalonga
- E. Muftiyga
- F. Ko'kaldoshga

12. Buxoro amirligida yer-suvning egasi kim bo'lgan?

- A. Shayxulislom
- B. Yer egalari
- D. Amir
- E. Muftiy
- F. Muhtasib

13. Buxoro amirligida qanday yer mulkchiligi barcha soliqlardan ozod bo'lgan?

- A. Vaqf yerlari
- B. Davlat yerlari
- D. Tanho yerlari
- E. Suyurg'ol yerlari
- F. Mulki hur yerlari

14. Buxoro amirligida undiriladigan soliqlarning eng yirigi qaysi soliq hisoblangan?

- A. Tanobona
- B. Xiroj
- D. Zakot
- E. Qo'shpuli
- F. Omonpuli

15. Buxoro amirligida eng ko'p tarqalgan suv ko'targ'ichning nomi nima?

- A. To'g'on
- B. Kanal
- D. Ariq
- E. Chig'iriq
- F. Tortqichli suvayirg'ich

16. XVIII—XIX asrlarda O'rta Osiyo xonliklarining xorijiy mamlakatlar bilan savdo aloqalarida qaysi mamlakat ko'proq o'rin tutardi?

- A. Turkiya
- B. Afg'oniston
- D. Rossiya
- E. Eron
- F. Xitoy

17. Miyonkolda bo'lgan qo'zg'olonning yili va sabablarini aniqlang:

- A. 1804-yil, mahalliy beklarning adolatsizligi
- B. 1816-yil, qozilarning adolatsizligi
- D. 1821-yil, xalqdan lashkar yig'ish, keyingi yillar xirojini yig'ish
- E. 1825-yil, Amir Haydarning xalqni qirg'in qilishi
- F. 1830-yil, Amir Nasrulloning soliq va majburiyatlarni ko'paytirgani

To'rtinchi bob

XVI—XIX ASRNING BIRINCHI YARMIDA XIVA XONLIGI

21-§. XONLIKNING TASHKIL TOPISHI

Xiva xonligining tashkil etilishi

Shayboniyxon bosqini arafasi-
da Xorazmda qo'ng'irotlar
qabilasidan chiqqan so'fiylar
sulolasi vakili chin So'fi hukmdor edi. U rasman Husayn
Boyqaro noyibi hisoblanardi.

1505-yili Shayboniyxon, 1510-yilda esa Eron hukm-
dori shoh Ismoil Xorazmni bosib oldilar. Biroq, shoh
Ismoilning hukmronligi ham uzoqqa bormadi. 1511-
yili Xorazm yana o'z mustaqilligini qo'lga ki-
ritdi.

Xorazm hududida jami 20 ga yaqin o'zbek qabilasi
istiqomat qilar edi. Ular orasida qo'ng'irot, mang'it, nay-
man, qipchoq va qiyot qabilalari ko'psonli va eng kuch-
li qabilalardan hisoblanar edilar.

Xorazmning erksevar qabilalari va ularning
boshliqlari Eron qo'shinlariga qarshi mustaqillik uchun
bo'lgan kurashga boshchilik qildilar. Eron qo'shinlari
quvib chiqarilgach, Xorazmning mo'ttabar zotlari mam-
lakat taxtiga Shaybon avlodlaridan Berka sultonning
o'g'li Elbarsxonni o'tqazishga qaror qildilar. Berka sul-
ton xonadoni Shayboniyxon xonadoni bilan garchand bir
shajaradan bo'lsa-da, ular o'zaro dushmanlik muno-
sabatida edilar. Shayboniyxon bobosi Abulxayrxonning
davlatini tiklash uchun kurashayotganda mustaqillikka
intilgan Berka sultonni o'ldirganligi buning sabablaridan
biri edi.

Elbarsxon Eron qo'shinlarini mamlakatdan butunlay
quvib chiqarishga muvaffaq bo'ldi. Qisqasi, **1511-yilda
Xorazm mustaqil davlatga aylandi.** Bu davlat endi Xiva
xonligi deb atala boshlandi. Bu davlat asoschisi ham

shayboniylar vakillari bo'ldi. Xiva shayboniylari hukmronligi 1770-yilgacha davom etdi.

Elbarsxon davridayoq xonlikning siyosiy geografiasini shakllanib bo'lgan. Chunonchi, xonlik g'arbda Kaspiy dengizi, shimolda Orol dengizi, janubda esa Atrek daryosi va Saraxs atroflarigacha bo'lgan hududlarni o'z ichiga olgan.

Elbarsxon davrida mamlakat poytaxti Vazir shahridan Urganch shahriga ko'chirildi.

Elbarsxon Vazir shahrini Eron qizilbosh qo'shinlaridan ozod etgach, bu g'alaba sharafiga o'z o'g'illari nomiga «g'oz» laqabini qo'shib aytishni buyurgan. «G'oz» so'zi «musulmon haq dini uchun kurashchi» degan ma'noni anglatar edi.

Elbarsxon davrida Dashti qipchoqdan Xorazmga ko'chmanchi qabilalarning ko'chib kelishi yanada kuchaydi. Natijada, xonlik hukmdorlarining ijtimoiy tayanchi mustahkamlandi. Bu omil hamda 1524-yilda Eron shohi Ismoilning vafoti Xiva hukmdoriga xonlik hududini qo'shni davlatlar hisobiga kengaytirib olish imkonini berdi.

Ijtimoiy-iqtisodiy va siyosiy hayot

XVI asrda Xiva xonligi markazlashgan davlatga aylanmagan edi. Xonlikda qabila-urug'chilik tuzumining ta'siri hamon kuchli edi.

Movarounnahrda Shayboniylar davlati singari Xiva xonligi ham bir qancha katta-kichik mulklarga bo'lingan. Bular viloyatlar bo'lib, ularni xon xonadonining a'zolari boshqargan. Ayni paytda ular markaziy hokimiyatga bo'ysunmaslikka, mustaqil bo'lishga intilishgan. Bu hol o'zaro nizolarni keltirib chiqargan.

Xiva xonligining aholisi etnik, madaniy va til jihatidan bir-biridan farq qiluvchi quyidagi uch guruhga bo'lingan:

1) chetdan kelgan turli etnik guruhlarini o'ziga singdirib olgan va til jihatdan turkiylashgan qadimiy xorazmliklarning bevosita avlodlari;

2) turkman qabilalari;

3) Dashti qipchoqdan Xorazmga ko'chib kelgan qabilalar.

O'zbeklarning qo'ng'iroq qabilasidan chiqqan sulola ikkinchi yarmida Xiva xonligida uzil-kesil mustahkamlanib olguniga qadar, yirik o'zbek qabilalarining boshliqlari amalda mustaqil mulk egalari aylangan, xonlikning butun ijtimoiy-siyosiy hayotiga hal etuvchi ta'sir ko'rsatib kelgan edilar.

XVI asr ikkinchi yarmida Xiva xonligi iqtisodiy inqirozga duchor bo'ldi. Buning asosiy sabablaridan biri — Amudaryoning o'z o'zanini o'zgartirib, 1573-yildan boshlab Kaspiy dengiziga oqmay qo'yanligi edi. Daryo 15 yil davomida Orol dengizi yo'nalishiga burildi, natijada eski o'zan atrofidagi yerlar cho'lga aylandi. Aholi esa xonlikning boshqa hududlariga ko'chib o'tishga majbur bo'lgan. Bundan tashqari, Xiva xonligining XVI asrda ikki marta Buxoro xonligi tomonidan bosib olinishi, shuningdek, o'zaro qabilaviy urushlar, og'ir soliqlar hamda turli to'lov va jarimalar mamlakat aholisini xonavayron qilgan. Bu hol, o'z navbatida, savdo-sotiqqa katta putur yetkazgan.

XVI asrda Xiva—Buxoro munosabatlari

O'rta Osiyoda dastlab tashkil topgan ikki davlat Buxoro va Xiva xonligi o'rtasi-

da doimo o'zaro dushmanchilik munosabatlari hukm surgan. Buning sabablari bor, albatta. Asosiysi xonliklarning doimo bosqinchilik urushlari hisobiga o'z hududlarini kengaytirishga urinishlari bo'lsa, ikkinchisi, Buxoro va Xiva xonligida hukmron sulolalarning bir-biriga g'anim bo'lib qolgan xonadonlarga mansubligi edi.

Xivani Buxoroga bo'ysundirish harakati Ubaydullaxon (1533—1539) davrida boshlandi. Ubaydullaxon 1537-yili Urganchni egalladi. Xiva xoni Avaneshton (1525—1538) qo'shinlari tor-mor keltirildi, xonning o'zi esa o'ldirildi. Xonlik hududi to'rt qismga bo'lingan. Ubaydullaxon uning bir qismini o'z hokimiyati ostiga, qolgan uch qismini esa Hisor, Samarqand va Toshkent hokimlariga bo'lib berdi. O'g'li Abdulazizni

Xorazmga noyib etib tayinladi. Biroq, bu ahvol uzoq davom etmadi. Avaneshxonning avlodlari Darunga — Dinmuhammadxon huzuriga borib undan yordam so'radilar. Dinmuhammadxon adoqli turkmanlar yordamida 1538-yili Urganchni egallab, shayboniylarning dorug'asini o'ldirdi. Ubaydullaxon yuborgan qo'shinlar Dinmuhammadxon tomonidan tor-mor keltirildi.

Keyingi hukmdorlar davrida ham bu ikki xonlik o'rtasidagi adovat va dushmanchilik to'xtamadi.

Jumladan, Buxoro xoni Abdullaxon II 1593-yili Xiva xonligini bosib olgan. Xiva xoni **Hojimxon** (1558—1602) esa o'z oilasi bilan Eron shohi Abbos huzuriga qochishga majbur bo'lgan. 1595-yilda Xiva turkmanlar yordamida yana o'z mustaqilligini tikladi. Lekin, shu yili Abdullaxon II Xiva xonligi ustiga yana qo'shin tortib keldi. Hoji Muhammad (Hojimxon) yana Eronga qochdi. Faqatgina 1598-yili Abdullaxonning vafotidan keyin Buxoro xonligida boshlangan o'zaro toju taxt uchun kurashlari oqibatida Hojimxon Xiva xonligi taxtini qayta egallashga va o'z hokimiyatini mustahkamlab olishga erishgan.

Savol va topshiriqlar

1. Xiva xonligi qaytariqa tashkil topdi?
2. Xiva xonligi hayotida qaysi o'zbek qabilalari katta o'rin egallagan?
3. Xonlik hayotida turkman qabilalari qanday o'rin tutgan?
4. XVI asrda Xiva xonligi iqtisodiy hayotida ro'y bergan inqiroz sabablarini qayd eting.
5. Xiva va Buxoro xonliklari munosabatlarida dushmanlik kayfiyati kuchli bo'lganligini misollar yordamida asoslab bering.
6. Xiva va Buxoro xonliklari tashkil topishining o'xshash va farq qiluvchi tomonlarini mustaqil ravishda aniqlab, ularni daftaringizga qayd eting.

Bularni takrorlab boring:

- 1511-yilda O'rta Osiyoda yana bir davlat — Xiva xonligi tashkil topdi;
- Xiva xonligining asoschisi Dashti qipchoqlik Elbarsxon edi;
- Elbarsxon shayboniylar sulolasidandir. U Muhammad Shayboniyxon bilan amakivachcha edi;

— Xorazmlik shayboniylar doimo alohidalikka intilganlar. Muhammad Shayboniyxon avlodlari bilan kelisha olmaganlar;

— Xiva shayboniylari 1505—1770-yillarda hukmronlik qildilar; binobarin, Xiva shayboniylarining hukmronligi Buxoro shayboniylaridan (1500—1601) ancha uzoq davom etgan;

— Buxoro xoni Ubaydullaxon 1537-yilda Xiva ustiga qo'shin tortgan va uni Buxoroga bo'ysundirgan; biroq, bu hol 1538-yilgacha davom etgan.

— Abdullaxon II davrida Xiva xonligi 2 marta (1593 va 1595-yilda) Buxoroga bo'ysundirilgan.

22—23-§§. XVII—XVIII ASRNING BIRINCHI YARMIDA XONLIKDA SIYOSIY AHVOL

Xiva xonligiga siyosiy parokandalik

XVII asr Xiva xonligining siyosiy hayotida o'ziga xos xususiyat — bu, bir tomon-

dan, markaziy hukmron sulola nufuzining pasayishi bo'lsa, ikkinchi tomondan, qabila boshliqlari ta'sirining kuchayishi bo'ldi. To'g'ri, qabila boshliqlari: beklar, biylar rasman markaziy hukumatga qaram hisoblanardilar. Amalda esa, o'z beklilari hududida to'la mustaqil edilar. Ularning kuch-qudrati shu darajaga borib yetgan ediki, endilikda ular rasman oliy hukmdor hisoblanuvchi xonga o'z xohish-istaklarini o'tkaza olganlar. Xon davlat hayotiga oid har bir masalani ularsiz mustaqil hal eta olmas edi. Aksincha, aynan shu qabila boshliqlari xon saylovi taqdirini hal etardilar. Binobarin, Xiva xonligida davlat parokandaligi yuz berdi. Bu parokandalik **Arab Muhammadxon** davri (1602—1621)da yuqori nuqtasiga yetgan edi. Amudaryo o'zanining o'zgarishi va natijada uning qurib borishi bu davrda ham davom etdi. Natijada, Arab Muhammadxon xonlik poytaxtini Urganchdan Xivaga ko'chirishga majbur bo'ldi.

Amudaryo o'zanining o'zgarishi, uning qurib borishi natijasida yuz bergan iqtisodiy tanglik ham davlatning siyosiy ahvoliga juda katta ta'sir ko'rsatdi. Arab Muhammadxon davrida Rossiya chegarasini qo'riqlab turgan yoyiq kazaklari ataman Nechay boshchiligida

Urganchga hujum qildilar va ming nafar xotin-qizlarni asir olib ketayotganlarida xon qo'shinlari ularning yo'lini to'sdi va tor-mor keltirdi. Ko'p o'tmay ataman Shamay hujum qildi. Lekin, niyatiga yetolmadi. Ular asir olindilar.

Abulg'ozil Bahodirxon Ustiga-ustak, o'zaro nizolar yanada avj oldi. 1616-yili

Arab Muhammadxonning o'g'illari Habash sulton bilan Elbars sulton nayman va uyg'ur qabilalarining boshliqlariga tayanib, otalariga qarshi isyon ko'tardilar. Ota farzandlariga yon bosdi. Ular boshqaruviga topshirilgan hududlarga Vazir shahrini ham qo'shib berdi. Biroq, bu bilan nizo tugamadi. 1621-yili ular yana isyon ko'tarishdi. Bu safar otalari Arab Muhammadxon tarafida uning boshqa ikki o'g'li— Asfandiyorxon va Abulg'ozil sulton urushda qatnashdilar. Bu urushda Habash sulton va Elbars sulton qo'shinlari g'olib keldi. Noqobil farzandlarning amri bilan asir olingan otaning ko'ziga mil torttirildi va Xivaga keltirilib qamab qo'yildi. Keyinchalik esa, oradan ko'p vaqt o'tmay, xon qatl etildi. Abulg'ozil sulton Buxoro xoni Imomqulixon saroyida panoh topdi. Asfandiyorxon esa Hazoraspda yashirindi. Keyinchalik g'olib ukalari unga haj safariga borishga ijozat berdilar. Biroq, u hajga bormay Eron shohi Abbos I huzuriga yo'l oldi va uning yordamida 1623-yilda Xiva taxtini egalladi. Bu voqeadan xabar topgan Abulg'ozil sulton Xivaga qaytdi. Akasi **Asfandiyorxon** (1623—1643) uni Urganch hokimi etib tayinladi. Biroq, tez orada aka-uka o'rtasidagi munosabatlar buzildi. Natijada, Abulg'ozil sulton 1627-yili Turkiston hukmdori Eshimxon dargohiga qochib bordi. 1629-yilda, Eshimxon vafot etgandan keyin, Abulg'ozil sulton Toshkent hokimi Tursunxon, uning vafotidan keyin esa yana Buxoro xoni Imomqulixon huzuriga borishga majbur bo'ladi. Asfandiyorxon siyosatidan norozi bo'lgan turkmanlarning chaqirig'i bilan u yana Xivaga qaytib boradi. Akasi endi unga Xivani topshirishga majbur bo'ladi. Biroq, olti oydan so'ng



Hukmdor va alloma
Abulg'azi Bahodirxon

Abulg'azi Eron tasarrufiga o'tgan Niso va Darunga (Ashxobod bilan Qizil Arvat o'rtasida joylashgan manzilgoh) hujum qilganlikda ayblanib, hibsga olinadi va Eronga, shoh Safi I (1629—1642) huzuriga o'z navkarlari qo'riqchiligida jo'natiladi. Abulg'azi sulton Eronda 10 yil tutqunlikda kun kechirdi (1630—1639).

1639-yilda Abulg'azi sulton tutqunlikdan qochib, 1642-yilda Orol o'zbeklari qarorgohiga yetib keladi. Asfandiyorxon vafot etgach (1642), 1644 yilda Abulg'azi sulton Xiva xonligi taxtini egallaydi. Uning yigirma yil-

lik xonlik davri jangu jadallar bilan kechdi. Buxoro xoni qo'shinlari bilan bir necha marta to'qnashdi.

Inoqlar

Abulg'azi qabila boshliqlari nufuzini oshirish bilan ular-

ning markaziy hokimiyatga qarshi xatti-harakatlariga barham bermoqchi bo'ldi. U xonlikdagi barcha qabilalarni to'rt guruhga bo'ldi: qiyot-qo'ng'iro't, uyg'ur-nayman, qang'li-qipchoq, nukuz-mang'it. Bunda qabilalarning urf-odatlar, turmush tarzi va qarindoshchilik aloqalari hamda joylashgan yeri hisobga olindi. Mazkur to'rt guruhga yana o'n to'rt mayda urug'lar ham qo'shilgan. Har bir qabilaviy guruhga boshliq — inoq tayinlanib, xon shu inoq orqali qabilaga tegishli masalalarni hal qilgan. Inoqlar xonning eng yaqin maslahatchisi sifatida saroyda istiqomat qilganlar. Abulg'azi Bahodirxon saroyida xon hashami 32 qabila boshlig'i — inoqlardan iborat edi.

Abulg'ozii Buxoro xoni Abdulaziz bilan Subhonqulixon o'rtasidagi raqobatga ham aralashdi, chunki, Subhonqulixon Abulg'ozining jiyaniga uylangan edi. Buxoro xoni bilan sulh tuzishga erishildi. Shunga qaramay, Abulg'ozixon 1663-yili yetti marta Buxoro xonligi ustiga yurish uyushtirdi: Qorako'l, chorjo'y, Vardonze tumanlarini talon-toroj qildi.

1663-yilda vafot etgan Abulg'ozixon o'rniga Xiva taxtiga uning o'g'li **Anushaxon** o'tqazildi (1663—1687). Anushaxon davrida Buxoro-Xiva munosabatlari yanada keskinlashdi. Anushaxon Buxoroni xonavayron qilgan bir necha marta harbiy yurish uyushtirgan. Uning qo'shini hatto Buxoroga yetib borgan. Samarqandni egalagan. Oxir-oqibatda, Buxoro xoni Subhonqulixon Anushaxonga qarshi Xivada fitna uyushtirdi. Anushaxon taxtdan tushirilib, ko'ziga mil tortildi.

Subhonqulixon Xivada o'z tarafdorlaridan shunday fitnachi guruh uyushtira olgan ediki, ular 1688-yili Buxoroga maxsus vakil yuborib Subhonqulixondan Xiva xonligini Buxoro xonligiga qo'shib olishni iltimos qilgan edilar. Bundan foydalangan Subhonqulixon 1688 yilda Shohniyoz inoqni Xiva hukmdori etib tayinlaydi. Biroq, Shohniyozda hukmdor bo'lishga arzigulik qobiliyat yo'q edi. Xonlikni boshqarish uddasidan chiqishiga ko'zi yetmagan va o'z ojizligini sezgan Shohniyoz Subhonqulixonga xiyonat qiladi va boshqa kuchli homiy topish payiga tushadi. Bunday kuchli homiy Rossiya bo'lishi mumkin edi. Shuning uchun ham Shohniyoz rus podshosi Pyotr I homiyligida o'z hokimiyatini saqlab qolmoqchi bo'ldi. Shu niyatda u 1700-yilda Buxoro xoni Subhonqulixondan yashirincha Pyotr I ga elchi yuborib, undan Xivani Rossiya tobeligiga qabul qilishni so'raydi. Uzoq vaqtlardan beri O'rta Osiyo oltinlari, bitmas-tuganmas xom ashyolarini qo'lga kiritish niyatini ko'ngliga tuyib qo'ygan Pyotr I uchun elchi yuborilishi ayni muddao edi. Shuning uchun ham Pyotr I 1700-yilning 30 iyundagi farmoni bilan bu iltimosga rozilik bildiradi.

Xiva hukmdorlarining Rossiyaga qilgan bu murojaatlari aslida **ularning turkiy xalqlar milliy manfaatlariga nisbatan qilingan kechirib bo'lmaz xiyonati edi**. Chunki, bu murojaat keyinchalik rus mustamlakachilariga mamlakatimiz hududlarini bosib olish va xalqini asoratga solish uchun yo'l ochib bergan edi. Bu voqealardan so'ng Xiva xonligining siyosiy hayoti yanada murakkablashdi. Endilikda xonlik ziddiyatlar, qarama-qarshiliklar va g'ulg'ulalar girdobida qoldi.

**Xiva xonligida
chet davlatlar
manfaatlarining
to'qnashuvi**

Xiva xonligida Rossiya, Eron va Buxoro davlatlari manfaatlari to'qnashib qoldi.

Endilikda ularning har biri Xiva xonligidagi ichki ziddiyatlar, qarama-qarshiliklar va g'ulg'ulalar tugunini o'z foydalarini ko'zlab yechishga intilmoqda edilar. Bu intilishlar Xiva xoni **Sherg'ozixon (1714—1728)** davrida yanada kuchaydi. Xiva xonligiga qarshi birinchi bo'lib Rossiya bosqinchilik hamlasini boshladi. Rossiya podshosi Pyotr I 1714-yili Bekovich-Cherkasskiy harbiy «ekspeditsiyasi»ni Xivaga yubordi. Bekovich-Cherkasskiyning asl ismi Davlat Kizden mirzo bo'lib, cherkas qabila boshlig'ining o'g'li edi. Uni Pyotr I tarbiya qilgan. Cho'qintirilgandan keyin Aleksandr Bekovich-Cherkasskiy deb nomlandi. Knyazlik rutbasi berildi. 1707-yilda Pyotr I uni chet elga jo'natgan; 1714-yilda esa katta qo'shin bilan Xiva va Buxoro xonliklarini tobe etish maqsadida yuboradi. Turkman elchisi Xoja Nafas 1713-yilda Hojitarxonga kelganda rus ma'murlariga Xiva yaqinida oltin koni borligi haqida xabar bergan. Shuning uchun Aleksandr Bekovich-Cherkasskiy Pyotrdan quyidagicha topshiriq oladi: Amudaryoning eski o'zanini tekshirish; Xiva xonini rus tobeligiga o'tishga ko'ndirish; Amudaryoning Orol dengiziga quyilish joyida qal'a qurib, Buxoro xonini ham bo'ysundirish; Hindistonga olib boradigan savdo yo'llarini o'rganish; Erkit mavzeida oltin koni bor-yo'qligini aniqlash.

Pyotr I Aleksandr Bekovich-Cherkasskiy ixtiyoriga 4000 nafarli muntazam qo'shin, 2000 nafar yoyiq kaza-gi, bir necha nafar dengiz ofitseri, ikki savdogarni bera-di. Aleksandr Bekovich-Cherkasskiy yo'lga chiqqanda uning ixtiyorida 6655 kishilik qo'shin, 138 ta katta-kichik kema, 19 ta to'p bo'lgan.

Hojitarxon (Astraxan)da Aleksandr Bekovich-Cherkasskiy Kaspiy dengizining xaritasini chizib oladi. Bu xizmati uchun u gvardiyachi kapitan unvoniga sazovor bo'ladi. 1717-yilning bahorida u Xivaga ayg'oqchi jo'natadi. O'zi esa Xiva xonligiga qarshi yurish boshlaydi. Bekovich-Cherkasskiy Qarog'och darasiga kelib to'xtaydi. Bu yerdan daryogacha ikki chaqirimcha masofa edi. U oltmish nafar kazakni daryo orqali «baliq ovlash» bahonasi bilan jo'natadi. Lekin, xivaliklar ularni asir olishadi. Ertasi kuni xivaliklar rus qo'shinlariga qo'qqisdan hujum qilib, kechga yaqin chekinadilar. Oldin Bekovich-Cherkasskiy Xiva qo'shinlarini qo'rqitish maqsadida to'p otishga buyruq beradi. Lekin, bu tadbir hech qanday natija bermaydi va mudofaaga o'tishga majbur bo'ladi. Tepaliklarga yettita to'p o'rnatiladi. Buni ko'rgan Xiva xoni ularni ochiq jangda yengishga ko'zi yetmay, muzokara boshlashga qaror qiladi va Eshimxo-jani elchi qilib jo'natadi. Elchiga Bekovich-Cherkasskiy rus podshosi nomidan elchi bo'lib kelganini aytadi va Eshimxojaga o'z vakili tatar Oltin Useynovni qo'shib jo'natadi. Useynovni xon huzuriga kiritmaydilar. Ertasiga xivaliklar yana hujumga o'tadilar. Kechga yaqin xivaliklar bir chaqirimcha chekinadilar. Sherg'ozixon ruslar huzuriga Qalumboy va Nazarxo-jani vakil qilib jo'natadi. Ikki o'rtada sulh shartnomasi tuziladi. Shundan keyin xon Bekovich-Cherkasskiyni o'z huzuri-ga taklif qiladi.

Bekovich-Cherkasskiy 700 kishilik qurolli askar bilan xon chodiriga boradi va xonga ishonch yorlig'ini topshi-radi. Shundan keyin ular Xivaga yo'l oladilar. Xivaga yetmasdan dam olish uchun to'xtaydilar. Shu yerda xon Bekovich-Cherkasskiy va knyaz Zamonovni qabul qiladi. Bir necha soatlik muzokaradan so'ng yana yo'lga

tushadilar. Xiva yaqinidagi Porsungul daryosi bo'yida kelib to'xtaydilar. Sherg'ozixon Bekovich-Cherkasskiy masalasida o'zining millatparvar, vatanparvar, or-nomusli ekanligini namoyish etadi. Lekin, u Xivaning Rossiyaga qaram bo'lishini aslo istamas edi. Xon Bekovich-Cherkasskiy qo'shinini tor-mor keltirish maqsadida hiyla ishlatadi. Xon Cherkasskiyga rus askarlari juda ko'p, ularni oziq-ovqat bilan ta'minlash qiyin bo'lgani sababli, askarlarni Xiva atrofidagi beshta shaharga bo'lib joylashtirish haqida farmon berishini taklif qiladi. Rus askarlari qismlariga bo'linishi bilan, qirib tashlanadi. Aleksandr Bekovich-Cherkasskiy ham qatl



Xiva. XVIII asrda ko'chirilgan qo'lyozmadan sahifa

etiladi. Bu voqea 1717-yilning 29-avgusti kuni sodir bo'ldi.

Aleksandr Bekovich-Cherkasskiyning harbiy yurishi rus podshosi kutgan natijani bermagan bo'lsa ham, Kaspiy dengizidagi Qorabo'g'ozko'l qo'ltig'i, O'zboy o'zani, Amudaryoning Orol dengiziga quyilish o'rni xaritada tushirib olingan edi.

Bekovich-Cherkasskiy harbiy «ekspeditsiyasi»ning halokati Xiva-Rossiya munosabatlarini keskinlashtirib yubordi. Bunday sharoitda Sherg'ozixon Buxoro bilan munosabatlarni yumshatishga harakat qildi. Lekin, Rossiya hujumi xavfi kuchaygan bir paytda har ikki o'zbek xonligi o'zaro hamjihat bo'lishga intilish o'rniga ularning munosabatlaridagi keskinlik yanada kuchaydi. Bunga Buxoro xoni Abulfayzxonning orolliklarni Xiva xoniga qarshi gigijlashi sabab bo'lgan.

Orolning shimoli va atroflarida xonga qarshi qabilalar urush boshlaydilar. Natijada, orolliklar Xiva xonligidan ajralib chiqdilar. Xiva xonligida boshlangan o'zaro kurash goh u tomon, goh bu tomonning ustunligi bilan to Sherg'ozixon vafot etguniga qadar davom etdi. Xiva xonligining siyosiy ahvoli **Elbarsxon** davrida (1728—1739) yanada keskinlashdi. U Eron shohi Nodirshoh qahriga yo'liqdi. Chunki, Elbarsxon Xivaning Eronga tobe bo'lishini istamagan. Ayni paytda u Nodirshohga qarshi kurashda Buxoroning yordam berishiga ham intilgan edi. Bundan g'azablangan Nodirshoh Buxoroni tobe etgach, 1740-yili Xiva xonligini ham bosib oldi.

Nodirshoh 1740-yili Xivaga o'z odamini hokim etib tayinlab, Eronga qaytadi. Xivada Eron boshqaruv tizimi o'rnatildi. Aholiga «moli omon» solig'i solindi. Ana shundan keyin Xiva xonligida parokandalik kuchaydi. O'zaro urushlar natijasida bir qancha vaqt turkman qabilalari — yovmutlar ustun kelib turdi. Endi Xiva mustaqilligini yo'qotdi, qadimiy madaniy mamlakat bosqinchilik va talon-toroj maydoniga aylantirildi. Osiyo va Yevropani birlashtiruvchi karvon yo'li o'zining ahamiyatini to'la yo'qotdi. Xonlar esa amalda qabila boshliqlari, inoqlar qo'lida itoatkor bo'lib qoldilar.

Nodirshoh boshchiliga qarshi kurash

Orol dengizining shimolida
istiqlomat qilib turgan o'zbek
qabilalariga bosh bo'lgan

Nurali (kichik Juz qozoq xoni Abulxayrning o'g'li) 1741-yili eronliklar zulmiga qarshi qo'zg'olon ko'tardi. Bu vaqtda Nodirshoh Dog'iston yurishi bilan band edi. U o'g'li Nasrulla boshchiligida qo'zg'olonchilarga qarshi qo'shin jo'natdi. Nasrulla qo'zg'olonni bostirib, Xiva taxtiga Elbarsning o'g'li Abu Muhammadni o'tqazdi. So'ng Orolbo'yi va xivaliklardan qo'shin to'plab otasiga madad berish uchun Dog'istonga jo'natdi. Qo'zg'olon sababchilari bo'lgan turkman yovmutlarini Xuroson hududiga ko'chirtirdi.

Keyin Xiva taxtini egallagan **G'oyib ibn Botir** (1746—1756) inoqlar nufuzini yo'qotish payidan bo'lib, o'zbek qabilalariga qarshi kurashdi. Ular G'oyibning inisi Abdulla boshchiligida xonga qarshi qo'zg'olon ko'tardilar. Qo'zg'olonga Buxoro xoni Muhammad Rahimxon aralashadi. G'oyibni taxtdan tushirib, o'z noyibi Temurg'ozini xon etib tayinlaydi. Muhammad Rahimxon vafot etgach (1758-yili), inoqlar hokimiyatni yana qo'lga oldilar.

Savol va topshiriqlar

1. XVII asrda Xiva xonligi siyosiy hatyotiga xos bo'lgan xarakterli xususiyat nimada edi?
2. Amudaryo o'zganining o'zgarishi va uning qurib borishi oqibatlarini qayd eting.
3. «Shajarai turk» asarining muallifi Abulg'ozixon qanday qilib xon taxtiga o'tirgan edi?
4. Buxoroxoni Subhonqulixon gumashtasi Shohniyoz qanday xiyonatga qo'l urgan?
5. Xiva xonligida Rossiya, Eron va Buxoro manfaatlari to'qnashganligini misollar asosida tushuntirib bering.

Bularni takrorlab boring:

- XVII asrdan boshlab Xiva xonligida hukmron sulola nufuzi pasaya bordi, qabila boshliqlarining esa ta'siri kuchaydi;
- Natijada, davlat parokandaligi yuz berdi;

— Davlat parokandaligi Arab Muhammadxon davrida (1602—1621) ayniqsa kuchaygan;

— Pyotr I davridan boshlab O'rta Osiyo yerlariga Rossiya hukmron doiralariining ko'z olaytirishlari amaliyot bilan qo'shib olib borila boshlagan;

— Xiva xonligida Rossiya, Eron va Buxoro manfaatlari to'qnashgan;

— 1714-yilda Pyotr I Xivaga qo'shin jo'natgan; biroq, bu tadbir natijasiz tugagan;

— 1740-yilda Eron hukmdori Nodirshoh qo'shinlari Xivani o'ziga bo'ysundirgan.

Manbalar tilga kirganda:

Hoji Muhammadxon tarixi hijriy ming taqi o'n birda bars yilining ayoqida sakson uch yoshinda Haq rahmatiga ketdi. O'g'li Arab Muhammad sultonni xon ko'tardilar... Xon bo'lg'andin olti oydin so'ng qo'shi Yoyiq teganda yurugan o'rusning qozoqindin ming kishi saratonning avvali kuni g'ofil kelib, Urganchning qal'asina kirdi. Shaharda raiyatdin o'zga kishi yo'q edi. Xonning o'rdusi va sipoh xalqi Amu suvining labinda erdilar. Xivaqda xong'a kishi chohturdilar. Yetti kunda xon keldi. Urganchda raiyadin ming kishini o'lturdi va ming qiz birlan juvonni oldi. Ming arabag'a yaxshi mollardin yukladi. Bo'z va bo'yog'li va palos va to'n va to'shak-yastuq mundag' nimarsalarning barchasini o'tga yoqdi. Bularni **saranjom** qilg'uncha yetti kun bo'ldi. Andin so'ng Urganchdin chiqib, daryo labiga yurudi. Arab Muhammadxon oldig'a borib o'r qazidi va jiba qildi. Ikki kun urushtilar, uchinchi kuni jibani zo'r qilib olib, taqi bosib o'tdi. O'rus piyoda, bizning xalq otli ilg'ab ikki farsang yer yuzunda kelib yana o'r qazib jiba qildilar. Axir arabaning ichindin chiqa bil-madi. Ojiz bo'ldi...

Abulg' ozi, «Shajarai turk» asaridan.

24—25-§§. XVIII ASR OXIRI — XIX ASRNING BIRINCHI YARMIDA XIVA XONLIGI

**Qo'ng'iro't sulolasining
hokimiyat tepasiga
kelishi**

Xiva xonligidagi boshboshdoqliklar, o'zaro to'xtovsiz ichki urushlarga kimdir chek qo'yishi tarixiy zaruriyatga aylandi. Chunki, xonlikning iqtisodiy ahvoli avvalo siyosiy tarqoqlikdan, o'zaro ichki

urushlardan, ayni paytda chet el bosqini oqibatlaridan katta zarar ko'rmoqda edi.

Ikkinchidan, xalq o'zining beomon talanishi, tinimsiz urushlar tufayli xonavayron bo'lishi oqibatida tevarakatrofdagi yurtlarga qochib ketib jon saqlashga majbur bo'lgan edi. Natijada, ko'plab yerlar tashlandiq holatga tushib qoldi.

Bu omillar o'z navbatida zodagonlarning o'zaro urushlari va qabilalar o'rtasidagi mojarolarni to'xtatishga qodir bo'lgan kuchli markaziy hokimiyatning barpo etilishini taqozo etar edi. Bunday hokimiyatni barpo etishga qodir kuch sifatida maydonga o'zbeklarning qo'ng'iro't qabilasi chiqdi. Bu zaruriyatning natijasi o'laroq, XVIII asrning 60-yillaridan boshlab Xiva xonligida hokimiyatni qo'ng'iro't qabilasi boshliqlari asta-sekin o'z qo'llariga ola boshladilar. Yirik zodagonlar va ruhoniylarning madadiga tayangan qo'ng'iro't qabilasining yo'l boshchisi Muhammad Amin inoq 1770-yilda xonlikda turkmanlarning qarshiligini sindirib mamlakatda tinchlik va osoyishtalik o'rnatdi. 1770-yildan boshlab Xiva xonligida hokimiyat amalda Xiva qo'ng'iro'tlari qo'lga o'tdi. 1782-yilda esa Buxoro xoni qo'shinlari hujumini daf etdi.

Muhammad Amin inoq mustaqil beklarni ham bo'ysundirganidan keyin Xiva xonligida iqtisodiy hayot bir qadar jonlana boshladi. O'zga yurtlarga qochib ketgan aholi asta-sekin qaytib kelaboshladi.

Lekin, Muhammad Amin ham, uning o'g'li Avaz (1790—1804) ham haliyam inoq unvonida chetdan: chingiziy qozoqlardan chaqirilgan xonlar (ular soxta xonlar edilar, butun hokimiyat inoqlar qo'lida edi) nomidan hokimiyatni boshqarganlar. Faqatgina Muhammad Amin inoqning nabirasi Eltuzar (1804—1806) 1804-yilda chetdan chaqirilgan soxta xon Abulg'ozini taxtdan tushirib, o'ziga xon unvonini qabul qildi. Shunday qilib, qo'ng'iro't qabilasi Xiva xonligi taxtini 1804-yilda rasman ham egalladi.

Eltuzar 1806-yilda Buxoroga qarshi urush chog'ida halok bo'ladi. Uning o'miga xon etib ko'tarilgan inisi

Muhammad Rahimxon I (1806—1825) 1811-yili orolliklarni taslim bo'lishga majbur qildi. 1822-yili esa Marv ustidan hukmronligini o'rnatdi.

Xiva xonligi hududlari Muhammad Rahimxonning o'g'li **Ollohqulixon** (1825—1842) hukmronligi davrida ancha kengaydi. Uning sarhadlari Sirdaryoning Orol dengiziga quyiladigan joyidan Turkmaniston hududidagi Kushkagacha bo'lgan yerlarni o'z ichiga olar edi.

**Xiva xonligining
ijtimoiy hayoti**

Bu davrda xonlikning 800 mingga yaqin aholisi bo'lib, ularning 65 foizini o'zbeklar, 26 foizini turkmanlar, qolgan qismini esa qoraqalpoq va qozoqlar tashkil etardi. Aholining ko'pchiligini tashkil etgan o'zbeklar qabila-qabila, urug'-urug' bo'lib xonlikning shimoliy qismida—asosan Amudaryoning quyi oqimidagi yerlarda istiqomat qilardilar.

Xiva xonligi — Pitnak, Hazorasp, Xonqa, Urganch, Qo'shko'pir, G'azovat, Qiyot, Shohabboz (Shohboz), Toshhovuz, Ambar-Manoq, Gurlan, Ko'hna Urganch, Xo'jayli, chumanay va Qo'ng'iro't deb ataluvchi 15 viloyatga, Beshariq va Qiyot-Qo'ng'iro't deb ataluvchi ikkita noyiblikka, shuningdek, xonning bevosita o'ziga qaram bo'lgan tumanlarga bo'lingan edi.

Oliy hokimiyatni xon amalga oshirardi. Inoq, otaliq va biy kabi unvonlarga ega bo'lgan yuqori martabali amaldorlar xonlik hayotida juda katta ta'sir kuchiga ega edilar. Davlat hayotiga oid masalalarni hal etish maqsadida Muhammad Rahimxon I davrida nufuzli amaldorlardan iborat devon, ya'ni davlat kengashi tuzilgan edi.

Sud ishlari shariatga asoslangan bo'lib, uni yuritish ruhoniylar qo'lida edi. Davlat tili o'zbek tili hisoblanardi.

Xiva xonligining ijtimoiy hayotida O'rta Osiyoning boshqa ikki davlatidagidek sokinlik hukm surar edi. Bu sokinlik xonlikning jahon taraqqiyotidan deyarli uzilib qolganligi bilan bog'liq edi. Mamlakatda siyosiy tarqoqlik hukm surayotgan, natural xo'jalik ustun bo'lgan, to'xtovsiz davom etgan o'zaro ichki urushlar hamda

tashqi hujumlar oqibatida mamlakat iqtisodi izdan chiqqan bir sharoitda ijtimoiy hayot bundan boshqacha bo'lishi mumkin ham emas edi. Hukmdorlar davlat, millat taqdiridan ko'ra o'zlarining shaxsiy manfaatlarini ustun qo'yar edilar.

Yer egaligi

Xonlikning asosiy boyligi yer hisoblanardi. Bu yerlar sug'oriladigan (ax'ya) va sug'orilmaydigan (adra) yerlardan iborat edi. Egalik shakliga ko'ra, Xiva xonligining yerlari ham, Buxoro xonligida bo'lganidek, uchga bo'lingan edi.

1. Davlat yerlari (amluk); 2. Shaxsiy mulk (xususiy yerlar); 3. Vaqf yerlari.

Ayni paytda, Xiva xonligida yer egaligi Buxoro va Qo'qon xonligidagi yer egaligidan farq ham qilardi. Xususan, xon va uning qarindoshlari barcha yerlarning deyarli yarmiga egalik qilishgan. Qolgan yerlar davlat ixtiyoriga olingan (vaqf yerlaridan tashqari). Davlat yerlarida ijarachi dehqonlar mehnat qilganlar.

Xon va boshqa xususiy mulk yerlarida dehqonchilik qiluvchilar yarimchilar deb atalgan. Bunday deb atalishga ularning yetishtirgan hosilning yarmini ijara haqqi uchun berganliklari sabab bo'lgan edi.

Xonning qarindoshlari o'z xususiy yerlaridan davlatga soliq to'lamas edilar. Davlat soliqlaridan ruhoniylar, katta amaldorlar, tarxon yorlig'i olganlar ham ozod etilgan edilar.

Mayda yer egalari tobora xonavayron bo'lib borganlar. Oxir-oqibatda, ular yerlaridan judo bo'lganlar.

Xiva xonligi aholisi asosan qishloq xo'jaligi bilan shug'ullanar edi. Qishloq xo'jaligining asosini dehqonchilik va chorvachilik tashkil etardi.

Xonlikda dehqonchilik qilish juda mushkul sharoitlarda olib borilardi. Chunki, yerlar Amudaryodan chiqarilgan katta kanallar orqali sug'orilardi. Joylarda esa ekinlarni sug'orish ish hayvonlari kuchi bilan chig'irlar yordamida amalga oshirilardi. XVI asr oxiri — XVII asr boshlarida Amudaryo o'zanining o'zgarishi, daryo avvalgi yo'nalishining qurib borishi xonlikda ichki siyosiy

ahvol qanchalik og'ir bo'lmasin hukmdorlarni irrigatsiya ishlariga e'tibor berishga majbur etgan Alixon davrida (1538—1547) Yangiariq, Toshli, yormish amalari qurilgan. Arab Muhammadxon (1602—1621) zamonida To'q qal'asi yonidan kanal qazilgan. 1681-yilda Shohobod arnasi ishga tushirildi.

XVIII asrning 70-yillarida Davkor ko'liga quyiladigan irmoqlarda to'g'onlar qurildi.

XIX asr boshlarida Amudaryodan Lavzan arig'i chiqarilgan va u keyinchalik katta kanalga aylantirilgan. Bu kanaldan Parsu, Xo'jayli va Ko'hna Urganch oralig'idagi yerlar sug'orilgan. 1815-yilda Qilich Niyozboy katta kanali qazildi. Undan Daryoliqning o'ng sohilidagi yerlar sug'orildi. 1831-yilda Lavzan ko'lidan ariq qazilib, Ko'hna Urganch sug'orildi. 1846-yilda Amudaryoning eski o'zaniga to'g'on qurilib, u yerdan chiqqan suv bilan Ko'hna Urganchning janubidagi yerlarni, katta Xonobod kanali qazilishi bilan esa Vazir atrofidagi, Gandum qal'a va Uaz darasidagi yerlarni sug'orish mumkin bo'ldi.

Soliq va majburiyatlar

Xiva xonligida ham soliq va majburiyatlar haddan tashqari

ko'p bo'lgan. Asosiy soliq salg'ut, ya'ni yer solig'i edi. Bundan tashqari, alg'ut (bir yo'la to'lanadigan solig'), miltiq puli (qurol sotib olish uchun aholidan yig'iladigan jarma), arava oluv (aholining qo'lidagi aravalarini davlat ishlariga safarbar etish), uloq tutuv (aholining qo'lidagi otlar va tuyalarni safarbar etish), qo'nalg'a (elchilar va amaldorlarga ko'chib o'tish uchun joy berish), so'ysun (qo'nalg'a chog'ida amaldorni mehmon qilish uchun mol so'yish), chopar puli (soliq yig'ish xabarini yetkazuvchilar uchun haq to'lash), tarozuyona (tarozibonga to'lov haqi), mirobona (mirob uchun yig'im), darvozabon puli (yukni o'tkazganlik uchun shahar darvozasi qorovuliga to'lanadigan haq), mahalliy hukmdorga haq to'lash, qorovulga haq to'lash, pul solig'ini qabul qilayotganda xazinachiga haq to'lash, qo'ruqbonga (o'rmon yoki yaylov nazoratchisiga) haq to'lash, mushrifona (hosilni tekshiruvchi va uning miqdorini aniqlovchi amaldorga haq to'lash), afanak puli

(begar majburiyatini o'tash haqida xabar berganlik uchun to'lanadigan haq), chibik puli (ommaviy ishlarda qatnashishdan ozod etilgani uchun to'lanadigan haq), ruhoniylarga to'lanadigan haq.

Ko'rinib turibdiki, mehnatkash xalq 18 ta soliq va jarima to'lagan. Bu soliq va to'lovlar oddiy mehnatkash yelkasiga og'ir yuk bo'lib tushar edi.

Bundan tashqari, mehnatkash xalq tinkasini qurituvchi quyidagi bir qancha majburiyatlarni ham o'tar edilar:

1) Begar — rasman 12 kunlik davlat majburiyati; unga ko'ra, qishloqning har bir xonadonidan bir kishidan odamlarni to'plashardi. Ular har yili turli qurilish ishlarida, kanal qazishda, yo'llarni tuzatishda, xon saroylari qurilishida ishlar edilar. Begarning muddati 12 kun deb belgilangan bo'lsa-da, aslida u bir oy, undan ko'proqqa ham cho'zilar edi.

2) Qazu — bu butun qishloq aholisini katta va kichik kanallarning bir qismini tozalashga safarbar etish majburiyati.

3) Ichki va obxo'ra qazu — har yili kanallarning suv taqsimlag'ichini tozalash majburiyati.

4) Hachi — himoya dambalari qurish va ularni mustahkamlashda qatnashish majburiyati.

5) Otlanuv — xon ovida qatnashish uchun lashkarlikka kelish.

Sug'orish tizimi bilan bog'liq majburiyatlar oddiy mehnatkash xalq yelkasidagi og'ir yuk edi. chunki, bu majburiyatlarning barchasi qo'lda ketmon bilan bajarilar, tuproqlar esa zambilda tashilar yoki yelkada ko'tarilib chiqilar edi. Suv chiqarish va himoya to'g'onlari tuproq, yog'och hamda chimlardan qurilar ediki, ko'pincha ular suvning bosimiga bardosh beraolmas edi. Ana shunday paytlarda ular qaytadan qurilardi. Bosimga bardosh berganlari esa bir yildan ortiqqa chidamas edi. Kelasi yili ularni qayta qurish kerak bo'lardi.

Mehnatkash xalqning buningsiz ham og'ir qismatini o'zaro ichki urushlar, vayronalik keltiruvchi tashqi hujumlar battar og'irlashtirgan edi.

Xonlikda ocharchilik ham bo'lib turardi. Natijada, qo'ng'iroq sulolasi hokimiyat tepasiga kelishi arafasida xonlik aholisi qo'shni mamlakatlarga ko'chib ketishga majbur bo'la boshlagan edi. Masalan, Xivaning o'zida 40 ga yaqin oila qolgan edi, xolos.

Xiva xonligi shaharlari. Xiva

Xonlikning eng yirik shaharlaridan biri Xiva edi. U XVII asr boshlaridan to 1920-yil-

gacha Xiva xonligining poytaxti bo'lgan. Xiva shahri qadimda Xeyvaq deb atalgan.

Xivaning mashhurligi u bunyod etilgan davrilari-danoq Sharq bilan G'arbni bog'lovchi savdo yo'li o'tganligi bilan izohlanadi.

Milodning IV asri boshlarida Xiva Xorazm davlati bilan Eron sosoniylari davlati tarkibiga kirgan.

XVII asr boshlarida Amudaryo o'zani o'zgarishi oqibatida xonlik poytaxti Urganchda aholi yashashi uchun noqulay vaziyat vujudga kelgach, xonlik poytaxti Xiva shahriga ko'chirilgan.

XVIII asr o'rtalarida Eron shohi Nodirshoh qo'shinlari, keyinchalik turkmanlarning yovmut qabilasi hujumi oqibatida shahar vayron qilingan edi.

Xiva xoni Muhammad Amin inoq hukmronligi davrida (1770—1790) turkmanlarning yovmut qabilasi qo'shinlari tor-mor etilgan va Xiva shahri qayta tiklangan.

XIX asr o'rtalarida Xiva xoni Oллоhqulixon (1825—1842) davrida shahar atrofi yana mustahkam devor bilan o'ralgan. Devorning uzunligi 6 km. bo'lgan. Xiva shahrining me'moriy qiyofasiga XVIII asr oxiridan boshlab asos solina boshlagan va bu ish XX asrning boshlarigacha davom etgan.

Shahar me'moriy ansambli yaxlitligi jihatidan O'rta Osiyoda yagona hisoblanadi. Bu ansamblning ichida dastlab Ichan qal'a (ya'ni ichki qal'a; shahriston) bunyod etilgan. Ichan qal'ada — xon saroyi, aslzodalar yashaydigan maskan, maqbara, madrasa, masjidlar joylashgan. Ichan qal'aning umumiy maydoni 26 gektar. Devorning uzunligi 2200 metr.

Ichan qal'ada o'zaro ko'ndalangiga kesishadigan ikkita katta ko'cha o'tgan. Bu ko'chalarda to'rtta darvoza qurilgan. Bu darvozalardan Dishan qal'aga chiqiladi. Dishan qal'ada esa hunarmand, kosiblar, savdogarlar yashashgan va ularning rastalari joylashgan. Dishan qal'aning uzunligi 6250 metr bo'lib, uning o'nta darvozasi bo'lgan.

Xiva shahrida saqlangan me'moriy yodgorlik Sayid Alovuddin maqbarasidir. Bu maqbara XIV asrda qurilgan edi. Shuningdek, Xivada ko'hna ark, masjidi jome', Oq masjid, Uch avliyo maqbarasi, Sherg'ozixon maqbarasi, Ollohqulixon karvonsaroyi, Qutlug' Murod inoq mad-



Xiva. Toshhovli saroyi ayvoni.

rasasi, Muhammad Amin inoq madrasasi, Oллоhqulixon bunyod ettirgan 163 xonadan iborat Toshhovli saroyi va boshqalar muhim tarixiy me'morchilik yodgorliklari bo'lib, ular xivalik o'z kasbining ajoyib ustalari — naqqoshlar, toshganch, yog'och o'ymakorlarining mahoratini ko'z-ko'z qilib turadi.

Bularning bari XVIII asr oxiri — XIX asr boshlarida O'rta Osiyoda me'morchilik san'atining qayta tiklanganligidan, bu borada ayniqsa Xiva xonligi me'morlari dong taratganligidan dalolat beradi.

Xiva nafaqat O'rta Osiyoda, ayni paytda dunyoda ham mashhur shahar. Buning isboti — 1997-yilda YUNESKO qarori bilan shu shahar 2500 yilligi nishonlanganligidir.

Bugungi avlod o'z ota-bobolarining madaniy meroslari bilan haqli ravishda faxrlanadilar. Xiva xonligining yana bir yirik shahari — Ko'hna Urganchdir. Bu shaharga asos solinganligiga 2000 yildan oshdi. Shahar muhim karvon yo'llari kesishgan yerda joylashganligi uchun ham tez rivojlangan.

Ko'hna va Yangi Urganch Ko'hna Urganch (hozirgi Turkmaniston hududida) X—XIII asrlarda Xorazm davlatining poytaxti bo'lgan. 1221-yilda shaharni chingizxon qo'shinlari vayron etib, uni suvga bostirgan edilar.

XVII asrga kelganda Amudaryo o'zani o'zgargach, Abulg'ozixon Yangi Urganch shahriga asos solgan edi. Shundan keyin qadimgi shaharning ismi Ko'hna Urganch bo'lib qolgan. Ko'hna Urganchda XIII—XIV asrning yodgorliklaridan Faxriddin Roziy, Sulton Takash, Najmiddin Kubro maqbaralari, jome' masjidi, minorasi hamda karvonsaroy qoldiqlari hozirgacha saqlangan.

Savol va topshiriqlar

1. Qo'ng'irotlar sulolasi qay tariqa hokimiyatni qo'lga olgan?
2. Xiva xonligining jahon taraqqiyotidan deyarli uzilib qolganligining sababi nimada edi?
3. Xiva xonligida yer egaligi shakllarini qayd eting.
4. Xonlikdagi yer egaligi Buxoro va Qo'qon xonligidagi yer egaligidan qaysi jihatdan farq qilgan?

5. Mehnatkash xalq ommasi bo'yniga og'ir sirtmoq bo'lib tushgan asosiy soliq va majburiyatlarni daftaringizga qayd eting.
6. Samarqand, Xiva va Buxoroning 2500 yilligi YUNESKO qarori bilan nishonlanganligini nimaning e'tirofi deb o'ylaysiz?
7. Xiva shahri tarixi haqida gapirib bering.
8. Xiva shahari haqida vaqtli matbuot materiallarini to'plang.

Hujjatlar tilga kirganda:

O'zbekiston Prezidenti Islom Karimovning Xiva shahrining 2500 yilligiga bag'ishlangan tantanali marosimdagi tabrik so'zidan (1997-yil 20-oktabr)

Xiva — go'zal diyorimizning gavhari, xalqimiz san'ati va bunyodkorligi timsoli, madaniy va ma'naviy an'alarimizning abadiyligini o'zida mujassam etgan bir mo'jizadir.

Xiva — bizning jonli tariximiz, bu dunyoga kelib-ketgan qancha-qancha saltanatlar guvohi, yurtimizning, xalqimizning, millatimizning mislsiz o'tmishidan, ota-bobolarimizning dahosidan, ma'naviy mulkimizning buyuk iqtidori va qudratidan dalolatdir.

O'zbek davlatchiligining tamal toshlari bundan 2700-yil muqaddam ayni Xorazm vohasida qo'yilgan. Shu ma'noda, milliy davlatchiligimiz tarixi Misr, Xitoy, Hindiston, Yunoniston, Eron kabi eng qadimiy davlatlar tarixi bilan bir qatorda turadi. Xorazm tarixi o'zbek davlatchiligining asosi, uning qudrati va qadimiyligining tasdig'idir...

Bugun milliy ozodlik kurashi tarixidan so'z ketar ekan, birinchilar qatorida buyuk Xorazm o'g'lonlaridan Najmiddin Kubro, Jaloliddin Manguberdi kabi milliy qahramonlarimizning nomlarini zikr etamiz...

Xorazm va Xiva tarixi xalqimizning yozuv, ilm-fan, san'at, madaniyat va ma'naviyat sohalaridagi yuksalish bosqichlarini o'zida mujassam etadi.

Zardushtiylikning muqaddas kitobi «Avesto» ham aynan Xorazmda yaratilganligi fikrimizning yorqin dalilidir.

Bugun bolalarimiz maktablarda va oliy o'quv yurtlarida o'rganadigan algebra, algoritim kabi kashfiyotlarga asos solgan Muhammad Muso al-Xorazmiy bu go'zal voha nomini dunyoga mashhur etgan.

Atlantika ummoni ortida Amerika qit'asi borligini Kolumbdan 500 yil oldin bashorat etib, hattoki uning xaritasini chizib

qoldirgan ajdodimiz Abu Rayhon Beruniy mana shu muqaddas zaminda tug'ilgan... Zamaxshar qishlog'i ming yillarda bir marta kelishi mumkin buyuk Mahmud az-Zamaxshariydek allomani dunyoga keltirdi.

Bundan ming yil muqaddam odamzot tarixida ilk akademiyalardan bo'lmish — Ma'mun akademiyasi Xorazm zaminida tashkil topganligi bilan har qancha faxrlansak arziydi...

Biz bugun Xivaning 2500 yillik tarixiga nazar solar ekanmiz, tarixning eng suronli davrida ham ajdodlarimiz ozodlikka, ma'rifatga, yaratuvchanlikka intilib yashaganlariga guvoh bo'lamiz. Bugun salobat bilan ko'kka bo'y cho'zib turgan tarixiy yodgorliklar, nodir obidalar va osori atiqalar shundan dalolatdir...

Har qanday millat ham Xivaday maskanni yaratgani va asrlar mobaynida e'zozlab saqlagani uchun g'ururlanishga haqlidir. chunki, Xiva yurtimizning ziynati bo'lib qolmay, umumbashariy sivilizatsiya uchun ham xizmat qilgan, bundan buyon ham xizmat qiladi. Ichan qal'a va Dishan qal'a majmui... xalqimizning asrlar davomida avloddan-avlodga o'tib kelayotgan salohiyati, nafis mahoratiga, milliy madaniyatimizga qo'yilgan bebaho yodgorlikdir.

Bularni takrorlab boring:

— Xiva shayboniylarining hukmronligi 1511-yildan 1770-yilgacha davom etdi;

— 1770-yilda Xiva xonligida hokimiyat amalda qo'ng'iroq qabilasining qo'liga o'tdi;

• — Qo'ng'iroqlar sulolasi hukmronligi o'rnatilishi arafasida Xivada markaziy hokimiyat amalda barham topgan edi;

— Qo'ng'iroq qabilasining yo'l boshchisi Muhammad Amin inoq 1770-yilda hokimiyatni egalladi;

— Xiva xonligining aholisi 800000 nafarga yaqin bo'lib, ularning 65% ini o'zbeklar tashkil etgan;

— Xonlik 15 ta viloyatga bo'lingan;

— Xonlikdagi asosiy soliq salg'ut — yer solig'i hisoblangan;

— Aholi begar, qazu, hachi, otlanuv kabi majburiyatlarni o'tagan.

TO'RTINCHI BOB YUZASIDAN TEST TOPSHIRIQLARI

1. Eron hukmdori shoh Ismoil Xorazmni qachon o'ziga qaram qilib oldi?

- A. 1495-yilda
- B. 1505-yilda
- D. 1506-yilda
- E. 1509-yilda
- F. 1510-yilda

2. Xiva xonligi qachon tashkil topdi, uning birinchi xoni kim edi?

- A. 1505-yilda, Shayboniyxon
- B. 1509-yilda, Berka sulton
- D. 1511-yilda, Elbarsxon
- E. 1515-yilda, Abulg'ozixon
- F. 1521-yilda, Muhammad Rahim

3. Xiva xonligining dastlabki poytaxti qaysi shahar bo'lgan?

- A. Urganch
- B. Vazir
- D. Qiyot
- E. Ko'hna Urganch
- F. Hazorasp

4. XVI asr ikkinchi yarmida Xiva xonligining iqtisodiy tanglikka uchrashiga nima sabab bo'ldi?

- A. Shayboniyxon hujumi natijasida
- B. Shoh Ismoil bosqini oqibatida
- D. O'zaro ichki kurash oqibatida
- E. Amudaryoning o'z o'zanini o'zgartirishi natijasida
- F. Amudaryoning Marvga burib yuborilishi oqibatida

5. Xiva xoni Arab Muhammad xonlik poytaxtini qaysi shaharga ko'chirgan?

- A. Vazir shahriga
- B. Xiva shahriga
- D. Urganch shahriga
- E. Ichan qal'aga
- F. Hazorasp shahriga

6. Abulg'ozixon qaysi yillarda Eronda tutqunlikda bo'lgan?

- A. 1625—1631-yillarda
- B. 1629—1637-yillarda
- D. 1630—1639-yillarda
- E. 1635—1641-yillarda
- F. 1637—1639-yillarda

7. Pyotr I ning Xivaga yuborilgan harbiy ekspeditsiyasiga kim boshchilik qildi?

- A. Ataman Nechay
- B. Ataman Shamay
- D. Bekovich-Cherkasskiy
- E. Knyaz Zamonov
- F. Knyaz Aleksandr

8. 1740-yilda Xiva xonligida qanday voqea sodir bo'ldi?

- A. Eron shohi Abbos I bosib oldi
- B. Hokimiyatni qo'ng'irotd sulolasi egalladi
- D. Buxoro amirligiga qo'shib olindi
- E. Nodirshoh bosib oldi
- F. Bekovich-Cherkasskiy qatl etildi

9. Xiva xonligida qo'ng'irotd sulolasi qay tariqa hokimiyat tepasiga kelgan?

- A. O'zaro qabilaviy urushlarda g'olib chiqishi natijasida
- B. Eron qo'shinlarining qo'llab-quvvatlashi natijasida
- D. Buxoro xonining qo'llab-quvvatlashi natijasida
- E. Xonlikda nihoyatda kuchaygan siyosiy tarqoqlikka, o'zaro ichki urushlarga, chet el bosqini oqibatlariga chek qo'yish zarurati natijasida

F. Turkman yovmutlari yordamida hokimiyatning bosib olinishi natijasida

10. Nima uchun Xiva xonligida tabiiy fanlar rivojiga e'tibor berilmagan?

- A. Mamlakatda uzluksiz davom etgan ichki urushlar bilan band bo'lganliklari uchun
- B. Diniy mutaassiblikning oldini ololmaganliklari uchun

D. Hukmdorlar bilan mutaassib ruhoniylar o'zaro kelisha olmaganliklari uchun

E. O'rta asrchilik munosabatlari xonlar va hukmron guruhlar cheksiz hukmronligining, ular shohona hayotining manbai bo'lganligi uchun

F. Javoblarning A, B bandlari to'g'ri

11. Nima uchun Xiva xonligida (Buxoro va Qo'qon xonligida ham) ichki bozor rivojlanmagan?

A. O'zaro urushlar tufayli

B. Savdo yo'llari xavfli bo'lib qolganligi uchun

D. Natural xo'jalik hukm surganligi tufayli

E. Buyuk Ipak yo'li bekilib qolganligi tufayli

F. Ishlab chiqarishga ilmiy-texnika yutuqlarini joriy etishga diniy mutaassiblik to'sqinlik qilganligi tufayli

12. Xiva xonligida hokimiyat nechanchi yillardan qo'ng'iroq sulolasi qo'lida bo'ldi?

A. 1770—1873-yillarda

B. XVIII asr davomida

D. 1782—1898-yillarda

E. 1770—1920-yillarda

F. XIX asr davomida

13. Qo'ng'iroq sulolasining birinchi hukmdori kim bo'lgan?

A. Abulg'ozixon

B. G'oyib ibn Botir

D. Muhammad Amin inoq

E. Elbarsxon o'g'li Abulmuhammad

F. Muhammad Rahimxon

14. Kushka XIX asr birinchi yarmida qaysi davlat tasarrufida bo'lgan?

A. Buxoro amirligi

B. Xiva xonligi

D. Qo'qon xonligi

E. Eron

F. Afg'oniston

15. Xlva xonligida aholiga solinadigan soliqlardan eng yirigining nomi nima deb atalgan?

- A. Salg'ut
- B. Alg'ut
- D. Mirobona
- E. Mushrifona
- F. Uloq tutuv

16. «Shajarai turk» asarini kim yozgan?

- A. Elbarsxon
- B. Abulg'ozixon
- D. Muhammad Rahimxon
- E. Muhammad Amin inoq
- F. Amir Shohmurod

B e s h i n c h i b o b

XVI—XIX ASRNING BIRINCHI YARMIDA QORAQALPOQLAR

26—27-§§. QORAQALPOQLARNING IJTIMOIIY- IQTISODIY VA SIYOSIY AHVOLI

**Qoraqalpoqlarning xalq
sifatida shakllanishi
tarixidan**

Eng qadimgi tarixiy yodgorlik
bo'lmish Behustun yozuvlarida
(mil. av. VI—V asrlarda)

qoraqalpoqlar «soqa tigraxauda» (uzun cho'qqili kigiz qalpoqli) deb atalgan.

Millodiy II—VIII asrlar davomida Orolbo'yi dashtlarida bir qator turkiy qabilalar yashashgan.

Natijada, mana shu etnik negizda Orolbo'yi qabilalari — bijanaklar va o'g'uzlar shakllangan. Ana shu bijanaklar bugungi qoraqalpoqlarning ajdodlari hisoblanadi.

VIII—XI asrlarda qoraqalpoqlarning xalq sifatida shakllanish jarayoni yuz bergan.

Binobarin, hozirgi Qoraqalpog'iston hududi ularning qadimgi vatani bo'lgan. Qoraqalpoqlarning xalq sifatida shakllanishi XVI asrda nihoyasiga yetgan.

Xo'sh, qoraqalpoqlarning xalq sifatida shakllanishi boshlangan va oxiriga yetgan oraliq davrlarda qoraqalpoqlar qanday tarixiy jarayonni bosib o'tganlar?

X asr boshlarida bijanaklarning bir qismi Volga ortiga, Janubiy Rus dashtlariga ko'chib o'tishga majbur bo'lganlar. Bunga o'g'uzlar va xazarlarning ularga doimiy hujum qilib turishi sabab bo'lgan. Shu hodisa tufayli 915-yildan rus yilnomalarida bijanaklar haqidagi qaydlar uchraydi.

X asr davomida ular Janubiy Rus dashtining barcha hududini (Xazaristondan to Vizantiyagacha) egallaganlar.

Rus davlati bilan qo'shni bo'lib yashay boshlagan

bijanaklar o'sha davr siyosiy hayotida jiddiy o'rin tuta boshlaganlar. chunonchi, ular 944-yil Kiev Rusi knyazi Igorming Vizantiya va Bulg'ariyaga qarshi yurishlarida qatnashganlar.

Knyaz Svyatoslav davrida esa, aksincha, Vizantiya tarafida Kiev Rusiga qarshi harbiy harakatlarda ishtirok etganlar.

988—997-yillarda (knyaz Vladimir davrida) Rusga qarshi kurashni davom ettirganlar.

XII asr rus yilnomalarida «chernie klobuki», mo'g'ullar tarixida «qora malaqayli», sharq manbalarida esa «qora bo'rkli» deb atalgan qavm haqida ma'lumotlar bor. Bu nomlar qoraqalpoqlarga tegishlidir.

Orolbo'yi qoraqalpoqlari bilan o'g'uz — turkmanlari-ning bosh kiyimlari bir-biriga o'xshab ketadi. «Qoraqalpoq» so'zining kelib chiqishi haqida boshqa fikrlar ham mavjud. Masalan, «g'ulpoq», so'zi qoraqalpoq tilida «soch», «haydar» (kokil) ma'nosini bildiradi. Binobarin, «qoraqalpoq» so'zi qoraqalpoqlilar so'zidan kelib chiqqan, deyiladi.

XIII asr boshlarida chingizxonning O'rta Osiyoga hujum qilganligi sizga ma'lum. 1221-yilda u Xorazm poytaxti Urganchni egallagach, Amudaryo to'g'onini buzdirib tashlagan. Natijada daryo suvi g'arbga qarab oqa boshlagan. Ekinlar qurib qolib aholi turli tomonlarga ko'chib keta boshlagan.

Qoraqalpoqlarning bir bo'lagi Volga va Yoyiq (O'rol) daryolari bo'ylariga, Qora dengiz sohillariga, Sirdaryo yoqalariga ko'chib kelib o'rnashganlar. Binobarin, mo'g'ullar bosqini davrida qoraqalpoqlarning bir qismi qipchoqlar orasida yashaganlar. Qolganlari yashab qolgan Orol bo'ylari Jo'chi ulusi tarkibiga kirgan.

Oltin O'rda zaiflashgach uning tarkibidagi qator mustaqil davlatlar ajralib chiqqan. Bu davlatlarning biri — XIV asr oxirida tashkil topgan No'g'ay xonligi edi. Uning chegarasi — Volga daryosidan Irtish daryosigacha, Kaspiy va Orol dengizi bo'ylaridan Kama daryosigacha bo'lgan hududlarni o'z ichiga olgan.

Binobarin, qoraqalpoqlar ko'chib ketib joylashgan hududlar XV—XVI asrlarda No'g'ay xonligi hududiga kirgan. No'g'ay va qoraqalpoq xalqlari o'zaro siyosiy hamkorlikda, birlashmada yashaganlar.

No'g'ay tili lug'at tarkibi, fonetikasi va grammatik qurilishi jihatidan qoraqalpoq tiliga juda yaqin. Shu tariqa XVI asrga kelib bir necha urug'lardan iborat qoraqalpoq halqining shakllanish jarayoni nihoyasiga yetgan. Bu xalq dastlab olti qabila tarkibida (xitoy, qipchoq, kenegas, mang'it, qo'ng'iro't va mo'yten) va 130 dan ortiq urug'dan iborat bo'lgan.

Bu urug'lar o'z navbatida 2 guruhga bo'linadi:

Qo'ng'iro't ittifoqi, o'n to'rt urug' ittifoqi. Ular birgalikda qoraqalpoq xalqini tashkil etgan.

O'zbekiston hududining Surxondaryo viloyatida ham qoraqalpoqlar yashaganlar.

Volga va Yoyiq bo'ylaridan ko'chib kelgan qoraqalpoqlarning bir qismi XVI—XVIII asrning ikkinchi yarmida Yangidaryo, Konimex, Miyonkol atrofida qo'nim topganlar va o'troqlashganlar. Bir qismi esa qozoqlarning Kichik juzi tarkibida yashay boshlaganlar.

Qoraqalpoqlar o'z kiyimlari bilan boshqa xalqlardan ajralib turgan. Eraklarning kiyimlari ham ayollarniki kabi etagi tizzasidan pastda bo'lgan. To'nlari qo'y terisidan tikilgan, etiklari esa mol terisidan ishlangan. Yosh qo'yning terisidan junini sirtiga qilib tikilgan telpak (cho'girma) kiyganlar.

Qoraqalpoq xonligining tashkil topishi

Qoraqalpoq davlatchiligi
no'g'ay (mang'it)lar yetak-
chisi Idigu — (Edigey)

boshchiligida tashkil etilgan No'g'ay xonligidan (O'rda-
dan) boshlanadi.

Yuqorida ta'kidlanganidek, bu xonlik XIV asr oxirida tashkil topgan edi.

XVI asrning ikkinchi yarmida No'g'ay xonligi 3 qismga — (Olti ul o'rdasi, Kichik o'rda va Katta o'rda)-bo'linib ketgan. Shu davrdan boshlab xonlik tarkibidagi qoraqalpoqlar, mang'itlar va qo'ng'iro'tlarning bir qismi O'rta Osiyoga ko'cha boshlaganlar.

XVII asrning boshlarida no'g'aylar jung'orlar (qalmiqlar) tomonidan tor-mor etilgach, ular Qrimga ko'chib ketishga majbur bo'lganlar. Ularning Olti ul o'rdasi tarkibiga kiruvchi qoraqalpoqlar esa Orol bo'ylariga kelib o'rmasa boshlaganlar.

Qoraqalpoqlarning bunday sarson-sargardonlikdagi hayotlari ularning «O'rmambetbiy» nomli dostonidagi quyidagi achchiq satrlarda o'z ifodasini topgan:

*Edil elning beshigi, Edilda-da turmading,
Yoyiq yerning o'sigi, Yoyiqda-da turmading.*

XVIII asr boshlariga kelib Sirdaryo bo'yida yashovchi qoraqalpoqlar birlashishga harakat qilganlar. Buning natijasi o'laroq, 1714-yilda Sirdaryo bo'yi qoraqalpoqlari o'z yetakchilari Eshmuhammad (Eshimxon) boshchiligidan davlatga birlashtirilgan.

Bu davlat Sirdaryoning quyi oqimi, Volga bo'ylari jung'orlari, Boshqirt ulusi va Kichik juz qozoq xonliklari bilan chegaradosh edi.

Biroq, bu davlat iqtisodiy va siyosiy jihatdan Kichik juz qozoq xonligiga qaram edi. Qoraqalpoqlar o'lpon (yasog) to'lashga, harbiy jangchilar jo'natishga, xonlikning qo'shni davlatga hujumida ishtirok etishga majbur edilar.

Qoraqalpoq va Rossiya munosabatlari

XVIII asrning 20-yillaridan boshlab Qoraqalpoq xoni Rossiya bilan yaqinlashish yo'llarini qidira boshlagan. Buning qator sabablari bor edi.

Birinchidan, qoraqalpoqlar Rossiya bilan savdo aloqalarini yana kengaytirishni istar edilar.

Ikkinchidan esa, XVIII asrning 20-yillari boshlariga kelganda jung'orlar hujumi xavfi nihoyatda kuchaygan edi. Qoraqalpoqlar fikricha, faqat kuchli Rossiyagina Jung'or bosqinidan saqlab qolishi mumkin edi.

Ayni paytda qoraqalpoqlarning Rossiya bilan yaxshi aloqa o'rnatish yo'lidagi harakatlari Rossiya uchun ham ayni muddao edi. Chunki, Rossiya xazinasi davom etayotgan Shimoliy urush oqibatida borgan sari bo'shab borardi. Pyotr I uchun xazinani to'ldirishda O'rta Osiyo katta ahamiyatga ega edi.

Uchinchidan, Rossiyaning savdo karvonlarini O'rta Osiyo xonliklariga olib boradigan yo'l qoraqalpoqlar hududidan o'tardi. Savdo yo'llarining xavfsizligini ta'minlashda qoraqalpoqlar o'rni katta edi.

Eshmuhammadxon 1721-yilda Rossiyaga (Qozon va Ufaga) o'z elchilarini yuboradi. Bunga javoban 1721-yil dekabr oyida Rossiya hukumati D.T.Vershininni qoraqalpoqlar yurtiga elchi etib jo'natadi.

Biroq, bu elchi almashinuvlar o'z samarasini bermas-danoq 1723-yilda Jung'orlarning (qalmiqlar — g'arbiy mo'g'ullar) hujumi boshlanadi. (Bu kuchli davlat 1635-yilda tashkil topgan edi. 1758-yilda esa Sin imperiyasi tomonidan tugatilgan).

Bu hujum natijasida qoraqalpoq xalqi uch guruhga bo'linib ketgan. Ularning bir guruhi Xitoy, Afg'on eliga ko'chgan. Ikkinchi guruhi esa O'rta Osiyoning keng dalalarida bo'linib-bo'linib yashab qolgan. Uchinchi guruhi hozirgi Qoraqalpog'iston Respublikasi hududida yashab qolgan va ular hozirgi qoraqalpoqlarning bobokalonlari hisoblanadilar.

Qoraqalpog'iston hududida qolganlarning bir qismi Sirdaryoning yuqori qismidan Toshkentga, qolganlari esa daryoning quyi oqimi bo'ylab Orol dengiziga qarab siljiganlar. Shu tariqa qoraqalpoqlar shartli ravishda quyi va yuqori qoraqalpoqlarga bo'lingan.

Quyi qoraqalpoqlarning asosiy qismi Quvondaryo atrofida (Amudaryo bilan Sirdaryo oralig'ida) joylashganlar.

Ayni paytda ular qozoqlarning Kichik juz xonligiga qaram bo'lib qolganlar. 1724-yildan boshlab qoraqalpoqlar yana Rossiya bilan munosabatlarni qayta tiklashga harakat qilgan.

1726-yilda qozoq xoni Abulxayrxon Peterburgga o'z elchilarini jo'natgan. Uning tarkibida qoraqalpoqlar vakillari ham bor edi.

Bunga javoban, 1731-yilda Rossiya o'z elchisi M.Tevkelevni Abulxayrxon huzuriga jo'natadi. Muzokaralar natijasida ham Kichik juz, ham quyi qoraqalpoqlar Rossiya fuqaroligiga qabul qilinadi. Ayni paytda,

qoraqalpoqlarning Rossiyaga emas, Kichik juz xonligiga yasoq to'lashi tan olindi.

Qoraqalpoq va Xiva munosabatlari

Abulxayrxonning qoraqalpoqlarga qarshi siyosati ularni ko'chishga majbur etgan.

Biroq, Abulxayrxon qoraqalpoqlar xohishiga qarshi ularning bir qismini Talas daryosi bo'yiga ko'chishga majbur etgan. Shunday bo'lsa-da qoraqalpoqlarning asosiy qismi Yangidaryo va Quvondaryo bo'ylariga ko'chib ketishga muvaffaq bo'lgan. Bu yerda avval ko'chib kelishga ulgurgan qoraqalpoqlar yashardi. Bu yerlar Xiva xonligiga chegara hududlar edi.

Bu yangi yerlar qoraqalpoq xalqining o'ta mashaqqatli mehnati evaziga o'zlashtirilgan. Tarixchi olimlar Yangidaryoda yaratilgan ajoyib sug'orish inshootlari tizimiga — bu, qoraqalpoq xalqi ajdodlari qahramonona mehnatining ulug'vorligi xotirasidir, — deb baho berganlar.

Asta-sekin, qoraqalpoqlarning Orolbo'yi o'zbeklari (qo'ng'irotlar) bilan yaqinlashuvi yuz bera boshlagan. Orollik o'zbeklar Xiva xonligi markaziy hokimiyati bilan muxolifatda edilar.

Markaziy hokimiyat qoraqalpoqlarni bo'ysindirmasdan turib orollik o'zbeklarni itoat ettiraolmasligini yaxshi tushungan. Bungacha ham Xiva xonligi Orolbo'yi o'zbeklari bilan qo'shni yashayotgan qoraqalpoqlarni bo'ysindirishga bir necha bor uringan edi.

Chunonchi, 1715-yilda Sherg'ozixon shunday harakat qilgan edi. Biroq, u o'z maqsadiga erisha olmagan. Faqatgina 1735-yilda Elbarsxon davrida Orolbo'yi o'zbeklari va qoraqalpoqlar markaziy hokimiyatni tan olganlar.

Inoq Muhammad Amin davrida ayrim qoraqalpoq qabilalari ixtiyoriy ravishda Xiva xonligi fuqaroligiga o'ta boshlaganlar. Bunga — qabila biylarining o'z shaxsiy hokimiyatlarini shu yo'l bilan saqlab qolishga intilishlari sabab bo'lgan edi.

1809-yilda Amudaryo, Quvondaryo va Orol dengizi atrofida yashovchi qoraqalpoqlar xonlikka bo'ysundirildi.

1810—1811-yillarda esa Yangidaryo atrofida yashov-

chi qoraqalpoqlar ham tobe etildi. Shu tariqa qoraqalpoqlarni Xiva xonligiga bo'ysundirish nihoyasiga yetkazildi.

**Oydo'stbiy
boshchiligidagi
qo'zg'olon**

1811-yilda qoraqalpoqlar Xiva xonligiga to'la bo'ysundirilgan. Xon qoraqalpoqlar

yerida qal'alar qurdira boshladi. Qoraqalpoqlar endi xon uchun harbiy majburiyat o'taydigan bo'ldilar.

Urush davrida qoraqalpoqlar 1000 nafardan 2000 nafargacha navkar yetkazib berish majburiyatini olganlar. Ayni paytda qoraqalpoqlar xonga 20 ming tilla soliq to'lab turishga majbur etilgan. Bundan tashqari, urush paytida har bir xo'jalik qozon solig'i degan soliq to'lashga, sug'orish inshootlarini qurish va ta'mirlash ishida ishtirok etishga safarbar etilganlar. Bular ham yetmagandek, Xiva xoni qoraqalpoqlarning yerlarini o'z qarindoshlariga bo'lib berish siyosatini amalga oshira boshladi. Bu qadar jabr-zulmga chiday olmagan qoraqalpoqlar 1827-yili xon zulmiga qarshi qo'zg'olon ko'tardilar. Qo'zg'olonga qoraqalpoqlarning eng badavlat toifasiga mansub Oydo'stbiy boshchilik qilgan.

Xiva xoniga qarshi ko'tarilgan bu qo'zg'olon xalq yodida saqlanib qolgan. U haqda she'r va dostonlar yaratilgan.

Muhammad Rahimxon I davrida Oydo'stbiy xizmatida ko'tarilib, saroyga yaqinlashgan. Muhammad Rahimxon taxtga o'tirgan kuni unga zarboft to'n, oltin sopli xanjar sovg'a qilingan. U barcha qoraqalpoq xalqining biyi martabasiga ko'tarilgan. O'shanda Orol, Qo'ng'irot eli To'ramurod so'fi boshchiligidagi mustaqil bo'lishga harakat qilgan. Bu harakat oldidan Oydo'stbiy xondan yordam so'ragan. Xiva xoni yordamida Oydo'stbiy Oqyoqish bo'yida (hozirgi Taxtako'pir tumani, «O'zbekiston» xo'jaligi hududida) ulkan qo'rg'on qurdirgan.

Lekin, qoraqalpoq xalqi ham soliqlardan ko'p ezildi. Qo'zg'olon oldidan qoraqalpoqlar orasiga soliq yig'ish uchun Gadoyniyoz mahram yuborilgan edi. U qoraqalpoqlarning xitoy qabilasi boshlig'i Bekpo'latbiydan

qo'zg'olon tayyorlanayotgani to'g'risida xabar topadi. Shundan keyin mahram qo'ng'irot qabilasi boshlig'i cho'nqorabiyning o'g'li Qobilbiy huzuriga keladi. Uning uyida qo'nib, odamlarini Xivaga jo'natadi. 1827-yil 25-iyul kuni xon Oydo'stbiy boshchiligida tayyorlanayotgan qo'zg'olon haqida eshitadi. Xon Oydo'stbiy boshliq qo'zg'olonchilarni bartaraf etish uchun maxsus qo'shin to'plab, unga Muhammad Nazarbiy inoqni qo'mondon tayinlaydi va Xo'jayli shahriga jo'natadi. Askarlar shahar atrofiga kelib o'mnashadilar.

Oydo'stbiy qoraqalpoq kadxudo va biylarini to'plab, Orol dengizi bo'yida Sori atov degan mavzeda maslahat uyushtiradi. Yig'ilganlar maslahati bilan qoraqalpoq ovullariga otliq choparlar jo'natilib, shunday buyruq beriladi: «Hamma bola-chaqasi bilan qo'zg'olonga yig'ilsin. Kimda-kim bosh tortsa — u dushman hisoblanadi». Oqibatda, barcha qoraqalpoqlar yig'ilib, qulay yerda xandaq qazib, shox-shabbalar va aravalar bilan mudofaa to'sig'i qurishgan. 29-iyulda Oydo'stbiy o'zining ikki o'g'li Rizo va To'rani 300 botirga bosh qilib, Qo'ng'irot qo'rg'oniga chopovulga yuboradi. O'shanda Qo'ng'irot hokimi Muhammad Ya'qub mushrif qo'rg'on mudofaasini uyushtiradi. Urush peshingacha davom etgan. Oydo'stbiy askarlarining bir qanchasi urushda nobud bo'lgan. Ba'zilar dengiz tomon qochgan. Rizo ham, To'ra ham bor imkoniyatni ishga solsalar ham, yengiladilar.

Xo'jayli shahri atrofida turgan Muhammad Nazar inoq hamda Muhammad Rizo qo'shbegi uchun ham xonning qo'zg'olonchilarga qarshi qo'shin yuborish haqidagi farmoni keladi. Ular yovmut va shavdor qabilalaridan askar to'plab, Suyinbiy, Do'simbiy, Muhammad Niyoz yasovulboshilar boshchiligida qo'zg'olonchilarga qarshi jo'natiladilar. Bular orasida qoraqalpolardan yig'ilgan odamlar ham bor edi. Jumladan, Davlatnazarbiy boshchiligidagi askarlar Oydo'stbiy qo'zg'olonchilariga qarshi jo'natiladi. Oydo'stbiy odamlarining yengilganini eshitib, o'ziga yaqin odamlari bilan Sori atovni tashlab ketishga majbur bo'ladi va Qo'qon tarafga qarab yo'l ola-

di. Muhammad Nazar inoq undan xabar topib, Oydo'stbiyning odamlari ketidan sara qo'shin jo'natadi. Qo'shin ikki kun deganda chirikrabot mavzeida Oydo'stbiyning odamlarini qurshab oladilar; elchi yuborib, taslim bo'lishlarini taklif qiladi. Oydo'stbiy elchining so'zlariga quloq solmay, to'rt tarafga merganlarini qo'yib, mudofaaga tayyorlanadi. Xon askarlari hujumga o'tadilar. Oydo'stbiy kureniga kirib olib qo'zg'olonchilarni otib tashlaganlar. Oydo'stbiyni esa qo'lga olib, qo'llariga kishan soladilar. Oila a'zolarini tutqun etib, mol-mulkini bosib oladilar. Xiva askarlari chirikrabotda bir kun tunab, ertasi kuni Oydo'stbiyning boshini olib, Xiva xoni huzuriga keltirganlar. Bu ishda faol ishtirok etganlar taqdirlanganlar. Bular orasida qoraqalpoq biylaridan Cho'nqorabiyning o'g'li Qobilbiy egar jabduqli ot va sarupo bilan taqdirlangan. Xon ba'zi qoraqalpoq kadxudolarining gunohidan o'tib, ularni qullikdan ozod etgan. Xiva tarixchisi va shoiri Munis Oydo'stbiy o'limiga bag'ishlab marsiya yozgan.

Savol va topshiriqlar

1. Qoraqalpoq xalqining shakllanish jarayoni haqida nimalarni bilib oldingiz?
2. Volga va Yoyiq bo'yi qoraqalpoqlari turmushi qanday kechgan?
3. Jung'orlar hujumi haqida so'zlang?
4. Qaysi shaharlar qurilishi qoraqalpoqlar nomi bilan bog'liq?
5. Oydo'stbiy boshchiligidagi qo'zg'olon sabablarini ayting.
6. Qo'zg'olon natijalari haqida nima deya olasiz?

Bularni takrorlab boring:

- Qoraqalpoqlar ham eng qadimgi xalqlardan biri;
- Erondagi qoya yozuvlarida (miloddan avvalgi VI—V asrlar) qoraqalpoqlar «soqa tigraxauda» (uzun cho'qqili kigiz qalpoqli) deb tilga olingan;
- Bugungi qoraqalpoqlarning ajdodlari milodiy II—VIII asrlarda Orolbo'yida shakllangan bijanaklar hisoblanadi;
- VIII—X asrlarda qoraqalpoqlarning shakllanish jarayoni yuz berdi;
- XIII asr rus solnomalarida «chernie klobuki» deb atalgan qavm haqida ma'lumot bor;
- Qoraqalpoq davlatchiligi mang'itlar sarkori Idigu va uning otasi boshchiligidagi tuzilgan No'g'oy xonligidan boshlanadi;

- No'g'oy xonligi XIV asr oxirlarida Volga bilan O'rol daryolari orolig'ida tashkil topgan;
- 1714-yilda Sirdaryo bo'ylari qoraqalpoqlari davlatga birlashganlar;
- 1723-yilda qoraqalpoqlar jung'orlar hujumiga uchradi.
- 1735-yilda Orol bo'ylari Xiva xonligiga bo'ysundirilgan;
- 1811-yilda qoraqalpoqlar Xiva xonligiga tobe etilgan;
- Qoraqalpoqlar 1827-yilda Xiva xonligi zulmiga qarshi qo'zg'olon ko'targanlar. Unga Oydo'stbiy boshchilik qilgan.

Buni o'qing:

Tarixiy daraklardan: yozma tarixi yo'q ko'plab xalqlar kabi qoraqalpoqlarning kelib chiqishi tarixi uzoq yillar muammo bo'lib kelgan edi. So'nggi yillarda amalga oshirilgan ilmiy tadqiqotlarga ko'ra, o'g'uz-bijanak qavmlaridan bir guruhiga nisbatan qo'llanilgan qoraqalpoq so'ziga hamohang «chernie klobuki» atamasi XII asrdagi rus solnomalarida uchraydi.

«Chernie klobuki»lar rus knyazlari bilan shartnomalar tuzib keng maydonni egallaganlar.

Ular Kiev Rusi knyazligining grajdanlari hisoblanib rus askarlari bilan birgalikda dushmanlarga qarshi janglarda ko'p qatnashganlar.

Sharqshunos P.P.Ivanov Abulfazl Bayhaqiyning «Tarixi Bayhaqi» kitobini o'rganib, XII asrdagi Xorazmshohlar lashkarida «Qalpoq» ismli lashkarboshi bo'lganini, biroq, bu «qalpoq» atamasining lashkarboshiga daxli yo'qligini, o'sha paytlardagi taomilga ko'ra lashkarboshiga o'zi boshqaruvchi xalq nomi berilishini alohida ta'kidlaydi. Shunday qilib, olim «qalpoqlar» ma'nodosh «qalpoq» etnonimi XI asrda Orol bo'ylarida yashagan, degan fikrga keladi.

Tarixchi An-Nuvayrning XIV asrga mansub xalqlar ro'yxatida polovets — qipchoq toifalari ichida «qora bo'rkli» degan atama uchraydi...

Qoraqalpoqlarning aniq nomi ilk bor shayboniylar sulolasidan 1583—1598-yillarda hukmronlik qilgan Abdullaxon II ning Sig'noqdagi Ziyovuddin maqbarasiga 1598-yilda bergan yorliqnomasida uchraydi.

Abdullaxon II bu yorliqnomasida Sig'noq atrofida yashaydigan har xil urug'lar qatorida qoraqalpoq xalqining nomini to'liq keltirgan.

1723-yilda Jung'or xonligining hujumi sababli qoraqalpoq xalqi uch guruhga bo'linib ketadilar.

Qoraqalpoqlarning bir guruhi Xitoy, Afg'on ellariga ko'chadi. Ikkinchi guruhi O'rta Osiyoning keng dalalariga bo'linib-bo'linib yashab qoldi.

Uchinchi guruhi esa hozirgi Qoraqalpog'istonda yashovchi qoraqalpoqlarning bobokalonlari.

To'lepbergen Qaipbergenov, «Qoraqalpoqnoma» kitobidan.

28-§. QORAQALPOQ XALQI MADANIYATI

Hunarmandchilik

Chimboy, Qo'ng'iro't, Xo'jayli shaharlarida qoraqalpoq hunarmandlari ko'pchilikni tashkil qilgan. Masalan, temirchi, najjor, kigiz bosuvchilar, zargarlar, bo'yoqchi, kulol, to'qimachi va hokazo kasb-hunarlar amalda bo'lgan. Ustaxonada 3—4 odam ishlagan. Shogirdlikka 12—13 yoshdan qabul qilingan.

Orol dengizi bo'yida, Terbenbes ovulida Arzimbet zargarning ishlari tarixiy asarlarda ta'kidlanadi. U qoraqalpoq ayollarining sevimli bezagi savkalani (taqinchuq) mohirona ishlagan. U sirg'a, bilaguzuk, uzuk, haykal, o'ngirmunchuq, tumorchalar ham yasagan. Ayniqsa, qoraqalpoq yigitlari kiyadigan cho'girmalarni tikish yuksak mahorat talab etgan. Yana bo'rk tikib kiyishgan. Uni qoraqalpoqlar «quroch» deb atashadi.

Ayollar va qizlarning kiyimlari orasida ham asrlar osha qadri tushmay kelayotganlari bor.

Qoraqalpoq shaharlari

Keyinchalik Qoraqalpog'istonda No'kis, Qiyot, Qo'ng'iro't, Qipchoq va boshqa shaharlar paydo bo'ldi. Mazkur shaharlarning eng yirigi Qo'ng'iro't bo'lib, u Orol xalqining markazi bo'lgan. Xo'jayli Orol birlashmasi bilan Xiva orasidagi savdo markazi bo'lib, bojxona shu shaharda joylashgan edi. U orolliklarning Xiva xonlariga qarshi kurashida tayanch shahar hisoblangan. U baland devor bilan o'rab olingandi. 1804-yili Xiva xoni Eltuzar Xo'jaylini bosib olmoqchi bo'lganda, uning devorini buzib tashlashga buyruq bergan. Xon askarlari uch kun davomida Xo'jayli shahri devorini vayron qilganlar.

Yana Mang'it, Chimboy, Jangi qal'a, Oydo's qal'a, Ernazar qal'a, Ko'ko'zak, Eshon qal'a shaharlari qoraqalpoq xalqi tomonidan yaratilgan madaniy va me'morchilik yodgorliklari hisoblangan.

Qoraqalpoq yoshlari Buxoro va Xiva shaharlariga borib o'qiganlar. Qoraqalpoqlar yurtida XIX asr boshlarida 318 maktab, Qoraqum eshon, Qalila oxun,

Egambergan oxun, Oyimbet eshon, Eshon qal'a va boshqa mavzelarda madrasalar bo'lgan.

Folklor

Qoraqalpoqlar o'z to'y-ma'rakalarini qo'shiqsiz, dostonlarsiz, tarixiy hangomalarsiz o'tkazmaydilar. Ularning xalq og'zaki ijodi juda boy. Qoraqalpoq folklor namunalari 20 jildligining nashr etilgani fikrimizning dalilidir. Ular o'z so'z ustalari bo'lgan chechanlarni, jirov-baxshilarini sevadilar. El oqsoqollari, rahbarlari yonidan qis-saxonlar arimagan.

O'zbeklarning Afandisi kabi qoraqalpoqlarning O'mirbek laqqisi bor.

Qoraqalpoqlarning qahramonlik dostonlari qadim-dan ma'lum. Ulardan «Qirqqiz», «Alpomish», «Qo'b-lan», «Mastposhsho», «Edigey» dostonlarida qoraqal-poqlarning voqealarga boy tarixi kuylanadi. Masalan, «Edigey» dostonida Amir Temur, To'xtamish faoliyati bilan bog'liq voqealar bayon etilsa, «Qirqqiz»da qoraqal-poq xalqining XVIII asrda Jung'or qalmoqlariga qarshi milliy ozodlik kurashi, Xo-razm xalqining Eron shohi Nodirshohga qarshi ku-rashi o'z badiiy ifodasini topgan.

Qoraqalpoqlarning xalq qo'shiqlarida el-yurt yo'l-boshchilari, qahramonlari Maman botir, Esangeldi mahram, Oydo'stbiy, Erna-zarbiylar ulug'lanadi.

Qozoq ma'rifatparvar olimi cho'qon Valixonov-ni: «Qoraqalpoqlarning sahrodagi birinchi shoiri ham qo'shiqchilar, shundan keyin qirg'izlar ham turkmanlar» degan so'zlari bejiz aytilmagan.



Qumg'on.

Qoraqalpoq xalq og'zaki ijodi janr jihatidan lirik va epik asarlarga bo'linadi.

Qoraqalpoq adabiyotida XVII—XVIII asrlardagi tarixiy voqealarni badiiy shaklda aks ettirgan «Qirqqiz»ostoni alohida o'rin tutadi. Bu asar qoraqalpoq xalq qahramonlik eposidir. Asar erksevarlik, vatanparvarlik va insonparvarlik g'oyalari bilan sug'orilgan. Asarning bosh qahramoni Guloyim o'zining qirq nafar dugonasi va o'z sevgilisi Arslon bilan birga Eron shohi Nodirshoh hamda qalmoq xoni Surtoyshihujumidan yurtini himoya qilishga o'tlanadi. Guloyim Xorazmni ozod qilib, u yerda qoraqalpoq, turkman, o'zbek va qozoq xalqlari vakillarini birlashtirgan davlat tuzadi. Asarda Guloyim bilan bir safda turib jang qilgan Oltinoy, O'tbosgan, Arslon, Sarvinoz kabilar timsolida mardlik, jasurlik, vatanparvarlik, insoniylik, ayni paytda dushmanga nisbatan shafqatsizlik xislatlari o'z ifodasini topgan.

Qoraqalpoq yozma adabiyoti

XVIII asrdan boshlab qoraqalpoq yozma adabiyoti shakllandi va rivojlana boshladi.

XVIII—XIX asrning birinchi yarmida qoraqalpoq adabiyotining ko'zga ko'ringan qator namoyondalari qalam tebratganlarkim, ularning nomlari bugungi kunda ham ardoqlanadi.

Ulardan biri **Jien jirov** (1730—1784) edi. U mashhur baxshi sifatida kamol topdi. Ayni paytda she'rlar ham bitdi. «Xayr endi, do'stlar», «Yuragimda ko'p dog'im», «Tuyani ber» kabi she'rlarida jamiyatdagi nohaqliklardan noliydi. Jien jirov hajviy she'rlar ustasi ham edi. U «Hoy xonimiz, xonimiz!», «Xon yonida to'ralar» kabi hajviy she'rlarida hukmron tabaqalarning kirdikorlarini, xalqqa o'tkazgan jabr-zulmlarini fosh etadi.

Qoraqalpoqlar — erksevar xalq. Shuning uchun ham ular doimo o'z e'klari uchun ozodlik kurashi olib borganlar. Ma'lumki, qozoq xoni Abulxayrqa qarshi olib borilgan urushda qoraqalpoqlar yengilib qolgan edi. Bu mag'lubiyat natijasida ular azob-uqubatlarga duchor etil-

gan. Xususan, Sirdaryo bo'ylaridagi qoraqalpoqlar har yoqqa tarqab ketganlar. Ularning bir qismi Toshkent atrofiga (Chirchiq bo'ylariga), boshqa bir qismi esa Qizilqum orqali Xorazmga (Orol dengizining janubiy sohillariga) ko'chib ketganlar. Mana shu **mashaqqatli** ko'chishlarning guvohi bo'lgan Jien jirov o'zining «Darbadar el» nomli dostonini yaratgan edi.

Qoraqalpoq adabiyotining ko'zga ko'ringan vakillaridan yana biri **Kunxoja Ibrohim o'g'li** (1799—1830) edi. Uning butun umri muhtojlikda o'tgan. Shoirning «O'roqchilar», «Oq qamish», «Cho'ponlar» kabi she'rlari xalq orasida keng tarqalgan bo'lib, ularda qoraqalpoq xalqining Xiva xonligi tobeligiga tushib qolgan davrdagi og'ir ahvoli, erksiz turmushi o'z ifodasini topgan. «El bilan», «Boy bolasi», «Mening bolam» she'rlarida esa hukmron tabaqalar kirdikorlarini fosh etadi. «Unutmasman» hamda «Tuya ekansan» she'rlarida u Xiva xoni ustidan kuladi.

Ajiniyoz Qasiboy o'g'li (1811—1878) qoraqalpoq xalqining atoqli shoirlaridan biridir. Mo'ynoqdagi eski maktabda o'qigan. Keyin Xivadagi Sherg'ozixon madrasasida ilm olgan. Shoirning «Bo'zatov» dostonida qoraqalpoq xalqining boshqa yurtlarga ko'chib ketishga majbur etilganligi katta mahorat bilan tasvirlangan. Ajiniyoz shoir she'rlarida vatanparvarlik, insonparvarlik g'oyalari ustun turadi. Ajiniyozni butun O'rta Osiyoda tanitgan «Qiz Mengam bilan aytishuv» asari edi.

Qoraqalpoq xalqi adabiyoti uning asoschisi **Berdaq** (1827—1900) nomi bilan mashhurdir. Berdimurod Qarg'aboy o'g'li Berdaq yoshligidan ota-onasidan yetim qolib, bir burda non uchun ovulma-ovul ish qidirishga majbur bo'lgan. Uning ijodi 18—19 yoshlarda do'mbira chertib she'r aytishdan boshlangan. 25 yoshida u iste'dodli shoir sifatida xalq orasida tanildi. Uning she'rlarida mehnatkash xalqning og'ir hayoti o'z aksini topib, Xiva xonlari, amaldorlari zulmiga qarshi xalq noroziligi ifodalangan.

Berdaq xalq hayotini, uning ezgu orzu-istaklarini yaxshi bilgan shoir edi. Shuning uchun ham uning she'rlarida xalqparvarlik ruhi kuchli edi. Xususan, shoir o'zining «Xalq uchun» degan she'rida yoshlarni mehnatkash xalq uchun jonini ayamaslikka chaqiradi:

*Bo'ri hech vaqt o'z dardini bildirmas,
Yaxshi odam dushmanini kuldirmas,
Qo'ldan kelsa unga davron surdirmas,
Er yigitning joni qurbon xalq uchun.*

Berdagning jabr-zulmga munosabati xususan «Soliq» she'rida o'z ifodasini topgan.

*Undiradi och xalqdan,
Yetimlar yig'lar xorliqdan,
Boy omon qoldi soliqdan,
Tuhmat to'lov bo'ldi soliq.*

Berdaq tarixiy mavzularda ham qalam tebratgan. Uning «Avlodlar», «Omongeldi», «Oydo'stbiy», «Ernazarbiy» kabi asarlarida xonlar zulmiga qarshi kurashgan xalq qahramonlari faxr bilan kuylanadi. Xususan «Omongeldi» dostoni Buxoro amirligiga qarshi ko'tarilgan (XVIII asr) qo'zg'olon boshlig'i Omongeldi jasoratiga bag'ishlangan.

Xiva xonligi zulmiga qarshi ko'tarilgan isyon «Ernazarbiy» dostonida ham aks ettirilgan.

Savol va topshiriqlar

1. Qoraqalpoq hunarmandchiligi haqida so'zlab bering.
2. Qoraqalpog'iston shaharlarini daftaringizga ko'chirib yozing.
3. Qoraqalpoq xalqining yozma adabiyoti qachon shakllandi? Nega bu adabiyotning asosini she'r va dostonchilik tashkil etgan?
4. «Qirqqiz» dostoni mazmuni haqida so'zlab bering.
5. Jien jlrov, Kunxoja va Ajiniyoz ijodi haqida gapirib bering.
6. Berdaq asarlarida qanday g'oyalar ustun turadi?

Bularni takrorlab boring:

- Savkala qoraqalpoq ayollarining sevimli bezagi hisoblanadi;
- Qoraqalpoqlar yurtida XIX asr boshlarida 318 ta maktab bo'lgan;

- Qoraqalpoqlarning to'y ma'rakalari qo'shiqsiz, dostonlarsiz va tarixiy hangomalarsiz o'tmaydi;
- Qoraqalpoq folklor namunalarining 20 jildligi nashr etilgan;
- «Qirqqiz», «Qo'blan», «Mastposhsho», «Yedigey» kabi dostonlarda qoraqalpoqlarning voqealarga boy tarixi mujassamlangan;
- Qoraqalpoqlarda yozma adabiyot XVIII asrda shakllandi;
- Jien jirov, Kunxoja Ibrohim, Ajiniyoz Qasiboy, Berdaqar qoraqalpoq adabiyotining so'z yuritilayotgan davrdagi yirik namoyondalari sanaladi.

BESHINCHI BOB YUZASIDAN TEST TOPSHIRIQLARI

1. Qoraqalpoqlar haqidagi dastlabki ma'lumot qaysi davrga taalluqli?

- A. Miloddan avvalgi VII—VI asrlarga
- B. Miloddan avvalgi VI—V asrlarga
- D. Miloddan avvalgi V—IV asrlarga
- E. Milodiy VI—VII asrlarga
- F. Milodiy V—VI asrlarga

2. Qoraqalpoq xalqi qaysi qabilalar negizida kelib chiqqan?

- A. Qozoq, qirg'iz, turkman, o'zbek, tojik
- B. Xitoy, qipchoq, kenagas, mang'it, qo'ng'iroq, mo'yten
- D. Qipchoq, qalmoq, qorliq, qirg'iz, xitoy
- E. Mang'it, barlos, nayman, saroy, ming, yuz

3. Birinchi qoraqalpoq xonligi qachon tashkil topdi?

- A. XII asrda
- B. XVI asrda
- D. XVII asrda
- E. XVIII asrda
- F. XVIII asr boshlarida

4. Jung'orlar hujumiga qarshi kurash qoraqalpoqlarning qaysi dostonida o'z ifodasini topgan?

- V. «Yedigey»
- B. «Alpomish»
- D. «Qirqqiz»
- E. «Qo'blan»
- F. «Go'ro'g'li»

5. Qoraqalpoqlarning birinchi qurilgan shahri qaysi?

- A. To'rtko'l
- B. Nukus
- D. Chimboy
- E. Mo'ynoq
- F. Mang'it

O l t i n c h i b o b

XVIII—XIX ASR BIRINCHI YARMIDA QO'QON XONLIGI

29—30-§§. XONLIKDA SIYOSIY AHVOL

**Shohruxbiy — xonlik
asoschisi**

Qo'qon xonligi hozirgi Farg'ona, Namangan, Andijon, Toshkent, Xo'jand viloyatlari,

Qirg'iziston va Janubiy Qozog'iston hududlarini o'z ichiga olgan. Uning eng shimoliy qismida Oqmasjid qal'asi bo'lgan. Orenburg va Omsk podsho Rossiyasining xonlik bilan chegaradosh shaharlari edi.

Buxoro xonligida Ubaydullaxon II davri (1702—1711)da siyosiy parokandalik yanada kuchaygan pallada undan mustaqil Qo'qon xonligi ajralib chiqdi. Eng avval chodak mavzeidagi xojalar jamoasi (din peshvolari) o'z mulklarini mustaqil deb e'lon qiladilar. Ularning ixtiyorida Targ'ova, Pillaxon, To'qaytepa, Parnok, Tepaqo'rg'on va Qaynar mavzelari bo'lgan.

1708-yili ming qabilasi oqsoqollari yig'ilishib Buxoro xonligidan mustaqil davlat tuzishga qaror qilganlar. Minglarning bunday qarorga kelishiga asosiy sabab ularning alohida davlatga intilishlari bo'lsa, ikkinchidan, Ubaydullaxon II davrida nufuzi oshib borayotgan minglarning mamlakat miqyosida tazyiqqa olinishi edi. Bu hol ko'pdan beri mustaqil davlat tuzishga intilib kelayotgan Farg'ona minglari faoliyatining yanada ortishiga olib keldi.

1709-yilda minglar alohida bekklik tuzgan chodaklik din peshvolari hokimiyatini ag'dardilar va Farg'ona vodiysida hokimiyatni o'z qo'llariga oldilar. Ming qabilasi yo'lbooshchilaridan biri Shohruxbiy hukmdor deb e'lon qilindi.

Shu tariqa, O'rta Osiyoda keyinchalik **Qo'qon xonligi** deb atalgan yangi davlat vujudga keldi.

Buxoro xoni Ubaydullaxon II bu voqeaning oldini ololmadi. Ubaydullaxon II dan so'ng ashtarxoniylar sulolasi hukmronligining yanada susayishi Qo'qon xonligiga o'z mavqeini mustahkamlab olishga imkoniyat yaratdi.

Ma'lumki, faqat Afrosiyob yoki chingiz avlodidan bo'lganlar xon atalishga haqli edilar. Ming qabilasi boshliqlaridan Shohruxbiy esa Chingiz avlodi emas edi. Shuning uchun saroyga yaqin tarixchilar «Oltin beshik» haqidagi afsonani to'qiganlar. Unga ko'ra go'yo Kobul tomon ketayotgan Zahiriddin Muhammad Bobur endi tug'ilgan chaqalog'ini oltin beshikka belab, yo'lda qoldirib ketgan ekan. Farg'ona vodiysidagi o'zbek qabila boshliqlari beshikni topib olishib, bolani katta qiladilar. Oltin beshikdagi bola voyaga yetib undan Sulton elik nomli o'g'il tug'ilgan. Undan keyingi avlod Xudoyor, Muhammad Amin, Abulqosim, Shohmastbiy (Ejmosbiy), Shohruxbiy, Hojibiy, Ashurbiy, so'ng Shohruxbiy. Shohruxbiy Oltin beshikning o'ninchi pushti hisoblangan. U ming qabilasi biylaridan edi.

Shohruxbiy (1709—1721)ning uch o'g'li bor edi: Abdurahimbiy, Abdulkarimbiy, Shodibiy. Otasidan keyin xon bo'lgan **Abdurahimxon** (1721—1733) Xo'jand, O'ratepa viloyatlarini o'z davlatiga qo'shib oladi. So'ngra Shahrisabz ostonalariga qo'shin tortib boradi. Uning hokimi Abdurahimxon bilan bitim tuzib, Aychuchuk degan qizini unga nikohlab beradi. Keyin u Samarqandni egallab, bu yerga mulla Bahor degan kishini hokim etib tayinlaydi. Jizzaxga kelib, bunda Ollohqulibekni hokim qilib qoldiradi. Abdurahimbiy Xo'jandga yetib kelgach, qattiq betob bo'lib vafot etadi (u 12 yil xonlik qilib, 33 yoshida qazo qilgan). Undan Erdonabek degan o'g'il va uch qiz qoladi. Lekin, Qo'qon xonligi taxtiga uning inisi **Abdulkarimxon** o'tiradi (1733—1750). U o'z poytaxtini Tepaqo'rg'ondan Qo'qon shahri o'rniga ko'chiradi. U Qo'qonning Eski o'rda degan joyida o'rda-

qal'a qurdiradi. Atrofni shahar qilib, **devor** bilan o'rata-di. O'shanda Qo'qonning Qatag'on, Marg'inon, Toshkand, Haydarbek degan to'rt darvozasi bo'lgan.

Abdulkarimxon o'z davlatini mustahkamlashga, xalq farovonligini oshirishga intildi. 1745—1746-yillari qalmoqlar Farg'ona vodiysiga hujum qilib O'sh, Andijon, Marg'ilon shaharlarini bosib olib, Qo'qon ostonalariga kelib poytaxtni qamal qiladilar. Qo'qonliklar og'ir ahvolga tushib qolganda O'ratepa hokimi Fozilbek qo'shinlari bilan birga qalmoqlarga yordamga yetib keladi va xoinlar ham tor-mor etiladi. Shu **tariqa**, Farg'ona vodiysi dushmandan ozod qilinadi.

Abdulkarimxon 40 yoshida vafot etadi. Taxtga uning o'g'li Abdurahmonxon o'tiradi, ammo, olti oydan keyin u Marg'ilonga hokim qilib yuboriladi. Taxtga esa 1751-yilda **Erdona** o'tqaziladi. Erdona hukmronligi davrida (1751—1762) xonlikning qudrati ortgan. U O'sh, O'zganni bo'ysundirgan. 1758—1759-yillarda esa Xitoy tomonidan zabt etilgan Sharqiy Turkistonga ham harbiy yurish uyushtirgan. Shu **tariqa**, Erdona davrida Qo'qon xonligi g'arbda Buxoro, sharqda Xitoy bilan tengma-teng kurash olib bora olgan davlatga aylangan. U ham tez orada taxtdan tushirilib, uning o'rniga Bobobek o'tqaziladi. Abdulkarimxon zamonida Qaynar tomondan qalmoqlar bostirib kelib, sulh tuzib, Muhammad Rahimxonning o'g'li Bobobekni garov tariqasida olib ketgan edilar. Qalmoqlar Bobobekni xonlikka ravo ko'radilar. U bir yil xonlik qiladi (1752—1753). Bobobek Beshariqqa borganda, u yerda o'ldiriladi va taxtga yana Erdona o'tqaziladi. Uning davrida ko'p urushlar bo'ladi, mehnatkash xalqning ahvoli og'irlashadi. Erdona 12 yil hukmronlik qilgan. So'ngra Shodibek o'g'li Sulaymonbek taxtga o'tqaziladi, ammo, suiqasd tufayli uch oy hukmronligidan so'ng o'ldiriladi. Taxtga endi Abdurahmonxonning o'g'li **Norbo'tabek** o'tqaziladi (1763—1798). U dastlab Chust va Namangan hokimlarining isyonini bostiradi, Xo'jandni o'ziga bo'ysundiradi. Toshkentga

qarshi 1799-yili Xonxoja boshchiligida qo'shin yubordi, ammo u mag'lubiyatga uchraydi.

Manbalarda keltirilgan ma'lumotlarga qaraganda, Norbo'tabek davrida ekinlardan mo'l hosil olinib, bozorlarda narx-navo arzonlashadi. Xitoy hukmdori Norbo'tabek mustaqil xon ekanligini tan olgan.

Norbo'tabek 1798-yili Qo'qon shahrida vafot etdi. Taxtga esa uning katta o'g'li Olimbek o'tqazildi. Olimxon davrida (1798—1810) Qo'qonning siyosiy mavqei kuchaydi. U harbiy islohot o'tkazib, Xo'jandni, Ohangaron vohasini, Toshkent, Chimkent va Turkistonni o'ziga bo'ysundirdi. Natijada, Rossiya bilan savdo yo'li ochiladi. U o'z davlatini 1805-yili rasman Qo'qon xonligi deb e'lon qildi, o'ziga esa «xon» rutbasini oldi va uni rasman Olimxon deb atay boshlashdi. Olimxonning markazlashgan nisbatan kuchli davlat tuzishga intilayotganligi ayrim qabila boshliqlari orasida keskin norozilik tug'dirdi. Natijada, ular Qo'qonda «Olimxon Toshkentda o'ldi» deb mish-mishlar tarqatishadi va uning ukasi Umarbekni xon deb e'lon qiladilar. Olimxon bundan xabar topib Qo'qonga bormoqchi bo'ladi, ammo, yo'lda Oltiqush mavzida andijonlik Qambar mirzo sheriklari bilan Olimxonni otib o'ldiradilar.

Amir Umarxon davri

Umarxon ota-bobolaridan farqli ravishda o'zini «xon» emas, «amir» deb atadi. Umarxon davrida (1810—1822) ham isyonchi hokimlarga qarshi urushlar davom etadi. Umarxon yana qaytadan mustaqillik yo'liga o'tgan Chimkent va Turkistonni bosib oladi va Rossiya bilan savdo aloqalarini o'rnatadi. 1817-yili esa O'ratepani bosib oladi.

Umarxon 1818-yili «amir ul-muslimin» unvonini oladi.

Amir Umarxon 1811-yilda Yusuf mingboshi boshchiligida O'ratepa ustiga qo'shin jo'natadi. So'ng Samarqand atroflarini talon-toroj qiladi.

Keyin esa Toshkent ustiga yurish qiladi. Toshkentni egallab, bu viloyatga Lashkar qo'shbegini hokim etib

tayinlab, Rajab qo'shbegini qo'shin bilan Turkiston tarafga jo'natadi. Rajab qo'shbegi Turkistonni egallab, katta o'ljani qo'lga kiritadi. Umarxon Turkistonga Shayx Bedil dodxohni hokim qilib jo'natadi.

O'sha vaqtlarda Samarqand hokimi, xitoy-qipchoq va qoraqalpoq biylari amir Haydarga qarshi isyon tayyorlamogda edilar va elchi jo'natib bu ishda amir Umarxondan yordam so'raydilar. Amir Umarxon Toshkentdan Lashkar beklarbegini qo'shini bilan olib, Jizzax shahrini qamal qiladi. Qamal qirq kunga cho'ziladi. Har ikkala tomondan ko'p kishi urushda nobud bo'ladi. Amir Umarxon noiloj qaytib ketishga majbur bo'ladi.

Amir Umarxon 1822-yili kasalga chalinib vafot etadi. Taxtga uning o'g'li Muhammad Ali o'tqaziladi.

Muhammad Alixon davri **Muhammad Alixon** (1822—1842) 1806-yilda dunyoga kel-

gan. Otasi Umarxon va onasi Nodirabegimdek yoshligidan ilm-fanga, adabiyotga qiziqdi. Zamondosh tarixchining yozishicha, u o'n sakkiz hunar sohibi bo'lgan. Muhammad Ali yaxshi xattot ham edi; «Xon» taxallusi bilan she'rlar yozgan.

«Ansob us-salotin va tavorixi al-xavoqin» nomli mashhur tarixiy asarda bunday yozilgan: «Muhammad Alixonni o'n yetti yoshida podshohlik taxtiga o'lturgizdilar. Umarxondin qolg'on vaziri sohibtadbirlar maslahati birla hukumatlik qildi, ersa ulug' davlatlik azimushsha'n podshoh bo'ldikim, atrofdagi podshohlar, chunonchi amiri Buxoro va Urganj iztirobda erdi».

Muhammad Alixon ko'p urushlar olib bordi. chunonchi, 1834-yilgacha Qorategin, Ko'lob, Darvoz viloyatlarini bosib oldi.

1826—1831-yillarda bir necha marta Koshg'arga yurish qilib, u yerda xitoylik sinlar hokimiyatini ag'darishga harakat qilgan. Garchi bu niyat amalga oshmagan bo'lsa-da, Xitoy bilan bu masala xususida qulay shartnoma imzolay olgan. Unga ko'ra, Qo'qon bu yerda qator iqtisodiy va savdo imtiyoziga erishgan.

Ichki siyosatda esa otasi davrida yoqtirmay qolgan amaldorlarni qatl ettirish yo'lini tutdi. Lekin, bu mahal-

liy amaldorlar orasida xonning dushmanlarini ko'paytirgan, xolos.

Ayni paytda, Muhammad Alixon shariatga zid axloqiy buzuvchilik yo'liga kirib ketgan. Natijada, u xalqning nazaridan qolgan. Muhammad Alixon va atrofidaqilarning axloqiy buzuvchiligi oxir-oqibatda 1841-yilda Qo'qon shahrida xalq qo'zg'olonini ko'tarilishiga olib keldi. Qo'rqib ketgan xon O'rdadan qochib ketishga majbur bo'ldi va qo'zg'olonchilarga yon bosishdan boshqa iloji qolmadi. Natijada, qo'zg'olonchilarning bir necha aybdorlarni qatl etish haqidagi talabini bajardi.

Xalq qo'zg'olonidan Muhammad Alixonning dushmanlari ustalik bilan foydalandilar. Ular xonga «Xon otalari bir bo'lgan ikki tug'ishgan singlisi bo'lishiga qaramay, o'gay onasiga uylandi. Bu bilan shariatni poymol etdi» degan ayb qo'ydilar. Ular ayni paytda xonning bu qilmishi ustidan o'zini barcha musulmonlarning amiri va shariat himoyachisi deb hisoblovchi Buxoro amiri Nasrulloga arz qilganlar.

Bu davrda Qo'qon-Buxoro munosabatlari keskinlashib ketgan edi. Bu hol ikki davlat hududlarini bir-biri hisobidan kengaytirishga intilishlarining oqibati edi.

Amir Nasrullo hujumi Amir Nasrullo Qo'qonni tobe etish maqsadini amalga

oshirishda bu qulay fursatdan foydalanib qolishga qaror qildi. Amir o'z maqsadini amalga oshirish ishini dastlab Muhammad Alixonni «o'gay onasiga uylangan kofir» deb e'lon qilishdan va bu haqdagi fatvoni Qo'qonga yuborishdan boshladi. Shundan keyin harbiy harakatlarni boshlab yubordi.

Amir Nasrulloning qo'shin tortib kelayotganini eshitgan qo'zg'olonchilar qo'zg'olonni to'xtatdilar va poytaxtni himoya qilishga qaror qildilar. Amir qo'shini bilan Beshariqqa yetib kelganda Muhammad Alixon taslim bo'lmoqchi bo'ldi. Biroq, xalq xonning bu qaroridan norozi bo'ldi. Ular xon huzuriga misgar Xoja Qalandar ismli kishini vakil qilib jo'nata dilar. O'zaro uchrashuv

chog'ida Xoja Qalandarga bir kunga xon huquqi beriladi. Buning evaziga Xoja Qalandar Buxoro qo'shinlarini mamlakat tuprog'idan haydab chiqarishga va'da beradi.

Biroq, xalq ta'sirining oshib ketishidan cho'chib ketgan hukmron tahaqalar xondan o'z qarorini bekor qilishini, Xoja Qalandarni qamoqqa olishni talab qiladilar.

Noshud xon bu talabni bajaradi. Ayni paytda Qo'qon xonligini Buxoro amiriga tobe deb tan oladi va Xo'jandni Buxoroga beradi. Amir Nasrulloning o'ziga esa qimmatbaho sovg'alar yuboradi. Shu tariqa, u o'z xonlik taxtini saqlab qoladi.

O'z fuqarolari nazaridan qolgan Muhammad Alixon 1841-yilning noyabr oyida taxtdan voz kechishga majbur bo'ladi va xonlik taxtini ukasi Sulton Mahmud egallaydi.


Biroq, bu o'zgarish Qo'qon xonligidagi ichki keskin vaziyatni yumshatmadi. Aksincha, 1842-yili Qo'qonda xon zulmiga qarshi yana xalq qo'zg'oloni ko'tarildi. Amir Nasrullo bu qulay fursatdan foydalanib Qo'qonga qarshi yana hujum qiladi va uni bosib oladi. Qo'qon xonligining Buxoro amirligiga qo'shib olinganligini e'lon qiladi. Muhammad Alixon, uning onasi — mashhur shoira Nodirabegim, Sulton Mahmudxon va boshqalar qatl etiladilar, Ibrohim dodxoh Qo'qonga noyib etib tayinlanadi.

**Amir Nasrullo
istilosidan keyingi
siyosiy ahvol**

Amir Nasrulloning Qo'qon xonligidagi hukmronligi uzoqqa cho'zilmadi. Chunki,

amirning Qo'qondagi noyibi Ibrohim dodxoh Qo'qon xonligi aholisini avval undirib kelingan soliqqa qo'shimcha ravishda Buxoro amirligida joriy etilgan soliqlarni ham to'lashga majbur qilgan. Natijada, butun Qo'qon xonligi hududida 1842-yili katta qo'zg'olon ko'tariladi. Uning oqibatida amirning Qo'qondagi noyibi va beklari hokimiyati tugatiladi.

Buxoro amiri hukmronligiga qarshi kurashda Qo'qon xalqining qo'zg'olonini tashkil etgan mahalliy kuchlar Farg'ona vodiysida ko'chib yurgan qipchoqlar madadiga



Худойорхон саройи.

tayangan edilar. Qo'zg'olon natijasida Qo'qon xonligining mustaqilligi tiklandi. Taxtga Norbo'tabiyning ukasi Sherali o'tqazildi (1842—1844). Qo'qon xonligi mustaqilligini tiklashda minglar qabilasiga katta madad bergan qipchoqlar xonlikning ijtimoiy-siyosiy hayotida katta mavqega ega bo'lib oladilar. Qipchoqlarning yo'lboshchisi Musulmonqul mingboshi (bosh vazir) lavozimini egallaydi. Amalda davlat boshqaruvi ishlari uning qo'lida edi. Ayni paytda, Musulmonqul qo'shin qo'mondoni ham edi. Eng muhim davlat ishlariga qipchoqlardan tayinlandi.

Qo'qondagi mag'lubiyatga chiday olmagan amir Nasrullo yana Qo'qonga yurish qiladi. U Qo'qon shahrini 40 kun qamalda tutadi. Biroq, amir Nasrulloning qamalni davom ettirishiga Xiva xoni Oллоhqulixonning Buxoro amirligiga qilgan hujumi xalaqit berdi. Amir Nasrullo Buxoroga qaytishga majbur bo'ldi. Qo'qon xonligi hududlari yana Umarxon davridagi miqyosda tiklandi.

Sheralixonning hukmronligi davrida aholidan soliq undirish kuchaydi. Bu hol mehnatkash aholining noroziligini keltirib chiqardi. Bundan tashqari, davlatda muhim lavozimlarni egallab olgan qipchoqlar davlat ishlarida o'z hukmronligini o'tkazishga, o'zbek, qirg'iz va tojiklarning mamlakat hayotidagi ta'sirini kamaytirishga urindilar. To'g'ri, Sheralixon qipchoqlarning davlatdagi ta'sirini kamaytirishga, muhim davlat lavozimlarining ular qo'liga o'tib qolmasligiga harakat qilgan. Ammo, u bu ishning uddasidan chiqa olmagan. Chunki, uning qipchoqlarni bostirib qo'yishga qodir bo'lgan harbiy kuchi yo'q edi. Bu ham yetmaganidek, qipchoqlar Qo'qonga ko'plab ko'chib kela boshlagach, mahalliy aholining uyjoyini, mol-mulkini zo'ravonlik bilan tortib ola boshladilar. Bular xonlikda qipchoqlarga nisbatan norozilikni kuchaytira boshladi. Sheralixon bu vaziyatni tushunib yetdi va Musulmonquldan qutulish payiga tushdi. Lekin, Musulmonqul uning bu niyatini sezib qoladi va

Sheralixonga qarshi fitna uyushtiradi. Bu fitnani amalga oshirish uchun qulay fursat ham yetgan edi. Fitna rejasi-ga ko'ra, Musulmonqul soliqlarning haddan tashqari og'irligidan norozi bo'lib qo'zg'olon ko'targan O'sh xalqi qo'zg'olonini bostirish uchun qo'shin bilan jo'nab ketishi kerak edi. Bu paytda Isfara hokimi Samarqandda istiqo-mat qilib turgan marhum Qo'qon xoni Olimxonning o'g'li Murodxonni olib kelib Qo'qon taxtiga o'tqazishi kerak edi. Qipchoqlardan norozi bo'lgan mahalliy aholi Murodxonni qo'llab-quvvatlashiga Musulmonqul ishonar edi. Musulmonqul O'shdan qaytgach, «davlat to'nta-rishida» ishtirok etganlarning barchasini jazolashi kerak edi. Shu yo'l bilan Musulmonqul o'zining barcha dush-manlaridan qutulmoqchi, qipchoqlarning to'la hukm-ronligini o'rnatmoqchi edi.

Bu mash'um niyatdan xabari yo'q Murodxon Qo'qonga keladi va taxtga da'vo qiladi. Boshlangan katta «siyosiy o'yin»ning tagida nima yotganini tushunib yet-gan Sheralixon Murodxon foydasiga taxtdan voz kecha-di. Tez orada Murodxonning amri bilan Sheralixon o'ldiriladi. Musulmonqulga esa o'z lavozimlarida qol-ganligi haqidagi farmon jo'natiladi. Mash'um niyati amalga osha boshlagan Musulmonqul o'z qo'shini bilan Namanganga keladi. Avval ishni o'zining 12 yashar qizi-ni marhum Sheralixonning o'g'li Xudoyorxonga nikohlab berishdan boshlaydi. 13 yoshli Xudoyorxon bu davrda Namangan hokimi edi. Shundan keyin Qo'qonga kelib Murodxon va uni qo'llab-quvvatlaganlarni fitnachi sifatida ayblab, ularni qatl ettiradi. Kuyovi Xudoyor-xonni xon taxtiga o'tqazadi.

Xonlikda ichki nizolarning kuchayishi

Xudoyorxon yosh bo'lganligi tufayli amalda xonlikni qaynotasi Musulmonqul

boshqarardi. Shunday qilib, xonlikda qipchoqlar hukm-ronligi davri boshlandi.

Endilikda qipchoqlar Qo'qonga yoppasiga ko'chib kela boshladilar, mahalliy aholini shahardan haydab

chiqardilar, ularning uy-joylariga o'rnashib oldilar. Sug'orish inshootlarini qo'lga kiritdilar, bundan tashqari, aholi endi suv uchun qipchoqlarga soliq to'laydigan bo'ldilar. Bularning barchasi mahalliy aholining qattiq noroziligiga sabab bo'ldi.

Bu ahvol o'z navbatida xonlikda hukmronlarga qarshi qo'zg'olon ko'tarish xavfini tug'dirdi. Bunday vaziyatda Musulmonqul o'z mavqeini yo'qotmaslik yo'lida ruslar bilan aloqa o'rnatishga intiladi va rus qo'mondonligi vakili V.V.Velyaminov-Zernov bilan maxfiy ravishda uchrashadi. Bu hol Xudoyorxonni qattiq cho'chitib qo'ydi. Ana shunday sharoitda u birdan-bir to'g'ri yo'lni tanladi. Bu yo'l — qaynotasi Musulmonqul va qipchoqlar hukmronligiga xotima berish edi. U shunday qildi ham. Biroq, bu ish juda shafqatsizlik bilan amalga oshirildi. 1852-yili 9-oktabr kuni u Toshkentdan chaqirilgan qo'shin bilan qipchoqlar qirg'inini uyushtirdi. Uning bu ishini mahalliy aholi qo'llab-quvvatladi. Qaynotasi Musulmonqul asir olinib, Qo'qonga keltirildi va qatl etildi. Qipchoqlarning mol-mulki musodara qilindi va mahalliy aholiga sotildi.

Musulmonqul hukmronligiga xotima berilgan bo'lsa-da ichki nizolar bu bilan barham topmadi.

Savol va topshiriqlar

1. Chodak mavzeida hokimiyat qandayqilib xojalar qo'lidan ming qabilasi biylari qo'lga o'tdi?
2. Abdurahimxon hukmronligi haqida gapiring.
3. Olimxon va Amir Umarxon hukmronligi haqida so'zlab bering.
4. Muhammad Alixon qandaysiyosat yo'lini tutdi?
5. Amir Nasrulloistilosining oqlbatlari haqida so'zlab bering.
6. Musulmonqul va Xudoyorxon hukmronligi nimasi bilan ajralib turadi?

Bularni takrorlab boring:

- Qo'qon xonligi 1709-yilda tashkil topdi;
- Qo'qon xonligining ajralib chiqishi Buxoro xonligida markaziy hokimiyat zaiflashuvi oqibati edi;
- Qo'qon xonligiga o'zbeklarning minglar qabilasi asos soldi;

- Shohruxbiy xonlikning birinchi hukmdori edi;
- Umarxon, Muhammad Alixon davrida Qo'qon xonligining qudrati o'sdi;
- 1842-yilda Buxoro amirligi Qo'qon xonligini bosib oldi, biroq, bu bosqin uzoqqa cho'zilmadi;
- Qo'qonda minglar hukmronligini qayta tiklashda ko'rsatgan yordami hisobiga xonlik siyosiy hayotida qipchoqlarning ta'siri kuchayib ketdi;
- Qipyohoqlar yo'l boshchisi Musulmonqul mingboshi lavozi mini egalladi;
- Oxir-oqibatda, Xudoyorxon Musulmonqul mavqeini yo'qqa chiqarishga erishdi.

Manbalar tilga kirganda...

Taniqli o'zbek yozuvchisi Abdulla Qodiriy «O'tgan kunlar» romanida Yusufbek hoji tilidan quyidagi alamli so'zlarini bayon etadi:

«Maqsadlari juda ochiq... Bittasi mingboshi bo'lmoqchi, ikkinchisi Normuhammadning o'rniga o'tirmoqchi, uchinchisi yana bir shaharni o'ziga qaram qilmoqchi. Ittifoqning nima ekanligini bilmagan, yolg'iz o'z manfaati, shaxsiyati yo'lida, bir-birini yeb-ichgan mansabparast, dunyoparast va shuhratparast muttahamlar Turkiston tuprog'idan yo'qolmay turib, bizning odam bo'lishimizga aqlim yetmay qoldi... Biz shu xislatda ketadigan, bir-birimizning tegimizga suv quyadigan bo'lsak, yaqindirki, chor istibdodi Turkistonimizni egallar va biz bo'lsak o'z qo'limiz bilan kelgusimizni o'ris qo'lga qoldirgan bo'larmiz».

31—32-§§. QO'QON XONLIGIDA IJTIMOY AHVOL. SHAHARLAR

Davlat tuzilishi

Xondan keyin quyidagi mansabdorlar o'rin olishgan:

1. Shayxulislom, qozikalon, xojakalon, naqib va muhtasiblar. 2. Mingboshi, otaliq, qo'shbegi, mehtar. 3. Parvonachi. 4. Dodxoh. 5. Biy. 6. Eshikog'asi, inoq, shig'ovul. 7. To'qsoba. 8. Miroxo'r. 9. Qorovulbegi kabi oliy mansablar bo'lgan.

Shayxulislom mansabiga bilimdon, o'qimishli kishilar tayinlangan. Undan nasl-nasabi haqida hujjat, shajara ham talab qilingan. U xojalar avlodidan bo'lishi lozim bo'lgan. Ruhoniylar vaqf mulklari daromadi hisobiga

tirikchilik qilganlar. Bundan tashqari, ular har yili xonadon sha'ni tariqasida amaldorlardan sarupo, g'alla, naqd pul olib turganlar.

Muhtasib lavozimiga axloqan pok faqihlar tayinlangan. Ular shariat qonun-qoidalarining musulmonlar tomonidan bajarilishini nazorat qilib turganlar.

Xonning shaxsiy daromadi **daftardor** tomonidan hisob-kitob qilib borilgan va xazinachiga axborot berib turgan. **Sarkor** va **inoq** xazinaga tushadigan mahsulotni saqlab turganlar. Barcha masalalarni hal qilish uchun xon, otaliq, mingboshi, otabek, sarkor, dasturxonchi, elchilik devoni, xazinachi, **mehtar**, noyib, udaychilardan iborat kengash tuzilgan.

Ijtimoiy hayot

Qo'qon xonligi ham Buxoro amirligi va Xiva xonligi kabi

mustabid davlat edi. Butun hokimiyat rasman xon qo'lida bo'lib, u cheklanmagan hokimiyatga ega bo'lgan.

Xon armiyasiga mingboshi qo'mondonlik qilgan. Ayni paytda u bosh vazir va ba'zida bosh qo'mondon vazifasini o'tagan.

Xonlikda istiqomat qiluvchi barcha qabila a'zolari o'zlarining yashash joylaridagi hududlarda hisob daftariga yozib qo'yilar edilar. Bu tartib xonga uning birinchi chaqirig'idayoq ularning to'planish buyurilgan joyga yetib kelishlarini ta'minlar edi. Shu tariqa, Qo'qon xoni agar zarurat taqozo etsa 60 ming qo'shinni va oziq-ovqat ortilgan 12000 aravani tezda yig'a olish imkoniga ega edi.

Xonlikning ijtimoiy hayotida ruhoniylar alohida mavqega ega bo'lib, ular davlat siyosatiga kuchli ta'sir o'tkaza olganlar. Ularning mamlakatdagi nufuzi shu darajada ediki, ular olib borgan siyosati o'zlarining manfaatlariga mos kelmay qolgan xonlarni hatto «xudodan qaytgan», «dindan chiqqan shakkok» deb ham e'lon qila olardilar. Xonlikdagi butun sud ishlari ruhoniylar qo'lida edi.

Xonlikdagi o'zaro ichki urushlar va nizolar shunday shitob bilan davom etgankim, shu omil oxir-oqibat markaziy hokimiyatni zaiflashtirgan, butun xonlikni larzaga keltirgan.

Qo'qon xonligida hukmronlik qilgan 15 xondan 6 nafari (Bobobek, Sulaymonxon, Olimxon, Muhammad Alixon, Sheralixon, Mallaxon) saroy to'ntarishi natijasida o'ldirilgan edi.

Yer egaligi. Soliqlar va majburiyatlar

Qo'qon xonligida yer egaligining quyidagi shakllari mavjud bo'lgan: 1. Amlok

yerlari (davlat yerlar); 2. Xususiy mulk yerlari va 3. vaqf yerlar (masjid va madrasalarga tegishli yerlar).

Mamlakatdagi butun yer davlatniki edi. Shuning uchun ham xususiy yer egalari aslida yerga emas, balki, undan olinadigan mahsulot hamda shu yerlarda qurilgan imoratlarga egalik qilar edilar. Xususiy yer egalari yetishtirilgan hosilning $\frac{1}{5}$ qismi hajmida soliq to'lar edilar. Mulklarining ko'pchiligi 30 so'tixdan 60 so'tixgacha bo'lgan. Bir gektar yeri bor kishi boy hisoblanar edi. Yerlar ishlov berish uchun dehqonlarga ijaraga berilar edi. Ular qilgan mehnatlari evaziga hosilning $\frac{1}{3}$ yoki $\frac{1}{4}$ qismini o'zlariga olib qolar edilar.

Dehqonlar davlat yerlarida mehnat qilar edilar. Davlat yerlarida ishlash uchun majburan safarbar etilganlar soni 10 ming nafargacha yetardi. Bunday dehqonlar **mardikor** deb atalardi.

Xonlikda yer egalariga hosilning $\frac{1}{4}$ qismi uchun yollanib ishlovchi yersiz dehqonlar tabaqasi vujudga kelgan bo'lib, ular **chorikorlar** deb atalar edilar. Bundan tashqari **korandalar** deb ataluvchilar ham bo'lib, ular hosilning yarmi uchun yollanib ishlar edi. Bu yuqorida qayd etilganlar xonlikda mehnatkash xalqning qanchalik og'ir sharoitlarda yashaganligini ko'rsatuvchi dalillardir. Mehnatkash xalqning qismati shu bilangina cheklanmagan. Ular o'ta og'ir soliqlar to'lash, tinka-madorni qurituvchi majburiyatlar o'tashga duchor etilgan edilar. Asosiy soliq — xiroj bo'lib, uning miqdori ekin ekiladigan yer maydoni va ekin turiga qarab olinar edi.

Ko'chmanchi xalqlardan olinadigan zakotning ham turi ko'p edi. Ularning asosiylari «qo'ra boshi», «tutun haqi», «soliq» deb atalar edi. «Qo'ra boshi» zakoti —

ko'chmanchi chorvadorlardan moli boshiga va qo'rasiga qarab olinadigan zakot edi. Bu zakot qishda mollar qo'ralarda turganida yig'ib olinar edi.

«Tutun haqi» zakoti — bu bahor kelganda yangi o'tloqlarga ko'chishdan oldin xonadon boshiga bittadan qo'y bilan olinadigan soliq (zakot) edi.

«Yig'im soliq» esa — zakot to'lamaydigan boylar va ularning qarindoshlarining bekka beradigan 9 buyumdan iborat in'omlardan iborat edi.

Ahvol shu darajaga borib yetgan ediki, mehnatkash xalq deyarli hamma narsa uchun soliq to'lar edi. Chunki, hamma qo'riq yerlar, chakalakzorlar, to'qaylar, daraxtzorlar, ko'llar, barcha yaylovlar xonning ixtiyorida edi.

Xalqning tinka-madorini qurituvchi mehnat majburiyatini o'tash davomida aholi qal'a devorlarini ta'mirlash, istehkomlar qurishga, kanallar qazishga, ariqlarni tozalashga, yo'l-ko'priklar qurilishiga safarbar etilardi.

Bulardan tashqari, eng og'ir yana bir majburiyat bo'lib, bu — harbiy xizmat majburiyati edi. Urush harakatlari boshlangan paytda har bir kishi zarur oziq-ovqat, kiyim-kechak g'amlab kelishi shart edi.

Aholi va xo'jaligi Qo'qon xonligi XIX asrning birinchi yarmida shimolda

Rossiya bilan (garchand ularning o'rtasida huvillab yotgan cho'l bo'lsa-da), g'arbda Buxoro va Xiva bilan, sharqda Sharqiy Turkiston bilan, janubda esa Qorategin va Darvoz bilan chegaradosh edi.

Xonlik aholisining soni 3 millionga yaqin edi. Aholining asosiy qismini o'zbeklar tashkil etgan. Shuningdek, xonlikda tojiklar, qirg'izlar, qozoqlar, uyg'urlar va qoraqalpoqlar ham istiqomat qilardilar. Ayni paytda xonlik hududlarida, oz miqdorda bo'lsa-da, yahudiylar, hindlar, tatarlar va boshqa millat vakillari ham yashar edilar.

Xalq xo'jaligining asosini qishloq xo'jaligi tashkil etardi. Farg'ona vodiysining qulay iqlim sharoiti qishloq

xo'jaligi rivojiga imkoniyat yaratgan edi. Ayni paytda xonlik aholisining mehnatsevarligi ham o'lka taraqqiyotida hal qiluvchi omil bo'lgan.

Xonlik hujjatlariga ko'ra, Qo'qonda hunarmandchilikning quyidagi turlari bo'lgan. Misgar, zargar, o'ymakor, qurolsoz, kulol, qog'ozgar, to'qimachi, do'ppi tikuvchi, kashtachi, ko'priksiz, temirchi, nonvoy, aravasozi, baxmalbof, bujgun, bo'yoqchi, gilkor, dorukash, jibachi, devorzan, degrez, yo'rmado'z, konchi, miltiqsoz, najjor, nayzagar, panjarasoz, pillakash, po'stindo'z, taqachi, to'brez, paranjido'z, chodirchi, chevar, chitgar, gilamchi va hokazo.


Xonlikda oltin ma'dani Kosonsoy (Namangan)da, Qoratog' shimolidagi Ko'krev daryosidan, Chirchiq daryosi bo'ylaridan, Chotqol daryosi yuqori oqimlaridan olingan.

Samarqandda bo'lganidek Qo'qon xonligida ham qog'oz ishlab chiqarilgan. Qog'oz juvozxonasi Qo'qon shahrining Mo'yi muborak darvozasi orqasidagi maqbara yonida joylashgan. Qog'oz juvozi oddiy saroydan iborat bo'lib, sahni 25—30 kvadrat metr; ayvonning bir tomonida juvozxona, boshqa tomonida qog'oz xamiri uchun katta moslama joylashgan. Usta o'z xalfalari yordamida bir kunda 300 varaq qog'oz tayyorlagan.

Qo'qonda chinni idishlar ham ishlab chiqarilgan. Usta Boybobo nomi bilan mashhur bo'lgan usta (vafoti 1876) chinni yasashda shuhrat qozongan.

Qo'qonga qo'shni shaharlar va xorijiy mamlakatlardan savdogarlar kelib turgan. Shaharda yakshanba va chorshanba kunlari bozor bo'lgan.

Qo'qon xonligining iqtisodiy hayotida Buxoro amirligi, Xiva xonligi, Koshg'ar, Hindiston, Afg'oniston, Eron va ayniqsa Rossiya bilan bo'lgan savdo katta o'rinni egalagan. Masalan, Koshg'ar bilan olib borilgan savdo-sotiq faqat Qo'qon orqali bo'lar edi. Qo'qondan Koshg'argacha yuklangan ot karvoni 14—20 kun yo'l yurgan. Qo'qondan Koshg'arga temir, qizil charm, mato, ipak va ipdan to'qilgan matolar, oltin olib borilgan. Koshg'ardan



Qo'qonga esa har yili 30000 otida choy, 200 otida oq tusli mato, 200 otida qimmatbaho toshlar, 50 otida attorlik buyumlari keltirilgan.

1831-yilgi Qo'qon xonligi va Xitoy shartnomasiga ko'ra Qo'qon xoni Koshg'arda savdogarlardan boj yig'ish huquqini olgan. Karvon yo'li bexatarligini Qo'qon ta'minlagan.

Qo'qon savdogarlarining Shimoliy Hindiston shaharlari bilan faqat Buxoro va Samarqand orqaligina emas, balki butun O'rta Osiyoga tarqalgan hind karvonsaroylari orqali ham savdo qilish imkoniyati bo'lgan.

Qo'qon karvonsaroylarida Hindiston, Tibet, Koshg'ar, Buxoro amirligi, Afg'oniston, Rossiyadan olib kelingan mollar ayirboshlanardi.

Qo'qonga quyidagi karvon yo'llari kelgan:

1. Buxoro—Samarqand—Jizzax—Zomin—O'rtepa—Xo'jand—Mahram—Beshariq—Qo'qon.

2. Buxoro—Samarqand—Yangiqo'rg'on—Jizzax—Rovot—Jom—O'rtepa—Xo'jand—Mahram—Beshariq—Qo'qon.

Qo'qon xonligi qulay geografik mavqeda karvon yo'llari ustida va dehqonchilik qadimdan taraqqiy etgan hududda joylashgani uchun mahalliy viloyat hokimlarining iqtisodiy qudrati katta edi. Shuning uchun qattiqqo'l xongina ularni itoatda saqlay olgan.

Qo'qon xonligi shaharlari. Qo'qon

Xonlikning bosh shahri Qo'qon edi. Ma'lumotlarda «Xuvoqand» («Xavoqand»,

«Xo'qand») degan nomlar qayd etilgan. «Xuvoqand» so'zi — «go'zal», «yoqimli», «xushmanzara» shahar degan ma'noni anglatadi. «Xavoqand» — «tepalikdagi shahar» yoki «shamol shahri» degan ma'noni anglatadi, degan fikrlar ham mavjud. Qo'qon shahri XVIII—XIX asr birinchi yarmida nafaqat xonlikning, ayni paytda O'rta Osiyoning yirik shaharlaridan biri edi.

Uzoq o'tmishda Qo'qondan Xitoy va Hindistonga boradigan, u yerlardan keladigan karvon yo'li o'tgan. Qo'qon shahri bir necha marta tashqi dushmanlar tomonidan vayron qilingan. Shahar XIII asrda oxirgi

marta mo'g'ullar tomonidan yakson qilindi. Qo'qon 1709-yilda qayta tiklangan. 1740-yilda esa xonlik poytaxtiga aylantirilgan.

1842-yilda shahar mustahkam devor bilan o'ralgan. Shaharga 12 darvozadan kirilgan. Shaharning 12 darvozali bo'lishiga sabab — uning ma'muriy jihatdan 12 dahaga bo'linganligi edi. Bu davrda shaharda 80000 (ba'zi ma'lumotlarda 31 ming) aholi yashagan. Shaharda 15 ta madrasa, 540 masjid bo'lgan. Madrasalar ichida Madalixon, Norbo'tabek, Jome', Hojimoyim, Xoja dodxoh, Mingoyim madrasalari alohida ajralib turadi. Ularning har birida 38 tadan 100 tagacha hujrasi bo'lgan.

Qo'qon nihoyatda ozoda shahar edi. Ko'chalarning to'g'riligi, masjid va madrasalarning kattaligi, ariqlar, ko'priklarining sozligi shaharni yanada ko'rkam ko'rsatar edi. Ko'priklar g'ishtdan bo'lib, ularning ikki chekkasiga do'konlar ham qurilgan edi.

Qo'qon shahri xonlikning siyosiy, madaniy, iqtisodiy va diniy markazi edi.

Toshkent

Tarixiy manbalarda bundan 2000 yil avval hozirgi Tosh-

kent shahri o'rnida yirik va obod shahar bo'lganligi qayd etilgan.

V—VIII asrlarda esa Toshkent Choch, Shosh, Shoshkent, Binkat degan nomlar bilan atalgan hamda shu nomlar bilan atalgan davlatlarning poytaxti bo'lgan.

VI asrda Toshkent Turk xoqonligi tarkibiga qo'shib olingan.

VIII asrda Toshkentni arablar bosib olganlar. O'zaro urushlar, ko'chmanchilarning hujumlari oqibatida Toshkent bir necha marotaba vayron etilgan. Natijada, IX asrda Toshkent avvalgi joyida emas, Bo'zsuv kanali etagida qayta bunyod etilgan. Tarixiy manbalarda qayd etilgani bo'yicha Toshkent hozirgi nomi bilan XI asrdan boshlab atala boshlagan.

XIII asrda Toshkentni Xorazmshoh istilo qilgan va 1214-yilda mo'g'ul qo'shinlarining yo'lini to'sish maqsadida shaharga o't qo'ydirib yuborgan. Shundan so'ng shahar faqat temuriylar davrida qayta tiklangan. Ulug'

bekning vafotidan so'ng toju taxt uchun boshlangan o'zaro urushlardan foydalangan Mo'g'uliston xoni Yunusxon Toshkentni bosib olgan.

1501-yilda esa Shayboniyxon Toshkentni bosib oldi va uni o'z amakilari Ko'chkhunchixon va Suyunchxojaxonlarga (Ulug'bekning nabiralari) topshirgan.

XVI asrning birinchi yarmida Toshkentda qayta qurilish ishlari olib borildi. Jumladan, Baroqxon va Ko'kaldosh madrasalari qurildikim, bu binolar hamon qad ko'tarib turibdi.

1599-yilda Toshkentni qozoq xoni Tavakkal bosib oldi. 1613 yilda esa ashtarxoniylar Toshkentni o'zlariga bo'ysundirganlar.

1723-yilda Toshkentni ko'chmanchi jung'orlar egallaganlar, ularning hukmronligi 1758-yilgacha davom etgan.

1807-yilda Toshkent shahri Qo'qon xonligiga qo'shib olingan. Toshkent shahar hayotining markazi Chorsu bozori edi. Bu yerga turli shahar va mamlakatlardan savdogarlar kelishardi. Ularga shaharda va shahar atrofida qurilgan karvonsaroylar xizmat ko'rsatar edi.

O'rta Osiyo shaharlari, shu jumladan, ularning eng yirik va mashhurlaridan bo'lgan Samarqand, Buxoro va Toshkentning ham xo'jalik hayoti qishloq aholisining faoliyati bilan chambarchas bog'lanib ketgan edi. chunki, shahar hunarmandlari atrof qishloqlardan xom ashyo keltirar, ayni paytda qishloq aholisi o'zining ehtiyojini shahar hisobidan ham qondirar edi.

Andijon

Andijon «Buyuk Ipak yo'li» davrida tashkil topgan. Arablar

istilo qilgan davrda shahar Andugon deb atalar edi. Andijon XVI asrdan boshlab Farg'ona vodiysi markazi bo'ldi.

Zahiriddin Muhammad Bobur davrida Andijonda xo'jalik, fan va madaniyat ravnaq topgan. U «Boburnoma»da Andijon haqida bunday deb yozgan edi: «Oshlig'i vofir, mevasi farovon, qovun va uzumi yaxshi bo'lur. Movarounnahrda Samarqand va Kesh qo'rg'o-

nidan so'ngra mundin ulug'roq qo'rg'on yo'qtur. Uch darvozasi bor. To'qqiz tarnov suv kirar».

Qo'qon xonligi tashkil topgach, Andijon o'zining avvalgi mavqeini yo'qotgan. Endi u Andijon bekligining markazi bo'lib qolgan.

Namangan

Namangan shahri ham xonlikning yirik shaharlaridan

biri edi. 1620-yilda Farg'onaning qadimgi poytaxti Axsikant qattiq zilzila oqibatida vayron bo'lganligi uchun aholi Namangan atrofiga ko'chgan. Namangan tuz koni («namak kon») yaqinida qurilgan edi. Uning nomi manbalarda XVII asrdan boshlab uchraydi. XVIII asrda Qo'qon xonligi hududiga kirgan. Beklik markazi bo'lgan. Namangan aholisi hunarmandchilik bilan shug'ullangan.

1819—1822-yillarda Namangan aholisi kuchi bilan katta Yangi ariq kanali qazilib, shaharning suv ta'minoti yaxshilangan. 1842—1845-yillarda shahar baland devor bilan o'ralgan.

Savol va topshiriqlar

1. Qo'qon xonligida hukmron tabaqa kimlar edi?
2. Qo'qon xonligi qay jihatli bilan Buxoro amirligi va Xiva xonligidan farq qiladi?
3. Aholidan qanday soliqlar olingan?
4. Xonlik xo'jaligining asosiy tarmoqlarini ayting.
5. Qo'qon hunarmandchiligi haqida gapiring.

Bularni takrorlab boring:

— Qo'qon xonligida ham Buxoro va Xiva davlatlarida mavjud bo'lgan davlat lavozimlari joriy etilgan. Chunki, bu uch davlat aslida bir davlatning parchalanishi oqibatida vujudga kelgan;

— Ayni paytda, Qo'qon xonligida mingboshi lavozimi ham joriy etilgan;

— Mingboshi ham bosh vazir, ham mamlakat qurolli kuchlari bosh qo'mondoni hisoblangan;

— Qo'qon xonligida o'zaro ichki nizo va urushlar oqibatida markaziy hokimiyat zaiflashgan;

— Xonlikda ruhoniylar alohida mavqeiga ega bo'lganlar. Ular o'z manfaatlariga mos kelmay qolgan hukmdorni «xudo-

dan qaytgan», «dindan chiqqan shakkok» deb e'lon ham qila olganlar;

— Xonlikdagi asosiy soliq xiroj deb atalgan.

33-§. TOSHKENT BEKLI GI

Toshkent bekligining tashkil topishi

XVIII asrning ikkinchi yarmida Toshkent to'rt qism (daha)ga — Shayxontohur,

Beshyog'och, Ko'kcha va Sebzor dahalariga bo'lingan. Bu davr Toshkent tarixida to'rt hokimlik deb nom olgan. Shahar hokimlarining o'zaro urushlaridan tinkasi qurigan va bu kurashda Shayxontohur dahasi hokimi Yunusxojaning qo'li baland kelayotganini ko'rgan xalq 1784-yilda boshqa hokimlarni mansabidan chetlatib, butun shaharga Yunusxojan hokim qilib ko'tardilar. G'oliblar kengashida Devonbegi mahallasidan Salimsoq to'ra harbiy qo'mondon, Rustam to'ra otaliq, Odil to'ra parvonachi, Boboxon to'ra esa qo'shin boshlig'i etib saylandilar. Salimsoq to'raning taklifi bilan Yunusxoja hokim etib tayinlandi. Shunday qilib, to'rt hokim o'rta-sida uzoq davom etgan kurash Yunusxojaning g'alabasi bilan tugadi. Shu tariqa, Toshkent bekligi tashkil topdi. To'rt hokimlik tugatilib, yagona siyosiy hokimiyatning vujudga kelishi Toshkent bekligi taraqqiyotiga katta yo'l ochdi.

XVIII asrning 80-yillarida Qo'qon xoni Norbo'tabiy Xo'jand, O'ratepa va Jizzaxni o'ziga bo'ysundirish uchun kurash olib bordi. Bunday sharoitda Toshkent va Xo'jand aholisining Qo'qon biylariga qarshi birlashib kurash olib borishi tabiiy edi. Bu yo'lda Toshkent xojalarining o'rni muhim edi. Toshkent amaldorlarining Chirchiq va Talas daryolari bo'ylarida dehqonchilik qiladigan yerlari bo'lib, u yerlarda qoraqozoqlar ishlaganlar. Bu davrda mustaqillikni endigina qo'lga kiritgan Toshkent hukmdori oldida o'z mudofaa qudratini oshirish vazifasi turardi.

Yunusxoja hukumati Toshkentni Rossiya shaharlari bilan bog'laydigan shimoli-g'arb tarafdagi shahar, qishloq

va Katta qozoq juzi elatlarini bo'ysundirish uchun kurash olib boradi. Bu yerlarning qo'lga kiritilishi Toshkent savdo karvonlarining Rossiyaga erkin o'tib borishini yengillashtiradi. Yunusxoja dastlab qozoq sultonlarining hujumlarini bartaraf qilish uchun kurashdi. Keyinchalik u bu hujumlarni qaytaribgina qolmay, Katta qozoq urug'larini ham bo'ysundirish qudratiga ega bo'ldi. Bir necha yurishlardan keyin 1796-yili Chimkent, Sayram, Oltintepa, Qorabuloq, Sarapan va boshqa o'nlab shahar va qishloqlarni, Katta qozoq juziga qarashli usun, sanchqili, sara sarkali qabilalariga qarashli yerlarni Toshkentga qo'shib oldi.

Toshkent bekligining kuchayishi

1799-yilga kelib Turkiston va uning atroflaridan Chu daryosigacha bo'lgan yerlar, jum-

ladan, Qorako'l mavzei Toshkent bekligiga qo'shib olindi. Yunusxoja o'ziga tobe bo'lgan Katta qozoq juzi yerlaridagi qabilalarni boshqarish ishini o'sha urug' boshliqlariga topshirdi. Bu bilan u qozoq biylaridan o'ziga tayanch yaratdi va ular Yunusxoja hukumati yuritgan siyosatda katta yordam berdilar. Yunusxoja ayniqsa qozoq qabilalari orasida katta obro'ga ega bo'lgan. Ayniqsa, Qorakesak bo'lusi sultoni Bukey sulton bilan yaqin aloqada bo'lgan. Bukey sulton va uning o'g'illari Toshkent va rus karvonlarini qaroqchilardan himoya qilib, ularni belgilangan joyga yetgancha kuzatib qo'yanlar.

Masalan, 1795-yilning sentabr oyida Yunusxojaning topshirig'iga binoan Ust-Kamenogorskka kelgan Usun bo'lusining sultoni Tog'aybek Sibir ma'muriyatidan bu yerga keladigan Toshkent karvonlarini himoya qilishni iltimos qiladi. Rus ma'muriyati bunga rozi bo'lgan taqdirda 1796-yilning ko'klamida Yunusxojaning Katta juz qozoqlari himoyasida savdo karvonini Rossiyaga jo'natish niyatida ekanligini bildiradi. Sibir ma'muriyati Toshkent karvonlarini himoya qilishga rozilik bildirib, bu haqda Tog'aybek orqali Yunusxojaga maktub yo'llaydi.

Katta juz qabilalari Yunusxoja qo'shinida asosiy kuchni tashkil etib, uning Qo'qon xoniga qarshi urush-

larida jonbozlik ko'rsatganlar. Toshkent bekligi Qo'qon va Buxoro davlatlarini Qozog'iston, Orenburg va Sibir bilan bog'laydigan karvon yo'llari o'tadigan Turkiston, Chimkent va Sayramni o'z qo'lida tutib, O'rta Osiyo bilan Rossiyaning savdo munosabatlarida yetakchilikni qo'lga olishga intiladi. Bu hol Qo'qon bilan Buxoroning Toshkent bekligiga munosabatining keskinlashuviga olib keldi. Toshkent bekligining Katta qozoq juzi ustidan o'z ta'sirini kuchaytirishi Qo'qon davlatining iqtisodiy va siyosiy mavqeini chegaralab qo'ygan edi. Farg'ona vodiysini Qozog'iston va Rossiya bilan bog'lovchi asosiy savdo yo'li Toshkent orqali o'tardi. Shuning uchun ham Toshkent bekligini bo'ysundirish zaruriyati Norbo'tabiy (1763—1798), undan keyin Olimxon (1798—1810)ni bu yo'lda keskin choralar ko'rishga undadi. 1799-yili Qo'qon qo'shinlari Toshkentga yurish boshlaydilar. Yunusxoja ularga qarshi o'z qo'shini bilan chiqib, Chirchiq bo'yidagi Qorasuv mavzeida ularga zarba beradi. Bu g'alaba natijasida Sirdaryoning o'ng sohilidagi Qurama mavzei Toshkent bekligiga qo'shib olinadi.



Shokila.

Toshkent yirik shaharga aylantirilgan, uni o'rab turgan devorning uzunligi 18 chaqirimga yaqin bo'lgan. Unda 10 ming xonadon istiqomat qilgan. Shahar aholisi Rossiya, Koshg'ar va Xitoy bilan ham savdo qilgan. Yunusxoja davrida ikki xil pul: rupiya va tanga zarb qilingan. Besh tanga bir rupiyaga teng bo'lgan. Shahar nazorati va soliq yig'ish Boshchixojaning qo'lida edi. Hokimning to'rt maslahatchisi bo'lgan. Shahar savdosi ustidan qozi va devonbegi nazorat qilishgan. Rais shariat qonun-qoidalari va bozordagi narx-navo, o'lchovlar ustidan nazorat qilgan. Amaldor va qoraqozoqlar soliq to'lashdan ozod etilganlar.

Toshkent yirik shaharga aylantirilgan, uni o'rab turgan devorning uzunligi 18 chaqirimga yaqin bo'lgan. Unda 10 ming xonadon istiqomat qilgan. Shahar aholisi Rossiya, Koshg'ar va Xitoy bilan ham savdo qilgan. Yunusxoja davrida ikki xil pul: rupiya va tanga zarb qilingan. Besh tanga bir rupiyaga teng bo'lgan. Shahar nazorati va soliq yig'ish Boshchixojaning qo'lida edi. Hokimning to'rt maslahatchisi bo'lgan. Shahar savdosi ustidan qozi va devonbegi nazorat qilishgan. Rais shariat qonun-qoidalari va bozordagi narx-navo, o'lchovlar ustidan nazorat qilgan. Amaldor va qoraqozoqlar soliq to'lashdan ozod etilganlar.

**Toshkent bilan Rossiya
o'rtasidagi savdo va
elchilik munosabatlari**

XVIII asr oxiri — XIX asr
boshlarida Toshkent bilan
Rossiya o'rtasidagi savdo

munosabatlari rivojlandi. Masalan, 1786-yili toshkentlik savdogarlar B. Ismoilov va Azizxojalar Irbat yarmarkasiga borishgan. 1787-yili Troitskdan Toshkentga 27773 so'mlik rus va chet el mollari keltirilgan. Ular rus va nemis movuti, qizil charm, gazmol, mis, baxmal va boshqa mollardan iborat bo'lgan.

1793-yildan boshlab Toshkent savdogarlari Sibir orqali 11238 so'mlik molni qozoq cho'llariga jo'natganlar.

1795-yilning sentyabr oyida 24 kishidan iborat Toshkent savdo karvoni Semipalatinsk shahriga kelgani hujjatlarda qayd etilgan. XVII asrning 90-yillarida Rahmatulla karvonboshi rahbarligidagi bir guruh Toshkent savdogarlari o'z karvonlari bilan doimo Petropavlovskka qatnab turganlar. O'z navbatida Rossiya ham Toshkent bilan va u orqali Qo'qon xonligi bilan savdo qilishdan manfaatdor edi. «Irtish hadlaridan Toshkentga boradigan savdo yo'li, — deb yozadi 1797-yil 27 sentabrda Sibir qo'shinlari qo'mondoni general leytenant G.G. Shtrandman imperator Pavel I yozgan axborotida, — Orenburg hadlaridagi yo'lga nisbatan ancha yaqindir. Toshkent bilan savdoning rivojlantirilishi kelgusida u bilan qo'shni bo'lgan Qo'qon, Xo'jand va Buxoro bilangina emas, balki boshqa o'lkalar, hatto Tibet bilan ham savdoning kengayishiga olib kelishi shubhasiz. Bundan tashqari, Toshkent orqali Xitoy mollarini ham olish mumkin».

XVIII asrning ikkinchi yarmidan boshlab yigirilgan ip, paxta va ipakning narxi oshib borgan. 1760-yil Orenburgda paxta ipining bir pudi 20—25 so'm, 1811-yili 120 so'm va undan ham qimmat bo'lgan, bir pud paxta 5—8 so'mdan 70 so'mga, bir pud ipakning narxi 30—60 so'mdan 600—700 so'mgacha ko'tarilgan. Toshkentning qulay geografik holati Toshkent-Rossiya elchilik munosabatlarining ham rivojlanishiga ijobiy ta'sir ko'rsatmay

qolmagan. Xususan, 1792-yili Muhammadxoja va Azizxoja boshliq Toshkent savdo karvoni Sibirga jo'naganida Yunusxoja ular orqali Sibir ma'muriyati nomiga maktub jo'natgan. Yunusxoja bu savdogarlarga Sibir ma'muriyati bilan har ikki tomonni qiziqtiradigan masalalar yuzasidan muzokara olib borish vakolatini ham bergan edi. Yunusxoja o'z maktubida bir qancha masalalar qatorida Toshkentdan 15 chaqirim masofada joylashgan Novdak mavzeida oltin va kumush borligini, qumdan oltin va kumush ajratib olishni biladigan kishi bo'lsa Toshkentga jo'natilishini ham ma'lum qilgan edi. Yunusxojaning elchilariga javoban Sibir ma'muriyati 1794-yilda o'z elchilari A.T.Beznosikov va T.S.Burnashevlarni Toshkentga jo'natadi. Biroq, ular Toshkentga kela olmay Buxorodan qaytishga majbur bo'ldilar. Sibir ma'muriyatining 1796-yilda ikkinchi bor yuborgan elchilari nihoyat Toshkentga yetib keladilar. Ularni O'rta qozoq juzi Qorakesak bo'lusi sultoni Bukeyning o'g'li Eshim sulton kuzatib keladi. Bu faktlar Toshkent bekligi ijtimoiy-siyosiy nufuzining o'sib borganligini anglatar edi.

1799-yilda Toshkent qo'shinlarining Qo'qon xoni qo'shini ustidan g'alaba qozonishi hamda Qurama tumanining Toshkentga qo'shib olinishi uning siyosiy mavqeini yanada mustahkamlagan.

Toshkent bекligining keyingi taqdiri

Toshkent bekligi uzoq yashamagan. Bunga Toshkent-Qo'qon munosabatlari sabab

bo'lgan. Bu ikki davlat o'rtasida muntazam davom etgan qarama-qarshilik, kurash muhiti hukm surgan. Boshqacha bo'lishi mumkin ham emasdi. Chunki, Toshkent bekligi hududi asosan Qo'qon xonligi hududi hisobiga kengaygan edi. Bundan tashqari, Yunusxoja Qo'qon xonligida markaziy hokimiyatga bo'ysunishni istamagan bekliklar, viloyatlar bilan ittifoq tuzishga harakat ham qilgan. Qolaversa, u isyonchi hokimlarning markaziy hukumatga qarshi kurashidan ham foydalalanishga uringan. Ayni paytda, Qo'qon xonligi mustaqil

Toshkent bekligini butunlay tugatish yo'lini tutgan. Ikki davlat qo'shinlari o'rtasidagi asosiy jang 1800-yilning kuzida Sirdaryo bo'yidagi G'urumsaroy (hozir Naman-gan viloyatiga qaraydi) yaqinida bo'lgan. Bu jangda Toshkent qo'shini yengilgan.

Muvaffaqiyatsizlikka uchrab Toshkentga qaytib kel-gan Yunusxoja biroz vaqt o'tgach, kasallanib vafot etadi. Taxtga uning o'g'li Sultonxoja o'tiradi. Yunusxojaning vafot etganini eshitgan Qo'qon xoni Olimxon Toshkentga o'z qo'shinini yuboradi. 1807-yilda Toshkent Qo'qon xonligiga qo'shib olinadi.

Savol va topshiriqlar

1. To'rt hokimlikning tuzilishi haqida so'zlang.
2. Toshkent bekligini birlashtirish qanday amalga oshirildi?
3. Toshkent-Rossiya munosabatlari haqida so'zlab bering.
4. Toshkent-Qo'qon munosabatlari haqida nimalarni bilib oldin-giz?

Bularni takrorlab boring:

- Toshkent XVIII asrning ikkinchi yarmida 4 dahaga bo'lin-gan;
- Bu davr Toshkent tarixida 4 hokimlik deb ataladi;
- Toshkentning 4 hokimligini Yunusxoja birlashtirdi va shu tariqa Toshkent bekligiga asos soldi;
- Toshkent bekligining hududi Qo'qon xonligi yoki u mo'ljal-lagan hududlar hisobiga kengayib borgan;
- 1807-yilda Toshkentning mustaqilligi tugatilgan. U Qo'qon xonligiga qo'shib olingan.

34—35-§§. O'RTA OSIYO DAVLATLARI **(mustaqil ishlash darsi)**

O'quv qo'llanma matnidan foydalangan holda quyidagi jadvallarni to'lg'azing.

I-j a d v a l.

Buxoro davlati.

Buxoro xonligi qachon tashkil topgan?	Shayboniylar hukmronlik qilgan yillar	Ashtarxoniylar hukmronlik qilgan yillar	Mang'itlar hukmronlik qilgan yillar	Amirlikning yer maydoni	Aholisining soni	Aholining milliy tarkibi
1	2	3	4	5	6	7

Amirlikni tashkil etgan 40 viloyat	Amirlikdagi asosiy davlat mansablari	Yer egaligi shakllari	Aholiga solingan asosiy soliqlar	Aholi o'tashi kerak bo'lgan asosiy majburiyatlar	Amirlikda ichki savdo rivojlanmaganligining sababi	Tashqi savdo rivojlanmaganligining sababi
8	9	10	11	12	13	14

Shaybo- niylar hukm- dor- lari	Ashtar- xoniylar hukm- dorlari	Mang'it- lar hukm- dorlari	Amirlik- ning ikti- sodi tara- qiyotda qoloq davlat bo'lib qol- ganligining sababi	Buxoro davlati tarixida yuz bergan eng muhim tarixiy voqealar		
15	16	17	18	19		

2-j a d v a l.

Xiva xonligi

Xiva xonligi tashkil topgan yil	Xonlik- ning asoschisi	Abulg'oz xon hukmron- lik qilgan yillar va u bitgan ta- rixiy asar	Qo'ng'i- rotlar sulolasi- ning hokimiyat tepasiga kelishi	Xonlik aholisi- ning umumiy soni	Aholining milliy tarkibi
1	2	3	4	5	6

Xonlik ma'muriy jihatdan bo'lingan 15 viloyat	Xonlik- dagi yer egaligi shakllari	Aholiga solingan asosiy soliqlar	Aholi o'tashi shart bo'lgan majburi- yatlar	Buxoro— Xiva muno- sabatlari	Xiva va Eron munosa- batlari
7	8	9	10	11	12

Ichki savdo- ning ahvoli	Tashqi savdo- ning ahvoli	Xonlik ijtimoiy hayotida hukm surgan sokin- likning sabablari	Oydo'si- biy boshchi- ligidagi qo'zg'o- lon va uning oqibati	Xiva xonligi tarixida yuz bergan eng muhim tarixiy voqealar	
13	14	15	16	17	

Qo'qon xonligi

Xonlik tashkil topgan sana	Xonlikning asoschisi	Minglar sulolasi	Aholisining umumiy soni	Aholiga solingan solliqlar
1	2	3	4	5

Aholi o'tashi majbur bo'lgan majburiyatlar	Yer egaligi shakllari	Buxoro— Qo'qon munosabat- lari	Qanday sababga ko'ra qip- choqlar xon- lik siyosiy hayotida katta mavqe- ga ega bo'lib qolgan edi- lar?	Xudoyorxon qay tariqa Musulmon- qul hokimi- yatiga chek qo'ygan edi?
6	7	8	9	10

Qo'qon xonligida yuz bergan eng muhim voqealar

11

OLTINCHI BOB YUZASIDAN TEST TOPSHIRIQLARI

1. Qo'qon xonligi qay tariqa tashkil topgan?

- A. Mo'g'uliston xoni Shohruxbiyning Farg'ona viloyatini bosib olishi natijasida
- B. Buxoro xonligining parchalanishi natijasida
- D. Buxoro va Xiva xonligi o'rtasida yuz bergan urushdan foydalangan Farg'ona bekligining o'zini mustaqil deb e'lon qilishi natijasida
- E. Buxoro xonligini o'ziga tobe etgan Nodirshohning Farg'ona viloyatini Buxoro xonligidan ajratib olishi natijasida
- F. To'g'ri javob yo'q

2. Qo'qon xonligi qachon tashkil topdi, uning birinchi hukmdori kim?

- A. 1702-yilda, Erdonabek
- B. 1706-yilda, Abdulkarimxon
- D. 170-yilda, Shohruxbiy
- E. 1712-yilda, Bobobek
- F. 1715-yilda, Olimxon

3. XIX asr boshlarida Toshkent shahri qaysi davlat tasarrufida bo'lgan?

- A. Buxoro amirligi
- B. Qo'qon xonligi
- D. O'rta juz
- E. Katta juz
- F. To'g'ri javob yo'q

4. **Sboira Nodirahegimni kim qatl ettirdi?**
A. Ibrohim dodxoh
B. Amir Haydar
D. Olimxon
E. Amir Nasrullo
F. Muhammad Alixon
5. **XVIII asr ikkinchi yarmida Toshkent necha daha-hokimlik-ka bo'lingan?**
A. To'rtta
B. Oltita
D. O'nta
E. Ikkita
F. Hammasi noto'g'ri
6. **Toshkent hokimliklarini kim birlashtirgan?**
A. Yunusxoja
B. Salimsoq to'ra
D. Rustam to'ra
E. Odil to'ra
F. To'g'ri javob yo'q
7. **Qanday sababga ko'ra qipchoqlar Qo'qon xonligi siyosiy hayotida katta mavqega ega bo'lib olganlar?**
A. Qo'qon xonligining tashkil etilishida minglar qabilasiga ittifoqchi bo'lganligi uchun
B. Xonlikda son va harbiy qudrat jihatdan ikkinchi o'rinda turganligi uchun
D. Buxoro amiri hokimiyatiga qarshi kurashda minglar sulolasi qipchoqlar madadiga tayanganligi uchun
E. Buxoro amiri hukmronligiga qarshi kurashda Qo'qon aholisining qo'zg'olonini tashkil eta olganligi uchun
F. Minglar sulolasiga qarshi kurashda yirik g'alabalarga erishib xonlik hududining yarmida o'z hukmronliklarini o'rnatganligi uchun
8. **Qo'qon xonligida hokimiyatni o'z qo'lida to'plagan Musulmonqul hukmronligi qay tariqa barham topdi?**
A. Musulmonqulning vafoti tufayli
B. Xudoyorxonning qipchoqlar qirg'inini uyushtirishi tufayli
D. Musulmonqul va Xudoyorxon o'rtasidagi o'zaro urushda Musulmonqul qo'shinlari yengilganligi uchun
E. Musulmonqulga nisbatan uyushtirilgan suiqasd tufayli
F. Minglardan chiqqan beklarning Musulmonqulning hokimiyatdan ketishini talab etganliklari tufayli

9. Qo'qon xonligini ich-ichidan yemirgan asosiy omil:

- A. Buxoro-Qo'qon urushlari
- B. Separatchilik harakati
- D. Minglar va qipchoqlar o'rtasidagi qirg'inbarot urush
- E. O'zaro ichki urushlar
- F. Xalq ommasi qo'zg'olonlari

Yettinchi bob

O'RTA OSIYO DAVLATLARIDA MADANIY HAYOT

36—37-§§. BUXORO VA XIVA MADANIYATI

O'rta Osiyo xalqlari madaniy hayotining umumiy manzarasi

Ma'lumki, XIV—XV asrlarda O'rta Osiyo xalqlari madaniyati dunyoda eng oldingi o'rinlarning birini egallagan

edi. Madaniy hayotda bunday taraqqiyot darajasiga eng avvalo markazlashgan qudratli Temuriylar davlati barpo etilganligi tufayli erishilgandi.

XVI asrdan boshlab esa O'rta Osiyo xalqlari madaniy hayotida avvalgi erishilgan yutuqlarni saqlab qolish imkoni bo'lmadi. Aksincha, madaniy hayotning orqaga ketishi kuzatildi, uzoq davom etgan turg'unlik davri boshlandi. Bunga, birinchi navbatda, kechagi markazlashgan davlatning parchalanib ketishi, O'rta Osiyoda hukmron bo'lish niyatida uchala xonlik o'rtasida mutasil davom etgan ijtimoiy-iqtisodiy hayotni larzaga soluvchi qirg'inbarot urushlar, o'zaro ichki nizolar sabab bo'lgan edi.

Ikkinchi sabab — ijtimoiy-madaniy hayotda diniy mutaassiblik, johillikning kuchli mavqega ega bo'lib qolganligi edi. Shu sabab shayboniylar temuriylar yaratgan boy madaniyatga munosib voris bo'laolmadilar.

Yevropada katolik cherkovining mutaassibligiga qarshi kurash yetilib kelayotgan sanoatchilar va ularni qo'llab-quvvatlagan shahar va qishloq kambag'allarining birgalikdagi kurashi oqibatida g'alabaga erishgan bo'lsa, O'rta Osiyoda demokratik fikr diniy mutaassiblik va uning tayanchi bo'lgan davlatning birlashgan qudratini yeng'a olmadi. Chunki, bu fikr tayanishi mumkin bo'lgan, uni qo'llab-quvvatlaydigan ijtimoiy kuch bu yerda hali shakllanmagan edi.

Shunday bo'lsa-da, O'rta Osiyo xonliklari tarixida XVI—XIX asrlar faqatgina o'zaro urushlar, ichki urushlar, nizolar va toju taxt talashuvlari tarixidagina iborat bo'lmay, bu davrlarda ham xonliklarda madaniy hayot to'xtab qolmadi. Hatto, toju taxt uchun, markaziy hokimiyatni kuchaytirish uchun qo'shnilarining hududlarini bosib olish uchun ayovsiz kurashgan hukmdorlar orasida ham ijod bilan shug'ullangan, ilm-fan va adabiyot ahliga homiylik qilgan, o'z davlatlari tarixini yaratgan hukmdorlar ham bo'lgan. Masalan, Buxoro hukmdorlari Shayboniyxon, Ubaydullaxon, Abdullaxon II, Subhonqulixonlar; Xiva xoni Abulg'ozixon; Qo'qon xoni Umarxon shular jumlasidandir.

Uchala xonlik xalqlarini ma'naviy hayotda birlashtirib turgan kuch o'zbek tili bo'ldi. Ayni paytda davlat idora



Buxoro. O'g'lon darvozasi.



Xiva. Ollohqulixon madrasasi.

ishlarida fors tili ham qo'llanilgan. Ijtimoiy hayotda o'zbek va fors tillari qo'llanilgan. An'anaga ko'ra esa fanda va maktabda arab tili muhim o'rin tutgan.

Madrasalar uch (boshlang'ich, o'rta va yuqori) bosqichli bo'lib, ularda arab, fors va o'zbek tili mukammal o'rgatilgan. Shuningdek, fiqh, hisob, handasa, astronomiya, axloq, falsafa, mantiq, adabiyot, geografiya, tarix, tabobat o'qitilgan.

Buxoroda ma'morchilik Mamlakatdagi siyosiy parokandalik va o'zaro urushlar, jung'orlar xuruji, Nodirshoh bosqini madaniy hayotga ham salbiy ta'sir ko'rsatdi. Shuning uchun ham bu davr madaniyati shukuhi ancha past darajada bo'ldi. Chorminor nomi bilan mashhur xalifa Niyozquli madrasasi binosi (1807-yili qurib tamomlangan), Xalifa

Xudoydod imoratlari silsilasi, ya'ni madrasa, masjid, maqbara va sardobasi (1777—1855-yillar oralig'ida qurilgan) me'moriy uslubining soddaligi va kamxarj qurilgani bilan ajralib turadi.

1796-yili bunyod etilgan Ernazar elchi madrasasi, solnomalarda aytilishicha, Yekaterina II ning mablag'iga qurilgan. Buning tarixi quyidagicha: 1754-yilda Rossiya podshosi Yelizaveta (1741—1761) o'z saroyida sharqiy o'lkalardan kelgan bir guruh savdogarlarni qabul qilgan. Savdogarlar o'zlari keltirgan eng sara mollarni namoyish etayotganlarida Yelizaveta Ernazarning mollari ichidan bir necha qimmatbaho toshlarni tanlaydi va xazinachiga ularning haqini to'lashni buyuradi. Shunda Ernazar, musulmon savdogarlari odati



Buxoro. Govkushon madrasasi minorasi.

bo'yicha, mollarning eng sarasi avvalo yurt hukmdoriga tuhfa etilajagini bayon qiladi. Saroy mulozimlari unga tahsin o'qiydilar. Ernazar o'n yildan beri Rossiyada savdo-sotiq bilan shug'ullanib, insofli, diyonatli savdogar sifatida tanilgan edi. U malikadan rus savdogarlaridan po'lat va qo'rg'oshin sotib olishi uchun izn so'raydi. Unga ruxsat yorlig'i beriladi.

1774-yili Ernazar Mas'ud o'g'li Buxoro amirligining rasmiy elchisi sifatida 40 tonnadan ziyod mol bilan Hojitarxon (Astraxan)ga keladi. Shahar bojxonasi undan ikki ming so'm boj talab qiladi. Ernazar Rossiya malikasiga atalgan sovg'a va buyurtma mollar bilan o'zining yaqin odamlarini Peterburgga jo'natadi. Peterburgdan malikaning undan boj olmasliklari haqidagi yorlig'i yetib keladi. 1775-yilning 27-martida Rossiya hukumati boshlig'i kansler N.Panin Ernazarni qabul qiladi; 5 aprelda esa Ernazar Yekaterina II (1762—1796) ning qabulida bo'ladi.

Ernazar Mas'ud o'g'liga Rossiya hukumati Kaspiy dengizidan bir kemani tuhfa qiladi, unga imperiya hududida besh yil mobaynida erkin savdo qilish va 10 ming so'mgacha miqdordagi mollaridan boj olmaslik yorlig'ini berdi. Shuningdek, unga 15 ming pud temir, besh ming pud po'lat, uch ming pud mis sotib olib, Buxoroga jo'natishga ijozat beriladi.

1780-yilning aprelida Ernazar Rossiyaga yana elchi bo'lib boradi. Elchi va uning hamrohlarini Yekaterina II qabul qiladi va elchining aql-zakovati va saxovatiga qoyil qolib, unga minnatdorlik yuzasidan o'z mablag'iga Buxoroda madrasa qurdiradi.

Bu davrda Xo'jand, O'ratepa, Hisor, Panjakent shaharlarida ham binoyi xayrlar qurildi.

Mazkur binolar ko'pincha naqshlar bilan kamroq bezatilgan. Yog'och o'ymakorligi bilan qurildi. Ganchkorlik va naqqoshlikning o'ziga xos buxorocha uslublari ham rivojlandi.

Zargarlik va misgarlikda nafis amaliy san'at namunalari yaratildi. Kandakorlik va hakkoklikda, shuningdek, kulolchilikda ham noyob asarlar yaratildi.

Tarix ilmi

XVIII—XIX asrning birinchi yarmida Buxoro amirligi hududida tarix fani sohasida qator asarlar yaratildi. Bu davr tarixchi olimlaridan biri **Abdurahmon Tole'** bo'lib, u tarix ilmiga katta hissa qo'shgan. Uning «Tarixi Abulfayzxon» asari nafaqat Abulfayzxon davri (1711—1747) bo'yicha, ayni bir paytda XVIII asrning birinchi yarmidagi O'rta Osiyoning siyosiy ahvoliga oid qimmatli manba hisoblanadi. Asar Ashtarxoniylar davla-



Buxoro. Chorminor.

ting o'zaro urushlar girdobiga tortilganligi hamda Eron shohi Nodirshohning bosqinchilik yurishi natijasida inqirozga yuz tutgan davr haqida qimmatli ma'lumotlar beradi.

Buxoroning yana bir tarixchi olimi **Ya'qub ibn amir Doniyol Buxoriy** (1771—1831) edi. U mang'itlar sulolasi ikkinchi hukmdori Doniyolbiy otaliqning (1758—1786) o'g'li edi. U «Gulshan ul-muluk» (Podsholar gulshani) degan asar yozib qoldirgan. Bu asar ikki qismdan iborat bo'lib, birinchi qismida Buxoroning qadimgi tarixi, uning hukmdorlari shajarasi bayon etilgan. Asarning ikkinchi qismida esa O'rta Osiyoning XVIII va XIX asr boshlaridagi tarixi bayon etilgan. Tarixchi olimlar — Mirzo Haydarning «Tarixi Rashidiy», Mas'ud ibn Usmon Ko'hisoniyning «Tarixi Abulxayrxoni», Binoyning «Shayboniynoma», Fazlulloh ibn Ro'zbehonning «Mehmonnomayi Buxoro» asarlari hali-hamon o'z qimmatini yo'qotgan emas.

XIX asr boshlarida yozilgan Mir Olim Buxoriyning «Fathnomayi sultoni» asari ham tariximiz uchun muhim manba hisoblanadi.

Adabiyot va san'at

Bu davr adabiyotining atoqli vakillaridan biri **Sayido Nasafiy** (1637—1710) edi. U Qarshi shahrida tug'ilgan. To'quvchi, hunarmand oilasiga mansub bo'lgan. Og'ir sharoitda yashagan. U o'z asarlarida o'zaro urushlarni qattiq qoralagan, mamlakatni vayron etganlarni ayovsiz tanqid qilgan. U «Hayvonotnoma» degan asar yozib qoldirgan. Bu asarida Nasafiy hayvonlar timsoli orqali sitamkor yer egalari, amaldorlarning mehnatkash xalqqa o'tkazgan jabr-zulmlarini, ularning adolatsizligini, poraxo'rliqiyu ma'naviy jihatdan pastkashliklarini fosh etadi. Shoir o'z asarida bo'ri va sher misolida yer egalarning yirtqichligini namoyish etadi. Sher barcha hayvonlar ustidan g'alaba qozonsa-da, mehnatkash omma timsoli bo'lgan chumolidan yengiladi. Bu shoirning mehnatkash oila ham bir kun emas, bir kun jabr-zulmdan qutulishi yo'lidagi orzusi edi.

O'zbek adabiyotining bu davrdagi yirik namoyondalaridan yana biri **Turdi Farog'iy** edi. U xalq manfaati ifodachisi edi. Turdi Subhonqulixon saroyida birmuncha vaqt otaliq lavozimida xizmat qilgan. U Subhonqulixon hukmronligi davrida xalqqa o'tkazilgan jabr-zulmlarni, adolatsizliklarni o'z ko'zi bilan ko'rgan. Shoir beklar va amirlarning ochko'zligini, amaldorlarning sotqinligini g'azab bilan qoralagan. Ularni vijdotsizlikda, xoinlikda, mug'ombirlikda, poraxo'rlikda, talonchilik hamda oddiy xalqni oyoqosti qilishda ayblaydi. Turdi ularga qarata bunday deb yozgan edi:

*Edingiz barchangiz itdek fuqaroning etini,
G'asb ila molin olib, qo'ymadingiz bitini.*

Ma'lumki, Subhonqulixon davrida barot solig'ining yetti yilligini birdan yig'ilishiga qarshi qo'zg'olon ko'tarilgan. Turdi ham bu qo'zg'olonda ishtirok etgan. Lekin, qo'zg'olonchilar mag'lubiyatga uchragan.

Turdidan 432 misradan iborat she'r qolgan. Turdi o'z she'rlarida xonni insofga, diyonatga chaqiradi, xalqni talagan, mamlakatni xonavayron etgan zolim xonni taxtdan ag'darib tashlashga da'vat etadi. Qirg'inbarot urushlarni la'natlaydi, o'zbek qabila va urug'larini birlashishga, ittifoq bo'lib yashashga chaqiradi. Bu o'rinda Turdining «Tor ko'ngullik beklar» deb nomlangan she'ri tahsinga sazovordir. Bu she'rida u jumladan bunday deb yozgan edi:

*Tor ko'ngullik beklar, man-man demang, kenglik qiling,
To'qson ikki bo'li o'zbek yurtidir, tenglik qiling.*

*Birmi qipchoqu, xitoy, birni yuz, nayman demang,
Qirqu yuz, ming son bo'lib, bir jon oyinlik qiling.*

*Bir yaqodan bosh chiqorib, barcha bir to'ng'a kirib,
Bir o'ngurluk, bir tirizlik, bir yaqo, yenglik qiling.*

Bu misralar Turdining o'z zamoniga nisbatan ancha ilgari ketganligini ko'rsatadi.

O'z davrining «malikushshuarosi», faylasufi, mutafakkiri, ulug' shoiri **Mirzo Bedil** (1644—1721) edi.



Mirzo Abdulqodir Bedil.



Shoira Zebunniso.

Noyob qobiliyat sohibi bo'lgan Bedil arab, hind, fors va urdu tillarini, yunonlar falsafasini o'rgangan edi. Bedil 10 yoshidan boshlab badiiy ijod bilan shug'ullangan. Undan juda katta ilmiy va badiiy meros qolgan. 1882-yilda undan qolgan meros chop etilgan va ular 16 kitobni tashkil etadi. Bedildan «Tilsemi hayrat», «Muhiti a'zam», «Chor unsur», «Irfon», «Nukot» kabi asarlar qolgan.

Bedil inson kamoloti uchun kurashgan. Uning fikricha, inson qaysi irq, qaysi din va qaysi xalqqa mansubligidan qat'i nazar, insondir, binobarin, bunday farqtafovutlarga qaramay odamlar insoniy burch va xislatlari bilan birlashmoqlari lozim. Mehnat, kasb-kor insoniy burch va xislatning asoslaridan biridir, deydi u.

Bedil o'z asarlarida inson erkini ulug'lagan, uni hamma narsadan yuqori qo'ygan. Aqidaparastlik, mutaassiblik va zulmatga qarshi kurashgan.

Bedil 1721-yili Dehlida vafot etgan.

Bu davr adabiyotida shoir **Vola** ham samarali qalam tebratdi. Volaning ko'zi tug'ma ojiz bo'lsa-da, tabiat unga kuchli iroda, aql, xotira, qobiliyat hamda yoqimli ovoz in'om etgan edi. Shoir o'z she'rlarida xalq boshiga tushgan kulfat va mashaqqatlarni kuylagan. Ayni paytda, jabrdiydalar huquqini himoya qilgan. Ana shu xatti-harakatlari uchun u hukmdorlar tomonidan ta'qibga olingan.

XIX asr adabiyotining yetuk namoyondalaridan yana **Junaydulloh Hoziqdir**. Uning she'rlari insonparvarlik ruhi bilan sug'orilgan edi. She'rlarida mehnatkash xalq qismatiga achinish, zolimlarga nafrat kuylangan. U shu jasorati tufayli Shahrisabzda amir Nasrullo odamlari tomonidan o'ldirilgan.

Buxoroda musiqa ilmi, xattotlik va miniatyura san'ati yaxshi rivojlangan edi. Xususan, Do'stmuhammad Buxoriy «Xattotlik san'ati» deb nomlangan kitob yozib qoldirgan. «Fathnoma», «Tarixi Abulxayrxon», «Shayboniynoma» asarlariga, shuningdek, Alisher Navoiy asarlariga katta mahorat bilan miniatyura va suratlar chizilgan.

Aniq fanlar ahvoli

XVI—XIX asrlarda Buxoro davlatida (Xiva va Qo'qon xonliklarida ham) tabiiy ilm rivojiga aytarli e'tibor berilmagan. Buning sababi — jamiyat hayotini diniy mutaassiblik egallab olganligida edi. Diniy mutaassiblik tabiiy ilm sohasidagi har qanday kashfiyotga «Olloh irodasiga shak keltirish» deb qaragan. Natijada, ajdodlari al-jabr va **meditsinani** yaratgan o'zbek xalqining bu davr avlodlari bobolari yaratgan ulkan ilm xazinasiga **munosib voris bo'la olmadi**.

Biroq, yuqorida aytilgan bu fikrdan XVI—XIX asrning birinchi yarmida O'rta Osiyoda tabiiy ilm mutlaqo rivojlanmagan ekan degan xulosa **chiqmasligi** lozim. Aksincha, og'ir bir sharoitda ham bu sohada qalam tebratgan olimlar ham bo'lgankim, ularning faoliyati o'sha davr uchun katta jasorat edi. Ana shunday jasoratli olimlardan biri Mutribiy bo'lib, u dunyo xaritasini chizgan, samarqandlik Muhammad Husayn as-Samarqandiy tibbiyot va

dorishunoslikka oid «Tabiblik dasturulamali» asarini yozgan.

Bu o'rinda shuni ham ta'kidlash joizki, Buxoro xoni Subhonqulixon (1680—1702) ham tibbiyot ilmi ishtiyoqmandi bo'lgan edi. U Buxoroda maxsus shifoxona qurdirgan. Unda bemorlarni davolash bilan bir qatorda tibbiyot fani ham o'rganilgan.

Abulg'ozixon va Xorazm tarixchilik maktabi

Xiva xonligining madaniyati tarixida Abulg'ozir Bahodirxonning o'rni muhimdir.

Mashhur «Shajarai turk» va «Shajarai tarokima» (Turkmanlar shajarasi) hamda «Manofe' ul-inson» (Insonlar uchun foydali tadbirlar) kabi tarixga va tibbiyotga doir kitoblar yozib qoldirgan.

Abulg'ozixonning mashhur asari «Shajarai turk» asari bo'lib, asar 9 bobdan iboratdir. Asarning oxirgi, 9 bobi «Shaybon avlodlaridan Xorazm mamlakatida podsholik qilganlar zikri» deb nomlangan. Vengriyalik yirik sharqshunos olim G.Vamberi bu asarga baho berib: «Jahon «Shajarai turk» ismli tarixiy asari uchun undan minnatdor» deb yozgan edi. Bu asar juda ko'p chet tillarda ham nashr etilgan.

Abulg'ozixon o'zining bu asari bilan Xorazm tarixchilik maktabiga asos solgan edi. Abulg'ozixon boshlagan xayrli ishni uning vatandoshlari keyinchalik ham davom ettirganlar. Ulardan biri **Munis Xorazmiy** (1778—1829) edi. Munis Xorazmiy nafaqat tarixchi, ayni paytda u shoir, tarjimon, xattot ham edi. 1804-yilda u «Devon» tuzdi. 1806-yilda «Xiva xonlari tarixi» asarini yozishga kirishdi. Ammo, unga bu asarni yozib tugallash nasib etmagan.

Munisning «Arnalar» asari xonlikdagi yer-suv munosabatlari hamda sug'orish inshootlari masalasiga bag'ishlangan edi.

Munis Xorazmiy shoir sifatida yozgan asari «Munis ul-ushshoq» (Oshiqlar do'sti) degan devon edi. Bu devon 18 ming misradan iborat bo'lgan.

Munis Eltuzarxon maslahati bilan «Firdavs ul-iqbol» tarixiy asarini yozgan.

Xorazmning yirik tarixchi olimlaridan yana biri Munisning jiyani **Muhammad Rizo Ogahiy** (1809—1874) edi. Ayni paytda u ham shoir, ham tarjimon bo'lgan. U yozgan she'riy asar «Ta'viz ul-ushshoq» (Oshiqlar tumori) deb ataladi. Bu asar 18 ming misradan iborat bo'lgan. Uning she'rlarida xalqparvarlik, ma'rifatparvarlik, insonlardagi yaxshi fazilatlar ulug'lanadi. Xon va amaldorlarning mehnatkash xalqqa nisbatan adolatsizliklari, ularga o'tkazgan jabr-zulmlari tanqid qilinadi. Ogahiyning xalqparvarligi, ular holiga befarq qaray olmasligi uning «Qish» g'azalida o'zining yorqin ifodasini topgan:



Xiva. Ark darvozasi.

*Ne bilursan, kechalar faqr aqlidin ne o'tkanin,
Bistari zarrin uza, ey kim, qilursan xob qish.
Ey g'ani, boqg'il yalanglar holig'a shukr uchun,
Kim kiyarsan to'-bato' qoqim ila sinjob qish.*

Ogahiy «Riyoz ud-davla» (1844), «Zubdat ut-tavorix» (1845), «Jome'i voqeoti sultoni» (1855), «Gulshani davlat» (1865) kabi tarixiy asarlar muallifidir. Munis va Ogahiyilar Mirxondning yetti jildlik «Ravzat us-safo» asarini o'zbek tiliga tarjima qilganlar.

Ogahiyning tarixga oid asarlarida Xiva xoni Ollohqulixon (1825—1842)dan to Muhammad Rahim II (1864—1910)gacha xonlik tarixi o'z aksini topgan.



Xiva. Xonqal'a.

Me'morchilik

XVIII asr—XIX asrning birinchi yarmida ko'plab inshootlar qurildi. Sherg'ozixon (1728), Muhammad Amin inoq (1805), Qutlimurod inoq (1809), Musa to'ra (1840), Sayidboy (1842) madrasalari, Pahlavon Mahmud maqbarasi (1835), Solihboy masjidi (1842) va boshqalar shular jumlasidandir. Hazoraspdagi Rahmonquli inoq saroyi, Oллоhqulixon tomonidan qurilgan Xivadagi Toshhovli nomi bilan ataluvchi ikki qavatli qasr (1832—1841) binolari sernaqsh va koshinli bo'lib, Xorazm me'morchiligining o'ziga xos uslubini o'zida aks ettirgan. Oллоhqulixon madrasasi (1832), Muhammad Aminxon madrasasi ham koshinlar bilan bezatilgan. Bu madrasa yonidagi Kalta minor ham moviy tusdagi koshin bilan qoplangan. Bundan tashqari, Oллоhqulixon karvonsaroyi va bozor (1835) hamda Polvon darvoza (Muhammad Rahimxon davrida 1806-yilda qurilgan) o'sha davr me'morchiligining yorqin namunalaridan hisoblanadi. Xiva shahridagi bu ajoyib binolar Ko'hna Urganch me'morchiligi an'alarining vorislari tomonidan yaratilgani va bu vorislar avlodining ona zaminga bo'lgan mehru muhabbatlari, o'tmish merosga bo'lgan ixlosning yorqin namunasidir.

Savol va topshiriqlar

1. XVI—XIX asrning birinchi yarmida O'rta Osiyo xalqlari madaniy hayotiga xos bo'lgan umumiy manzara haqida nimalarni bilib oldingiz?
2. XVI—XIX asrning birinchi yarmida O'rta Osiyo davlatlari madaniy hayotida hukm surgan turg'unlikning sabablarini izohlab bering.
3. Xonliklar ilm-fani, adabiyoti va san'ati haqida so'zlab bering.
4. Buxoro va Xivada tarix ilmi taraqqiyoti haqida nimalarni bilib oldingiz?
5. Vamberining «Shajarai turk» asariga bergan bahosi haqida nimalar deya olasiz?

38—39-§§. QO'QON XONLIGI MADANIYATI

Amir Umarxon va madaniyat

Qo'qon xonligining savdo va hunarmandchilik markazlaridan bo'lgan Qo'qon, Marg'ilon, Andijon, Namangan, O'zgan, Baliqchi shaharlari o'z davrida madaniyat markazlari ham edilar. Masalan, Qo'qonda 40 ta madrasa, 120 ta maktab, Marg'ilonda 10 ta madrasa, 80 ta maktab bo'lgan.

Hassos shoir va davlat arbobi amir Umarxon (1810—1822), uning umr yo'ldoshi, mashhur shoira Nodirabegimlarning o'zlari ijodkor bo'lganliklari tufayli Qo'qon adabiy muhiti vujudga kelgan. Ularning sa'y-harakatlari tufayli saroyga iste'dodli shoirlar, adabiyotshunoslar, tarixchilar to'plangan edilar.

Akmal (Maxmurning otasi), Amiriy (amir Umarxonning o'zi), Boqixon to'ra, Gulxaniy, Yoriy, Zavqiy, Zoriy, Mahjub, Maxmur, Mushrif, Nizomiy, Nodir, Nozil, G'oziyar shu adabiy muhitning iste'dodli namoyondalaridandir. Bu adabiy muhitning gultojlari bo'lmish Dilshod, Nodira (Mohlaroyim), Uvaysiyar o'z davrida samarali ijod qildilar.

Fazliy Namangoniyning «Majmuat ush-shuaro», Qori Rahmatullo Vozehning «Tuhfat ul-ahbob fi tazkirat ul-ashob» tazkiralari 200 nafarga yaqin shoir va olim ijodiga to'xtalib o'tiladi.

Ana shu adabiy jamoani amir Umarxonning o'zi boshqargan. U barcha shoir, adib, musavvir, xattot va musiqa bilimdonlariga homiylik qilgan. Uning hukmronligi davrida shaharlarda ko'plab madrasa, masjid, maktablar barpo etildi. Arab va fors tillaridagi kitoblar o'zbek tiliga tarjima qilindi. Noyob kitoblar iste'dodli xattotlar tomonidan ko'chirildi, nozik tasvirlar bilan bezatildi. Amiriy o'zbek va fors tillarida she'rlar yozdi. Uning g'azallar devoni 1882-yilda Istanbulda, 1905-yilda Toshkentda chop etildi.

Amir Umarxon davridagi yirik shoirlardan biri **Maxmur** (asl ismi Mahmud) XVIII asr oxirida tug'ilib, 1844-yili vafot etgan. Uning she'riy devoni mavjud.

Qo'qondagi Madrasayi Mirda o'qigan; keyin amir Umarxon qo'shinida sipohiylik qilgan. She'rlarida xalqqa jabr yetkazgan amaldorlarni hajv etadi. «Hapalak», «Ta'rifi viloyati Qurama» she'rlarida mamlakatning vayrona manzarasini, aholisining ayanchli ahvolini tasvirlagan. Masalan, u «Hapalak» she'rida bir qishloqdagi manzarani aks ettirsa-da, aslida bu she'r butun xonlik hududidagi manzarani ifodalar edi. Mazkur she'rda quyidagi satrlar bitilgan edi:

*Xalqini ko'rsang agar, o'lasi-yu qoqu xarob,
Ochligidan egilib, qomati misli kamalak.*

*Ajirig' tomirini o'g'irda mayda yanchib,
Qaynatib kunda ichar, otini derlar sumalak.*

*Boru yo'q uylarini banda bayon gar qilsam,
Bir katak, ikki kapa, uch alachuq, to'rt katalak.*

*Kecha go'yo eshitib shuhrati tillo pulini,
Hapalak qo'rqusidin uchdi misoli kapalak.*

Maxmur o'z she'rida Umarxonga murojaat qilib, undan xalqning og'ir iqtisodiy ahvolini yengillatishni, ularni azob-uqubatga solgan zolim amaldorlardan ozod qilishni iltimos qilgan edi.

Bu davr adabiyotining yana bir yirik namoyondasi **Gulxaniy** (Muhammad Sharif) bo'lgan. U 1770-yilda hozirgi Tojikistonning Tavildara tumanida tug'ilgan. Boshlang'ich ta'limni qishlog'ida olgan. Muhtojlik oqibatida Namanganga kelib qolgan, u yerda mardikorlik qilgan. Ayni paytda ijod bilan ham shug'ullangan. Keyinchalik Qo'qonda istiqomat qiladi. Bu yerda ham-momda go'lax (o't yoquvchi) bo'lib ishlaydi. U «Gulxaniy» taxallusi bilan ijod qilgan.

Keyinchalik u Olimxon saroyida navkar bo'lib xizmat qilsa-da, **lekin**, og'ir iqtisodiy ahvoli o'zgaradi. Umarxon hukmronligi davri ham uning hayotida o'zgarish yasamadi. Gulxaniy qashshoqlik va muhtojlikda vafot etdi.

Gulxaniydan katta adabiy meros qolgan. U o'zbek adabiyotida poeziyaga masalni mustaqil janr sifatida birinchi bo'lib kiritgan ijodkor edi. Ayni paytda u ham o'zbek, ham tojik tilida ijod qilgan.



Buyuk o'zbek shoirasi Nodira.

Gulxaniy o'zining satira va hajviy she'rlarida zamonasining illatlarini, hukmron tabaqaning mehnatkash xalqqa o'tkazgan zulmini, xalqning og'ir turmush sharoitini katta mahorat bilan bayon eta olgan.

Gulxaniyning mashhur asari «Zarbulmasal» edi. Asardagi «Maymun va Najjor», «Tuya bilan Bo'taloq», «Toshbaqa bilan chayon» kabi masallari chuqur axloqiy-ta'limiy ahamiyatga ega.

Asardagi Yapaloqqush, Boyo'g'li, Ko'rqush, Hudhud, Kulonkir sulton, Malik shohin va Kordonlarning bir-birlari bilan quda-anda bo'lish jarayonida bir-birlariga aytgan so'zlari, masal-maqollari va hikoyalari Gulxaniy yashagan davrdagi siyosiy tuzumning haqiqiy manzarasini ifodalab beradi.

Qo'qon adabiy muhitini Jahon otin — Uvaysiy (1780—1841) va Mohlaroyim — Nodiralar ijodisiz tasavvur qilib bo'lmaydi. Uvaysiy 1780-yilda Marg'ilon-da tug'ilgan, oilasi o'z davrining ilg'or va ma'rifatli oilalaridan edi. Otasi ham o'zbek, ham tojik tilida qalam tebratgan. Oiladagi muhit Uvaysiyda ijod qobiliyatini yuzaga chiqardi. Uvaysiy Navoiy, Lutfiy, Bobur, Fuzuliy, Hofiz va Jomiy ijodlarini qunt bilan o'rgandi.

Amir Umarxon Marg'ilon hokimi bo'lib turgan yillarda (1806—1807) Uvaysiy el orasida tanilgan shoir edi. Undagi shoiralik iste'dodi Umarxonning xotini Nodirani o'ziga rom etgan. Umarxon Qo'qon taxtiga o'tirgach, Uvaysiy Qo'qonga taklif etilgan. Bu yerda u juda ko'p yoshlarga murabbiyalik qilgan. Nodira bilan ijodiy hamkorligi qaror topgan.

Uning ijodi xalqparvarligi bilan ajralib turadi. Shuningdek, uning asarlarida el-yurt dardi, xalq qismati, hasrati bosh mezon edi:

*Uvaysiy, yuz jaf o'rsang haqiqat yoridin doim,
O'gurma yuz anga, ham solma ko'zni o'zga dildora,*

deb yozadi.

O'zbek shoirasi, ma'rifatparvar davlat arbobi Mohlaroyim — Nodira (1792—1842) Andijonda

tug'ilgan. Otasi Rahmonqulbiy Andijon hokimi bo'lib, Qo'qon xoni Olimxonning tog'asi edi.

Olimxon inisi Umarxonni Marg'ilonga hokim etib tayinlaganidan keyin Nodiraga uylangan. Nodira shu xonadonda she'r yozishni mashq qiladi. Shoir Uvaysiy bilan tanishgach, uni yosh bolalar va kanizaklarni o'qitish uchun muallimlikka taklif etadi.

Nodira xonlikka qarashli shaharlarida fozillar, olimlar, xattot va naqqoshlarni Qo'qonga to'plagan.

Nodira ko'p kitoblarni qayta ko'chirtirgan. Kitob muqovasining did bilan ishlanishiga e'tibor beradi. Yaxshi xattotlarga, naqqoshlarga tilla qalam, kumush qalamdon sovg'a qilgan.

Nodiraning o'zi ham o'zbek, ham tojik tillarida ijod qilgan. Uning she'riyati asosini lirika tashkil etadi. She'rlarida muhabbat, sadoqat, mehr-vafo, ayni paytda, Sharq xotin-qizlarining dard-alamlari, oh-fig'onlari kuylanadi.

Bundan tashqari, Nodira Navoiy, Fuzuliy va Bedil g'azallariga muxammaslar ham yozgan.

Boborahim Mashrab

Qo'qon xonligida ijod qilgan ulug' insonlardan biri iste'dodli va isyonkor shoir Boborahim Mashrab edi (1640—1711). U Namanganda tug'ilgan. 7 yoshligida xat-savodi chiqqan. 15 yoshidan boshlab tasavvuf ilmini egallay boshlagan. 18 yil davomida dunyoning juda ko'p mamlakatlarini kezib chiqqan.

Mashrab o'z she'rlarida hukmron tabaqalarning mehnatkash xalqqa o'tkazgan jabr-zulmlarini, mulkdorlarning zo'ravonligi va ochko'zligini ayovsiz fosh etadi. Xalqning og'ir, ayanchli ahvolidan achinadi. Mashrab bitgan quyidagi satrlar buning dalilidir.

*Dili tig'i sitamdin pora bo'lg'on xalqni ko'rdim,
Tani dardu alamdin yora bo'lg'on xalqni ko'rdim,
Ko'zi vaqti sahar sayyora bo'lg'on xalqni ko'rdim,
Muhabbat dashtida ovora bo'lg'on xalqni ko'rdim.*

Yoki:

*Qaddi mehnat tog'idan xam bo'lgan, ey hechoralar
Bag'ri vahshat tig'idin yuz pora ham yuz yoralar,
Ko'rmagan umri ichinda bir dami bir yaxshi kun,
Tiyri g'amdin dilda dog', ham ko'zlari giryonalar.*

Boborahim Mashrab diniy mutaassiblikni, jaholatni ham fosh etgan isyonkor shoir edi. U ruhoniylarning, eshonlarning avom xalq ruhini do'zax va oxirat azoblari bilan dahshatga solayotganligini, aslida, bu dunyoning azob-uqubatlari do'zax azobu uqubatlaridan kam emasligini ularga qarata baralla ayta olgan jasoratli inson ham edi. Ana shu jasorati uchun Mashrab dinga shak keltirganlikda ayblanadi va 1711-yili g'animlari ig'vosi bilan Balx hokimi Mahmudbiy qatag'on tomonidan o'limga hukm etiladi.

Tarixnavislik

XVIII—XIX asrlarda Qo'qon xonligida ko'plab tarixiy asarlar yaratilgan.

Mazkur davr tarixchilaridan Abdulkarim Fazliy Namangoniy amir Umarxonning topshirig'iga binoan «Shohnoma» masnaviysini yozib tugatgan (1822). U 5000 baytdan iborat tarixiy manzuma. Yana «Majmuayi shoiron» tazkirasida ham uning ijtimoiy qarashlari o'z ifodasini topgan.

Xon saroyida qoziaskar lavozimida ishlagan Mirzo Qalandar Mushrif Isfarangiy amir Umarxonning maslahati bilan «Shohnomayi Umarxon» tarixiy asarini yozgan.

Avaz Muhammad Attor Ho'qandiy (XVIII asr oxiri — XIX asrning 70-yillari) 1822-yili «Tarixi jahon-numoyi» asarini yozgan.

Amir Umarxon davrining ko'zga ko'ringan tarixchisi Muhammad Hakimxon to'ra ibn Sayid Ma'sumxon (1802—1870)dir. U ona tomondan Qo'qon xoni Norbo'tabekning nabirasidir. Muhammad Alixon davrida quvg'inga uchrab, Rossiyaga, Sharq mamlakatlariga sayohat qilishga majbur bo'lgan. Umrining oxirida Shahrisabzda yashab, shu yerda o'zining «Muntaxab ut-tavorix» (Saralangan tarixlar) asarini yozadi. Bu asar Buxoro amirligi va Qo'qon xonligi tarixiga doir muhim manbalardandir. Unda O'rta Osiyo xalqlarining ijtimoiy-siyosiy va madaniy hayotiga doir qimmatli ma'lumotlar mavjud.

Amir Umarxon davrining yana bir yetuk tarixshunosi Mulla Niyoz Muhammad ibn Mulla Ashur Muhammad

Ho'qandiy (1802—1872)dir. Harbiy lavozimlarda ishlagan va XIX asrning 70-yillarida «Tarixi Shohruxiy» asarini yozadi. Asarda olim davrning siyosiy ahvoli va xalqning ijtimoiy turmushga to'g'ri baho beraolgan. Unda 1872-yilgacha bo'lgan, ko'pincha o'z ko'zi bilan ko'rgan va bo'lgan voqealarni bayon etadi.

Amir Umarxon davridan 1872-yilgacha bo'lgan tarixiy voqealarning bayonidan iborat bo'lgan yana bir tarixiy asar «Tarixi jahonnumoyi» deb nomlanadi. Uning muallifi Junayd Mulla Avaz Muhammad Mulla Ro'zimuhammad o'g'li (XVIII asr oxiri — XIX asr o'rtalari)dir.

Yana bir tarixchi Mulla Ali qori Qunduziy (1786—1858) «Tavorixi manzuma» asarini yozgan. Asarda 1822—1848-yillar tarixi bayon etilgan.

Ma'rifatparvar shoira va tarixchi olim Dilshod Barno «Tarixi muhosara» (Qamal tarixi), «Sabot ulbashar maa tarixi muhojiron» (Inson matonati va muhojirlar tarixi) kabi asarlar yozib qoldirgan.

San'at va me'morchilik

Qo'qonda xattotlik san'ati va me'morchilik ham rivojlangan. Muhammad Latif, Mirzo Sharif dabir, Abulg'ozixoja kabi xattotlarning kitob ko'chirish borasida o'zlari amalga oshirgan xayrli ishlari bilan tarixda nomlari qoldi. Kitoblar shunday did bilan ko'chirilganki, xorijiy mamlakatlar shohlari uchun elchilariga ana shunday nafis ko'chirilgan kitoblarni tortiq qilish xonlikda odatga aylangan edi. Amir Umarxon Turkiston va uning atroflarini Oroidan Yettisuvigacha egallab, Oqmasjid (Qizil O'rda), Avliyoota (Jambul), Pishpak (Bishkak) qal'alarini bunyod etdi. Uning davrida Qo'qonda va boshqa nohiyalarda ko'plab binoyi xayrlar qurilgan. Norbo'tabiy madrasasi (1799), Madalixon madrasasi, Madrasayi Kamol qozi (1820), Madrasayi Tunqotar, Madrasayi Haqquli mingboshi (1825), Madrasayi Miyon hazrat, Madrasayi Mohlaroyim, Madrasayi Hakim to'ra (1795), Madrasayi Xonxoja eshon (1789), Madrasayi Buzrukxoja (1801), Madrasayi Pirmuhammad yasovul (1802), Madrasayi Xojabek (1805), Madrasayi Oxund devonbegi (1805), Madrasayi Mingoyim (1802), Madrasayi Jome' (1817), Madrasayi Norbo'tabiy (1827) shular jumlasidandir.

Savol va topshiriqlar

1. Badiiy ijod bilan shug'ullangan hukmdorlarning ismlarini qayd eting.
2. Qo'qon adabiyoti Buxoro va Xiva adabiyotidan qaysi jihati bilan farq qiladi?
3. Maxmur ijodiga xos bo'lgan asosiy xususiyat nima?
4. Gulxaniy o'zbek adabiyotida qaysi janrning asoschisi?
5. Uvaysiy va Nodira ijodlariga xos bo'lgan xususiyatlarni bir-biriga taqqoslang.
6. Boborahim Mashrab ijodi haqida so'zlab bering.
7. Xonlikda yaratilgan tarixiy asarlar nomlarini daftaringizga ko'chirib yozing.

40-§. XVI—XIX ASRLARDA MA'NAVIYAT

Ma'naviyat arboblarning siyosatga ta'siri Ismoil Safaviy (1502—1524) Eronda Safaviylar davlatiga asos solib, Tabrizni o'ziga poytaxt qildi. O'n ikki hoshiyali, tepasiga qizil tayoqcha o'rnatilgan shialarning maxsus kulohini ta'sis etdi. O'n ikki qizil hoshiya shialarning o'n ikki imomi, qizil tayoqcha esa Imom Hasan va Imom Husayn qoni ramzi hisoblangan. Shuning uchun Safaviylar davlati Qizilboshlar davlati ham deb ataladi.

Eronda safaviylar sulolasi hokimiyat tepasiga kelishi bilan shia mazhabining davlat dini darajasiga ko'tarilishi O'rta Osiyoni va unga yaqin mintaqani bir necha siyosiy-madaniy qismlarga bo'lib yubordi. Mintaqa ma'naviyati Movarounnahrda Shayboniylar davlatining tashkil topishi bilan parokandalikka yuz tutdi. Natijada ko'plab olim va shoirlar chet ellarga ketishga majbur bo'ldilar.

1510-yili Marv yaqinida Shayboniychon qo'shinlari tor-mor keltirilib, o'zi o'ldirilgach, Xuroson o'lkasi va Xorazm davlati Safaviylar Eroni tomonidan bosib olindi. Bosib olingan hududlarning sunna mazhabidagi aholisi qirg'in va quvg'in qilindi.

Samarqand, Buxoro, Hirotning ma'naviyat va ma'rifat namoyondalari tarqab ketdilar. Ularning bir qismi Turkiyaga, boshqa qismi Hindistonga boburiylar saroyiga, Koshg'ar tomonga ketib qoldilar.

Ma'naviyat arboblarning siyosatga kuchli ta'siri Movarounnahrda Shayboniylar davlati sharoitida ham davom etdi. Bu holni biz Maxdumi A'zam va Jo'ybor shayxlari faoliyatida kuzatishimiz mumkin.

XVI—XVII asrlarda milliy ma'naviyatimiz takomilini ko'rib chiqadigan bo'lsak, mahalliy o'lkalar keng xalq ommasining ma'naviy saviyasi oshib bordi. Bu yuksalish temuriylar davrida bo'lganidek hukmdor tabaqa homiyligi va tarbiyasi natijasi bo'lmay, ilmu ma'rifatdagi an'anaviy yuksalishning davomi tarzida, ilmu ma'rifat namoyondalarining shaxsiy tashabbuslari tarzida namoyon bo'ldi. Hukmdorlar ichida madaniyat ixlosmandlari bo'lgan. Shayboniixon, Ubaydullaxon, Subhonqulixon, Abulg'azi Bahodirxon, amir Umarxon, Nodirabegimlarning ijodiy faoliyati fikrimizning dalilidir. Ayniqsa, Qo'qon xoni amir Umarxon davrida Qo'qon adabiy-ma'naviy muhitining vujudga kelishi o'rganilayotgan davr uchun ijobiy hodisadir.

XVI—XVIII asrlarda milliy parchalanish fojialari elning jonkuyar farzandlari dilini qaynoq dard bo'lib kuydirdi. Ma'naviyat ahli siyosatga faol aralashmasdan tura olmadi. Ma'naviyat yuksalib bordi. Turdi Farog'iy davr hukmdorining zolim va noqobilligini fosh etishni milliy va siyosiy g'oyaga aylantirdi. Odil shoh o'rniga yagona Vatan g'oyasini ilgari surdi. Movarounnahr barcha musulmonlari peshvosi shayxulislom Mavlono Abulmakorim Samarqandning osongina Shayboniixon qo'lga o'tib ketishiga befarq qola olmadi. Xon shaharda yo'q payti shayx Bobur mirzoni Samarqandga chorladi va hamkorlikda shaharni olti oy mudofaa qildi. Shaharni qo'lga kiritgach, Shayboniixon shayxni arzimagan bir bahona bilan qatl ettiradi.

Manbalarda aytilishicha, Bobur mirzo Maxdumi A'zamni o'ziga pir deb bilgan. Maxdumi A'zamning jiyani Xoja Mavlono Qozi (Xoja Abdullo) ham Bobur mirzoning piri, ustози edi.

Bobur mirzo Samarqandga kelgach, uning Andijondagi g'animlari Mavlono Qozini qatl etadilar. Zero, Mavlono Qozi Bobur mirzoni ham ma'naviy, ham moddiy qo'llab turgandi. U 18000 bosh

qo'yi va molini Bobur mirzo qo'shinlariga ulashib bergandi.

XVI asr siyosiy hayotida Xoja Islom Jo'yboriy (1494—1563) muhim o'rin tutgan.

1512-yili G'ijduvonda Najmi soniy, ya'ni qizilboshlar ustidan qozongan g'alabasi munosabati bilan shayboniy Ubaydullaxon (1533—1539) Xoja Muhammad Islomga Sumitan atrofi qishloqlaridan 200 jufti gov ekin yerini tortiq qiladi.

Xoja Islom Abdullaxon II ga ham o'z siyosiy mavqei-ni mustahkamlashda yordam bergan.

Abdullaxon 1552-yili shayboniy Qilichqora sultonni yengib, Nasafni egallaydi. Bu ishda bergan ma'naviy yordami uchun u Xoja Muhammad Islomga Mudin qishlog'ini tortiq qiladi.

Xoja Muhammad Islom naqd sarmoya va turli mato-lardan tashqari Buxoro, Samarqand, Nasaf, Marv va boshqa viloyatlarda 300 jufti gov (2500 gektar) yer-suvga ega bo'lgan. Uning 10000 qo'yi, 700 bosh oti, 500 bosh tuya, 104 ta hunarmandchilik va savdo do'konlari, 7 tegirmoni va boshqa mol-mulk-lari bo'lgan.

Xoja Islomning o'g'li Xoja Sa'd, Xoja Sa'dning o'g'illari Xoja Tojiddin Hasan va Xoja Abdurahimlar esa undan ham ko'p mol-mulkka ega bo'lganlar.

Xoja Sa'd aslida ona tarafdan Sulton Husayn Boyqaro (1470—1506)ning amirulumarosi Muhammad Tuman mang'itning nabirasi bo'lgan.

Xoja Muhammad Islom va Xoja Sa'd XVI asrning ikkinchi yarmida Buxoroda shayxulislom lavozimida edi. Ashtarxoniylardan Abdulazizxon (1645—1680), Subhon-qulixon (1680—1702) va Ubaydullaxon (1702—1711) davrlarida Xoja Abdurahimning nabirasi Muhammad Boqirxoja va Hoshimxoja Jo'yboriylar shayxulislomlik qilganlar.

1584—1585-yillarda Abdullaxon Badaxshon va Ko'lob uchun kurash olib bordi. G'alabaga qo'shgan hissasi uchun xon Xoja Sa'dga Badaxshonni tortiq qildi.

Xoja Sa'd Abdullaxonga 1588-yili Muhammad Tuman mang'itning Xurosondagi yer mulkini kuyovi

Xoja Muhammad Islomga meros qilib bergani haqidagi hujjatni ko'rsatadi. Hujjat Sulton Husayn, Badiuzzamon, Muzaffar Husayn va Alisher Navoiy muhrlari bilan tasdiqlangan edi. Abdullaxon bu hujjat asosida bu yer-mulkni Xoja Sa'dning merosiy mulki deb e'tirof etish haqida farmon beradi.

Tojiddin Hasanning to'ng'ich o'g'li Xoja Yusufga (1595—1652) Imomqulixon (1611—1642), Nadrmuhammadxon (1642—1645) va Abdulazizxon bir nechtdan qishloqlarni tortiq qilganlar.

1606—1609-yillarda Buxoro xoni Valimuhammadxon va uning jiyanlari, viloyat hokimlari Imomqulixon va Nadrmuhammadxon o'rtalaridagi kelishmovchiliklar paytida Xoja Tojiddin uch marotaba Balxga borib keldi.

Sayid Ahmad Jaloliddin Kosoniy (1461—1542), ya'ni Maxdumi A'zam Jonibek Sulton (vafoti 1528) taklifi bilan Miyonkolga ko'chib kelgan.

Abdulazizxon davri (1645—1680)da Maxdumi A'zamning nabirasi Xoja Hoshimning nabiralari Xoja Roziq ibn Abdulmo'minxoja va Xoja Mahdi ibn Musoxoja Dahbed hokimi edilar.

Muhammad Rahimxon mang'it Buxoro taxtini egalagach, oliy diniy lavozimga Maxdumi A'zam avlodidan Isoxojani tayinlaydi. Buxoro davlati shayxulislomi lavozimini Xoja Islom Jo'yboriy avlodi Nasrulloxoja topshiradi. Naqiblik lavozimiga Sayid Ota avlodidan Muhammadxoja tayinlaydi. Samarqand shahri va viloyati shayxulislomi qilib Xoja Ahror avlodidan Xoja Shahobiddinni belgilaydi.

**Ma'naviyat
arboblarining tinchlik
va yaratuvchilik ishiga
qo'shgan hissalari**

Eshonlar urushqoq xonlarni ham tinchitishga qodir bo'lganlar.

Baroqxon bilan Abdullatif 1544-yili 200 ming nafar lashkar bilan Buxoro ustiga yurish qilganlarida hazrati eshon Maxdumi A'zam o'z ashobu ahhobi bilan Buxoroda xonaqohlarida o'ltirgan edilar. Ul zotning huzuriga Ubaydullaxonning ikki farzandi Abdulaziz sulton va Muhammad Rahim sulton kelib ta'zim bajo keltirdilar va madad so'radilar...

Hazrati eshon o'z mulozimlari bilan Baroqxon qo'shini-ga keldi, so'ng unga: «Ubaydullaxon bilan Jonibek, har qaysisi o'z davrida senga muruvvat va yordam ko'rsatdi; bugun bo'lsa sen ularning farzandlari qonini to'kmoq va musulmonlarni bosqin qilmoq uchun kelding. Bu ishing bilan Ollohdan qo'rqmaysanmu?» dedilar.

Shu orada Kistonqora sulton Qarshini egallabdi, degan xabar keldi. Baroqxon va Abdullatifxon shoshi- lynch ravishda Qarshiga yo'naldilar va jangda mag'lub bo'ldilar, o'z yurtlari sari chekindilar. Imomqulixon bilan Xoja Abdurahim o'rtalariga sovuqchilik tushganligi sababidan 1628-yili xoja Movarounnahrni tark etishga majbur bo'ladi va hajga o'tlanadi. Ammo, yo'lda avval Balx, so'ngra Hindiston safariga chiqadi. Boburiy Jahongir (1605—1628) uni zo'r hurmat bilan kutib oladi, 50000 rupiya naqd pul beradi.

Xojalar xalqaro savdo-sotiq ishlarida ham faol ishtirok etganlar. Xoja Sa'd va Xoja Tojiddin Hasanlar- ning maxsus vakillari Jonmuhammad va Yormuham- madlarning savdo karvonlariga bosh bo'lib, Qozon, Maskov, Bulg'or hamda Koshg'arga qatnaganlar.

Jo'ybor xojalari obodonchilik ishlariga ham e'tibor berganlar. 1557—1579-yillarda ekin yerlarini kengaytirish maqsadida Somonjuq, Afshona, Sevinchi, Kalon kabi Buxoro qishloqlari, Chorjo'y, Marv va Vaxsh mavzelari- da kanallar chiqazmoqchi bo'lganlar. Abdullaxon bun- day paytlarda hokimlarga farmon yo'llab, 10—15 ming nafar mardikor ajratishni buyurgan.

Ma'naviyatda ziyolilar o'rni

Xalq manfaati yo'lida ijod qilganlardan Mutribiy XVI asrning ikkinchi yarmida tug'ilib, XVII asrning 30-yillarida vafot etgan. Uning tazkirasida 320 nafardan ortiq o'rta osiyolik shoir va olim to'g'risida ma'lumot beradi. Bundan tashqari, Mutribiyning «Nusxayi zeboyi Jahongiriy» (Jahongir podshohning zebo kitobi) va «Xotiroti Mutribiy» nom- li asarlari ham bor. Mutribiy «Nusxayi zeboyi Jahongiriy» tazkirasida Eron, Hindiston, Badaxshon va Movarounnahrda yashab ijod etgan 292 nafar shoiru olim to'g'risida ma'lumot beradi.

Muhammad Bade' Malehoyi Samarqandiyning «Muzakkir ul-ashob» asari (1692 yil)da 1605—1692-yillarda yashab, ijod etgan 160 nafardan ortiq shoir va olim haqida ma'lumot beradi. Qo'qon adabiy muhitini istisno qilganda har uchala xonlikda ham olimu shoirlar o'z iqtidori yordamida ijodkor bo'lgan, xalq orasidan chiqqan olimlar edi. Chet el bosqinchilari mamlakat va xalqni talash bilan mashg'ul bir paytda haqiqiy xalq ziyolilari ilmu ma'rifatga ehtiyoj sezilar va butun umrlarini ma'naviyatga bag'ishladilar. Turdi Farog'iy, Mashrab, So'fi Oллоhyor, Maxtumquli faoliyati fikrimizning dalilidir.

Hukmron tabaqaning xalq haq-huquqlarini poymol qilishga qarshi Turdi Farog'iy xalq qo'zg'oloniga bosh bo'ldi. She'rlarida ularning kirdikorlarini fosh etgan bo'lsa, Mashrab, Bedil va So'fi Oллоhyorlar xalqning ma'rifat ko'ziga ziyo baxsh etdilar.

Mirzo Sodiq munshi ashtarxoniylar sulolasi vakillari-ning kirdikorlarini o'zining «Dahmayi shohon» asarida fosh etib tashlaydi.

Boqi Kaffosh, Fathiy Buxoriy, Holatiylar — kavushdo'z, Loyiqiy Buxoriy — ziroatchi, Davoiy Samarqandiy — tabib, Shuhratiy — temirchi, Zirehiy — zirehgar, Donishiy — mushkfurush, Nihoniy — shonatarosh, Qurayshiy — naqqosh, Shohidiy — charmgar bo'lgani bu fidokor ijodkorlarning o'z kuchi bilan ziyo kasb etgani dalilidir.

Savol va topshiriqlar

1. Qizilboshlar davlati deganda nimani tushunasiz?
2. Shayboniylar sulolasi hokimiyat tepasiga kelganda Movarounnahr ma'naviyati va madaniyatida qanday o'zgarishlar bo'ldi?
3. Xoja Abulmakorim kim?
4. Xoja Muhammad Islom haqida nima bilasiz?
5. Maxdumi A'zam va uning davlatchiligimiz va ma'naviyatimiz tarixida tutgan o'rne haqida so'zlab bering.
6. So'fi Oллоhyor haqida nima bilasiz?

41-§. O'RTA OSIYO DAVLATLARIDA MADANIY HAYOT **(mustaqil ishlash darsi)**

Darslik matnidan foydalangan holda quyidagi jadval-
larni to'lg'azing:

1-jadval.

Buxoro davlatida madaniy hayot

XVI asr—XIX asr 1-yarmida madaniy taraqqiyotning XIV—XV asr- lar darajasida bo'lmaganligi- ning sabablari	Adabiyotning yirik namoyon- dalari va ularning asarlari	Ilm-fan namoyondalari va ularning asarlari	Me'morchilik
1	2	3	4

2-jadval.

Xiva xonligida madaniy hayot

Adabiyotning yirik namoyondalari va ular yaratgan asarlar	Ilm-fan namoyondalari va ular yaratgan asarlar	Me'morchilik
1	2	3

3-jadval.

Qo'qon xonligida madaniy hayot

Adabiyot va uning yirik namoyondalari	Ilm-fan namoyondalari hamda asarlari	Me'morchilik
1	2	3

YETTINCHI BOB YUZASIDAN TEST TOPSHIRIQLARI

1. Nega XVI asrdan boshlab O'rta Osiyo xalqlari madaniy hayoti orqaga ketgan va turg'unlik holatiga tushib qolgan?

A. Yagona, markazlashgan qudratli davlatning bo'lmaganligi uchun

B. Markazlashgan davlat parchalanganligi, xonliklar o'rtasidagi muttasil urush davom etganligi, o'zaro ichki urushlar tinimsiz davom etganligi uchun

D. Ma'naviy hayotni diniy mutaassiblik, xurofot va fanatizm egallaganligi uchun

E. Xonliklar jahon hamjamiyatida deyarli hech qanday rol o'ynamaganligi uchun

F. Javoblarning B, V bandlari to'g'ri

2. Xonliklardagi madrasalarda qaysi tillar mukammal o'rgatilgan?

A. Fors va o'zbek tillari

B. Arab va fors tillari

D. Arab, o'zbek, hind tillari

E. Arab, fors, o'zbek tillari

F. To'g'ri javob yo'q

3. «Tarixi Abulfayzxon» kitobining muallifi kim?

A. Abdurahmon Toile

B. Sayido Nasafiy

D. Turdi

E. Mir Olim Buxoriy

F. To'g'ri javob yo'q

4. Fazlulloh ibn Ro'zbehon qanday asarni yozgan?

A. «Gulshan ul-muluk»

B. «Mehmonnomayi Buxoro»

D. «Tarixi Rashidiy»

E. «Shayboniynoma»

F. To'g'ri javob yo'q

5. Xivadagi Toshhovli qasrini kim qurdirgan?

A. Muhammad Rahimxon

B. Olohqulixon

D. Muhammad Aminxon

E. Muhammad Rizo Ogahiy

F. To'g'ri javob yo'q

6. «Tarixi jahonnumoyi» asarining muallifi kim?

A. Mirzo Qalandar Mushrif Isfarangiy

B. Avaz Muhammad Attor Ho'qandiy

- D. Hakimxon To'ra
- E. Boborahim Mashrab
- F. To'g'ri javob yo'q

7. O'rta Osiyo xalqlari madaniy hayotida diniy mutaassiblik, xurofot va jaholatning tanho hukmronlikka erishuvining salbiy oqibatlar:

- A. Xalqlar hayotidan aniq va tabiiy fanlarni deyarli butunlay qisib chiqargan
- B. Hukmdorlar ilm-fanga, ma'rifatga homiylik qila olmay qolganlar
- D. Hukmdorlar ruhoniylar qo'lida qo'g'irchoqqa aylanib qolganlar
- E. Har qanday hur fikr quvg'in qilingan
- F. Har qanday bosqinchilik urushi g'azovot deb e'lon qilinishga olib kelgan

8. O'zbek qabilalarining o'zaro qirg'inharot urushlaridan nolib, ularni insofqa chaqiruvchi quyidagi satrlarni qaysi shoir bitgan edi?

- Tor ko'ngullik beklar, man-man demang, kenglik qiling,
To'qson ikki bo'li o'zbek yurtidir, tenglik qiling.
Birni qipchoqu, xitoyu, bimi yuz, nayman demang,
Qirqu yuz, ming son bo'lib, bir jon oyinlik qiling.
Bir yaqodin bosh chiqorib, bircha bir to'ng'a kirib,
Bir o'ngurlik, bir tirizlik, bir yaqo, yenglik qiling.
- A. Nodirabegim
 - B. Turdi
 - D. Nasafiy
 - E. Bedil
 - F. Gulxaniy

9. Abulg'ozixon haqida: «Jahon «Shajarai turk» ismli tarixiy asari uchun undan minnatdordir» degan fikrni qaysi sharqshunos olim aytgan edi?

- A. Bartold
- B. Vamberi
- D. Bertels
- E. Masson
- F. Yakubovskiy

Sakkizinchi bob

O'RTA OSIYO DAVLATLARINING XALQARO MUNOSABATLARI

42-§. XVI—XIX ASRNING BIRINCHI YARMIDA XALQARO MUNOSABATLAR

Buxoro va Hindiston munosabatlari

O'zbekiston hududida tashkil topgan mustaqil davlatlar Buyuk Ipak yo'li tufayli

Osiyo va Yevropa davlatlari bilan savdo va elchilik munosabatlarini muntazam davom ettirganlar. XVI asrga kelib dengiz savdo yo'lining ochilishi va Buyuk Ipak yo'li xalqaro nufuzi pasayishiga qaramay, xalqaro munosabatlar davom etdi.

Shayboniylar Movarounnahrda hokimiyat tepasiga kelgan XVI asrda Osiyoning bir-biriga tutash qismida uch siyosiy kuch kurash maydoniga chiqqan edi. Bular — Movarounnahrda shayboniylar, Eronda safaviylar va Hindistonda boburiylar edi.

O'z-o'zidan ravshanki, xalqaro va o'zaro munosabatlarda bu uch sulola manfaatlarining to'qnashmasligi mumkin emas edi.

Ularning manfaatlari bor kuchi bilan to'qnashgan nuqta Xuroson bo'lib chiqdi.

Chunki, Xuroson ham harbiy-siyosiy, ham savdo-iqtisodiy jihatdan muhim o'rin tutar edi.

Bundan tashqari, Xuroson — Movarounnahr, Eron va Hindiston yo'nalishida o'ziga xos darvoza vazifasini ham o'tar edi.

Xurosonni nazorat qilish masalasida shayboniylar va safaviylar o'rtasida keskin kurash ketgan.

Bu masalada Muhammad Shayboniyxon, Ubaydulaxon va Abdullaxonlar davrida shayboniylar ustunlik qilganlar. Qolgan vaqtlarda safaviylarning qo'li baland kelgan. Oxir-oqibatda, ular Xurosonni Movarounnahrda ajratib tashlashga muvaffaq bo'lganlar.

Shayboniy Abdullaxon II safaviylarga qarshi kurashda boburiylar bilan birga harakat qilishga intilgan. Bunda u ham shayboniylarning, ham boburiylarning sunna mazhabiga mansubligiga umid bog'lagan. Biroq, Abdullaxon II boburiylar bilan birga ittifoq tuzishga erisha olmagan. Buning asosiy sababi shayboniylar va boburiylar o'rtasida mavjud bo'lgan sulolaviy va mulkiy nizolar edi. Shunday bo'lsa-da, Buxoro va Hindiston munosabatlari to'xtab qolgan emas. Movarounnahr va Hindiston o'rtasidagi elchilik munosabatlari dastlab amalda Hindiston hukmdori Bobur hukmronligi davridayoq (1526—1530) boshlangan edi. Akbarshoh davrida mamlakat hududi kengaygan, markazlashgan hokimiyat kuchaygan edi. Akbarshoh davrida Buxoro xonligi ham Abdullaxon boshchiligida yirik markazlashgan davlatga aylangan edi.

O'z davlatini yanada mustahkamlash, uning qudratini oshirishda chet davlatlar bilan yaxshi munosabatlar o'rnatish zarurligini har ikkala mamlakatning hukmdorlari yaxshi tushunishar edilar. Shu sababdan 1572-yili Abdullaxon Akbarshoh huzuriga o'zining elchilarini yuboradi. Buxorolik elchilar o'z hukmdorlarining sovg'a-salomlari va oliy hukmdor maktublarini olib kelganlar. Bir qancha vaqtdan so'ng yana javob sovg'a-salomlari va maktublarini olib o'z vatanlariga qaytganlar. Abdullaxon o'z maktubida ikki davlat o'rtasida do'stlik munosabatlarini mustahkamlash istagini bayon qilgan edi. Bundan ko'zlangan maqsad boshqa davlatlar tomonidan bo'lishi mumkin bo'lgan hujum xavfiga qarshi ittifoq tuzish edi. 1577-yili Abdullaxon Hindistonga ikkinchi marta elchi yuborgan. Bu elchi almashishlardan siyosiy maqsad ko'zlangan edi. Xususan, boburiylar Erondan Qandahorni tortib olishni, Buxoro esa Badaxshonni bo'ysundirishni rejalashtirgan edi. Oxiri, 1584-yili Badaxshon Abdullaxon tomonidan bosib olinadi.

Abdullaxon endi Akbarshoh huzuriga uchinchi marta elchi yuboradi. Elchi Buxoro xoni yuborgan maktubni Akbarshohga topshiradi. Maktubda Abdullaxon Badaxshon fath etilgani sabablarini tushuntirishga harakat qil-

gan edi. Abdullaxonning fikricha, musulmonlarning muqaddas shaharlari bo'lgan Makka va Madinaga boradigan yo'l Badaxshon orqali o'tardi. Biroq, bu shaharni g'ayridinlar egallab olgan edilar. Shaharni g'ayridinlardan tozalash maqsadida u Badaxshonni bosib olgan.

1586-yilning 23-avgustida Hindiston hukmdori Abdullaxonning elchilariga qo'shib o'zining elchisini Buxoroga yuboradi. Akbarshoh o'z maktubida Abdullaxonga Turkiya Eronning bir qismini bosib olganligidan tashvishlanayotganligini, Buxoro va Hindiston birgalikda Eronga yordam ko'rsatishi zarurligini ma'lum qilgan edi. Biroq, Abdullaxon bunday ittifoqqa rozi bo'lmaydi. Chunki, u Turkiya bilan munosabatning buzilishini istamas, iloji bo'lsa Eronga qarshi kurashda Turkiya bilan ittifoq tuzish niyatida edi. Akbarshohning elchilari 1589-yildagina vatanlariga qaytib keldilar. Bu paytda Eron hukmdori shoh Abbos I Eronni birlashtirishga, mustahkamlab olishga erishgan edi. Ana shunday sharoitda Badaxshonda Abdullaxonga qarshi isyon ko'tarildi. Buxoroda isyonda Akbarshohning qo'li bor degan gumon paydo bo'ladi. Badaxshon hukmdori Abdullaxonning o'g'li Abdulmo'min Akbarshohga maktub yo'llab, undan boshpana berilgan badaxshonlik isyonchilarni Buxoroga qaytarib yuborishni, qizini o'ziga nikohlab berishni, hatto Hindistonning bir qismini tortiq qilishini talab qiladi. Natijada, ikki davlat o'rtasidagi munosabatlarga sovuqchilik tushadi. To'g'ri, keyinchalik Abdullaxon Akbarshoh huzuriga navbatdagi elchisini yuborib, o'g'lining xatti-harakati uchun undan uzr so'ragan. Tomonlar shundan keyin yana bir necha bor elchilar almashishgan.

Akbarshohning o'g'li Jahongirshoh (1605—1627) va Buxoro xoni Imomqulixon davrida ikkala davlat o'rtasidagi elchilik munosabatlari davom etgan. Lekin, Jahongirshohning o'g'li Shoh Jahon (1628—1658) davrida Hindiston-Buxoro munosabatlarida keskinlik yuz bergan. Bu Buxoro xoni Nadrmuhammadxon (1642—1645) va uning o'g'li Abdulaziz o'rtasida yuz bergan nizo bilan bog'liq edi. Taxtdan ag'darilgan Nadrmuhammad

Balxga qochadi. U o'g'liga qarshi kurashish maqsadida Hindiston hukmdori Shoh Jahondan yordam so'raydi. Shoh Jahon shu payt qulay fursat kutib Balxni bosib olish niyatida yurar edi. Shoh Jahon darhol Balx ustiga «yordam» jo'natadi. Biroq, hind qo'shinlarining Balxga yordamga emas, balki uni bosib olish uchun kelganligini tushunib yetgan Nadrmuhammadxon Eronga qochadi.

Eron hukmdori shoh Abbos (1642—1667) uni samimiy yaxshi kutib oladi va unga Balxnigina emas, kerak bo'lsa Buxoro taxtini qaytarib olishda ham yordam berishni va'da qiladi. Biroq, buning oqibatlarini nimaga olib kelishini tushungan Nadrmuhammadxon bu taklifni qabul qilmaydi.

1645-yili Abdulazizxon Buxoro bilan kifoyalanib qolmay, Balxni qamal qiladi. Oxir-oqibat hind qo'shinlari o'z vatanlariga qaytib ketishga majbur bo'ladilar. Balx hukmdorligini Abdulazizxon inisi Subhonqulixonga topshiradi. Otasi Nadrmuhammadxonning Balxni qaytarib olish yo'lidagi urinishlari behuda ketadi va u oxiri haj ziyoratiga ketayotib Eronda vafot etadi.

Avrangzeb Olamgir (1658—1707) bilan Abdulazizxon hamda Subhonqulixon o'rtalarida elchilik munosabatlari davom etgan. Xususan, Buxoro xoni Subhonqulixonning Avrangzebga yuborgan maktubida o'z davlatlari manfaatlaridan kelib chiqqan holda boshqa davlatlarga qarshi kurashda birgalikda harakat qilish istaklari bayon etilgan edi.

Ma'lumki, Avrangzebdan keyin boburiylar sulolasi yana 150 yil hukmronlik qilgan bo'lsa-da, bu saltanat tanazzul tomon yuz tutib bordi. Shunday bo'lsa-da, Hindiston va Buxoro munosabatlari to'xtab qolmagan. Savdo aloqalari ham to'xtovsiz davom etgan.

**O'rta Osiyo
xonliklarining Afg'oniston,
Eron hamda Xitoy bilan
munosabatlari**

O'rta Osiyo davlatlarining eng yaqin qo'shnisi Afg'oniston edi. Mustaqil Afg'oniston davlati 1747-yilda tashkil top-

gan. Yosh afg'on davlati bilan Buxoro xonligi o'rtasidagi munosabatlar do'stona ruhda bo'lmagan. Bunga ikkala tomonning Amudaryoning janubiy qirg'og'idagi o'zbek-

lar istiqomat qilib turgan hududlarni o'z tasarruflarida saqlashga urinishlari sabab bo'lgan edi. Xususan, 1751-yili Afg'oniston hukmdori Ahmadshoh (1747—1773) Amudaryoning janubida istiqomat qilib turgan o'zbeklarning yerlarini bosib olish maqsadida qo'shin yuboradi. Bu hududda joylashgan kichik-kichik o'zbek bekliklari o'zaro urushlar oqibatida zaiflashib qolgan edilar. Natijada, ular Afg'onistonning vassaliga aylanib qoldilar. Balx qal'asini afg'on garnizoni egallaydi. Balxni Ahmadshohning noyibi boshqara boshladi.

1768-yilda mahalliy o'zbeklar afg'onlarning jabr-zulmiga qarshi qo'zg'olon ko'taradilar. Qo'zg'olonchilarni Buxoro qo'llab-quvvatladi. Ana shunday vaziyatda Ahmadshohning o'zi qo'shin tortib kelib qo'zg'olonni bostiradi. So'ngra u Buxoroga qarshi yurish boshlash rejasini tuzadi. Biroq Ahmadshohning Hindistonda sikhlariga qarshi urush bilan bandligi uni niyatidan qaytaradi va 1769-yili Buxoro bilan tinchlik shartnomasi tuzadi.

1789-yili o'zbeklar yana qo'zg'olon ko'taradilar. Qo'zg'olonchilarga bu safar ham Buxoro amaliy yordam ko'rsatadi. Afg'oniston hukmdori Temurshoh (1773—1793) 100 minglik lashkar bilan Balxga qarab yuradi. Biroq, Buxoroga qarshi yurish qilishga Temurshohning yuragi dov bermadi va u Buxoro bilan sulh shartnomasi tuzishga majbur bo'ldi. Shartnomaga ko'ra Amudaryo har ikki davlat o'rtasidagi chegara deb tan olindi.

Buxoro va Afg'oniston o'rtasidagi munosabatlarda keskinlik saqlanib qolgan bo'lsa-da, ular o'rtasida savdo aloqalari uzluksiz davom etgan. Kobul shahri savdo aloqalarida alohida o'rin tutdi. Kobul orqali Buxorodan Hindistonga Buxoroda ishlab chiqarilgan tovarlar, Buxoro orqali Afg'onistonga Rossiya tovarlari, Hindistondan Buxoroga hind tovarlari orilgan savdo karvonlari qatnab turdi.

O'rta Osiyo xonliklarining o'z qo'shnilari Eron bilan ham munosabatlari yaxshi emasdi. Ular o'rtasida doimiy dushmanchilik kayfiyati mavjud edi. Buxoro xoni Abdullaxon Eron shohi Abbas II ga (1587—1628) qarshi

tahdid solib turish maqsadida Turkiya hukmdori sulton Murod bilan ittifoq tuzishga uringan. Keyinchalik Eron-Buxoro munosabatlari yomonlashgach, Buxoro xoni Subhonqulixon davrida turk sultoni Ahmad II (1691—1695) bilan elchilik aloqalar o'rnatilgan. Biroq, u davrdagi davlatlararo rasmiy munosabatlar asosan elchi almashish bilan cheklangandi. Davlatlar o'rtasidagi kelishuv ularga biror-bir huquqiy majburiyat yuklamagan edi.

Xullas, Eron bilan munosabatlar keskinlashib borgan. 1739—1741-yillarda Eron shohi Nodirshoh qo'shinlarining Buxoro va Xivani ishg'ol etganligi bu fikrning yorqin isbotidir.

O'rta Osiyo xonliklaridan Qo'qon xonligining Xitoy bilan munosabatlari ham do'stona emas edi. Bunga, birinchidan, Sin imperiyasining 1755—1759-yillar mobaynida Sharqiy Turkistonni o'ziga bo'ysundirishi, ikkinchidan, uning Qo'qon xonligini kuchsizlantirishga urinishi, uchinchidan, Qo'qon xonligi Sharqiy Turkistonda o'z hokimiyatini o'rnatishga intilishi sabab bo'lgan. Shu maqsadda u Sharqiy Turkiston sari o'z chegarasini tobora kengaytirib borayotgan edi. Ayniqsa, XIX asrning 20-yillarida Qo'qon-Xitoy munosabatlari yanada keskinlashdi. Bunga Qo'qon xoni Muhammad Alixonning Sharqiy turkistonliklarning Jahongirxo'ja boshchiligida Sin imperiyasiga qarshi 1825-yilda boshlangan milliy ozodlik kurashiga aralashuvi sabab bo'ldi. Bu kurash 1828-yilgacha davom etgan.

Bunga javoban Xitoy hukumati 1829-yilda Qo'qonning Sharqiy Turkistonda olib boradigan savdo ishlarini taqiqladi. Bundan tashqari, u yerdagi o'rta osiyolik savdogarlarning aksariyat qismini haydab yubordi va mulklarini esa musodara etdi.

Bunga javoban Qo'qon xoni Muhammad Ali sharqiy turkistonliklarning Xitoyga qarshi ozodlik kurashi rahbari Jahongirxo'janing ukasi Yusufxo'jani qo'llab-quvvatlay boshlaydi. 1830-yilda uning ixtiyoriga Haqquli boshchiligida qo'shin jo'natadi. Yusufxo'jani mahalliy aholi qo'llab-quvvatlaydi. Natijada, u Koshg'arni egal-

laydi va Yorkentni egallash uchun harbiy harakatni davom ettiradi. Bu hol Xitoy hukumatini qattiq tashvishga solib qo'yadi. Hukumat Yusufxo'jaga qarshi katta qo'shin yuboradi.

Qo'zg'olonchilarning safida mustahkam birlik yo'qligi hamda Buxoro — Qo'qon munosabatlari yomonlashuvi oqibatida Qo'qon xonining Sharqiy Turkistonga yuborgan qo'shinini chaqirib olishi tufayli Yusufxo'ja mag'lubiyatga uchraydi.

Oqibatda, Yusufxo'ja Sharqiy Turkistonni tashlab chiqadi. U bilan 70 ming uyg'ur oilasi Farg'ona vodiysiga ko'chib keladi. Xitoyning Qo'qon xonligiga nisbatan savdo ishlarida qo'llagan taqiqi Xitoy uchun hech qanday naf keltirmagan.

Aksincha, Qo'qon xonligi o'z chegaralarini tobora Sharqiy Turkiston tomon kengaytirish siyosatini davom ettirgan. Ayni paytda Sin imperiyasi moliyaviy qiyinchiliklar tufayli ochiqdan-ochiq Qo'qon xonligiga qarshi urush harakatlari olib borishga qodir emas edi.

Shuning uchun ham Xitoy Qo'qon bilan munosabatlarini tinch yo'l bilan tartibga solishni afzal ko'rgan. Natijada, 1832-yilda Pekinda Xitoy — Qo'qon shartnomasi imzolangan. Unga ko'ra, Qo'qon Jahongirxo'ja avlodlarini Sharqiy Turkistonga o'tkazmaslik majburiyatini olgan.

Xitoy esa Sharqiy Turkistonda qo'qonlik savdogarlar faoliyatini taqiqlashni bekor qilgan. Ikkinchidan, Qo'qon savdogarlariga Sharqiy Turkistonda boj to'lamasdan savdo qilish huquqi berilgan. Uchinchidan, Sharqiy Turkistondan Qo'qon savdogarlari chiqarib yuborilganda ularning tortib olingan mol-mulklari evaziga Qo'qon xoniga tovon to'langan. To'rtinchidan, Sharqiy Turkistonda savdo qiluvchi o'rta osiyolik savdogarlar to'laydigan to'lovlarini yig'ib olish huquqi Qo'qon xonligiga berilgan.

Bu to'lovlarni yig'ib olish uchun Qo'qon xonligi Sharqiy Turkistonning qator shaharlariga o'z oqsoqollarini tayinlagan. Ular, ayni paytda, Qo'qon xonligining o'sha shahardagi siyosiy vakili ham hisoblangan.

O'rta Osiyo orqali qadim zamonlardayoq Old Osiyodan Xitoy va Mo'g'ulistonga savdo yo'li o'tgan edi. Ayni paytda Xitoydan savdo karvonlari O'rta Osiyoga ham qatnar edi. Bu davlatlar o'rtasidagi savdo aloqalari keyingi paytda ham davom etgan. Biroq, endilikda u avvalgiday ko'lamda emas edi. Chunki, O'rta Osiyo, birinchidan, Buyuk Ipak yo'lining yopilishi, ikkinchidan, buyuk geografik kashfiyotlar tufayli dengiz savdo yo'lining ochilishi bilan tashqi savdoda tranzit vazifasini o'tay olmay qolgandi. Buning ustiga O'rta Osiyo xonliklarining o'zlariga dushmanchilik munosabatida bo'lgan davlatlar bilan chegaradosh bo'lishi ularning Osiyo davlatlari bilan savdo aloqalarining pasayishiga olib kelgan. Endilikda savdo yo'llari borgan sari xatarli bo'lib qolgan. Ana shunday bir sharoitda Rossiya bilan savdo aloqalarini kuchaytirish hayotiy zaruratga aylandi.

Savol va topshiriqlar

1. Qanday omillar Buxoro amirligi bilan Hindiston o'rtasidagi elchilik va savdo munosabatlarining faollashuviga sabab bo'lgan?
2. Xonliklarning Eron va Afg'oniston bilan munosabatlari haqida so'zlab bering.
3. Qo'qon va Xitoy munosabatlari haqida nimalarni bilib oldingiz?
4. 1832-yilgi Xitoy-Qo'qon shartnomasi haqida so'zlab bering.

Bularni takrorlab boring:

- XVI asr boshlarida Osiyo qit'asida uch siyosiy kuch maydonga keldi. Bular — shayboniylar, safaviylar va boburiylar edi;
- Bu uch siyosiy kuchning manfaatlari to'qnashgan asosiy hudud Xuroson bo'ldi;
- Xuroson ham harbiy-siyosiy, ham savdo-iqtisodiy jihatdan muhim ahamiyatga ega bo'lgan;
- Shayboniylar va safaviylar o'rtasidagi kurash oqibatida Xuroson shayboniylar qo'lidan ketgan;
- Boburiylar davrida Buxoro-Hindiston savdo-elchilik munosabatlari davom etgan;
- O'rta Osiyo davlatlari o'z qo'shnilari Eron va Afg'oniston bilan dushmanlik munosabatida yashagan;
- Qo'qon Xitoy bilan munosabatlarda Sharqiy Turkistonda qator imtiyozlarga erishgan.

43-§. O'RTA OSIYO VA ROSSIYA

**Antony Jenkinsonning
O'rta Osiyoga kelishi**

O'rta Osiyo xonliklarining
Rossiya bilan munosabatlari
XVI asrning ikkinchi yarmi-

dan rivojlana bordi. Buxoro xoni Abdullaxon II Rossiya bilan savdo aloqalarini yaxshilashga harakat qilar ekan, bu orqali o'z davlatining siyosiy ahvolini mustahkamlashga erishmoqchi edi. Chunki, podsho Ivan Grozniy (1530—1584) davrida Rossiyaning mavqei kuchaya bordi. Ivan Grozniy davrida Qozon xonligi (1552-yil), Hojitarxon xonligi (1556), Volga bo'ylari va G'arbiy Sibir hududlari Rossiya tomonidan bosib olingan edi. Bu hol Rossiyaga savdo yo'llarini nazorat qilish imkonini berdi.

Volga atrofidagi viloyatlarda savdo-sotiq ishlarini olib borish O'rta Osiyo xonliklaridan kelgan savdogarlar uchun ancha qulay edi. Ularga eng yaqin qo'shni mamlakat Rossiya bo'lib qolgandi. Bu hol ko'p jihatdan qozon tatarlari, orenburgliklar va boshqirdlar bilan din va til yaqinligi bilan izohlanar edi. Shuning uchun ham 1557—1558-yillarda Buxoro va Xiva xonligidan Moskva-ga elchilar yuborilgan.

Ayni paytda, Rossiya ham O'rta Osiyo xonliklari bilan savdo-sotiq ishlarini rivojlantirishdan manfaatdor edi. Bu manfaatdorlik avvalo xonliklarning Rossiya tovarlarini sotish uchun qulay bozorligida edi. Ikkinchidan esa, Rossiya O'rta Osiyo xonliklari orqali Osiyoning boshqa mamlakatlari bilan savdo aloqalarini rivojlantirish imkoniga ega bo'lardi. Bunda birinchi navbatda Hindistonga chiqish maqsadi hisobga olingan edi. 1555-yili Moskvada tashkil etilgan va ingliz-rus iqtisodiy aloqalari rivojiga xizmat qiluvchi «Moskva kompaniyasi» deb ataluvchi kompaniya Rossiya orqali Sharqqa yo'l ochish uchun bu kompaniya vakilini 1558-yili Xiva va Buxoroga yuboradi. Elchi Antony Jenkinson Buxoro xoni Abdullaxon tomonidan qabul qilindi. Elchi xonliklarning xalqaro va ichki savdo imkoniyatlarini chuqur o'rgandi va o'z taassurotlarini «Rossiyadagi Moskva

shahridan Baqtriyadagi Buxoro shahrigacha 1558-yilgi sayohat» nomli esdaliklarida bayon etadi.

Antoniý Jenkinson elchiligi natijasida Rossiya va O'rta Osiyo xalqlari o'rtasida yaxshi savdo va diplomatik aloqalar yo'lga qo'yildi.

Ashtarxoniyalar va Rossiya

XVII asr mobaynida Rossiya-da markazlashgan davlat tarkibi topa bordi. Asr oxiriga

kelganda Rossiya Yevropaning qudratli davlatlaridan biriga aylandi. Butunrossiya bozori shakllandi. Bu omillar Rossiyaning O'rta Osiyo xonliklari bilan savdo munosabatlarini yanada rivojlantirishni hayotiy zaruriyatga aylantirib qo'ydi. Natijada, Rossiya 1620-yildan 1675-yilgacha o'tgan davrda xonliklarga 4 marta elchilarini yubordi. Natijada, XVII asrda O'rta Osiyo va Rossiya o'rtasida savdoda tovar ayirboshlash 100 ming so'mni tashkil etdi.

To'g'ri, Rossiya elchilari O'rta Osiyo xonliklari bilan nafaqat savdo aloqalarini kengaytirish masalalarini, ayni paytda Rossiya davlati manfaatiga xizmat qiluvchi boshqa masalalarni ham hal etishlari kerak edi. Xususan, 1620-yilda Buxoroga yuborilgan Rossiya elchisi I.D.Xoxlov (u Buxoro xoni Imomqulixon tomonidan 1619-yilda Rossiyaga yuborgan elchisiga javoban kelgan edi) savdo va elchilik aloqalarini yanada rivojlantirish masalalari bilan bir qatorda, xonlikdagi rus asirlarini ozod qilish, Buxoro xonligining tashqi siyosiy ahvoli to'g'risida ma'lumot to'plash, Rossiyaning kuch-qudratiga xonni ishontirish, Buxoro xonligi qurolli kuchlari, xonlikning xazinasi ahvolini batafsil aniqlash, Buxoro-Xiva munosabatlari masalalarini ham taftish qilib chiqishi lozim edi. I.D.Xoxlov o'ziga yuklatilgan vazifalarni bajargan.

O'rta Osiyo xonliklarining Rossiya bilan munosabati

XVIII asrda O'rta Osiyo xonliklari va Rossiya o'rtasidagi munosabatlarda yangi davr boshlandi. Bu davr Rossiya-

ning O'rta Osiyo xonliklari bilan savdo-sotiq aloqalarida kamsitish siyosatining boshlanganligi, O'zbekistonning

tabiiy boyliklariga ko'z olaytirish, siyosiy maqsadlarni ro'yobga chiqarish kayfiyatining kuchayganligi yaqqol ko'zga tashlanib turadi.

Buxoro xoni Abulfayzxon 1716-yili Moskvaga yuborgan elchisi oldiga haddan tashqari yuqori bo'lgan boj-xona soliqlarini kamaytirishga erishish vazifasini qo'ydi.

Pyotr I Buxoro va Xiva xonliklarini siyosiy jihatdan Rossiyaga teng davlatlar emas deb, ular bilan hisoblashmay qo'ydi. U amalda xonliklarga tazyiq o'tkaza boshladi. To'g'ri, bunga xonliklardagi ichki siyosiy ahvol ham qulay sharoit yaratib bergan edi. Masalan, Xiva xoni Shohniyoz 1700-yilda Pyotr I huzuriga yashirincha elchi yuborib Xivani Rossiya tobeligiga qabul qilishni so'ragan. 1709-yili toju taxt vorisi Muhammad ham shunday qilgan edi. Pyotr I Xiva taxtiga jo'natgan yorlig'ida bunday gaplar yozilgan edi: «Shohona muruvvat ko'rsatib, xonning qo'l ostidagi jamiki narsalari bilan birga abadiy tobeligimizga olamiz». Biroq, bu niyat u davrda amalga oshmay qoldi. Xivada boshlanib ketgan ichki urushlar va Rossiyaning «Shimoliy urush» bilan bandligi bunga sabab bo'ldi.

1711-yili Turkiya bilan bo'lgan urushda Rossiyaning Azov dengizini boy berishi Rossiyaning e'tiborini yana O'rta Osiyoga qaratdi. Endi Rossiyani bevosita uning oltin boyliklari qiziqtira boshladi. Xiva xoni Sherg'ozixon (1714—1728) Rossiya tobeligini tan olmagan. 1713-yili Astraxanga kelgan Xiva elchisi Xoja Nafas rus ma'murlariga Amudaryo qumlari oltinga boyligini, sohilda istiqomat qiluvchi aholi ko'p miqdorda oltin yuvib olayotganini aytadi. Sibir harbiy gubernatori Matvey Gagarin Pyotr I ga «Kichik Buxoro (Torim daryosi havzasi)dagi Yorkent shahri yaqinidagi daryo qumi oltinga juda boy», deb xabar beradi. Ana shu ma'lumotlar ta'sirida Pyotr I o'zbek xonliklariga kirib borish rejasini tuzadi. U ikki harbiy ekspeditsiya tashkil etadi. Biriga Aleksandr Bekovich-Cherkasskiyni, ikkinchisiga kapitan Ivan Buxgolsni rahbar etib tayinlaydi. Bekovich-cherkasskiy harbiy ekspeditsiyasi haqida siz yuqorida ma'lumot oldingiz.

Buxgols «ekspeditsiyasi»ga kelsak, uning qo'shini 1715-yili Toboldan Irtish bo'ylab yuqoriga yo'l oladi. Biroq, u qalmoqlar hujumiga yo'liqib yo'lini davom ettira olmagan.

Bu muvaffaqiyatsizliklarga qaramay, Pyotr I o'z maqsadidan qaytmadi. O'rta Osiyoga kelgusida uyushtirilishi mumkin bo'lgan harbiy yurishlarga qulayligini ta'minlash maqsadida 1718-yilda Irtish daryosi sohilida yetti qo'rg'ondan iborat shahar (Semipalastinsk) qurirdi.

1717-yili Buxoro xoni Peterburgga elchi yubordi. Elchi Qulibek Abulfayzxonning Pyotr I ga shvedlar ustidan qozongan g'alabasi munosabati bilan yozilgan qutlov maktubini topshirdi. Abulfayzxon o'z maktubida ayni paytda Buxoroga Rossiya elchisi yuborilishini so'ragan edi. Bunga javoban Rossiya hukumati 1721-yili Florio Benevinini elchi qilib jo'natdi. Rossiya elchisiga Sharq mamlakatlariga olib boriladigan suv va quruqlik yo'llarini o'rganish; rus savdosini kengaytirish imkoniyatlarini aniqlash; Buxoro xonini Rossiya bilan ittifoq tuzishga ko'ndirish; xonga rus gvardiyachilarini taklif qilish; qayerda qancha oltin borligini aniqlash va ularni xaritagatashirish; xonlikdagi qal'alar va qo'shinlari ahvolini o'rganish hamda xonlikning ichki va tashqi ahvolini, shuningdek, Eron, Xiva va Turkiya bilan o'zaro munosabatlarini o'rganish vazifalari ham yuklatilgan edi.

F.Benevini Buxoroda 3,5 yil turdi va o'z oldiga qo'yilgan masalalar bo'yicha qimmatli ma'lumotlar to'plashga muvaffaq bo'ldi va hukumatning barcha topshiriqlarini bajargan F.Benevini 1725-yilda Peterburgga qaytib keldi.

1730-yilda qozoq xoni Abulxayr elchi jo'natib, Rossiya tobeligiga o'tish istagini bildiradi. 1732-yilda Kichik juz, Semekexon boshchiligidagi O'rta juz ham Rossiya tobeligiga o'tadi.

1734-yili senat kotibi I.Kirillov boshchiligidagi harbiy guruh tayinlandi. U «Orol dengizida Rossiya bayrog'ini ko'tarish», «Buxoro va undan Hindistonga» boradigan yo'lni ochish, oltin konlarini izlashni davom ettirishi

lozim edi. 1735-yilda Kirillov guruhi Or daryosi bo'yida Orenburg shahrini, Or qal'asini qurdi, Yoyiq va Irtish sohillarida istehkomlar barpo etdi. Xonliklar savdogarlari Rossiya bilan Orenburgda savdo-sotiq qiladigan bo'lishdi.

1780-yilda tarjimon Bekchurin Buxoroga, 90-yillarda esa mayor Blankennagel Xivaga jo'natildi. Ularning asosiy vazifasi savdo imkoniyatlarini aniqlash va tijorat muassasalarini ochishdan iborat edi.

XVIII asrning ikkinchi yarmidan boshlab Rossiya savdo-iqtisodiy va siyosiy aloqalarida O'rta Osiyo xonliklarining ahamiyati yanada orta bordi. Bunga, birinchidan, Rossiyada krepostnoylik tuzumi chuqur inqirozga uchray boshlaganligi, ikkinchidan, Osiyoda, xususan Hindistonda Angliya ta'sirining kuchayib borayotganligi sabab bo'lgan.

XVIII asr oxirlariga kelib Rossiyadan o'zbek xonliklariga olib boradigan uchta savdo yo'li: 1) Volga, Kaspiy dengizi, Mang'ishloq, Xiva, Buxoro, Qo'qon yo'nalishidagi eski savdo yo'li; 2) Orenburg yoki Troitskdan Toshkent orqali Buxoro va Qo'qonga olib boradigan ikkinchi savdo yo'li; 3) Semipalatinsk yoki Petropavlovskdan boshlanib, qozoq cho'llari orqali, Sarisuv daryosi bo'ylab Toshkentga keladigan uchinchi savdo yo'li vujudga keldi. Asosiy savdo yo'llaridan ajralib chiquvchi mayda savdo yo'llari ham mavjud edi. Muhimi, Rossiya endilikda xonliklar bilan savdo-sotiqda qo'llab kelayotgan cheklashlarni bekor qilishga majbur bo'ldi.

Rossiya bilan olib borilgan savdo-sotiq xonliklarda dehqonchilik, chorvachilik va hunarmandchilikning rivojlanishiga, shuningdek, shahar hayotining rivojiga ijobiy ta'sir ko'rsatdi.

O'rta Osiyo xonliklari Rossiyaga asosan yigirilgan ip, bog'dorchilik va chorvachilik mahsulotlari chiqargan. Buxoro xonligiga esa oltin va kumush buyumlar, movut, mato, mo'yna va hokazolar keltirilgan.

XVIII asr oxiri XIX asr boshlarida rus sarmoyasi O'rta Osiyo bozorida yetakchi o'rinni egalladi. Ingliz mollari Rossiya orqali olib kelinar edi. Qisqasi, savdo

aloqalari jonlandi. Buni Rossiyada sanoatning rivojlanayotgani, o'zbek xonliklarining siyosiy jihatdan mustahkamlanayotgani va mahalliy savdo sarmoyasining jonlanayotgani bilan izohlash mumkin edi. Masalan, 1817-yilgi Nijegorod yarmarkasiga rus savdogarlaridan tashqari o'zbek xonliklari, Eron va Hindistondan kelgan savdogarlar ham qatnashgan. XIX asr boshlarida Rossiya o'zbek savdogarlari uchun katta imkoniyatlar yaratdi, ba'zi cheklashlar bekor qilindi. Endi ular Rossiyaning ichkari shaharlariga ham borib savdo qilaoladigan bo'lishdi.

Biroq, shuni alohida ta'kidlash zarurki, Rossiya hukmdorlari hech qachon o'zlarining mash'um niyatlari — O'rta Osiyoni bosib olish niyatlaridan hech voz kechmaganlar.

Pyotr I ning O'rta Osiyoni bosib olish niyatlari uning hayotligida amalga oshmay qoldi. Lekin, keyinchalik, uning vorislari tomonidan amalga oshirildi.

Savol va topshiriqlar

1. Rossiya bilan O'rta Osiyo xonliklarining savdo va elchilik munosabatlari rivojiga qanday omillar sabab bo'ldi?
2. O'rta Osiyo xonliklariga jo'natilgan elchilar qanday maqsadni vazifa qilib olgan?
3. Rossiyaning xonliklarga nisbatan munosabati nega o'zgardi?
4. Rossiyaga boradigan karvon yo'llarining xaritasini chizing.

Bularni takrorlab boring:

- O'rta Osiyo xonliklarining Rossiya bilan munosabatlari XVI asrning ikkinchi yarmidan rivojlana borgan;
- Rossiya bilan O'rta Osiyo xonliklari o'zaro savdo aloqalaridan birday manfaatdor edilar;
- Rossiya elchisi A.Jenkinson «Rossiyadagi Moskva shahridan Baqtriyadagi Buxoro shahrigacha 1558-yilgi sayohat» nomli esdalik kitobini yozgan;
- Rossiya elchilari xonliklar hududida josuslik vazifalarini ham bajarganlar;
- Rossiyani doimo O'rta Osiyo boyliklari qiziqtirib kelgan;
- Turli tashqi va ichki sabablarga ko'ra Pyotr I O'rta Osiyoga harbiy yurish qila olmagan;
- Pyotr I ning orzulari uning avlodlari tomonidan ro'yobga chiqarilgan.

44-§. MINTAQADA ANGLIYA-ROSSIYA RAQOBATCHILIGI

Raqobat sabablari

XIX asrning birinchi yarmida O'rta Osiyoda Angliya — Rossiya munosabatlari nihoyatda keskinlashib ketgan edi. Buning sabablari quyidagicha:

1) Angliya va Rossiyaning yangi mustamlakalarga ega bo'lish yo'lidagi urinishlari;

2) o'z mollarini sotishga imkon beruvchi bozorlarga ega bo'lish istagi;

3) bitmas-tuganmas xom ashyo manbaiga ega bo'lishga intilishlari.

O'rta Osiyo bozorlarida ingliz mollari XIX asrning 20-yillaridan boshlab paydo bo'ldi. Oqibatda, rus savdogarlarining Nijegorod yarmarkasidagi savdo hajmi qisqara boshladi. Mahalliy savdogarlar nazdida ingliz mollarining qadri baland edi.

Inglizlar raqobatini jiddiy xavf deb tushungan P.V.Golubkov boshchiligidagi moskvalik savdogarlar va sanoatchilar guruhi «Rossiya — Osiyo savdo yo'li» nomidagi tijorat shirkatini tuzish taklifi bilan chiqdilar. Ular ishlab chiqqan loyiha bo'yicha bu uyushmaga shirkatning savdo kemalari Kaspiy dengizida erkin suzib yurish huquqini berar, Rossiya va Yevropa mollari Turkiya, Eron, Xiva, Buxoro, Toshkent va Turkiston, shuningdek, Xitoy Turkistoni shaharlari va Hindistonda rus savdogarlari vositachiligidagina sotilar edi. Bu taklif O'rta Osiyo xonliklari manfaatlariga zid edi. Shuning uchun u rad etildi. Oxir-oqibat O'rta Osiyoda Angliya va Rossiya manfaatlari to'qnashdi. Angliyaning maqsadi — Rossiyaning xonliklardagi ta'sirini yo'qqa chiqarish hamda xonliklarni o'z ta'sir doirasida tutishdan iborat edi. Ana shu niyatni ro'yobga chiqarish maqsadida Angliya o'zi tashkil etgan Ost-Hindiston kompaniyasiga tayanib ish olib bordi. Angliya O'rta Osiyoni, xonliklarning ichki va tashqi ahvolini, bir-biri bilan bog'lab turgan yo'llarni yaxshi o'rganish maqsadida bu yerga maxsus ekspeditsiyalar yubora boshladi. Ekspeditsiyalar zim-

masiga, ayni paytda, mahalliy nufuzli kuchlar bilan aloqa o'rnatish vazifasi yuklatilgan edi.

Ingliz ekspeditsiyalari

Ana shunday ekspeditsiyalardan biri 1825-yilda U.Murkroft boshchiligida uyushtirildi. Unga katta vakolatlar berilgan edi. Bu ekspeditsiya aslida razvedka vazifasini bajargan. Murkroft missiyasi Buxoro xonligini har tomonlama o'rganishga, mahalliy hukmdorlar orasida inglizlarga tarafdor guruhni shakllantirishga muvaffaq bo'lgan edi. Bu missiya Rossiya hukmron doiralarini tashvishga solmay qo'ymadi. Natijada, Rossiya hukumati Buxoro amiri Haydarga inglizlarning Buxorodagi xatti-harakatidan noroziligini bildiradi. Rossiya hukmron doiralarida endilikda borgan sari O'rta Osiyoni bosib olish kayfiyati kuchayib bordi.

1832-yilda inglizlar O'rta Osiyoga ikkinchi marta elchi yubordilar. Elchilarga Aleksandr Byorns boshchilik qildi.

A.Byorns o'zini Buxoroda arman savdogari deb tanitdi. Qo'lida hind va afg'on savdogarlarining tavsiyanomalari bo'lgan bu tadbirkor Buxoro xonligi qo'shbegisi bilan aloqa bog'lay oldi. Uning hind va afg'on savdogarlari tavsiyanomalarini olib kelishiga Angliyaning O'rta Osiyo xonliklarining Hindiston bilan savdosini rag'batlantirish siyosati yordam berdi. Angliya Hindistonning O'rta Osiyo bilan savdo aloqalari kengayishiga o'zining O'zbekistondagi ta'sirini qaror toptirishning asosiy yo'li deb qarar edi. Shuning uchun ham Angliya hind savdogarlariga xonliklar bilan savdo-sotiq aloqalarini yo'lga qo'yishlarida katta yordam ko'rsatdi. Xususan hind savdogarlariga qarz hamda ingliz mollari berib turildi. Bu mollar O'rta Osiyoda Rossiya mollari narxidan arzonga sotilar edi.

Aleksandr Byorns mamlakat hududida katta razvedka ma'lumotlari ham to'play oldi. Bu elchilik missiyasi, shubhasiz, O'rta Osiyoda Hindiston orqali ingliz savdosining rivojlanishiga yordam berdi.

1839-yili Angliya Afg'onistonga qarshi harbiy harakat-

lar boshlaganida Rossiya-Angliya munosabatlari yanada keskinlashgan. Agar Afg'oniston bosib olingudek bo'lsa, navbat O'rta Osiyoga kelishi mumkin edi. 1839-yili Hirotida o'z qarorgohini vujudga keltirgan ingliz razvedkasining ayg'oqchilari O'rta Osiyo xonliklariga yuborilib turildi. Xususan, ingliz razvedkasi vakillari Xiva xoni Oллоhqulixon bilan uchrashishga muvaffaq bo'lgan. Oллоhqulixon ingliz ayg'oqchisi orqali Angliya bilan do'stona munosabatlar o'rnatishga rozi ekanligini ma'lum qilgan edi.

Inglizlarning O'rta Osiyodagi harakatlaridan tashvishga tushib qolgan Rossiya 1839-yili Xiva xonligiga qarshi birinchi harbiy yurishni boshladi. Bu yurishga Orenburg gubernatori V.A.Perovskiy rahbarlik qilgan edi. Biroq, bu yurish muvaffaqiyatsizlikka uchradi.

Ayni paytda Buxoro va Xiva xonligida faoliyat ko'rsatayotgan ingliz razvedkasi bu yerda Rossiyaga qarshi siyosat olib borishda davom etdi. Ular Xiva xonini Rossiyaning bo'lajak xuruji oldini olish uchun istehkomlar qurishga, shuningdek, Angliya bilan «do'stona aloqalar» o'rnatishga undar edi.

O'rta Osiyo xonliklari va Rossiya munosabatlarning keskinlashuvi

Ayni paytda O'rta Osiyo xonliklari va Rossiya munosabatlari ham keskinlashib bordi. Bunga podsho Rossiya-

sining O'rta Osiyoda o'z ta'sirini mustahkamlash yo'lidagi harakatlari sabab bo'ldi. Xususan, 1847-yilda Rossiya xonliklarga olib boradigan yo'lda ikkita istehkom qurdi. Ularning biri — Aralsk shahri yaqinida barpo etilgan (Sirdaryo o'zani yaqinida) Raim istehkomi, ikkinchisi Yettisuv Olatog'idagi Kopal istehkomi edi. Bu istehkomlar Rossiya olib borgan siyosatda harbiy yo'l bilan O'rta Osiyoni ishg'ol etish tomon burilish ro'y berganligining yaqqol isbotidir. Bu hol O'rta Osiyo xonliklarini tashvishga solib qo'ydi. Shuning uchun ham Xiva xoni Orenburgga o'z vakillarini yubordi. Xon o'z maktubida yaxshi qo'shnichilik o'rnatish hamda do'stona yashash

istagini bildirgan hamda Raim istehkomini buzib tashlashni iltimos qilgan edi. Xiva elchilari 1847-yilda Peterburgda podsho qabulida bo'lgan bo'lsalar-da, ko'zlangan maqsadga erisha olmadilar.

Xiva xonligining qurol kuchi bilan istehkomni yo'q qilish yo'lidagi urinishlari natija bermadi. Chunki, rus garnizoni yaxshi qurollangan va ta'lim olgan edi.

Ana shunday bir sharoitda Xiva xoni Buxoro amiri Nasrullo yordami bilan o'z maqsadiga erishmoqchi bo'ldi. Biroq, amir istehkomlarning savdo yo'llarini qo'riqlashdagi ahamiyatini bahona qilib Xiva xonining iltimosini rad etdi. Amir Nasrulloning yordamidan umidini uzgan Xiva xoni Muhammad Amin 1848-yili Rossiyaغا yana elchi yuboradi. Biroq, bu elchilik ham muvaffaqiyatsiz yakunlanadi. Ikki o'rtadagi urush harakatlari ro'y berishi xavfi borgan sari kuchayib borar edi.

Bu davrda Qo'qon-Rossiya munosabatlari ham keskinlashgan. Qo'qon xoni Xudoyorxon ham yangi istehkomlar qurilganligidan tashvishga tushib qolgan edi. Natijada, Xudoyorxon Rossiyaga elchi yuboradi. Podsho nomiga yo'llangan maktubda Xudoyorxon Nikolay I ga Qo'qon xonligida jamoat tartibi tiklanganligini, savdo yo'llari yaxshi qo'riqlanayotganligini, rus savdogarlari uchun hech qanday xavf-xatar yo'qligini bildirgan. Ayni paytda Raim istehkomi qurilganligidan norozi ekanligini ma'lum qilgan.

Nikolay I o'z javob maktubida Qo'qonda tartib o'rnatilganligidan mamnun ekanligini bildirgan, biroq, Raim istehkomi buzilmasligini bayon etgan edi. Podsho o'z fikrini Raim istehkomining avvalo Rossiya hududida qurilganligi bilan, ikkinchidan esa, bu istehkom qurilgan hududda tartib va tinchlikni, savdo karvonlari osoyishtaligini ta'minlashga xizmat qilayotganligi bilan «asoslagan» edi. Tez orada Qo'qon qal'asi bo'lgan Oqmasjidni Rossiya bosib olishni mo'ljallayotgani ma'lum bo'lgach, Rossiya — Qo'qon munosabatlari yanada keskinlashdi.

Yuqorida qayd etilganlar ertami-kechmi Rossiyaning O'rta Osiyo xonliklariga qarshi bosqinchilik yurishi boshlanishi muqarrar ekanligini ko'rsatar edi.

Afsuski, O'rta Osiyo xonliklarining Rossiyaga qarshi turishda Angliyaga suyanishi mumkinligi ehtimoli ham o'zini oqlamadi. Bunga Rossiya — Angliya munosabatlari o'zgarish yuz berganligi sabab bo'lgan edi. Afg'onistonga qarshi urushda mag'lubiyatga uchragan Angliya Rossiya bilan kelishishga qaror qiladi. Bu kelishuvga binoan Rossiya O'rta Osiyo bilan cheklandi. U Hindistonga chiqish niyatidan voz kechar, Angliya esa Rossiyaning O'rta Osiyoda olib borgan bosqiniga qarshilik qilmaydigan bo'ldi. Afg'oniston esa Angliya va Rossiyaning Osiyodagi mustamlakalari o'rtasida ularni ajratib turuvchi hudud bo'lib qoldi.

O'rta Osiyo xonliklari endilikda yakkalanib qoldilar. Ularni faqat o'zaro ittifoqlikka saqlab qolishi mumkin edi. Afsuski, ularning o'rtasidagi o'zaro ziddiyat shu darajada kuchli ediki, natijada hatto Rossiya bosqini xavfi ham ularni bir-birlari bilan yaqinlashtira olmadi. Oqibatda, bu hol xonliklar Rossiya istilosi qurboni bo'lishiga yo'l ochib berdi.

Savol va topshiriqlar

1. O'rta Osiyoda Rossiya — Angliya munosabatlari qanday vazifalarni bajarganlar?
2. O'rta Osiyoga yuborilgan missiyalari qanday vazifalarni bajarganlar?
3. Rossiyaning O'rta Osiyoga harbiy yurishi muqarrarligini ravshan qilib qo'ygan misollarni daftaringizga qayd eting.
4. Nega Angliya Rossiyaning O'rta Osiyo xonliklariga qarshi boshlanishi muqarrar bo'lib qolgan harbiy harakatlarining oldini olmagan?
5. Nega umumiy dushman — Rossiya bosqini xavfiga qarshi uch xonlik o'zaro ittifoq tuza olmaganlar?

Bularni takrorlab boring:

— XIX asrning birinchi yarmida O'rta Osiyoda Angliya va Rossiya munosabatlari keskinlashgan;

— Bunga: ularning yangi-yangi mustamlakalarini bosib olishlari, bitmas-tuganmas xom ashyo manbalariga va o'z tovarlarini sotadigan bozorga ega bo'lish yo'lidagi intilishlari sabab bo'lgan;

— Angliya hukumati 1825 va 1832-yillarda O'rta Osiyoga ekspeditsiyalar yuborgan. Ular xonliklar to'g'risida juda muhim ma'lumotlar to'play olganlar;

— Rossiya xonliklar chegaralarida istehkomlar qurishni davom ettirgan;

— O'rta Osiyo xonliklari o'zaro nizolar tufayli hatto Rossiya bosqini arafasida ham ittifoqqa kela olmaganlar.

45—46-§§. JAHON VA O'RTA OSIYO (mustaqil ishlash darsi)

Darsliklar matnididan foydalangan holda quyidagi jadvallarni to'lg'azing:

1. XVI asrda Jahon va O'rta Osiyo
2. XVII asrda Jahon va O'rta Osiyo
3. XVIII asrda Jahon va O'rta Osiyo
4. XIX asr birinchi yarmida Jahon va O'rta Osiyo

I-jadval.

I. XVI asrda Jahon va O'rta Osiyo.

t/r	XVI asrda jahonning boshqa davlatlarida va ularning chet el davlatlari bilan munosabatlari da qanday yirik tarixiy voqealar ro'y berdi?	t/r	O'rta Osiyo davlatlarida-chi?

2. XVII asrda Jahon va O'rta Osiyo.

T/r	XVII asrda jahonning boshqa davlatlarida va ularning chet el davlatlar bilan munosabatlarida qanday yirik tarixiy voqealar ro'y berdi?	T/r	O'rta Osiyo davlatlarida-chi?

3. XVIII asrda Jahon va O'rta Osiyo.

T/r	XVIII asrda jahonning boshqa davlatlarida va ularning chet el davlatlar bilan munosabatlarida qanday yirik tarixiy voqealar ro'y berdi?	T/r	O'rta Osiyo davlatlarida-chi?

4. XIX asrning birinchi yarmida Jahon va O'rta Osiyo.

T/r	XIX asrning birinchi yarmida jahonning boshqa davlatlarida va ularning chet el davlatlar bilan munosabatlarida qanday yirik tarixiy voqealar ro'y berdi?	T/r	O'rta Osiyo davlatlarida-chi?

SAKKIZINCHI BOB YUZASIDAN TEST TOPSHIRIQLARI

1. Qanday omil Buxoro xonligining Hindiston bilan munosabatlarining faollashuviga xizmat qilgan?

- A. Markazlashgan davlat bunyod etilganligi
- B. Tashqi xavfga qarshi kurashda ittifoqchiga ega bo'lish zaruriyati
- D. Savdo-iqtisodiy aloqalardan manfaatdorlik
- E. Hindistonning Turkiyaga qarshi kurashida Buxoroga ittifoqchi bo'lishni taklif etganligi
- F. Hindiston hukmdorlarining ota yurti bilan yaxshi munosabatlarda bo'lish xohishi

2. O'rta Osiyoning tashqi savdoda tranzit vazifasini o'tay olmay qolishining sababi:

- A. «Buyuk Ipak yo'li»ning yopilganligi
- B. «Buyuk geografik kashfiyotlar» tufayli dengiz savdo yo'llarining ochilganligi
- D. O'rta Osiyo davlatlarining o'z qo'shinlari bilan munosabatlarining dushmanlikka aylanganligi
- E. O'rta Osiyo davlatlari o'rtasidagi to'xtovsiz o'zaro urushlar va doimiy ichki nizolar
- F. O'rta Osiyo davlatlarining savdo yo'llari xavfsizligini ta'minlay olmay qolganligi

3. XVIII asr oxiri va XIX asrning birinchi yarmida O'rta Osiyo xonliklari o'zlarining jahon bozoriga chiqish maqsadlarini ro'yobga chiqarishda nega Rossiyani tanlaganlar?

- A. Rossiya eng yaqin davlat bo'lganligi uchun
- B. Rossiyaga boradigan savdo yo'llari xavfsiz, qisqa va o'tish uchun qulay bo'lganligi uchun
- D. Rossiya hukumati xonliklar savdogarlariga alohida imtiyozlar joriy etganligi uchun
- E. Angliya xonliklarga an'anaviy savdo hamkorlari bilan savdo ishlarini yuritishni taqiqlab qo'yanligi uchun
- F. Javoblarning B va D bandlari to'g'ri

4. Qanday omil Angliyani Rossiyaga O'rta Osiyoda o'z mash'um niyatini amalga oshirishda yon berishga majbur etgan?

- A. Rossiyaning harbiy qudrati
- B. Rossiyaning Qora dengiz bo'g'ozlarini bosib olish xavfi

D. Angliyaning Afg'onistonga qarshi urushda mag'lubiyatga uchraganligi

E. Rossiyaning Hindistonga chiqish niyatidan voz kechganligi

F. Javoblarning D, E bandlari to'g'ri

5. Nega O'rta Osiyo xonliklari Rossiya bosqini xavfi arafasida ham birlasha olmaganlar?

A. Rossiyadan qo'rqqanlari uchun

B. Ular o'rtasidagi ziddiyat nihoyatda kuchli bo'lganligi uchun

D. Rossiya hujumi bo'lgan taqdirda Angliya yordamidan umidvor bo'lganliklari uchun

E. Rossiyaning hujum qilishiga ishonmaganliklari uchun

F. Rossiya hujumiga qarshi turish befoyda ekanligini anglab olganliklari uchun

6. Rossiya elchisi I.D.Xoxlov qachon, qaysi xonlikda bo'lgan?

A. 1620-yilda, Buxoro xonligida

B. 1558-yilda, Xiva xonligida

D. 1712-yilda, Qo'qon xonligida

E. 1619-yilda, Samarqand shahrida

F. To'g'ri javob yo'q

7. O'rta Osiyoga kelgan elchi Aleksandr Byornsn qaysi davlat yuborgan?

A. Angliya

B. Rossiya

D. Fransiya

E. Turkiya

F. Hindiston

8. Florio Benevini qaysi davlatning elchisi bo'lgan?

A. Rossiya

B. Angliya

D. Germaniya

E. Ukraina

F. To'g'ri javob yo'q.

X U L O S A L A R

XV asrda Dashti qipchoqda ko'chmanchi o'zbeklar davlati tashkil topdi. Bu davlatning asoschisi **Abulxayrxon** edi. Biroq, bu davlat atigi 40 yil yashadi. U 1468-yilda inqirozga yuz tutdi. Buning asosiy sababi — Dashti qipchoqni siyosiy jihatdan birlashtirishning mustahkam iqtisodiy asoslari ta'minlanmaganligi hamda qabila boshliqlarining mustaqillikka intilishlari oqibatida yuz bergan o'zaro ichki urushlarning avjiga chiqqanligi edi.

Dashti qipchoq qabilalarini birlashtirish va o'zbek davlatini qayta bunyod etish vazifasini **Shayboniyxon** amalga oshirdi.

Shayboniyxonning siyosat maydoniga chiqishi Temuriy saltanatining parokandalikka uchragan davriga to'g'ri keldi. Movarounnahrda tarixiy vaziyatni to'g'ri baholay olgan **Shayboniyxon** uning hududlarini ishg'ol etishga kirishdi. **Shayboniyxon** bilan keskin urush harakatlarini olib borgan temuriylar avlodi — o'z davri-ning yirik davlat arbobi **Bobur podshoh** edi.

Shayboniyxon g'alabasi bilan Temuriylar saltanatiga xotima berildi. Endi Movarounnahrda **Shayboniyxon** saltanati qaror topdi.

XVI asrdan boshlab Movarounnahrda yashovchi turkiy xalqlar o'zbeklar deb ataladigan bo'ldi. Biroq, bu — o'zbeklar xalq sifatida XVI asrga kelib shakllandi degani emas. Ko'chmanchi o'zbeklardan mahalliy aholiga **o'zbek** degan nom o'tdi.

Temuriy hukmdor **Mirzo Bobur** Movarounnahr taxti uchun kurashda mag'lub bo'lgach, Vatandan bosh olib ketishga majbur bo'ldi. U dastlab Afg'onistonda hukm-

ronligini o'rnatdi. 1526-yilda esa Hindistonda Boburiylar saltanatiga asos soldi.

Shayboniylar davlati **Abdullaxon II** davrida yirik markazlashgan davlatga aylandi. Biroq, bu davlat ham mustahkam emas edi. Chunki, bu davlat ham kuch bilan barpo etilgan edi. Mahalliy hukmdorlar markaziy hokimiyatga bo'ysunishni istamas edi.

Natijada, Shayboniylar hukmronligi bir asrdan so'ng barham topdi.

1601-yilda Buxoro xonligi taxtini **ashtarxoniylar sulolasi** vakili egalladi.

Ashtarxoniylar ham o'zaro ichki urushlarga barham bera olmadi.

Ashtarxoniylar davrida Buxoro va Xiva xonliklari o'rtasida ham o'zaro urushlar davom etdi. **Subhon-qulixon** davrida (1680—1702-yillar) hatto Xiva xonligi Buxoro xoni vassaliga aylandi.

Ubaydullaxon (1702—1711) siyosiy tarqoqlikka barham berish yo'lida qattiq kurash olib bordi. U hatto yirik mulkdorlarning davlat hayotidagi ta'sirini kamaytirishga urinib katta jasorat ko'rsatgan edi. Bu hol ularni Ubaydullaxonning eng xatarli dushmaniga aylantirib qo'ydi. Natijada, Ubaydullaxonning **markaziy hokimiyatni mustahkamlash yo'lidagi sa'y-harakatlari behuda ketdi.**

O'zaro ichki urushlarning mudhish oqibati Buxoro xonligining Eronga vassal davlatga aylanib qolishi bo'ldi (garchand bu vassallik ko'p davom etmagan bo'lsa-da).

Ashtarxoniylar 156 yil hukmronlik qildilar. Bu sulola hukmronligi davri siyosiy tarqoqlik va parokandalik avj olgan davr bo'ldi. Buning asosiy sabablari — xonlar, amirlar, sultonlar va boshqa hukmron tabaqa vakillari o'rtasida birlik va ahillikning yo'qligi, boylik talashib o'zaro olib borilgan **mantiqsiz urushlar** edi. Bu urushlar mamlakat aholisini xonavayron qildi. Oqibatda, O'rta Osiyo xalqlari jahon hamjamiyati rivojidan orqada qoldi.

Mamlakatda avj olgan siyosiy tarqoqlik va parokandalik davrida hokimiyat tepasiga rasman 1756-yilda **mang'itlar** keldi. Bu qabilaviy sulola hokimiyatni 192 yilgacha boshqardi.

Mang'itlar hukmronligi davrida ham Buxoro amirligi ijtimoiy-iqtisodiy, siyosiy va madaniy hayotida ijobiy tomonga **jiddiy o'zgarishlar ro'y bergani yo'q**.

Buxoro (Xiva va Qo'qon xonliklari ham) jahon bozoridan uzilib qolganligi uchun uning ichki bozori rivojlanmay qolgan.

Iste'mol ehtiyojlarining ishlab chiqarishdan ustun bo'lmaganligi yirik mashinalashgan ishlab chiqarishga ehtiyoj tug'dirmagan.

O'rta Osiyo davlatlari, jumladan, Buxoroning jahon bozoridan ajralib qolganligi uni qoloqlikka mahkum etgan.

Shunday bo'lsa-da, uning tashqi savdosi butunlay to'xtab qolgani yo'q.

XVII asr oxiri — XVIII asr boshlarida O'rta Osiyo davlatlari, xususan Buxoroning Sharq davlatlari bilan savdo aloqalari pasaygach, Rossiya bilan savdo aloqalarini yo'lga qo'ygan.

Xiva xonligi 1511-yilda tashkil topgan edi. Unga ham shayboniylar avlodlari asos solganlar.

XVI asrning 70-yillaridan boshlab xonlikning iqtisodi inqirozga uchradi. Buning asosiy sabablari — Amudaryo o'z yo'nalishini o'zgartirib, Kaspiy dengiziga oqmay qo'yganligi edi. Natijada, aholi ko'chishga majbur bo'lgan.

O'rta Osiyodagi ikki davlat — Buxoro va Xiva munosabati **yaxshi qo'shniçilikka asoslanmagan edi**. Xususan, XVI asrda Xiva xonligi ikki marta Buxoro xonligi tomonidan bosib olingan.

XVII asrda Xiva xonligining siyosiy hayotidagi eng xarakterli xususiyati — bu bir tomondan markaziy hukmron sulola ta'sirining pasayishi bo'lsa, ikkinchi tomondan esa qabila boshliqlari ta'sirining kuchayishi edi.

Endilikda qabila boshliqlari o'z bekliklarida to'la mustaqil bo'lib olganlar. Ularning qudrati shu darajaga yetgan ediki, ular endi oliy hukmdor — xonga o'z xohish-istaklarini o'tkaza olganlar. Xon davlat hayotiga tegishli biror-bir masalani ularsiz hal eta olmas edi. Ular xon saylovi taqdirini ham hal etishdek qudratga ega bo'lib qolganlar. Bunday ahvol pirovardida xonlikda davlat parokandaligi yuz berishiga olib kelgan.

1740-yilda Xiva xonligi Eronga tobe bo'lib qoldi. Shundan so'ng Xivada amalda markaziy hokimiyat barham topdi. Bu ahvol qo'ng'irotlar sulolasi hokimiyat tepasiga kelguniga qadar (1770-yil) davom etdi.

Tarix sahnasiga shunday bir kuch chiqishi kerak ediki, bu kuch markaziy hokimiyatni mustahkamlashi kerak edi. Ana shunday kuch bo'lib tarix sahnasiga o'zbeklarning **qo'ng'irotlar qabilasi** chiqdi.

Qabila yo'lboshchisi inoq Muhammad Amin 1770-yilda turkmanlarning qarshiligini sindirib, xonlikda tinchlik va osoyishtalik o'rnatdi. 1782-yilda Buxoro hujumi daf etildi. Endilikda Xiva xonligida iqtisodiy hayot jonlana boshladi.

Biroq, baribir ham xonlik ijtimoiy hayotda, Buxoro davlatida bo'lganidek, sokinlik hukm surgan. Bu sokinlikning sababi — xonlikning jahon taraqqiyotidan deyarli uzilib qolganligida edi. Bunga esa xonlik hayotida hamon qoloq xo'jalik tartibi hukm surayotganligi sabab edi. Mamlakatda siyosiy tarqoqlik hukm surayotgan, natural xo'jalik ustun bo'lgan, o'zaro urushlar oqibatida mamlakat iqtisodi izdan chiqqan bir sharoitda bu tabiiy bir hol edi. Bundan boshqacha bo'lishi mumkin ham emas edi.

Hatto, XIX asrning birinchi yarmida ham ijtimoiy hayotda o'rta asr munosabatlari hukm surmoqda edi.

Qoraqalpoq xalqi uzoq shakllanish jarayonini boshdan kechirgan. Bu xalq haqidagi dastlabki ma'lumotlar miloddan avvalgi VI—V asrlarda bitilgan **Behustun yozuvlarida** uchraydi.

Milodiy XII asrdagi rus yilnomalarida, sharq manbalarida ham bu xalq haqida ma'lumotlar uchraydi. Qoraqalpoqlarning **xalq sifatida shakllanishi XVI asrda nihoyasiga yetdi**. XIX asr boshlarida qoraqalpoqlar Xiva xonligiga bo'ysundiriladi. Qoraqalpoqlar og'ir soliqlar to'lashga hamda majburiyatlar o'tashga majbur etildi.

Qoraqalpoq xalqi bu jabr-zulmga qarshi kurashganlar. Xususan, 1811-yilda Oydo'stbiy boshchiligida ozodlik qo'zg'oloni ko'tarilgan. Biroq, qo'zg'olon rahmsizlarcha bostirilgan.

Qoraqalpoq xalqi o'ziga xos madaniyatga ega xalqdir. Chunonchi, ular o'ziga xos hunarmandchilik va xalq amaliy san'ati bilan ajralib turadilar.

Qoraqalpoq xalqida xalq og'zaki ijodi kuchli taraqqiy etgan. Ayni paytda yozma adabiyot ham rivojlana borgan.

1710-yilda O'rta Osiyoda uchinchi davlat — Qo'qon xonligi tashkil topdi. Bu xonlikning tashkil topishi Buxoro xonligidagi siyosiy parokandalikning natijasi edi. Xonlikda o'zbeklarning ming qabilasi vakillari hukmronlik qila boshladi. Xonlik tez orada yirik davlatga aylandi.

Boshqa xonliklarda bo'lganidek, Qo'qon xonligi siyosiy hayoti ham o'zaro ichki urushlarga, taxt vorislarining o'zaro kurashlariga, fitnalarga to'la bo'ldi.

Buxoro va Qo'qon xonliklari o'rtasidagi munosabat dushmanlik ruhida kechdi. Bu ikki davlat o'rtasida qirg'inbarot urushlar bo'lib turdi.

Biroq, Qo'qon aholisi Buxoro amiri hukmronligi oldida bo'yin egmagan. Uning bosqinchiligiga qarshi kurashganlar. Bu kurashda hukmron minglar qabilasi yo'l boshchilari qipchoqlar madadiga tayangan. Bu hol qipchoqlarning xonlik siyosiy hayotini belgilovchi kuchga aylanishiga imkon yaratgan. To'g'ri, Xudoyorxon bu holatga qipchoqlar qirg'inini uyushtirish orqali chek qo'ygan. Xonlikdagi o'zaro ichki urushlar va nizolar shunday shitob bilan davom etgankim, bu omil markaziy hokimiyatni zaiflashtirgan.

Shunday bo'lsa-da, xonlikda ijtimoiy, iqtisodiy va madaniy hayot to'xtab qolmagan. Hukmdorlar orasida madaniyat rivojiga e'tibor berganlari ham yo'q emas edi, albatta. Madaniy hayot ayniqsa Umarxon va Nodirabegim davrida rivojlandi.

XVI asrdan boshlab O'rta Osiyo xalqlari madaniy hayotda XIV—XV asrlardagi mavqeini saqlab qola olmagan. Aksincha, shu davrdan boshlab madaniy hayotning orqaga ketishi ro'y berdi va unda uzoq turg'unlik davri boshlandi. Buning birinchi sababi — markazlashgan davlatning parchalanganligi, xonliklar o'rtasida muttasil davom etgan urushlar va o'zaro ichki nizolar edi.

Ikkinchi sabab esa — madaniy hayotda diniy mutaassiblikning, johillikning hukmron mavqega erishganligi edi. Diniy mutaassiblik, xurofot va jaholat xalqlar hayotidan aniq va tabiiy fanlarni deyarli butunlay siqib chiqargan edi.

Shunga qaramay, O'rta Osiyo xonliklari tarixi XVI—XIX asr birinchi yarmida faqatgina o'zaro urushlar, ichki nizolar, toju taxt talashuvlari tarixidagina iborat bo'lib qolmagan, albatta.

Hatto toju taxt uchun, markaziy hokimiyatni kuchaytirish uchun qo'shnilarning hududlarini bosib olish uchun ayovsiz kurashgan hukmdorlar orasida ijod bilan shug'ullangan, ilm-fan va adabiyot ahliga homiylik qilganlari ham bo'lgan. Masalan, Buxoro hukmdorlari Shayboniyxon, Ubaydullaxon, Abdullaxon va Subhonqulixon, Xiva xoni Abulg'ozixon, Qo'qon xoni Umarxon va boshqalar shular jumlasidandir.

Xiva xoni Abulg'ozixon o'zining mashhur «Shajarai turk» asari bilan Xorazm tarixchilik maktabiga asos solgan bo'lsa, Qo'qon xoni Umarxon hukmronligi yillarida **Qo'qon adabiy muhiti** vujudga keldi.

O'rta Osiyo xonliklari xalqaro munosabatlarning faol ishtirokchilari bo'lishga uringanlar, Afg'oniston, Eron, Koshg'ar, Xitoy va Rossiya bilan diplomatik, savdo-iqtisodiy aloqalar o'rnatishga intilganlar.

Shu maqsadda qator elchilik missiyalari yuborilgan va bu davlatlarning elchilari ham qabul qilingan.

To'g'ri, xonliklarning munosabati bu davlatlarning hammasi bilan ham do'stona bo'lmagan. Afg'oniston bilan olib borilgan urushlar, Eron qo'shinining Buxoro va Xivani ishg'ol etishi, Qo'qon xonligi qo'shinlarining Koshg'arga yuborilishi bu fikrning dalilidir.

Hindistonga olib boriladigan savdo yo'llari o'tadigan davlatlar bilan dushmanlik munosabati, Buyuk Ipak yo'lining bekilishi O'rta Osiyo xonliklarini Rossiya bilan savdo-iqtisodiy aloqalarni kengaytirishga olib kelgan. Ayni paytda Rossiya ham bu davlatlar bilan savdo-iqtisodiy aloqalarning o'rnatilishidan manfaatdor edi.

Chunki, XVII asr mobaynida markazlashgan Rossiya davlati qaror topib bordi. Asr oxiriga kelib u Yevropaning qudratli davlatlaridan biriga aylandi. Butun-rossiya bozori shakllandi.

To'g'ri, Rossiya faqat savdo aloqalarini rivojlantirish bilan cheklanib qolmagan. Endilikda, Rossiya O'rta Osiyoning tabiiy boyliklariga, bitmas-tuganmas xom ashyolariga ko'z olaytira boshlagan. Rossiyaning xonliklarga yuborgan elchilari ayni paytda josuslik bilan ham shug'ullanib, josuslik ma'lumotlari to'plaganlar.

Pyotr I turli ob'ektiv sabablarga ko'ra O'rta Osiyo ko'zlagan maqsadlariga erisha olmagan bo'lsa-da, uning niyatlarini vorislari ro'yobga chiqarishga kirishgan. Bu hol **O'rta Osiyoda Rossiya—Angliya manfaatlari to'qnashuviga olib kelgan.**

O'rta Osiyo davlatlari xonlari o'zlarining kaltabinliklari, o'z shaxsiy manfaatlaridan boshqa narsani ko'ra olmasliklari oqibatida bu ikki davlat o'rtasidagi ziddiyatlardan ustomonlik bilan foydalana olmaganlar. Oxir-oqibatda, ikki yirik mustamlakachi davlatlar — Rossiya va Angliya munosabatlarida o'zgarish yuz berdikim, bu o'zgarish manfaatlar mushtarakligiga olib kelgan. Bunga Angliyaning Afg'onistonga qarshi urushda mag'lubiyatga

uchraganligi sabab bo'ldi. Endi Angliya Rossiya bilan kelishishga majbur bo'ldi. Kelishuvga ko'ra Rossiya O'rta Osiyo bilan cheklanar, Hindistonga chiqish niyatidan voz kechar, Afg'oniston esa bu ikki mustamlakachi davlatlarning Osiyodagi mustamlakalari o'rtasida ularni ajratib turuvchi hudud vazifasini o'tar edi.

Shunday qilib, O'rta Osiyo xonliklari yakkalanib qoldilar. Ularni faqat o'zaro ittifoqlikkina saqlab qolishi mumkin edi. Afsuski, ular o'rtasidagi o'zaro ziddiyatlar shu darajada kuchli ediki, hatto Rossiya bosqini xavfi ham ularni yarashtira olmadi. Oqibatda, «Bo'linganni bo'ri yer» deganlaridek, bu xonliklarning Rossiya istilosi qurboni bo'lishlariga yo'l ochildi.

MUHIM TARIXIY SANALAR

1428—1468 — Dashti qipchoqda Abulxayrxon davlati.

1480 — Dashti qipchoqda Shayboniyxon hokimiyat tepasiga keldi.

1494-yil, 10-iyun — Farg'onada Bobur mirzo hokimiyat tepasiga keldi.

1497 — Bobur mirzoning Samarqand taxtini egallashi.

1500 — Shayboniyxon Samarqandni egalladi.

1501 — Shayboniyxon Samarqandni yana egalladi.

1505 — Shayboniyxon Xorazmni zabt etdi.

1507 — Shayboniyxon Xurosonni egalladi.

1510 — Shayboniyxonning Eron shohi Ismoil bilan to'qnashuvi va halok bo'lishi.

1511 — Shoh Ismoilning Movarounnahrda hujumi.

1511 — Xorazm xonligining tashkil topishi.

1526—1858 — Hindistonda Boburiylar saltanati.

1538 — Ubaydullaxonning Xorazmni egallashi.

1540 — Baroqxonning Buxoroni egallashi.

1557—1598 — Abdullaxon II hukmronligi. Uning Balxni (1573), Shahrisabz, Qarshi, Hisorni (1574), Urganchni (1575), Samarqand va Toshkentni (1576), Farg'onani (1577) zabt etishi.

1544 — Abdullaxon madrasasi xonaqohi qurildi.

1548—1549 — Abdulazizxon xonaqohi, Mag'oki Attor masjidi qurildi.

1554—1580 — Karmanada hazrati Qosimshayx xonaqohi, Buxoroda Toqi Zargaron, Toqi Sarrofon va Kitobfurushon qurildi.

1558—1559 — Antoniy Jenkinsonning Buxoroda bo'lishi.

1577—1578 — Abdullaxon madrasasi (yuz hujrali), Timi, chorsusi qurildi.

1577—1578 — Mirdo'stim madrasasi qurildi. Boniysi (quruvchisi) Abdullaxonning kuyovi Muhammad Aminbiy ibn Muhammad Nafas.

1580 — Govkushon madrasasi (31 hujrali) qurildi. Quruvchisi Nosiriddin Xoja Abubakr, Sa'd Xojayi Kalon.

1581 — Modari xon madrasasi (62 hujrali), Oyposhsha oyim madrasasi (hovuzini Abdullaxonning onasi qurdirgan) qurildi. Quruvchisi Abdullaxon II.

- 1582** — Uch darvozali Timi Kalon qurildi. Boniysi Abdullaxon II.
- 1584** — Xoja Zayniddin masjidi qurildi. Boniysi Do'stum chuhra oqasi.
- 1585** — Do'stum madrasasi, Fayzobod xonaqohi qurildi.
- 1586** — Fathulla qo'shbegi madrasasi (45 hujrali) qurildi.
- 1587** — Shoir Mushfiqiyning vafoti.
- 1588** — Toshkentda Abdullaxon II ga qarshi qo'zg'olon.
- 1602—1603** — Qalmoqlarning Xorazmga hujumi.
- 1612—1613** — Toshkentda Imomqulixonga qarshi qo'zg'olon.
- 1616** — Arab Muhammadxon madrasasi qurildi.
- 1619—1622** — Elchi Ivan Xoxlovning Xiva xonligida bo'lishi.
- 1619** — Sherdor madrasasining qurilishi.
- 1637—1700** — Shoir Sayido Nasafiy hayoti va faoliyati yillari.
- 1657—1662** — Buxoroda Abdulazizxon madrasasi qurildi.
- 1669—1671** — Elchi aka-uka Pazuxinlarning Buxoro xonligida bo'lishi.
- 1681** — Qoraqalpoqlarning Subhonqulixonga qarshi qo'zg'oloni.
- 1645—1724** — Shoir So'fi Ollohyor hayoti va faoliyati.
- 1685** — Xiva xonining Samarqandni egallashi.
- 1688** — Xiva xonligining Buxoro xonligiga bo'ysundirilishi.
- 1688** — Xivada Xo'jamberdibiy madrasasi qurildi.
- 1700** — Shohniyoz jo'natgan elchining Rossiya borishi.
- 1708** — Buxoro xonining pul islohoti o'tkazishi.
- 1709** — Qo'qon xonligi tashkil topishi.
- 1714—1717** — Knyaz Bekovich-Cherkasskiyning Xiva xonligiga qarshi yurishi.
- 1716** — Xonquli to'pchiboshi boshchiligida Buxoro xoni elchilarining Rossiya borishi.
- 1718—1724** — Florio Benevini elchiligi.
- 1719—1720** — Xivada Sherg'oz madrasasining qurilishi.
- 1722** — Qoraqalpoq xoni Eshmuhammadning Rossiya bilan muzokaralari.
- 1722—1723** — Jung'orlarning O'rta Osiyoga hujumi.
- 1736—1737** — Eron shohining Balx viloyatini egallashi.
- 1740** — Nodirshohning O'rta Osiyoga yurishi.
- 1741** — Xivaliklarning eronliklarga qarshi ozodlik kurashi.
- 1742** — Qoraqalpoq zodagonlarining Rossiya tabaaligiga o'tishi.

1745 — Ibodulla xitoy boshchiligida xonga qarshi xalq qo'zg'oloni.

1765 — Xivada Muhammad Amin inoq madrasasi qurildi.

1774—1782 — Rus zobiti Filipp Yefremovning O'rta Osiyoda bo'lishi.

1774—1776 — Ernazar Mas'ud o'g'li boshchiligida Buxoro amiri elchilarining Rossiyada bo'lishi.

1779—1780 — Ernazar Mas'ud o'g'li elchiligining ikkinchi bor Rossiyada bo'lishi.

1779 — Polvonquli qo'rchi boshchiligidagi Buxoro elchilarining Rossiyada bo'lishi.

1795 — Ernazar elchi madrasasi qurildi.

1795 — Eshmuhammad Boykish o'g'li boshchiligidagi Buxoro elchilarining Rossiyada bo'lishi.

1796—1797 — Buxoroda Tursunjon madrasasi qurildi.

1800 — Burnashev va Pospelovning Toshkentda bo'lishi.

1803 — Qo'qon xonligida Xon, Zarbek kanallari qazildi.

1804 — Marvda xalq qo'zg'oloni, marvliklarning Zarafshon vodiysiga ko'chirilishi.

1807 — Xalifa Niyozqul madrasasi qurildi.

1809 — Xivada Qutlimurod inoq madrasasi qurildi.

1815 — Buxoro savdogarlarining 5838 tuyalik 12 karvoni Orenburgga keldi.

1816 — Buxoro savdogarlarining 17488 tuyalik 32 karvoni Orenburgga keldi.

1816 — Qo'qon xonligida Yangiariq kanali qurildi.

1820 — Buxoro savdogarlarining 2121 tuyalik 3 karvoni Rossiyaga keldi.

1820 — Negri boshchiligida elchilarning O'rta Osiyoga kelishi.

1827 — Qobilbek biy qirq boshchiligidagi Buxoro amiri elchiligi Eronga kelgan.

1827 — Boltaqulbek chig'atoybegi boshliq Buxoro amiri elchiligi Turkiyaga kelgan.

1827—1828 — Qoraqalpqlarning Oydo'stbiy boshchiligidagi qo'zg'oloni.

1829 — Qo'qon xoni qo'shinlarining Koshg'arga yurishi.

1831—1833 — Ost-Indiya kompaniyasi leytenant Aleksandr Byornsning O'rta Osiyoda bo'lishi.

1832 — Xitoy—Qo'qon shartnomasi imzolangan

1832—1835 — Xivada Ollohqulixon madrasasi qurildi.

1837—1847 — Kenisari Qosim o'g'li boshchiligidagi qo'zg'olon.

1839 — General Perovskiy boshchiligidagi rus qo'shinlarining Xivaga yurishi.

1841 — Kapitan Nikiforovning Xivaga kelishi.

1841—1842 — Butenov, Xanikov va Lemannlarning Buxoroga kelishi.

1842 — Podpolkovnik Danilevskiyning Xivaga kelishi.

1842 — Amir Nasrulloning Qo'qon xonligini bosib olishi.

1842 — Ingliz josuslari Stoddart va Konollining Buxoroga kelishi.

TUSHUNILISHI QIYIN SO'ZLARGA IZOHLAR

Alg'ut — bir yo'la to'lanadigan soliq.

Amlok — davlat yerlari.

Amirulumaro — lashkarboshi, sarkarda.

Amiri shikor — xonlarning ovini tashkil etuvchi amaldor.

Biy, bek — qabila, viloyat boshlig'i.

Vaqf — davlat va amaldorlari tomonidan diniy muassasalar, masjid, madrasa va mozorlarga ajratilgan mol-mulk.

Valiahd — taxt vorisi.

Dasturxonchi — xonning huzurida uyushtiriladigan ziyofatlar uchun mas'ul amaldor.

Devorzan — paxsakash g'ishtdan devor uruvchi.

Degrez — cho'yandan qozon quyuvchi.

Devon — davlat boshqaruvi idorasi.

Dehqon — yer egasi.

Devonbegi — davlatning moliya-xazina ishlarini boshqaruvchi amaldor.

Dinor — 4,235 g. vazndagi oltin tanga.

Diniy mutaassiblik — dinga ko'r-ko'rona amal qilish.

Dishon (tish — tashqari) — tashqi qal'a, shahriston.

Dodxoh — fuqarolarning arz va shikoyatlarini tinglovchi hamda hal qiluvchi amaldor.

Dorug'a — shahar va tuman hokimi, mudofaa mutasaddisi.

Jirov — o'lan, doston aytuvchi, baxshi.

Jizya — g'ayridinlardan olinadigan soliq.

Juftigov — qo'sh ho'kiz yordamida bir kunda haydaladigan yer (8—9 gektarga yaqin).

Inoqlar — qabila boshliqlaridan iborat xonning maslahatchilari hamda xonning farmonlarini o'z tobelariga yetkazuvchilar.

Islohot — biror sohani tubdan qayta tashkil etish, o'zgartirish.

Ichkilar — xonlarning maxsus ishonchli xizmatchilari.

Ka'ba — musulmonlarning Makka shahridagi muqaddas ibodatxonasi.

Kuren — lager, qo'sh.

Ko'kaldosh — xonning e'ng ishonchli kishisi; maslahatgo'yi.

Miroxo'r — xon otxonasining boshlig'i.

Mirshab — tungi qorovul boshlig'i.

Moli omon (omon puli) — o'rta asrlarda mag'lub shahar talon-toroj qilingan yoki aholidan uning evaziga moli omon (tovon) olingan.

Mushrif — xon in'om etgan buyumlarni, harbiy anjomlarni ro'yxatga oluvchi, soliq tizimlarini qayd etuvchi amaldor.

Muftiy — diniy-huquqiy masalalarda fatvo (qaror) chiqaruvchi mansabdor. Hozirgi kunda diniy idora boshlig'i.

Muhtasib — aholi tomonidan shariat qoida, tartiblarining bajarilishini nazorat qiluvchi.

Mingbashi — Qo'qon xonligida bosh vazir va qo'shinlar qo'mondoni.

Mustabidlik — mutlaq hokimiyatga asoslangan siyosiy tuzum.

Otaliq — shahzodalarga murabbiy etib tayinlanganlar.

Oshlig' solig'i — urush paytida yig'iladigan soliq.

Parvonachi — biror lavozimga tayinlangan kishiga uning shu lavozimga tayinlanganini yetkazuvchi amaldor.

Rojalar — Hindistonda kichik-kichik davlatchalar boshliqlari.

Sadr — in'om etilgan vaqf mulklarini boshqaruvchi.

Salg'ut solig'i — yer solig'ining bir turi.

Sinjob — silovsin, mo'yi o'siq qizil olmaxon terisidan bo'lgan po'stin.

So'g'ush solig'i — har bir ko'chmanchining o'z xo'jayiniga so'yib berishi kerak bo'lgan soliq.

Tasavvuf — so'fiylik tariqatlari va ular ta'limoti.

Tariqat — komil inson darajasiga erishishni ko'rsatuvchi to'g'ri yo'l.

Tanob — tomonlari 60 gazdan iborat yer maydoni (bu miqdor 900 kv. m.ga teng. Gaz — 71 sm.).

Tarxonlik yeri — har qanday soliqdan va jarimadan ozod etilgan yerlar.

Tanho — katta xizmatlar evaziga beriladigan mulk, pul.

Tavochi — mamlakat miqyosida qo'shin to'plovchi maxsus amaldor.

Tog'or solig'i — qo'shinning ta'minoti uchun to'planadigan oziq-ovqat solig'i.

To'brez — to'p quyuvchi.

To'qsoba — xon tug'i sohibi, keyinchalik harbiy amaldor bo'lgan.

Shayxulislom — qozilik ishlari boshqaruvchisi, kundalik hayotda shariat qoidalariga rioya etilishini ta'minlovchi amaldor.

Chorsu (chorsiq) (so'g'dcha «su», «suq» — bozor) — bozor joyi.

Etnogenez — biror-bir xalqning tarkib topish jarayoni; kelib chiqish ildizi.

Uruj — yuksalish, yuqori ko'tarilish, ko'kka ko'tarilish.

Qo'sh — harbiy yurishlar paytidagi hukmdor qarorgohi, o'rdu, lager.

Yasovul — xon amir va farmonlarini ijrochilarga yetkazuvchi.

Qoraqozoqlar — oddiy ko'chmanchi xalq.

Qozikalon — davlatning sud ishlarini bajaruvchi amaldor.

Qo'shbegi — bosh vazir.

G'oz — din uchun kurashuvchi, uni himoya etuvchi.

Hasham — hukmdorga yaqin kishilar.

ADABIYOTLAR

- Abdullayev V.A.* O'zbek adabiyoti tarixi (XVII—XIX asrlar). T., 1964.
- Abduraimov M.A.* Buxoro xonligida agrar munosabatlar tarixidan lavhalar. T., «Fan», I va II jildlar, 1966, 1970, (rus tilida).
- Abdurahmon To'le'*. Abulfayzxon tarixi. O'R FA ShI qo'lyozmasi. Inv II.
- Abdulazim Somiy.* Tarixi salotini mang'itiya. «Sharq yulduzi», 1993, 3—4—sonlar.
- Abulg'azi.* Shajarai turk. T., «Cho'lpon», 1992.
- Abu Tohirxoja.* Samariya. T., «Kamalak», 1991.
- Azamat Ziy.* O'zbekiston davlatchiligi tarixi. T., «Sharq», 1999.
- Ahmedov Bo'riboy.* O'zbekiston tarixi manbalari. T., «O'qituvchi», 1991.
- Ahmedov Bo'riboy.* O'zbek ulusi. T., «Meros», 1992.
- Ahmedov Bo'riboy.* Tarixdan saboqlar. T., «O'qituvchi», 1994.
- Ahmedov Bo'riboy.* Vatan tarixidan hikoyalar (5-sinf darsligi). T., «O'qituvchi», 1999, 2000.
- Bayoniy.* Shajarai Xorazmshohiy. T., «Kamalak», 1991.
- Binoiy.* Shayboniynoma. O'R FA ShI qo'lyozmasi, 344-son, 1632, 5385.
- Bobur, Zahiriddin Muhammad.* Boburnoma, T., «Fan», 1960, 1982.
- Vosifiy, Zayniddin Mahmud.* Badoe' ul-vaqoe'. T., 1979.
- Jalilov Omon.* Ofoqxoja. «Muloqot», 1993, 5—6-son.
- Ibrat.* Farg'ona tarixi. T., 1991.
- Ibrohim Mo'minov.* Mirzo Bedil. T., «O'zbekiston», 1974.
- Ilhom Sultonov.* Pyotr I va Movarounnahr oltini. «O'g'izxon-dan qolgan mulk» to'plami. T., 1995.
- Yo'ldoshev M.Y.* Xiva xonligida yer egaligi va davlat tuzilishi. T., 1959.
- Yo'ldoshev M.Y.* XVII—XVIII asrlarda Buxoro—Rossiya elchilik munosabatlari. T., 1957.
- Kattayev Komiljon.* Maxdumi A'zam va Dahbed. S., 1994.
- Mirzayev A.* Binoiy. D., 1957.
- Mirzo Olim Mushrif.* Qo'qon xonligi tarixi. T., 1995.
- Muhammad Aziz Marg'iloniy.* Tarixi Aziziy. T., 1999.
- Mirmuhammad Amin Buxoriy.* Ubaydullanoma. T., 1957 (rus tilida).

- Mirza Muhammad Haydar*. Tarixi Rashidiy. T., «Fan», 1996 (rus tilida).
- Mirza Bade' devon*. Majma' ul-arqom. M., 1981 (rus tilida).
- Muhammad Solih*. Shayboniynoma. T., 1989.
- Muhammad Yusuf munshi*. Muqimxon tarixi. T., 1956 (rus tilida).
- Mulla Olim Maxdum hoji*. Tarixi Turkiston. Qarshi, 1992.
- Muhammadjonov A.R.* va Ne'matov T. Buxoro va Xivaning Rossiya bilan munosabatlari tarixiga doir ba'zi manbalar. T., 1957.
- Mukminova R.G.* va b. O'zbekiston tarixi. (XVI asr — XIX asrning birinchi yarmi). T., 1994.
- Nabiyev R.N.* 1847-yil Toshkent qo'zg'olonlari va uning ijtimoiy-iqtisodiy shart-sharoitlari. T., 1966.
- Nabiyev R.N.* Qo'qon xonligi tarixidan. T., «Fan», 1973 (rus tilida).
- Nizomiddinov Ilyos*. O'rta Osiyoning chet el sharqi bilan munosabatlari. T., 1961.
- Niyozmuhammad Ho'qandiy*. Tarixi Shohruxiy. Almati, 1987.
- Ogahiy*. Tanlangan asarlar. V—VI jildlar. T., 1974, 1976.
- Tavorixi guzidayi nusratnoma. Ilmiy tadqiqot, tanqidiy matn A.M.Akromovniki. T., «Fan», 1967.
- Fazlulloh ibn Ro'zbehon Isfahoniy*. Mehmonnomayi Buxoro. M., 1976 (rus tilida).
- Xoja Samandar Termiziy*. Dastur ul-muluk. Fors tilidan Jabbor Esonov tarjimasini. T., 1997.
- Sharafiddin Roqimiy*. Tarixi tomm. T., 1998.
- Hasanxoja Nisoriy*. Muzakkiri ahhob. T., 1993.
- Hofiz Tanish Buxoriy*. Abdullanoma. T., «Sharq», 1-kitob, 1999, 2-kitob, 2000.
- Qoraqalpog'iston tarixi*. Nokus, 1999.
- Qul Ubaydiy*. Vafo qilsang. T., 1994.
- XIX asr Xiva davlat hujjatlari. I—II jildlar. T., 1960.
- O'rta va Markaziy Osiyo tarixiga doir materiallar. X—XIX asrlar. T., «Fan», 1988. Mas'ul muharrir B.A. Ahmedov.
- O'zbekistonning yangi tarixi. 1-kitob. Turkiston chor Rossiyasi mustamlakachiligi davrida. T., «Sharq», 2000.
- Qayumov A.P.* Qo'qon adabiy muhiti. T., 1961.

MUNDARIJA

Soʻz boshi	3
------------------	---

Birinchi bob

Shayboniylar hukmronligi davrida Movarounnahr

1-§. Temuriylar davlatining inqirozi	5
2-§. Dashti qipchoqda Abulxayrxon davlati	9
3—4-§§. Boburning hokimiyat tepasiga kelishi	14
5-§. Zahiriddin Muhammad Bobur	21
6-§. Shayboniylar — Movarounnahr hukmdori	29
7-§. Shayboniylar davlati	34
8—9-§§. Ijtimoiy-iqtisodiy hayot	40
10-§. XVI asrda madaniy hayot	48
11-§. Movarounnahr aholisining etnik tarkibi	54

Ikkinchi bob

Ashtarxoniylar hukmronligi davrida Buxoro xonligi

12-§. Ashtarxoniylar hokimiyat tepasida	62
13-§. Ijtimoiy-iqtisodiy va madaniy hayot	70
14-§. XVIII asrning birinchi yarmida Buxoro xonligida ijtimoiy-siyosiy hayot	75

Uchinchi bob

Buxoro amirligi

15-§. Mangʻitlar sulolasining tarix sahnasiga chiqishi	84
16-§. Amirlik davlat tuzumi va maʼmuriy boshqariluvlari	90
17-§. Amirlik xoʻjaligi	94
18—19-§§. Ichki va tashqi savdo. Shahar hayoti	101
20-§. XIX asrning birinchi yarmida Buxoro amirligi	111

Toʻrtinchi bob

XVI—XIX asrning birinchi yarmida Xiva xonligi

21-§. Xonlikning tashkil topishi	120
22—23-§§. XVII—XVIII asr birinchi yarmida xonlikda siyosiy ahvol	124
24—25-§§. XVIII asr oxiri — XIX asrning birinchi yarmida Xiva xonligi	134

Beshinchi bob

XVI—XIX asrning birinchi yarmida qoraqalpoqlar

26—27-§§. Qoraqalpoqlarning ijtimoiy-iqtisodiy va siyosiy ahvoli	148
28-§. Qoraqalpoq xalqi madaniyati	158

Oltinchi bob

XVIII—XIX asrning birinchi yarmida Qo'qon xonligi

29—30-§§. Xonlikda siyosiy ahvol	164
31—32-§§. Qo'qon xonligida ijtimoiy ahvol. Shaharlar	175
33-§. Toshkent bекligi	185
34—35-§§. O'rta Osiyo davlatlari (mustaqil ishlash darsi)	191

Yettinchi bob

O'rta Osiyo davlatlarida madaniy hayot

36—37-§§. Buxoro va Xiva madaniyati	198
38—39-§§. Qo'qon xonligi madaniyati	212
40-§. XVI—XIX asrlarda ma'naviyat	220
41-§. O'rta Osiyo davlatlarida madaniy hayot (mustaqil ishlash darsi)	226

Sakkizinchi bob

O'rta Osiyo davlatlarining xalqaro munosabatlari

42-§. XVI—XIX asrning birinchi yarmida xalqaro munosabatlar	230
43-§. O'rta Osiyo va Rossiya	239
44-§. Mintaqada Angliya-Rossiya raqobatichilgi	245
45—46-§§. Jahon va O'rta Osiyo (mustaqil ishlash darsi).	250
<i>Xulosalar</i>	254
<i>Muhim tarixiy sanalar</i>	261
<i>Tushunilishi qiyin so'zlarga izohlar</i>	265
<i>Adabiyotlar</i>	268

Naim Norqulov, Usmon Jo'rayev

O'ZBEKISTON TARIXI
(XVI—XIX asrning birinchi yarmi)

Umumiy o'rta ta'lim maktablarining
8-sinfi uchun darslik

Toshkent
«Sharq» nashriyot-matbaa
aksiyadorlik kompaniyasi
Bosh tahririyati
2004

Muharrir *Barnobek Eshpo'latov*
Musavvir *Xurshid Ziyoxanov*
Badiiy muharrir *Mixail Samoylov*
Texnik muharrir *Diana Gabdraxmanova*
Sahifalovchi *Tatyana Ogay*
Musahhihlar *Yulduz Bizaatova, Sharofat Hurramova*

Bosishga ruxsat etildi 5.02.2004. Bichimi 84x108 ¹/₃₂. Ofset bosma.
«Times», «Pragmatika» garnituralari. Kegli 10,8 shponsiz. Shartli bosma
tabog'i 14,28. Nashriyot-hisob tabog'i 12,2. Buyurtma № 117. Adadi
30.000 nusxa. Bahosi 1166 so'm.

«Sharq» nashriyot-matbaa
aksiyadorlik kompaniyasi bosmaxonasi,
700083, Toshkent shahri, Buyuk Turon ko'chasi, 41.

Bahosi 1166 so'm.

